

U.TO'LAKOV, O.MAHMUDOV

# **SOLIQQA TORTISH ASOSLARI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

U. TO'LAKOV, O. MAHMUDOV

SOLIQQA TORTISH ASOSLARI

*Oliy ta'larning noiqtisodiy bakalavriat yo'nalishi talabalari  
va kasb-hunar kollejlarining o'quvchilari uchun  
o'quv qo'llanma*

*Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri*



*Termiz - 2014*

Ushbu o‘quv qo‘llanma keyingi yillarda respublikamiz barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlash maqsadida soliq qonunchiliklariga kiritilgan o‘zgarishlar asosida bayon etilgan.

**Soliqqa tortish asoslari:** Oliy ta’limning noiqtisodiy bakalavriat yo‘nalishi talabalari va kasb-hunar kollejlarining o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. / U. To‘lakov, O. Mahmudov

Mazkur qo‘llanma Termiz davlat universiteti Ilmiy Kengashining 2011-yil 24-fevraldagi yig‘ilishida tasdiqlangan va 6-sonli bayonnomma bilan nashrga tavsiya etilgan.

**Taqrizchilar:**

Isanqulov I.T. - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.  
Zoirov B. N. - Termiz shahar davlat soliq inspeksiyasi «Soliq va majburiy to‘lovlarni hisobga olish» bo‘limi boshlig‘i.

## KIRISH

Ma'lumki soliqlar budgetning daromad qismiga tushadigan tushumlarning asosiy qismini ta'minlaydi. Respublikamizda olib borilayotgan soliq siyosati xo'jalik yurituvchi sub'yektlar zimmasidagi soliq yukini yanada kamaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashni rag'batlantirish, fuqarolarning daromadlarini oshirish, soliq ma'muriyatichiligini soddalashtirish va takomillashtirishga qaratilmoqda. Yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirdorlikka yaratilayotgan keng imkoniyatlar tufayli ularning faoliyat turi va ko'lami tobora ortib, aholi bandligini ta'minlovchi muhim sohaga aylanmoqda.

2013-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar yuqori darajada saqlanib qoldi va umumiyligi xarajatlarning 59,3 foizini tashkil etdi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida yuz berayotgan jiddiy sifat o'zgarishlari alohida e'tiborga sazovordir.

2014-yilda soliq yukini yanada kamaytirish, jumladan, yuridik shaxslar uchun foyda solig'i stavkasini 9 foizdan 8 foizga, jismoniy shaxslar uchun eng kam soliq hajmini 8 foizdan 7,5 foizga tushirish iqtisodiyotimiz rivojida albatta muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday soliq yengilliklari 130 milliard so'mdan ortiq mablag'ni tejash va uni korxonalar ictiyorida qoldirib, ularning o'z aylanma mablag'larini ko'paytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, shuningdek, aholi daromadlarini 90 milliard so'mdan ko'proq oshirish imkonini beradi.<sup>1</sup>

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining yaxshi tashkil etilgan targ'iboti, ana shu qonun hujjatlari barcha toifadagi soliq to'lovchilar tomonidan o'rganilishining puxta o'ylangan tizimi-soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar vaqtida va to'liq to'lanishi, davlatimiz gullabayashnashining garovidir. Soliq savodxonligi va qonunchiligi bo'yicha fuqarolarda yoshlikdan ko'nikma hosil qilib borish soliq targ'ibotidagi eng maqbul usuldir. Qo'llanmada soliqlarning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati, zarurligi, soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari olib borilayotgan

<sup>1</sup> Prezident Islom Karimovning "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" nomli 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'rurasidan. 2013 yil 18 yanvar.

islohotlarning samarasi sifatida bayon qilingan. Respublikamizda amalda bo‘lgan soliqlar va to‘lovlarini undirish mexanizmlariga alohida to‘xtalib o‘tilgan, soliq stavkalarining o‘zgarish dinamikasi, hamda keyingi yillarda soliq-budget siyosatining aholi farovonligini oshirish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida soliq qonunchiliklariga kiritilgan o‘zgarishlar hisobga olingan. Darhaqiqat, soliqlarning yig‘iluvchanligi ko‘p jihatdan aholining soliq bilimdonligi, soliq madaniyatiga bog‘liq ekan, ushbu qo‘llanma nafaqat oliv ta’lim muassasalari talabalariga, balki kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kichik biznes xodimlari uchun ham mo‘ljallangan.

Mazkur o'quv qo'llanma bu sohadagi dastlabki intilishlar natijasi o'lar oq yuzaga kelganligi tufayli, unda ayrim kamchiliklar bo'lishi tabiiy hol. Mualliflar bildirilgan barcha tanqidiy fikr-mulohaza va takliflarni minnatdorchilik bilan qabul qiladilar. Ular keyingi nashrlarda e'tiborga olinadi.

# I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI

## 1.1. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

«Soliqlar va soliqqa tortish» maxsus kursini o'qitishning zaruriyati, maqsasi, predmeti va vazifalari.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni yuksaltirish davrida soliqlar va ularga tenglashtirilgan majburiy to'lovlar davlat xazinasining asosiy daromad manbasi hisoblanadi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslardan soliq qonunchiligiga ko'ra belgilangan tartibda undiriladi. O'zbekiston Respublikasi bosh qomusi-mamlakat konstitutsiyasining 51 va 123-moddalarida ham fuqarolarning burch va majburiyatlaridan biri sifatida qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'implarni to'lashning majburiyligi belgilab qo'yilgan. Ushbu majburiyatlarни bajarish uchun esa har bir fuqaro soliqlar va soliqqa tortish munosabatlari doir yetarli darajada bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari lozim bo'ladi.

Bu kursni o'qitishning zarurligi bozor iqtisodiyoti munosabatlari ichida soliq munosabatlarining ahamiyati o'sib borayotganligidan kelib chiqadi. *Soliqlar va soliqqa tortish maxsus kursi* soliq voqeliklarini (harakatlarini) chuqur o'rghanish asosida zaruriy xulosalar chiqarib, ularni amaliyotga tadbiq etish yo'llarini o'rgatadi.

Har qanday fan yoki kurs o'zining predmetiga ega bo'lishi kerak. Soliq va soliqqa tortish maxsus kursining *predmeti* soliq harakatini o'rghanishdir. Soliqqa tortishda soliq mexanizmi ishga solinadi. Uning harakatlanishi pul munosabatlari orqali sodir bo'ladi. Bu pul munosabatlari soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliq undiruvchi (oluvchi) davlat o'rtasida bo'ladi.

«Soliqlar va soliqqa tortish» maxsus kursini *o'qitishdan maqsad* talabalarda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'risidagi tasavvurni hosil qilish va soliq to'lovchilardan undiriladigan soliq hamda majburiy to'lovarning huquqiy asoslarini, soliq majburiyati, soliq nazorati, soliqqa oid huquqbuzarliklar va ularga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralar bo'yicha bilimlarni shakllantirishdan iboratdir.

Maxsus kurs oldiga qo'yilgan *asosiy vazifalar* soliqlarning mohiyatini, ularning zarurligini, soliq elementlari va funksiyalarini, soliq siyosatini, soliqqa tortish va to'lash tartiblarini, xorijiy mamalakatlar soliq tizimlarini, soliq tiziminining nazariy jihatlarini o'rgatish va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

## Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va zarurligi.

*Soliqlar* deganda Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

*Boshqa' majburly to'lovlari* deganda Soliq kodeksida belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek vakolatlari organlar hamda mansabdar shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litensiylar va boshqa ruxsat beruvchi hujjalarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar, davlat boji tushuniladi.

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning paydo bo'lishi va uning faoliyati davomiyligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu o'rinda soliq kategoriysi davlat iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqelik sifatida yuzaga chiqishini ta'kidlash lozim. Soliq tushunchasi tor ma'noda davlat ixtiyoriga soliq to'lovchilardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi.

Ma'lumki, soliqlar bevosita davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir, ya'ni davlat o'zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Soliqlarning amal qilishi ob'yektiv zaruratdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi barcha sub'yektlar ham real sektorda, ya'ni ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki faoliyati iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, ular soliqlarning ob'yektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatning norentabel (mudofaa, tibbiyot, fan, maorif, madaniyat va boshqalar) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurligi soliqlar ob'yektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi. Vaholanki, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari asosan davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.

Soliqlarning amal qilishini bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin: *birinchidan*, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi, *ikkinchidan*, bozor iqtisodiyoti qonun-qoidalari.

Davlatning bajaradigan funksiyalari va vazifalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan ba'zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariiga mos kelmaydigan vazifalar yo'qola borsa, yangi vazifalar paydo bo'la boshlaydi. Bularga bizning respublikamizda kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini tashkil qilish kabilar kiradi. Davlat kuchli ijtimoiy-siyosiy tadbirlarni amalga oshirish uchun pensionerlar, talabalar, ko'p bolali

onalar va boshqalarni mablag‘ bilan ta’minlash zarurligini anglab, ayrim cheklangan tovarlar bahosidagi farqni budjet hisobidan qoplaydi, bundan tashqari mahallalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj kam ta’minlanganlarga moddiy yordam ko’rsatadi. Shu bilan birga, davlat jamiyat a’zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o‘zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga ham mablag‘ sarflaydi, qolaversa, fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib-intizom o’rnatisht, uni boshqarish funksiyalarini bajarish uchun ham ko’plab mablag‘ yo’naltirishga majburdir. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo’lgan soliqlarni ob’yektiv zarur qilib qo’yadi.

Qayd etish lozimki, hozirga qadar davlatning funksiyalarini bajarish uchun lozim bo’lgan moliyaviy mablag‘larni shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo’llanilgan emas. Demak, hukmron kuch sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar amal qiladi. Ma’lumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat bo’lib, ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishli, bu holat soliqlarning iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi.

Soliqlar majburiy to’lovlarini ifoda etuvchi pullik munosabatlarni bildiradi. Bu munosabatlar soliq to’lovchilar bilan ularni o’z mulkiga aylantiruvchi davlat o’rtasida bo’ladi. Davlat uchun budjet daromadlarining asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

Soliqlar to’g’risidagi qarashlar tarixan ob’yektiv va sub’yektiv omillarning ta’sirida shakllangan. Soliqlarga doir turli ta’riflarni tahlil qilish, ularning konkret iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi mohiyatini asoslash, soliqlarning iqtisodiy rolini va soliq qonunchiligiga asos bo’lgan soliq tamoyillarini belgilash hamda soliq tizimida, jamiyat taraqqiyotida mavjud bo’lgan soliqlarning tutgan o’rnini aniqlash zarurdir. Chunki davlat paydo bo’lishi bilan soliqlar jamiyatdagи iqtisodiy munosabatlarning zaruriy talablaridan biri bo’lib hisoblanib kelgan. Davlat tuzilishi shakllari rivojlanishi bilan bir vaqtida soliq tizimi o’zgargan va takomillashtirilgan. Soliq tizimining o’zgarishi va takomillashtirilishi soliqlarning turlari, miqdorlari va yig‘ib olish usullari xilma-xil bo’lganligi bilan asoslanib kelgan. Masalan, Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti tarixida soliqlar aholidan shaxsiy mol-mulk, yerdan olingan hosil, uy hayvonlari va boshqalar uchun «zakot» sifatida olingen.

Davlat faoliyatining barcha yo’nalishlarini mablag‘ bilan ta’minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat budjeti

daromadlarini shakllantirish soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usul hisoblanadi. Davlatning mavjudligi soliqlar bilan uzviy bog'liq, chunki soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining asosiy manbai hisoblanadi.

Insoniyat tarixida yirik davlat arboblaridan biri, o'rta asrlarda buyuk sultanat barpo qilgan Amir Temur soliqlarga katta e'tibor qaratgan. U davlatni idora qilish tizimini yuzaga keltirishda asosan soliqlarga tayangan. O'sha davrning davlat moliyasi bu tizimning eng muhim unsurlaridan biri ekanligi, u davlatni boshqarishdagi barcha jihatlarga uzviy bog'langanligi bilan tubdan farq qilib turgani va ayni shu xususiyatiga ko'ra boshqaruvning barcha tarkibiy qismlari orasida markaziy o'rinni egallaganligi bugungi kunga kelib hammaga ayon bo'lmoqda.

Tarixan soliqlar, davlatni saqlab turish uchun zarur bo'lgan majburiy to'lovlar sifatida, davlat paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Soliqlar davlat faoliyat ko'rsatishining moddiy asosini tashkil etadi, ularning iqtisodiy tabiatи xuddi shu yerdan kelib chiqadi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning ham bilvosita quroli hisoblanadi.

Soliqni to'lash xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va fugarolar bilan davlat o'rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biror-bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki soliqlar budget daromadlari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo'libgina qolmay, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga, ishlab chiqarishni rag'batlantirishda investitsiyalarni ko'paytirishga, raqobatbardosh mahsulotni ko'paytirishga, kichik biznesni rivojlantirishga, xususiy korxonalar ochish bilan bog'liq bo'lgan bozor infratuzilmasini barpo qilishga, umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga va shu kabilarga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat o'zining ichki va tashqi vazifalarini, har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larning asosiy qismini soliqlar orqali to'playdi. Jumladan, soliqlar respublika va mahalliy budgetlar daromadini shakllantiradi, davlat ijtimoiy dasturlari uchun moliyaviy negiz yaratadi, soliq to'lovchi shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini boshqaradi, ularning tabiiy resurslardan unumli foydalanishga bo'lgan intilishini rag'batlantiradi, narx belgilashga ta'sir ko'rsatadi, aholining turmush darajasini tartibga solib turadi, imtiyozlar yordamida esa aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishni tashkil etishga yordam beradi.

## **Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar elementlari.**

Soliqqa tortish tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan soliq elementlari soliq solishda ifodalanadigan tushunchalar bo'lib, ular soliq to'lovchilar va davlat budgeti o'rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Soliq nazariyasida soliqqa oid munosabatlarni to'liq va teranroq ifoda etish uchun iqtisodiy voqeliklarning har bir kichik guruhlari muayyan nomdagi iboralar bilan izohlanadi. Soliq elementlari ham xuddi shunday soliqqa oid iqtisodiy hodisalarni izohlashga xizmat qiluvchi yaxlit tushuncha hisoblanadi. Soliq elementlari tushunchasi soliq solish tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning o'zi ham kichik tizimni tashkil etadi, ya'ni soliq elementlari ham bir necha iqtisodiy kategoriyalarning yaxlit holdagi harakatini bildiradi.

Soliq elementlari bir nechta tushunchalardan iborat bo'lib, ularning asosiyлари *soliq solish ob'yekti*, *soliq solish bazasi*, *soliq stavkasi*, *soliqni hisoblab chiqarish tartibi*, *soliq davri*, *soliqni to'lash muddatlari* va *tartiblari*, *soliq imtiyozlari*, *soliq solish usullari*, *soliq yuki* kabi tushunchalarni qamrab oladi.

*Soliq solish ob'yekti* - soliq to'lovchida soliq yoki boshqa majburiy to'lov hisoblab chiqarilishi va (yoki) to'lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, harakat, harakat natijasidir.

Soliq solish ob'yektiga foyda yoki daromad, muayyan tovarlar qiymati, yer maydoni, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari, tabiiy resurslardan foydalanish miqdori va boshqalar kiradi. Soliq solish ob'yekti aslida jamiyatdagi mavjud moddiy va ma'naviy boyliklarning ayrimlariga qonun yo'li bilan ulardan foydalanuvchi, egalik qiluvchi va tasarruf qiluvchi soliq sub'yektlarining huquqlariga soliq solishni ifodalaydi. Binobarin, moddiy yoki ma'naviy boyliklarga mulkiy huquqqa ega bo'lgandagina soliq solish ob'yekti yuzaga keladi. Masalan, egasiz imoratga soliq solinmaydi, chunki egasiz imoratga nisbatan soliq sub'yekti mavjud emas, vaholanki, bo'lgan taqdirda ham soliq solish ob'yekti sifatida imorat emas, balki ushbu imoratga bo'lgan mulkiy huquqqa soliq solinadi. Shu jihatdan aytish mumkinki, soliq solish ob'yekti aslida yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy huquqi va daromadiga qaratiladi.

*Soliq solinadigan baza* - soliq solish ob'ekting soliq yoki boshqa majburiy to'loving stavkasi tatbiqan belgilangan ko'rsatkichlardagi qiyamat, miqdor, fizik va boshqa tafsiflarini ifodalaydi.

Hisoblanadigan soliq miqdori nafaqat soliq stavkalarining miqdoriga, shu bilan birligida soliq stavkasi qo'llaniladigan ob'yektning miqdoriga ham bog'liq. Soliq solinadigan bazaning miqdori qonunchilikda soliqqa tortilishi lozim bo'lgan soliq solish ob'yektdan ruxsat etiladigan chegirmalarga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin. Soliq solish

bazasini soliq to'lovchilarning mazkur toifasiga taqdim etiladigan soliq imtiyozlariga muvofiq ravishda kamaytirishga ruxsat etiladi.

*Soliq stavkasi* - soliq solinadigan bazaning o'Ichov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi.

Soliqlar, va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Soliq stavkalari foizlarda yoki mutloq summada belgilanishi mumkin. Soliq stavkasi soliq elementlari ichida eng ko'p amaliy ahamiyatga ega bo'lgan unsurdir. Chunki soliq stavkalarini o'zgartirish orqali davlat xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatiga ta'sir etadi.

*Soliq stavkalari, undirilishga, mohiyatiga va amal qilishi nuqtai nazaridan bir necha turlariga ajratiladi:*

Soliq stavkalarining biri *proporsional soliq stavkasi* bo'lib, bu soliq stavkasining asosiy mohiyati shundan iboratki, yuridik yoki jismoniy shaxslardan oboroti, foydasi yoki boshqa bir soliq ob'yektining bir xil turida yangi qo'llashdan muhim xususiyati shundaki, soliq to'lovchi ega bo'lgan foya (daromad), divedend, oborot yoki mol-mulk qiymatini hajmi (summasi) qancha bo'lishidan qat'i nazar bir xil tartibda, ya'ni bir xil foizda soliq stavkasi qo'llaniladi.

Soliq stavkalarining keyingi turi *progressiv soliq stavkasi* hisoblanadi. Progressiv soliq stavkasi, mohiyati jihatidan proporsional soliq stavkasiga nisbatan teskari holatda amal qilib, unga muvofiq soliq to'lovchilarning daromadlari, foydasi yoki oboroti ortib borishiga muvofiq tarzda soliq stavkasining ham ortib borishi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i misolda ko'rishimiz mumkin. Bunga muvofiq, jismoniy shahslarning olgan daromadi oshib borishi bilan birga belgilangan shkala asosida soliq stavkasi oshib boradi.

*Regressiv soliq stavkasida* soliq to'lovchining soliqqa tortiladigan daromadi, oboroti, mol-mulk qiymati kabi soliq ob'yektining ortib borishi bilan soliq stavkasining kamayib borishi ifodalanadi. Bundan ko'rinadiki, regressiv soliq stavkasi progressiv soliq stavkasiga nisbatan teskari iqtisodiy hodisani ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida regressiv soliq stavkasi asosan soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini oshirish maqsadida qo'llanilib, bu asosan korxonalarning mahsulot (xizmat, ish)ni chetga eksport qilishini rag'batlantirish maqsadida joriy etilgan. Jumladan: yuridik shaxslardan olinadigan foya va mol-mulk solig'ida ko'rish mumkin.

*Soliq imtiyozlari* - boshqa soliq to'lovchilarga qaraganda ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga beriladigan afzalliklar soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardir. Ular xo'jalik yurituvchi

sub'ektlarga soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkonini beradi (*Soliq kodeksining 30-moddasi*).

Imtiyozlar muayyan faoliyat sohalarini, asosan sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, mahalliy ishlab chiqarish mahsulotining raqobatbardoshligini oshirish, eksportga yo'naltirilgan va importning o'rnini bosadigan mahsulotlar hajmini oshirish va boshqa maqsadlarda beriladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun imtiyozlar quyidagi ko'rinishda beriladi:

- soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lovlar va yig'imlarni to'lashdan ozod etish;
- soliq solinadigan bazani kamaytirish;
- soliq stavkasini pasaytirish.

Imtiyozlar amal qilish muddatiga qarab doimiy va muayyan muddatga beriladigan imtiyozlarga bo'linadi.

Doimiy imtiyozlar cheklanmagan amal qilish muddatiga belgilanadi. Bunday imtiyozlarning asosiy qismi Soliq kodeksida keltirilgan.

Muayyan muddatga beriladigan imtiyozlar vaqtinchalik hisoblanadi. Ular Soliq kodeksi, shuningdek ayrim qonunlar, Prezident qarorlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan belgilanadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashni amalga oshirayotgan, hudud infratuzilmasini rivojlantirishda ishtirok etuvchi yoki O'zbekiston investitsiya dasturi qatnashchisi hisoblangan korxonalarga mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan qo'shimcha tarzda imtiyozlar berilishi mumkin.

***Soliqni hisoblab chiqarish tartibi*** - soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek soliq imtiyozlaridan kelib chiqib, soliq summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi.

***Soliq davri*** u tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq miqdori hisoblab chiqariladigan davadir.

Soliq davri bir necha hisobot davriga bo'linishi mumkin. Hisobot davrlari yakunlanganda soliq hisobotlarini taqdim etish lozim bo'ladi. Joriy avans (bo'nak) to'lovlarini to'lash davri hisobot davri bo'lmaydi.

***Soliqlarni to'lash muddatlari va tartibi***. Soliq qonunchiligidagi har bir soliq turini budgetga to'lash muddati belgilangan. Soliqni to'lash muddatlari deganda soliq to'lovchilarning davlat budgeti oldida soliq majburiyatlarini bajarish muddati ifodalananadi. Soliqni to'lash muddatlari o'z mohiyatiga ko'ra ikki xil ko'rinishga ega: joriy avans (bo'nak) to'lovlar va haqiqiy daromad olingandan keyingi to'lovlar.

Soliqni to'lash tartibi esa soliqning yo'naltirilganligi (budgetga yoki budgetdan tashqari fondlarga), soliqni to'lash vositasi (milliy valyuta -

so‘mda yoki boshqa mamlakatlar milliy valyutasida. O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq soliqlar faqat milliy valyuta - so‘mda to‘lanishi mumkin) hamda soliqni to‘lash shakllarida (naqd pul yoki naqd pulsiz) ifodalanadi.

*Soliq solish usullari* uch xil ko‘rinishda amalga oshirilib, ular quyidagilarga: soliq solishning *kadastrli, deklaratsiya va manba oldidan soliq solish* usullariga ajratiladi.

*Soliq yuki* - soliq to‘lovchi muayyan vaqt oralig‘idagi faoliyat natijasida to‘lagan soliqlarining yig‘indisini ifodalarydi.

Bunda soliq to‘lovchilar to‘laydigan barcha soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘indisi ifodalanadi. Soliq yukining aniq soliq to‘lovchilar zimmasiga qancha to‘g‘ri kelganligini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Biroq to‘g‘ri (bevosita) soliqlarda soliq og‘irligi aynan soliqni budgetga hisoblab o‘tkazuvchi soliq to‘lovchilar zimmasiga tushsa, egri (bilvosita) soliqlarda esa soliq yuki soliqni to‘lovchilar emas, balki tovar (ish, xizmat)larni iste‘mol qiluvchilar zimmasiga tushadi. Muayyan turdagи yuridik va jismoniy shaxslar bo‘yicha soliq yukini bir yilda budgetga to‘langan barcha majburiy to‘lovlar yig‘indisi bilan aniqlash mumkin. Soliq yukini ifodalashning bir qancha ko‘rinishlari mavjud: makrodarajadagi soliq yuki, mezodarajadagi soliq yuki va mikrodarajadagi soliq yuki. Soliq yuki makrodarajada ifodalanganda butun mamlakat miqyosida ifodalanib, asosiy ko‘rsatkich sifatida muayyan naqt oralig‘ida davlat budgetiga kelib tushgan soliqlar yig‘indisining ana shu vaqt oralig‘ida yaratilgan yalpi ichki mahsulot (YaIM) yoki milliy daromad (MD)ga nisbati olinadi. Mezodarajada ifodalanganda alohida olingan soha, tarmoq yoki sektorga to‘g‘ri keladigan soliq yuki ifodalansa, mikrodarajada esa aniq bir olingan sub‘yektga to‘g‘ri keladigan soliq yuki ifodalanadi.

### **Soliqlarning funksiyalari va vazifalari.**

Soliqlarning funksiyalari to‘g‘risida turli xil qarashlar mavjud. Sobiq sotsialistik mamlakatlar iqtisodchilari o‘rtasida soliqlar ikki funksiyani bajaradi, degan qarash keng tarqalgan edi. Bu ikki funksiya sifatida fiskal va nazorat funksiyalari tan olinardi. Ularning fikriga ko‘ra eng asosiy funksiya bu soliqlarning fiskal funksiyasidir, chunki busiz nazorat funksiyasining mavjud bo‘lishi mumkin emas.

Soliqlarning funksiyalari ularning mohiyatini amaliyotda harakat qilayotganligini ko‘rsatadi. Shunday ekan, funksiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko‘rsatib turishi zarur. Bugun paydo bo‘lib ertaga yo‘q bo‘lib ketadigan holatlar soliq funksiyasi bo‘la olmaydi. Demak, funksiya kategoriyasi doimiy, qat’iy takrorlanib turadigan voqelikni ifodalarydi.

Shunday uslubiy yondashishdan kelib chiqib soliqlar funksiyasini aniqlash kerak.

Soliqlarning funksiyalari masalasida katta bahslashuvlar mavjud, lekin yagona bir fikrga kelingan emas. Ko'pchilik iqtisodchilar soliqlarga fiskal, boshqaruvchi, rag'batlantiruvchi, nazorat funksiyalari xos deb ta'rif berishadi.

*Fikrimizcha, soliqlarning quyidagi asosiy funksiyalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:*

1. Soliqning fiskal funksiyasi;
2. Tartibga solish funksiyasi;
3. Rag'batlantirish funksiyasi;
4. Soliqning nazorat funksiyasi;
5. Soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi.

1. Soliqlarning asosiy funksiyasi - *fiskal funksiya* hisoblanib (lotinchal fiscus so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni anglatadi), bu funksiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi. Soliqlar orqali korxonalar va fuqarolar daromadining bir bo'lagini davlat apparati, mamlakat mudofaasi, noishlab chiqarish sohasining umuman o'z daromadlari manbaiga ega bo'lмаган qismini (ko'pgina madaniyat muassasalari, jumladan, kutubxonalar, arxivlar va boshqalar) yoki lozim darajada rivojlanishini ta'minlash uchun o'zining mablag'i yetishmaydigan tarmoqlarni (fundamental organ, teatrlar, muzeylar, ko'plab o'quv yurtlari va hokazo) saqlab turish maqsadida undirib olish yo'li bilan davlat budgetining daromad qismini shakllantirish soliqlar fiskal funksiyasining eng muhim elementi hisoblanadi.

Soliqlarning ushbu funksiyasi orqali hosil bo'ladigan pul resurslari davlat fondi (davlat budgeti) orqali qayta taqsimlanadi, ular ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, ustuvor tarmoqlarni investitsiyalashga yo'naltiriladi.

2. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida soliqlarning ikkinchi muhim funksiyasi ularning iqtisodiyotdagi *tartibga soluvchilik* roli hisoblanadi, ya'ni davlat soliqlar orqali tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga soladi va bu bilan xalq xo'jaligi tarmoqlarining iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun muayyan «soliq muhiti»ni yaratadi. Ushbu funksiya orqali soliq tizimiga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni muayyan tarmoqda ishlab chiqarish sur'atlarini rag'batlantiradi yoki jilovlab turadi, sarmoyaning bir tarmoqdan soliq muhiti eng ma'qul bo'lgan boshqa tarmoqqa qo'yilishini kuchaytiradi yoki pasaytiradi, shuningdek aholining to'lovga qobil talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi.

Soliqlarning tartibga soluvchi sifatidagi funksiyasining ahamiyati bozor sharoitida o'sib boradi, bu davrda tadbirkorlarni ma'muriy qaram qilish usullari yo'q bo'lib ketadi yoki juda oz holda qoladi, korxonalar faoliyatini farmoyishlar, ko'rsatmalar va buyruqlar yordamida idora qilish huquqiga ega bo'lgan «yuqori tashkilot» tushunchasining o'zi asta-sekin yo'qola boradi. Biroq iqtisodiy faoliytkni izga solib turish, uning rivojlanishini jamiyat uchun maqbul bo'lgan yo'nalishda rag'batlantirish zarurati saqlanib qoladi.

3. *Rag'batlantirish funksiyasi* soliq tizimining eng muhim funksiyalaridan biri bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantrishga, moddiy xom-ashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ya'ni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantrishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga va investitsiya faoliyatini jonlantirishga rag'batlantiradi. Soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi orqali davlat xalq xo'jaligi taraqqiyotini rag'batlantiradi, bu bilan fiskal funksiyani bajarish uchun bazani kengaytiradi, ishlab chiqarishni soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi orqali rag'batlantirib, davlat oqilonaga soliq siyosatini olib borish bilan soliq yukini kuchaytirmasdan xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning erkin faoliyat ko'rsatishi ta'minlanadi.

4. Soliqlarning *nazorat funksiyasi* soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan, soliqqa tortish ob'yekti, soliqqa tortiladigan baza, imtiyozlar singari va hokazo tegishli soliq ko'rsatkichlarining hisob-kitoblarini tekshirishdek ancha murakkab jarayondan iborat. Soliq hisobi soliq idoralariga belgilangan soliq hisobi shakllari orqali soliq to'lovchilar o'zlarining soliq majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

5. Soliqlarni *hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi* ham muhim ahamiyat kasb etib, bu funksiya orqali xarajatlar hajmi va konkret soliqlar davlatning qanday ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini bajarishga sarflanganligi to'g'risida axborot berib turilishi juda zarur. Shunday qilinsa, soliqlarning budjetga tushishi to'liq, o'z vaqtida va oson kechadi.

Biz soliq funksiyalarini qisqacha ko'rib chiqishimiz soliqlar moliya resurslarini tiklash, xo'jalik faoliyatini tartibga solish va daromadlarni ijtimoiy jihatdan ahamiyatlari maqsadlar uchun qayta taqsimlash bo'yicha muhim vazifalarini bajaradi deb xulosa chiqarishimiz uchun imkon beradi.

Soliqlar iqtisodiyotning tarixiy rivojlanishi bosqichlarida ushbu rivojlanish jarayonlarini ta'minlash maqsadiga bo'ysunuvchi vazifalarini bajaradi. Soliqlarning funksiyalari esa ana shu vazifalarini bajarishga xizmat qiladi. Demak, soliqlarning funksiyalari, vazifalarini bajarilishidan kelib chiqadimi yoki soliqlarning vazifalarini funksiyalarining mavjudligidan

kelib chiqib bajariladimi kabi aniqlash lozim bo‘lgan muammolar mavjud. Shunday ekan soliqlarning funksiyalari va vazifalari o‘rtasidagi aniq farqli jihatlarni o‘rganish va soliq munosabatlarini tashkil etish mobaynida bu chegaralarni asoslash muammosi mayjudligini qayd etib o‘tish lozim.

Soliqlar bajaradigan vazifalar ko‘pchilik mamlakatlarning soliq qonunchiligidagi umumiy o‘xshashliklarga ega. Ana shunday an’anaviy *soliq vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin*:

1. *Umumdavlat vazifalarini hal qilish uchun davlatga zaruriy moliyaviy resurslar ta’minlab berish.* Soliqlarning fiskallik funksiyasi ushbu vazifani hal qilish maqsadlariga xizmat qildi. Bu vazifani hal qilish davlatning iqtisodiyotga qay darajada aralashuviga ko‘p jihatdan bog‘liq. Bu ko‘rsatkich qanchalik yuqori bo‘lsa, soliqlarning fiskallik funksiyasi shunchalik faol bo‘ladi. Ammo soliqlarning ushbu vazifasi faqat iqtisodiy jarayonlarni qamrab olmaydi, balki davlatning noishlab chiqarish xarajatlari ko‘payishi ham davlatning ortiqcha moliyaviy resurslarga muhtojligini keltirib chiqaradi.

2. *Mamlakat iqtisodiyotida qulay investitsiya muhitini yaratishga ko‘maklashish.* O‘zbekiston Respublikasida soliqlarning ushbu vazifasini bajarishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, hozirgi kunda sarmoyalarning asosiy qismi savdo va xizmatlar sohasiga yo‘naltirilayotganligi tashvishli holdir. Buning asosiy sababi foyda normasining bu sohalarda kattaligidir. Soliqlar sarmoyalarni bevosita mahsulot ishlab chiqarish sohasiga yo‘naltirishning qudratli vositasi bo‘lishi kerak.

3. *Aholining mehnat faolligini rag‘batlantirish.* Soliqlar deyarli barcha mamlakatlarda ushbu vazifani bajaradi. Chunki ular aholi daromadlarini tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi. Daromadlardan olinadigan soliq stavkalarining eng yuqori chegarasini sezilarli darajada pasaytirish ishchi kuchining taklifi bilan bog‘liq salbiy oqibatlarning oldini olishi mumkin. 70-80 yillarda Shvetsiyada soliq stavkalarini aholi daromadlariga progressiv ravishda qo‘llash malakali ishchilarning boshqa mamlakatlar tomon migratsiyasiga olib kelgan.

4. *Iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish maqsadida daromadlarni taqsimlashning samaradorlik va adolat prinsiplari o‘rtasidagi muvofiqlikka erishish.* Amaldagi soliqlarga barqarorlik va moslanuvchan soliq stavkalarining xosligi soliqlarning uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga zamin yaratadi. Milliy va xorijiy investorlar kapital qo‘yilmalarini amalga oshirar ekan, ular o‘zlarining soliq majburiyatlarini aniq bilishi kerak. Soliq turlari va stavkalari barqaror va tez-tez o‘zgarmaydigan bo‘lishi kerak. Soliq tizimiga mustahkam ishonch bo‘lmasdan taqdirda uzoq muddatli investitsiyalarning harakati susayadi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, soliqlarning budjetga ijobjiy ta’siridan

tashqari, muhim iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sohasida ham ulardan faol foydalanish mumkin. Narx-navoning isloh qilinishi, tashqi savdoning erkinlashtirilishi, mehnat bozorining isloh qilinishi va hokazolar yangi paydo bo‘lgan tijorat tuzilmalarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash zaruratiniz yuzaga keltiradi. Bu vazifani soliq stavkalarini tabaqlashtirish yo‘li orqali hal etish mumkin.

Shunday qilib, soliqlarning vazifalari ularni amalga oshirish muddatiga qarab, qisqa muddatli, o‘rta va uzoq muddatli vazifalarga bo‘linadi. Bu vazifalar mazmuniga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Soliqlar nafaqat davlat budgetining tushumlariga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga balki davlat daromadlarini budgetning o‘rta muddatli rejada hayotiyligini yaxshilash maqsadida moslashuvchanligini amalga oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.

### Soliqqa tortish tamoyillari.

Soliq solish tamoyillari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliq solish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi<sup>2</sup>. Soliq solish tamoyillarini A. Smit o‘zining «Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari» nomli kitobida (1776) ilk bor asoslab bergen va unda:

– davlat fuqarolari davlat xarajatlarini qoplashda o‘zлari hukumat muhofazasida foydalanayotgan daromadlariga muvofiq tarzda qatnashishlari lozim.

– har bir odam to‘laydigan soliq aniq belgilab qo‘yilgan bo‘lishi kerak, bunda o‘zboshimchilik ketmaydi. Soliq miqdori, to‘lanadigan vaqt va tartibi uni to‘lovchiga ham, boshqa har qanday odamga ham birday aniq va ma’lum bo‘lishi zarur.

– har bir soliq to‘lovchiga har jihatdan qulay bo‘lgan vaqtida va tartibda undirilishi kerak.

– har bir soliq shunday tarzda o‘rnatilishi kerakki, bunda soliq to‘lovchining hamyonidan ketadigan pul davlat budgetiga kelib tushadigan mablag‘ga nisbatan ortiq bo‘lishiga mumkin qadar yo‘l qo‘yilmasin, deb ta’kidlab o‘tilgan.

Hozirgi sharoitga tatbiqan olganda, soliq solish tizimining quyidagi tamoyillarini keltirib o‘tish mumkin:

*Soliq solishning yetarlilik tamoyili.* Soliq solishning yetarlilik tamoyiliga muvofiq soliq solish darajasi shunday bo‘lishi lozimki, u davlat intilayotgan xalq xo‘jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay olsin. Soliqqa tortish tizimi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va

<sup>2</sup> Jo‘raev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Norma, 2009. 12-17-betlar.

boshqa sohalardagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliya resurslari to‘planishini ta’minlashi lozim. Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, soliq stavkalari soliq yuki ko‘rsatkichi hisoblanmaydi, chunki soliq to‘lovchi soliq to‘lar ekan, davlat tomonidan bepul xizmatlardan bahramand bo‘lgani holda ayni chog‘da o‘zining ba’zi xarajatlarini qisqartiradi. Umuman olganda, yetarilik tamoyili soliq siyosatini belgilayotganda uni davlatning qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan qat’iy ravishda uyg‘unlashtirishni taqozo etadi.

*Soliq solishning tadbirkorlik va investitsiyalarni rag‘batlantirish tamoyili.* Soliq tizimi xo‘jalik yurituvchi sub’yeqtarning ishlab chiqarishini rivojlantirish, uskunalar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag‘ yo‘naltirish, ya’ni kapital jamg‘arish va shu yo‘l bilan texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishi lozim.

Soliq solishning iqtisodiy omillarga ta’siri ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi, ya’ni qiyosiy oqibat va daromad oqibati shaklida ifodalanadi. Qiyosiy oqibat mehnat natijalari, jamg‘arish, investitsiyalash, yangi g‘oyalarni joriy etish va ishlab chiqarish faoliyatining boshqa xil ko‘rinishlari bilan shug‘ullanish uchun nisbatan kamroq darajada rag‘batlantirishda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, progressiv (oshib boruvchi) soliq solishda bunday oqibatning rag‘batlantirishga zid ta’siri yaqqol ifodalanadi.

Soliqlarning ta’siri investitsiyalar tarkibida ham yaqqol seziladi. Turli ko‘rinishdagi aktivlar uchun joriy etilgan har xil soliq tartiblari investitsiya imkoniyatlari va sarmoyadorlarning portfeli tarkibida sezilib qoladi. Soliq tizimidagi kamchilik va nuqsonlar iqtisodiy o‘sish sur’atlarining pasayib ketishiga olib kelishi mumkin, bu hol pirovard natijada davlat budjeti daromadlarining o‘zgarishiga ham ta’sir etmay qolmaydi.

*Soliq solishningadolatlilik tamoyili.* Soliq solishningadolatlilik tamoyiliga muvofiq, soliqlar jamiyat tomonidan oqilona vaadolatli deb tan olingan umumiy ob’yektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim. Adolatlilik tamoyili bir qancha asosiy guruhdagi soliq solish tamoyillariga bo‘linadi. Bularni ikki guruhga bo‘lgan holda o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda gorizontal va vertikal adolatni bir-biridan farqlash lozim. Gorizontal adolat tamoyili daromad olishning turli sharoitlarida soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq solishning taxminan teng shartlarini qo‘llashni ko‘zda tutadi.

Vertikal adolat deganda xo‘jalik yuritishning birmuncha og‘ir sharoitlarida ishlayotgan sub’yeqtlar uchun soliq solishning bir qadar yumshoqroq shartlarini, yengil daromad olish imkoniyatiga ega bo‘lgan sub’yeqtlar uchun esa og‘irroq shartlarni qo‘llash tushuniladi. Soliqlarning rag‘batlantirish funksiyasini bajarish doirasida ikkinchi tamoyil buzilishi mumkin. Masalan, iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni rag‘batlantirish

maqsadida ularni ishlab chiqarish bo'yicha soliq solishda bir qadar imtiyozli shartlar yoki, aksincha, vino-aroq va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni cheklash uchun ulardan olinadigan egi soliqlarning yuqori stavkalari belgilangan hollar ham bo'ladi.

*Soliq solishning oddiylik va xolislik tamoyili.* Bu tamoyil soliq solish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo'lishini, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirishni, shuningdek soliqlarning eng muhim turlari bo'yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni ko'zda tutadi. Bu o'rinda nazarda tutilayotgan narsa shuki, soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi doirasida beriladigan imtiyozlar yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'imlasligi, balki muayyan faoliyat turlarini rag'batlantirishga, soliq to'lovchilarning mulkchilik shakli va qaysi idoraga mansubligidan qat'i nazar, ma'lum turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirishga qaratilmog'i lozim. Soliq imtiyozlarining haddan tashqari ko'pligi qonunlarni murakkablashtirib yuboradi, tushunishni qiyinlashtiradi hamda turlicha talqin qilinishiga olib keladi, bu hol pirovard natijada soliq to'lovchilarning soliqlarga nisbatan munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga aniq qilib belgilangan imtiyozlar soliq yukini boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga o'tkazib, ijtimoiy adolatsizlik ro'y berishiga olib keladi.

*Soliq solishning boshqarishga qulaylik tamoyili.* Samarali soliq tizimiga qo'yiladigan muhim talablardan biri boshqaruvga qulay bo'lishidir. Soliqlarni undirib olishda samaradorlikka erishish ko'p hollarda soliqlarning soliq to'lovchilarga yaxshi tushunarli bo'lishiga bog'liq.

Ayrim mamlakatlarda soliq solishning nihoyatda murakkab tartibi amal qiladi, aytaylik, shkala va stavkalar turi, soliqlar tarkibi, ularni to'lash qoidalari va tartiblari haddan tashqari ko'p bo'ladi. Buning ustiga ular soliq tushumlarining ko'payishiga hech qanday yordam bermaydi hamda soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi bajarilishida rol o'ynamaydi.

*Soliq solishning soliqlarni yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish tamoyili.* Ushbu tamoyil davlat va soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni yig'ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko'zda tutadi. Buning uchun respublikamizda soliq solish tartibini takomillashtirish bilan bir qatorda soliqlarni maqbullashtirish, kompyuter texnologiyalari, soliq axborotlarining to'g'riligini bevosita nazorat qilish usullarini qo'llash orqali soliq to'lovchilarning xarajatlarini kamaytirish maqsadida davlat hisobidan saqlanadigan servis-markazlar, soliq solish masalalari xususida soliq organlari tomonidan bepul maslahatxonalar tashkil etilgan.

*Soliq solishning soliq stavkalarini qiyoslash tamoyili.* Soliq stavkalari boshqa davlatlardagi xuddi shunday soliqlarning stavkalari bilan qiyoslanishi, ya’ni mintaqaning o’ziga xos xususiyatlari hisobga olingen holda boshqa mamlakatlar bilan teng bo’lgan xo’jalik faoliyati shart-sharoitlari vujudga keltirilishi lozim. Agar qattiq shartlar belgilab qo’yligudek bo’lsa, bu hol respublika iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishni mushkullashtirib yuboradi, aksincha, yengil sharoit yaratilsa, mamlakat budgetiga salbiy ta’sir qiladi.

Soliq solish tamoyillari va soliq qonunchiligi tamoyillari muayyan o’xshashlikka ega va ularni hayotga to’liq tatbiq etish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir.

*O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida keltirilgan soliq to’g’risidagi qonun hujjatlari prinsiplari quyidagilardan iborat:*

– har bir shaxs Kodeksda belgilangan soliq va boshqa majburiy to’lovlarni to’lashga majburdir (6-modda), ya’ni soliq to’lash qonun bilan majbur qilib qo’yiladi. Aslida majburiylik soliqlarning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadi;

– soliqlar va boshqa majburiy to’lovlар aniq bo’lishi kerak. Soliq to’g’risidagi qonun hujjatlarida har bir soliq to’lovchi qaysi soliqlar va majburiy to’lovlarni qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to’lashi kerakligini aniq biladigan tarzda ifodalangan bo’lishi kerak (7-modda);

– soliqlar va boshqa majburiy to’lovlар bo’yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo’lishi kerak (8-modda). Huquqiy shaxslarga soliq solish mulkchilik shaklidan qat’i nazar, jismoniy shaxslar esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy ahvoldan qat’i nazar qonun oldida tengdirlar;

– soliq tizimi O’zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to’lovehilarga nisbatan yagonadir (9- modda);

– soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e’lon qilinishi shart ekanligining belgilab qo’yilishi soliq qonunchiligining oshkoraliq prinsipini ifoda etadi (10-modda) ;

– mamlakatimizda soliq qonunchiligi qo’llanishi natijasida yuzaga keladigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to’lovchining foydasiga hal etilishi soliq to’lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipini anglatadi (11-modda).

*Nazorat savollari*

1. Soliqlar va soliqqa tortish maxsus kursini o’qitishning zarurligi nimada?
2. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati deganda nimani tushunasiz?
3. Soliqlarning ob’yektiv zarurligi nimalarda ko’rinadi?

4. Soliqlarning xususiyatlarini tushuntirib bering.
5. Soliq elementlari tarkibiga nimalar kiradi?
6. Soliq solish ob'yekti nima?
7. Soliqni qanday undirish usullari mavjud?

## 1.2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AMALDA BO'LGAN SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning rivojlanish bosqichlari.

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig'imlar, bojlar va majburiy to'lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig'indisi *soliq tizimini* tashkil etadi.

Soliq tizimi bozor munosabatlarning eng muhim elementlaridan bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy o'zgarishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan unga bog'liqdir. Shuning uchun ham hozirgi vaqtida yaratilgan soliq tizimini keskin qayta o'zgartirish to'g'risidagi takliflarga juda ehtiyyotkorlik bilan yondashish zarur. Bunday hollarda faqat bir daqiqalik samarani hisobga olmasdan, balki bu takliflarning mamlakat iqtisodiyoti va moliyasining barcha tomonlariga qay darajada ta'sir etishi, albatta, inobtaga olimmog'i lozim.

Tabiiyki, ideal soliq tizimini jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, undagi yaratilgan ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatini hisobga oluvchi muhim nazariy asos yordamidagina yaratish mumkin. Soliq tizimi xo'jaliklardagi bozor munosabatlarni rivojlanishiga ta'sir qilishi, tadbirdorlikning taraqqiy etishiga yordam berishi va bir vaqtning o'zida aholining kam ta'minlangan qatlami turmush tarzining pasayib ketishiga to'sqinlik qilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi soliqlar tizimi umum davlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar hamda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tizimidan iborat.

*Soliq kodeksining* 23-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududida umum davlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar hamda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi<sup>3</sup>.

*Soliqlarga quyidagilar kiradi:*

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. T. Adliya vazirligi. «Adolat» nashriyoti 2008 y.

- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 10) transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.

***Boshqa majburiy to'lovlariga quyidagilar kiradi:***

- 1) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar:
  - yagona ijtimoiy to'lov;
  - fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
  - byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- 2) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar:
  - Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
  - Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar;
- 2-1) byudjetdan tashqari Umumta'lim mакtablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- 3) davlat boji;
- 4) bojxona to'lovlar;
- 5) ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

***Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan quyidagi soliqlar qo'llanilishi mumkin:***

- 6) yagona soliq to'lovi;
- 7) yagona yer solig'i;
- 8) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Mustaqillik yillarida soliq tizimi islohoti rivojlanishini to'rt bosqichga bo'lib o'rGANISH mumkin.

**Birinchi bosqich 1991-1994 yillar - O'zbekistonning o'z soliq tizimini tashkil etish va soliqlarning xazinaviy ahamiyatini oshirish bosqichidir.**

Soliq islohotlarining **ikkinci bosqichi** soliqlarni bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirish va korxonalarning ishlab iqrishni rag'batlantirishga qaratish davridir. Bu davr **1995-1997** yillarni o'z ichiga oladi. Ushbu davrda O'zbekiston Respublikasi oliy Majlisining 1997 yil 24

apreldagi qaroriga asosan mamlakatimizining birinchi Soliq kodeksi qabul qilindi va 1998 yil 1 yanvardan amalga kiritildi.

Soliq islohotining **uchinchi bosqichi 1998-2004** yillarni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichni soliq tizimida soliqlarni ixchamlashtirish konsepsiyasining boshlanish davri deb atash mumkin.

Soliq islohotining **to‘rtinchi bosqichi 2005** yildan to hozirgi vaqtgacha bo‘lgan davr. Bu bosqichni soliq tizimida tadbirkorlik sub‘yektlarini har tomonlama rag‘batlantirish, ular faoliyatini qo‘llab quvvatlash, soliq tizimini soddalashtirish, soliq ma‘murchilagini takomillashtirish davri deb atash mumkin.

### **Soliq tizimini guruhlashning o‘ziga xos xususiyatlari.**

O‘zbekiston soliq tizimida soliqlarni ob‘yekti, iqtisodiy mohiyati budjetga tushishi va to‘lovchilar ni nuqtai-nazari bo‘yicha guruhlarga ajratib o‘rganish mumkin.

*Soliqlar soliq solish ob‘yektiga qarab to‘rt guruhga bo‘linadi:*

1. Oborotdan olinadigan soliqlar.
2. Daromaddan olinadigan soliqlar.
3. Mol-mulkdan qiymatidan olinadigan soliqlar.

*Oborotdan olinadigan soliqlarga* qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, bojxona boji va yer qa‘ridan foydalanganlik uchun olinadigan soliqlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo‘yicha ilgarigidek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki yuklab yuborilgan mahsulotlar qiymati bilan o‘lchanadi. Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq to‘lovi ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

*Daromaddan olinadigan soliqlarga* yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliq, jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, ixtisoslashtirilgan ulgurji savdo korxonalarining yalpi daromadidan olinadigan soliq kiradi. Bu guruh soliqlarga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i ham kiradi.

*Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga* yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i, qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining yagona yer solig‘i hamda yuridik va jismoniy shaxslarning yer soliqlarini kiritish mumkin.

*Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar egri (bilvosita), to‘g‘ri (bevosita) soliqlarga bo‘linadi.* To‘g‘ri soliqlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliq to‘lovchilarning o‘zi to‘laydi, ya‘ni soliqning huquqiy to‘lovchisi ham, haqiqiy to‘lovchisi ham bitta shaxs bo‘ladi. **Bu soliqlar tarkibiga** barcha daromaddan to‘lanadigan soliqlar hamda mol-mulk va resurs soliqlari

kiradi. Resurs soliglari tarkibiga yer solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar kiradi.

To'g'ri soliqlarda to'g'ridan-to'g'ri daromaddan soliq to'langanligi uchun soliqlar stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko'p qismini ularga qoldirib, investitsiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratib, bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi. Bu soliqlarning stavkalari oshirilsa, korxonalarning moliyaviy imkoniyatlari kamaya boradi. Demak, bu guruh tarkibiga kiruvchi soliqlarning stavkalari iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bog'liqdir.

Egri soliqlarning huquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmat)ni yuklab yuboruvchilar hisoblanadi. Lekin, soliq og'irligi haqiqatan ham tovar (ish, xizmat)ni iste'mol qiluvchilar, ya'ni bevosita iste'molchilar zimmasiga tushadi. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga qo'shimcha ravishda qo'yiladi.

Egri soliqlarning ijobji tomoni shundaki, ular respublikada ishlab chiqarilgan tovarlar respublikadan tashqariga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlarning serob bo'lishiga yordam beradi hamda inflyatsiya darajasini (muomaladagi ortiqcha pul massasini) birmuncha jilovlab turadi.

*Egri soliqlar tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona boji, jismoniy shaxslarning transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun soliqlari kiradi.*

Chunki qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i iqtisodiy kon'yukturaning o'zgarishlariga bevosita bog'liq bo'limgan barqaror daromad manbalari hisoblanadi va egri soliqlar bo'yicha tushumlarning asosiy qismini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat budgeti ijtimoiy xarakatlari o'sish tendensiyasiga ega ekanligi davlat budgeti daromadlari hajmini uzlusiz oshirib borishni taqozo qiladi. Bu esa qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i kabi barqaror daromad manbalarini, budget daromadlarini uzlusiz ta'minlashni taqozo qiladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, to'g'ri va egri soliqlar yagona soliq tizimini tashkil etib, bir-biri bilan o'zaro bog'langandir. Yevropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Yevropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarning hajmida egri soliqlarning salmog'i 40 foizdan yuqori bo'lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich 50 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlar guruhi Meksika, Turkiya va Koreya

kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushu ko'rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi.<sup>4</sup>

*Budjetga tushishiga qarab soliqlar umum davlat va mahalliy soliqlarga bo'linadi.*

*Umum davlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar tarkibiga quyidagilar kiradi:*

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olimadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Umum davlat soliqlari har yili O'zbekiston Republikasi Prezidentining keyingi moliya yili uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va davlat budjeti bo'yicha chiqadigan qarori asosida belgilangan normativlar bo'yicha tegishli mahalliy budgetlar o'rtaida taqsimlanadi;

- 7) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar:
  - yagona ijtimoiy to'lov;
  - fuqarolarning budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
  - budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- 8) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar:
  - Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
  - Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar.
- 9) davlat boji. Davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va bunday harakatlар uchun vakolatli muassasalar, shuningdek mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar bergenlik uchun olinadigan majburiy to'lovdir. Bunday vakolatli muassasalarga misol qilib sud va notarial idoralarni, O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasi va uning konsullik muassasalarini keltirish mumkin. Davlat bojining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi;
- 10) bojaxona to'lovlar. Bojaxona organlari bojaxona ishini amalga oshirishda belgilangan tartibda bojaxona to'lovlarini undiradi. Bojaxona to'lovlarining quyidagi turlari mayjud:
  - bojaxona boji;
  - import qilinayotgan tovarlar uchun undirilagan qo'shilgan qiymat solig'i;

<sup>4</sup> Panskov V.P., Knyazev V. G. Nalogi i nalogoooblojenie. - M.: MTSFER, 2003. -s. 57-59.

- import qilinayotgan tovarlar uchun undiriladigan aksiz solig'i;
- bojxona yig'imi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan umum davlat soliqlari:

- 1) yagona soliq to'lovi;
- 2) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

*Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lov larga quyidagilar kirdi:*

- 1) mol-mulk solig'i;
- 2) yer solig'i;
- 3) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 4) transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlaganlik uchun olinadigan soliq;

5) ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im;

- 6) yagona yer solig'i (soddalashtirilgan tartibdagi soliq).

Umum davlat soliqlari asosan respublika budgeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, mahalliy soliqlar va yig'imir mahalliy budgetlar daromadlarini shakllantiradi.

To'lovchilar nuqtai-nazaridan soliqlarni *yuridik va jismoniy shaxslar to'laydigan* soliqlarga ajratishimiz mumkin.

*Soliq to'lashiga ko'ra yuridik shaxslarni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:*

- 1) umumiylar tartibda soliq to'lovchi yuridik shaxslar;
- 2) mikrofirmalar va kichik korxonalar;
- 3) qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar;
- 4) savdo va umumiylar ovqatlanish korxonalar;
- 5) lotoreyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar o'tkazishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar;
- 6) tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar.

*Umumiylar tartibda soliq to'lovchi yuridik shaxslar quyidagi soliqlarni to'laydi:*

1. Foyda solig'i;
2. Qo'shilgan qiymat solig'i;
3. Aksiz solig'i;
4. Mol-mulk solig'i;
5. Yer solig'i;
6. Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
7. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
8. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.

*Soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tgan yuridik shaxslar quyidagi soliqlarni to'laydi:*

1. Yagona soliq to'lovi;
2. Yagona yer solig'i;
3. Qat'iy belgilangan soliq;
4. Qo'shilgan qiymat solig'i (ixtiyoriy);
5. Aksiz solig'i (aksiz to'lanadigan mahsulotlar ishlab chiqarganda);  
Shuningdek yuqoridagi barcha yuridik shaxslar *quyidagi yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlarni ham to'laydilar:*

1. Bojxona to'lovlari (bojxona bojlari va yig'imlari, aksiz solig'i va tovarlarni import qilishda qo'shilgan qiymat solig'i);
2. Davlat bojlari;
3. Tovarlarning ayrim turlari bilan savdo qilish huquqi uchun yig'imlar;

4. Davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalar (budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga, Respublika yo'l jamg'armasiga, Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga);

*Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar va yig'imlar tarkibi quyidagilardan iborat:*

1. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq;
2. Mol-mulk solig'i;
3. Yer solig'i;
4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
5. Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
6. Bojxona to'lovlari (bojxona bojlari va yig'imlari, tovarlarni import qilishda aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i);
7. Davlat boji;
8. Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im;

**O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati va uning asosiy yo'nalishlari.**

*Soliq siyosati* - bu iqtisodiy siyosatning ajralmas bir qismi bo'lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to'lovlarni amaliyotda ishslash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir. Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo'nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular

o‘rtasidagi nisbatni ta’minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli kuchayib, o‘z oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda soliq siyosati muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Soliq siyosati amalda davlat boshqaruvining boshqa unsurlari: pul-kredit siyosati, baho siyosati kabilar bilan birgalikda mamlakatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga faol ta’sir etadi. Davlat soliq siyosati orqali iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiradi yoki cheklaydi. Zero Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek: - «Soliq siyosatining vazifasi-bir tomondan, budget daromadining barqaror safarbarligini ta’minlashdan, ikkinchi tomondan - korxonalarni respublika uchun zarus bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishga rag‘batlantirishdan iborat»<sup>5</sup>. Soliq siyosatining asosiy vazifasi oxir-oqibat iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilishi lozim.

Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar xususiyatini e’tiborga olib soliq siyosati: soliq siyosati strategiyasi soliq siyosati taktikasiga bo‘linadi.

*Soliq siyosati strategiyasi* - soliq siyosatining uzoq muddatli yo‘nalishi bo‘lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergen ulkan masshtabli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta’minlash ko‘zda tutilgan soliqqa doir moliyaviy tadbirlar yig‘indisidir.

*Soliq siyosati taktikasi* esa belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta’minlovchi, tez-tez o‘zgarib turuvchi sayi-harakatlarni bildirib, qisqa muddatli va kichik masshtabli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo‘nalishlar majmuasi hisoblanadi.

Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va soliqsiz to‘lovlarini qonuniy joriy etish;

- amal qilayotgan soliqlarni samarali ishslashini ta’minlovchi mexanizmini shakllantirish va takomillashtirish, soliqqa oid qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;

- soliq siyosatini amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularni ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;

- soliqqa tortish tizimini shakllantirishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va ularni joriy etishni tashkil etish.

<sup>5</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T.: "O‘zbekiston", 1998. 52-bet.

## **Soliq tizimining huquqiy asoslari.**

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlari, soliq ishlarini yuritish tartibi va soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni<sup>6</sup> va shu kabi bevosita soliqqa oid qonun hujjatlari orqali tartibga solib turiladi.

O'zbekiston Respublikasida dastlabki Soliq kodeksi O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 24 apreldagi 396-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 24 apreldagi 397-I-sonli Qarori bilan 1998 yil 1 yanvardan toki 2008 yil 1 yanvargacha amalda bo'lgan.

Mamalakatimizda yangi Soliq kodeksi O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 25 dekabrdagi 136-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan va 2008 yil 1 yanvardan e'tiboran amalga kiritilgan. Ushbu Kodeks XXI bo'lim, 64-bob, 392-moddadan iborat.

Soliq haqidagi qonun hujjatlarining boshqa qonunlar va qonun hujjatlaridan o'rin olgan normalari Soliq kodeksiga muvofiq bo'lishi lozim. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida Soliq kodeksidan boshqacha qoidalar belgilangan yoki nazarda tutilgan bo'lsa, unda xalqaro shartnomaga qoidalarida belgilangan shartlar amalda qo'llaniladi.

Soliq solish - yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi.

Belgilanayotgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning yoki pul mablag'larining O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yishi yoxud soliq to'lovchining iqtisodiy faoliyatini boshqacha tarzda cheklab qo'yishi yoki unga g'ov bo'lishi mumkin emas. Olingan manbalaridan qat'i nazar, barcha daromadlarga soliq solinishi lozim, soliq imtiyozlarini belgilashda esa albatta ijtimoiy adolat prinsiplariga rioushish kerak.

O'zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar O'zbekiston Respublikasining pul birligi-so'mda hisoblab chiqariladi.

---

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustdagги qaroriga asosan amalga kiritilgan.

## **Soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatlari.**

*Amaldagi Soliq kodeksiga ko‘ra soliq to‘lovchilar quyidagi huquqlarga egadirlar:*

1. Davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlari, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagi o‘zgarishlar haqida axborot olish.

Soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslar o‘zlari ro‘yxatdan o‘tgan quyi davlat soliq xizmati organlariga borib, budget oldidagi o‘z majburiyatlarini xatolarsiz bajarish maqsadida tegishli axborotlarni yoki maslahatlarni bepul olish imkoniyatlariga ega.

2. O‘z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan davlat soliq xizmati organlari hamda boshqa vakolatli organlardagi mavjud ma‘lumotlarni olish.

Bunga muvofiq soliq to‘lovchilar quyi soliq idoralaridan xo‘jalik va moliyaviy faoliyatlariga tegishli bo‘lgan soliq solish masalaları bo‘yicha maslahat olish va ma‘lumotlar bilan tanishish imkoniyatiga egadirlar.

3. Soliq munosabatlari masalalari yuzasidan o‘z manfaatlarini shaxsan yoki o‘z vakili orqali ifoda etish.

4. Soliq kodeksida, boshqa qonunlar va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida belgilab qo‘yilgan asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda hamda tartibda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlardan foydalanish.

Soliq to‘lovchilar nafaqat Soliq kodeksida, balki Vazirlar Mahkamasining yoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qaror va farmonlarida ko‘zda tutilgan imtiyozlardan ham foydalanish huquqlariga egadirlar. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to‘ldirish yuzasidan qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 1047-sonli qaroriga asosan 2012 yil 1 yanvariga qadar bo‘shaydigan mablag‘larni ishlab chiqarish korxonalarini texnikaviy qayta jihozlash va modernizatsiyalashga, shu jumladan yangi laboratoriylar barpo etish va mavjudlarini jihozlashga, yangi mahsulot turlari ishlab chiqarishni o‘zlashtirishga, shuningdek xom ashyo bazasini rivojlantirishga maqsadli tarzda yo‘naltirish sharti bilan asosiy faoliyat turi bo‘yicha go‘sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan mikrofirmalar hamda kichik korxonalarga yagona soliq to‘lovini 50 foizga kamaytirilgan stavkada to‘lash bo‘yicha imtiyoz berilgan.

5. Soliqlar, boshqa majburiy to‘lovlari, penya va jarimalarning ortiqcha to‘langan yoki undirilgan summalarini hisobga olish yoki qaytarib olish.

Budgetga ortiqcha undirilgan soliqlar 30 ish kuni ichida soliq to‘lovchilarga qaytarilishi yoki boshqa soliqlar va yig‘imlardan qarzi

mavjud bo‘lgan holda o‘sha qarzni qoplashga yo‘naltirilishi imkoniyati paydo bo‘ladi.

6. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarни to‘lashni kechiktirish va (yoki) bo‘lib-bo‘lib to‘lash.

7. Soliq solish ob‘ektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarни hisoblab chiqarish hamda to‘lashda o‘zлari yo‘l qo‘ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish.

Soliq to‘lovchilar soliq hisob-kitobini quyi soliq idoralariga qonunchilikda belgilangan muddatlarda topshirgandan so‘ng xato va kamchiliklarni aniqlashsa, uni tuzatib, darhol soliq idoralariga soliq hisob-kitoblarini qayta topshirishlari lozim bo‘ladi. Aks holda qonun oldida javob berishlariga to‘g‘ri keladi.

8. Soliq tekshiruvlari materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish.

Soliq to‘lovchilar faoliyati soliq organlari tomonidan tekshirilganda aniqlangan xato va kamchiliklar, qo‘srimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, hisoblangan moliyaviy jarimalar to‘g‘risida tuzilgan dalolatnama korxona mansabdor shaxslariga (bosh hisobchisiga) tanishtirilishi shart. Tekshirish natijalarini korxona rahbariyati noto‘g‘ri deb hisoblashi hamda e’tiroz bildirishi ham mumkin. Bunday holatda soliq to‘lovchi soliq idorasi rahbariyati nomiga yoxud yuqori soliq idoralariga yozma murojaat qilishi mumkin. Soliq idoralarida ekspert komissiyasi tuzilgan bo‘lib, ushbu komissiya tomonidan soliq to‘lovchilarning yozma e’tirozlarini bir oy muddat ichida ko‘rib chiqiladi va natijasi arizachiga bildiriladi. Bunday holatda tekshirish natijasida soliq to‘lovchiga nisbatan qo‘srimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hamda moliyaviy jarimalarni budgetga undirish to‘xtatilmaydi.

9. Soliq tekshiruvlarini amalga oshirayotgan davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini bajarishga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish.

10. Davlat soliq xizmati organlarining, boshqa vakolatli organlar va ular mansabdor shaxslarining Soliq kodeksiga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo‘limgan hujjatlari hamda talablarini bajarmaslik.

11. Davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

Soliq organlari o‘zlariga berilgan vakolat doirasida qabul qilgan qarorlari ayrim hollarda soliq to‘lovchilarning e’tirozlarini keltirib chiqarishi yoki ular mansabdor shaxslarining hatti-harakatlarini soliq to‘lovchi qonunga zid deb hisoblashi va ularga barham berish maqsadida yuqori soliq organlari (Davlat soliq boshqarmasi, Davlat soliq qo‘mitasi)ga

yoxud sudga shikoyat bilan da'vo qilishi mumkin. Bunday holat amaliyotda ba'zida uchrab turadi.

12. Davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdon shaxslarining qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zararning o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish.

Soliq to'lovchilar Soliq kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

*Soliq kodeksiga ko'ra soliq to'lovchilar quyidagi majburiyatlarga egadir:*

1. O'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi.

Soliq to'lovchilar har bir soliq turi bo'yicha hisob-kitoblarini belgilangan muddatlardan kechiktirmasdan soliq idoralariga taqdim etadi. Aks holda korxonaga va korxonaning mansabdon shaxslariga nisbatan moliyaviy va ma'muriy jazo choralar qo'llaniladi.

2. Qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi.

Korxona o'zining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini yuritishda qonunchilik bilan belgilab berilgan hisob va buxgalteriya hisobi hujjatlarini yuritishga majburdir. Korxonada buxgalteriya hisobini yuritish tegishli qonunchilik normalari asosida amalga oshiriladi.

3. Davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi.

Soliq to'lovchilarga Soliq kodeksida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida yoki boshqa qonun hujjatlarida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan imtiyozlar ko'zda tutilgan holda, ular imtiyoz olish huquqini tasdiqlovchi tegishli qonun hujjatlarini quyi soliq idoralariga taqdim etishlari shart. Imtiyoz huquqini tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lqandagina ular imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

4. Soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtida davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi.

Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi respublika kengashining tekshiruv rejasiga asosan davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilar faoliyati tekshirilganda korxonalar soliq solish ob'yekti bilan bog'liq bo'lgan barcha ob'yektlarini ko'zdan kechirish va tekshirishga sharoit yaratib berishlari lozim. Aks holda soliq idoralarining qonuniy talablari bajarilmagan hisoblanadi va ularga nisbatan qonunchilikda ko'zda tutilgan tegishli jazo choralar qo'llaniladi.

5. Davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdon shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi,

shuningdek mazkur organlarning, ular mansabdon shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi shart.

Soliq idoralari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijasida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yoki ularning boshqa vakolat doirasidagi qonuniy talablari soliq to'lovchilar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Soliq agentlari yuqorida qayd etilgan majburiatlardan tashqari:

– soliq to'lovchilarga to'lanadigan mablag'lardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda budgetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishi;

– soliq to'lovchilarga to'langan daromadlarning, ushlab qolingga hamda budgetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisobini yuritishi, shu jumladan har bir soliq to'lovchi bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Soliq to'lovchilar Soliq kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida o'z zimmalariga yuklatilgan boshqa majburiatlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Hisobotlarni o'z vaqtida topshirmaganlik, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarni ko'rsatganlik va budgetga soliqlarni to'lamaganlik uchun yuridik shaxslarga Soliq kodeksida nazarda tutilgan moliyaviy jazo choralar qo'llaniladi, yuridik shaxslarning mansabdon shaxslari esa, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy, fuqarolik-huquqiy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar (Soliq kodeksining 132-moddasi).

1-jadval

#### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ KODEksi BO'YiCHA YURIDIK ShAXSLARGA QO'LLANILADIGAN JAZO ChORALARI (17-BOB)<sup>7</sup>

T/r	Huquqbazarliklar	Jazo choralari		
		jazo chorasi	qo'llash sharti	miqdori
1.	Soliq to'lovchining, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentining, bundan bir vaqtning o'zida davlat soliq xizmati organlarida va davlat	jarima	agar faoliyat ko'pi bilan 30 kun amalga oshirilgan bolsa	eng kam ish haqining 50 baravari miqdorida, biroq bunday faoliyat natijasida olingan sof tushumning 10%idan kam bo'limagan miqdorda

<sup>7</sup> Soliq kodeksiga asosan mualliflar tomonidan tayyorlandi.

T/r	Huquqbuzariliklar	Jazo choralar		
		jazo chorasi	qo'llash sharti	miqdori
			agar faoliyat 30 kundan ortiq amalga oshirilgan bo'lsa	eng kam ish haqining 100 baravari miqdorida, biroq bunday faoliyat natijasida olingen sof tushumning 50%idan kam bo'lmagan miqdorda
2.	Soliq to'lovchining, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentining davlat soliq xizmati organida ob'ektlar bo'yicha hisobga turishdan bo'yin tovashi	jarima	agar hisobga turish bo'yicha belgilan-gan muddatdan ko'pi bilan 30 kun o'tgan bo'lsa	eng kam ish haqining 50 baravari miqdorida
			agar hisobga turish bo'yicha belgilan-gan muddatdan 30 kundan ortiq o'tgan bo'lsa	eng kam ish haqining 100 baravari miqdorida
3.	Sotishdan olingen tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish)*	undirish		yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) tushum summasi
4.	Kirim qilinmagan tovarlarni saqlash, qonuniy kelib chiqishi tasdiqlangan hollar bundan mustasno	undirish		kirim qilinmagan tovar qiymati
5.	Soliq hisobotini o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar asoslarini yoxud aniqlashtirilgan soliq hisobotini belgilangan muddatda taqdim etmaganlik	jarima	ma'muriy jazo chorasi qo'llanil- ganidan keyin bir yil ichida takroran sodir etilgan	to'lov muddati o'tkazib yuborgan har bir kun uchun 1 %, biroq tegishli hisobot davri uchun ilgari hisoblab chiqarilgan to'lovlar chegirib tashlangan holda belgilangan to'lov muddatiga tegishli to'lov summasining 10% idan ko'p bo'lmagan miqdorda

T/r	Huquqbuzarliklar	Jazo choralar		
		Jazo chorasi	qo'llash sharti	miqdori
6.	Buxgalteriya hisobining yo'qligi yoki uni belgilangan tartibni hisoblاب chiqarshshi lozim bo'lgan soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar summasini aniqlab bo'lmaydigan darajada buzib yuritish	jarima		soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini aniqlash imkonи bo'lmagan davrda tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotilishidan tushum summasining 1 %, biroq eng kam ish haqining 50 baravaridan ko'p** bo'lmagan miqdorda
7.	Faoliyat turlari bilan litsenziyasiz va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz shug'ullanish	jarima		faoiyatning ushbu turlarini litsenziyasiz yoki boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarsiz amalga oshirish davrida olingan sof foyda miqdorida, biroq eng kam ish haqining 50 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda
8.	Qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lmagan mahsulot yetkazib beruvchilar tomonidan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda qo'shilgan qiymat solig'ini hisobvaraqt-fakturada aks ettirganlik	jarima		mahsulot yetkazib beruvchilarga hisobvaraqt-fakturada ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasining 20% miqdorida****
9.	Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini va (yoki) to'lovlarini plastik kartochkalar asosida qabul qilish bo'yicha hisob-kitob terminallarini ishlatalish majburiy bo'lgani holda ularni ishlatmasdan savdoni amalga oshirganlik va xizmatlar ko'rsatganlik,	jarima		eng kam ish haqining 30 baravaridan 50 baravargacha miqdorda

T/r	Huquqbuzarliklar	Jazo choralar		
		jazo chorasi	qo'llash sharti	miqdori
			jarima qo'llanilganid an keyin 1 yil ichida sodir etilganda	eng kam ish haqining 75 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda
10.	Texnik talablarga javob bermaydigan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik yoki fiskal xotirasining xizmat ko'rsatish dasturi buzilgan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanganlik, shuningdek plastik kartochkalar asosida to'lovlarni qabul qilishni rad etganlik	jarima	jarima qo'llanilganid an keyin 1 yil ichida sodir etilganda	eng kam ish haqining 100 baravari miqdorida
				eng kam ish haqining 200 baravari miqdorida
11.	Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini buzish	penya	muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun, to'lov kuni ham shunga kiradi***	har bir kun uchun 0,05% miqdorida
12.	Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilanidan kattaroq hajmda foydalinish	jarima	yer solig'ining summasiga ekvivalent	yuridik shaxslarga – 2 baravari miqdorida
				jismoniy shaxslarga – 1,5 baravari miqdorida
13.	Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish)	jarima	yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) summaning	20 foizi miqdorida

\* Soliq kodeksining 114-moddasiga muvofiq yashirilgan (kamaytirib ko'rsatilgan) tushum  
summasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish maqsadida hisobga

*olimmaydi hamda mazkur soliqqa oid huquqbuzarlik yuzasidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qayta hisob-kitob qilinmaydi,*

*Bunda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushumni yashirish (kamaytirib ko'rsatish) deb quyidagilar e'tirof etiladi:*

– tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligi hollari hujjat bilan tasdiqlanganda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushgan tushum summasining hisobga olish registrlarida aks ettirilmaganligi;

– tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganligidan dalolat beruvchi hujjatlarning almashtirilganligi, soxtalash tirilganligi yoki yo'q qilinganligi;

– hisobda realizatsiya qilinmagan deb ko'rsatilgan tovarlarning omborda yoki realizatsiya qilish joyida mavjud emasligi.

\*\* Jarimani to'laganlik soliq to'lovchini buxgalteriya hisobini tiklash majburiyatidan ozod qilmaydi.

\*\*\* Bunda boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha ortiqcha to'langan summag'a teng bo'lgan qarz summasiga perya hisoblanmaydi. Penya miqdori tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasidan oshib ketishi mumkin emas. Penya undirilishi soliq to'lovchini soliq majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi. Yuridik shaxs — tadbirkorlik sub'ekti ixtiyoriy tugatilgan taqdirda, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran barcha turdag'i soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha penyalar hisoblash to'xtatiladi. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tarib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta boshlangan taqdirda, penya belgilangan tartibda qo'shib hisoblanadi hamda hisoblashlar to'xtatib turilgan butun davr uchun undiriladi.

\*\*\*\* Bunda mahsulot yetkazib beruvchi hisobvaraq-fakturada ko'rsatilgan soliq summasini budjetga to'lashi shart.

## 2- jadval

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI KODEKSI BO'YICH A MANSABDOR ShAXSLARGA QO'LLANILADIGAN JAZO ChORALAR (13-BOB)<sup>8</sup>

T/r	Huquqbuzarliklar	Jazo choralar	
		jazo chorasi turi	miqdori
1.	Soliq olinadigan foydani (daromadni) yoki boshqa ob'yektlarni qasddan yashirish (kamaytirib ko'rsatish) yoxud soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashdan qasddan bo'yin tov lash	jarima	eng kam oylik ish haqi miqdorining 5 baravaridan 7 baravarigacha
	Katta miqdorda sodir etilgan xuddi shu huquqbuzarlik		eng kam oylik ish haqi miqdorining 10 baravaridan 15 baravarigacha

<sup>8</sup> Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga asosan mualliflar tomonidan tayorlandi.

T/r	Huquqbuzarliklar	Jazo choralar	
		jazo chorasi turi	miqdori
2.	Daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etishdan bo'yin tovash, deklaratsiyani o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki unda atayin noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish	jarima	eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 baravaridan 3 baravarigacha
3.	Foyda (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa ob'yektlarning hisobini olib bormaslik yoxud bunday hisobni belgilangan tartibni buzgan holda olib borish	jarima	eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 baravaridan 3 baravarigacha
	ma'muriy undiruv chorasi qo'llangandan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan xuddi shu huquqbuzarlik		eng kam oylik ish haqi miqdorining 3 baravaridan 5 baravarigacha
4.	Soliqlarni, budgetga va budgetdan tashqari fondlarga boshqa majburiy to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur bo'lgan soliq hisobotlarini, hisob-kitoblarini va boshqa hujjalarni taqdim etmaslik, o'z vaqtida taqdim etmaslik yoki belgilanmagan shaklda taqdim etish, basharti bu harakatlar to'lanishi lozim bo'lgan soliq yoki boshqa to'lovlarning miqdorini kamaytirishga olib kelsa	jarima	eng kam oylik ish haqi miqdorining 1 baravaridan 3 baravarigacha
	ma'muriy undiruv chorasi qo'llangandan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan xuddi shu huquqbuzarlik		eng kam oylik ish haqi miqdorining 3 baravaridan 5 baravarigacha
5.	Soliq organlarida ro'yxatga olinganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasiz korxonalar va tashkilotlarga hisob-kitob yoki boshqa schyotlarini ochish	jarima	eng kam oylik ish haqi miqdorining 5 baravaridan 10 baravarigacha
6.	Buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish tartibini buzish	jarima	eng kam oylik ish haqi miqdorining 5 baravaridan 10 baravarigacha
	ma'muriy undiruv chorasi qo'llangandan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan xuddi shu huquqbuzarlik		eng kam oylik ish haqi miqdorining 10 baravaridan 15 baravarigacha
7.	Soliq to'lovchilarning identifikatsiya raqamlarini qo'llanish tartibini buzish	jarima	eng kam oylik ish haqi miqdorining 3 baravaridan 7 baravarigacha

T/r	Huquqbuzarlikdar	Jazo choralar	
		jazo chorasi turi	miqdori
8.	Xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning tomonidan pochta manzili (joylashgan yeri), bank rekvizitlari o'zgarganligi to'g'risida yoki o'zi qayta ro'yxatdan o'tganligi to'risidagi ma'lumotlarni o'n kunlik muddat ichida vakolatlari davlat organlariga taqdim etmaslik yoxud yolg'on ma'lumotlarni taqdim etish	jarima	eng kam oylik ish haqi miqdorining 10 baravaridan 15 baravarigacha
	Auditornint auditorlik tekshiruvi o'tkazish chog'ida aniqlangan buxgalteriya hisobini yuritish, shuningdek moliyaviy hisobot tuzishga oid qonun hujjatlari bilan belgilangan ta.lablarni buzish dalillarini yashirish, auditorning atayin yolg'on auditorlik hisoboti yoki auditorlik xulosasini tuzishi	jarima	eng kam oylik ish haqi miqdorining 10 baravaridan 15 baravarigacha
10.	Xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bosh tortishi*	jarima	eng kam oylik ish haqi miqdorining 5 baravaridan 10 baravarigacha
11.	Ish beruvchi yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari tomonidan Xalq banki filialiga fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun zarur ma'lumotlarni, fuqarolarning shaxsiga oid ma'lumotlarni bilan bog'liq o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan taqdim etmaslik yoki noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etganlik, xuddi shuningdek hisoblab chiqarilgan va kiritilgan jamg'arib boriladigan pensiya badallari to'g'risidagi ma'lumotlarni xodimlarga taqdim etmaslik	jarima	eng kam oylik ish haqi miqdorining 2 baravaridan 4 baravarigacha
12.	Jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarini kiritishdan bosh tortish	jarima	eng kam oylik ish haqi miqdorining 3 baravaridan 5 baravarigacha
13.	Fuqarolar o'rtasida binoni, inshootni yoki ularning bir qismini, turar joyini ijaraga berish shartnomasining mayjud emasligi yoxud ijaraga berish shartnomasining majburiy notarial tasdiqlanishiga riyoq qilmaslik	jarima	eng kam oylik ish haqi miqdorining 5 baravaridan 10 baravarigacha

\* Xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning mansabdon shaxsiga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin kalendar yil tugaganiga qadar majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bosh tortish xo'jalik yurituvchi sub'yeqtidan eng kam oylik ish haqining 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima undirishga sabab bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning oxirgi hisobot sanasidaga joriy aktivlari summasining jami 20 foizidan ortiq miqdorda jarima undirish unga undiriladigan summasini undirish to'g'risida qaror qabul qilingan

kundan e'tiboran olti oy mobaynida oyma-oy bo'lib to'lash imkonи berilgan holda amalga oshiriladi. Jarimaning to'lanishi xo'jalik yurituvchi sub'yeckni majburiy auditorlik tekshiriuvidan o'tishdan ozod qilmaydi (O'zbekiston Respublikasining 09.12.1992 yildagi «Auditorlik faoliyatini to'g'risida»gi 734-XII-sonli Qonuni 10-moddasining uchinchisi qismi).

3-jadval

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT KODEKSI BO'YICHА MANSABDOR  
ShAXSLARGA QO'LLANILADIGAN JAZO ChORALARI  
(12-BOB)<sup>9</sup>**

T/r	Huquqbuzarliklar	Jazo choralarli	
		Jazo chorasi turi	miqdori
1.	Foya (daromad) yoki soliq solinadigan boshqa ob'yektlarni qasddan yashirishni, kamaytirib ko'rsatishni, shuningdek davlat tomonidan belgilangan soliqlarni, yig'imlarni, boj yoki boshqa to'lovlarni to'lashdan qasddan bo'yin tovplashni ancha miqdorda sodir etish, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin ro'y bergan bo'lsa	jarima	eng kam oylik ish haqi miqdorining 150 baravarigacha
		yoki axloq tuzatish ishlari	ikki yilgacha
		yoki qamoq	olti oygacha
	Soliq yoki boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovplash: a) takroran; b) ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa**	jarima	eng kam oylik ish haqi miqdorining 150 baravaridan 300 baravarigacha
		yoki axloq tuzatish ishlari	ikki yildan uch yilgacha
		yoki ozodlikdan mahrum qilish	uch yilgacha*
	Soliq yoki boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovplash juda ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa***	jarima	eng kam oylik ish haqining 300 baravaridan 600 baravarigacha
		yoki ozodlikdan mahrum qilish	uch yillardan besh yilgacha*
	Soxta bankrotlik, ya'ni xo'jalik yurituvchi sub'yeckning o'z majburiyatlarini iqtisodiy jihatdan bajara olmasligi haqida bila turib, haqiqatga to'g'ri kelmaydigan e'lon berishi kreditorlarga ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa	jarima	eng kam oylik ish haqining 100 baravaridan 200 baravarigacha
		yoki muayyan huquqdan mahrum qilish	besh yilgacha

<sup>9</sup> Jinoyat kodeksiga asosan mualliflar tomonidan tayyorlandi.

T/r	Huquqbuzarliklar	Jazo choralar	
		jazo chorasi turi	miqdori
		yoki axloq tuzatish ishlari	uch yilgacha
3.	Xo'jalik yurituvchi sub'ye ktning haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumot va hujjatlarni taqdim etish, buxgalterlik hisobotlarini buzib ko'rsatish yo'li bilan iqtisodiy jihatdan o'zining to'lovga qodirligining yo'qotganligini yoki iqtisodiy nochorligini boshqacha tarzda qasddan yashirishi kreditorlarga ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa	yoki ozodlikdan mahrum qilish****	uch yilgacha
		jarima	eng kam oylik ish haqining 100 baravaridan 200 baravarigacha
		yoki muayyan huquqdan mahrum qilish	besh yilgacha
		yoki axloq tuzatish ishlari	uch yilgacha
		yoki ozodlikdan mahrum qilish****	uch yilgacha

\* Qasddan yashirilgan, kamaytirib ko'rsatilgan foyda (daromad) bo'yicha soliqlar va boshqa to'lovlar to'liq to'langan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

\*\* Ko'p miqdor - eng kam oylik ish haqining 100 baravardan 300 baravarigacha bo'lgan miqdor.

\*\*\* Juda ko'p miqdor - eng kam oylik ish haqining 300 baravari va undan ortiq bo'lgan miqdor.

\*\*\*\* Yetkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidaga jazo qo'llanilmaydi.

### Nazorat savollari

1. Soliq tizimi nima?
2. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining qanday rivojlanish bosqichlari mavjud?
3. Hozirgi kunda qanday soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar mavjud?
4. Soliq siyosatining qanday yo'nalishlari mavjud?
5. Soliq kodeksining ahamiyati nimada?
6. Soliq to'lovchilar qanday huquqlarga ega?
7. Soliq to'lovchilar qanday majburiyatlarga ega?

## II BOB. YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLARNI SOLIQQA TORTISH

### 2.1. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG'I

**Foyda solig'ining joriy qilinishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.**

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari 1991 yilga qadar asosan davlat korxonalari foydasidan ajratiladigan ajratmalar hisobidan shakllanar edi. Ushbu foydadan ajratma davlat tomonidan belgilangan majburiy to'lov bo'lib, u korxonalar balans foydasining 90 foizgacha bo'lgan qismini budgetga olib ketar edi. Qolgan foyda miqdori esa korxona tomonidan emas, balki yuqori tashkilot topshirig'iga ko'ra tegishli fondlarga taqsimlanar edi.

Bozor munosabatlari rivojlanishi bilan iqtisodiyotni soliqlar yordamida tartibga solish, xususan, foydadan ajratmalar o'mniga daromad solig'ini joriy qilish zarurati paydo bo'ldi va 1992 yildan boshlab barcha turdag'i xo'jalik yurituvchi sub'yektlar daromad solig'ini to'lashga o'tdilar.

1995 yil yanvar oyidan boshlab soliqarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarning foydasidan olinadigan soliq joriy etildi. Shu bilan bir qatorda soliq to'lovchilarping ayrim toifalari uchun daromad solig'i va yalpi daromad solig'i tartibi saqlab qolindi (tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, gastrol-konsert faoliyatini olib boruvchi muassasalar, ko'ngilochar o'yinlarni tashkil etuvchi korxonalar, birja va boshqa shu kabi korxonalar).

2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i umum davlat soliqlari tarkibiga kirib, u davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

**Soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza.**

Soliq kodeksiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan *foyda solig'i to'lovchilari* bo'lib moliya yiliда soliqqa tortiladigan foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Ammo soliq solishning alohida tartibiga o'tgan korxonalar, jumladan yagona soliq to'loviga o'tgan mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiyligi ovqatlanish tashkilotlari, yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jalik tovari ishlab chiqaruvchilar bu soliqni to'lovchi hisoblanishmaydi. Ular o'zlarini uchun ixchamlashtirilgan soliqni to'laydilar. Bulardan tashqari tadbirkorlik faoliyatining faqat alohida

turlariga qat'iy stavkada soliq to'lovchilar ham bu soliq to'lovchilari hisoblanishmaydi.

Soliq solish maqsadida *yuridik shaxslar deganda* mustaqil balans va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan hamda mol-mulkida xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulkka ega bo'lgan va o'z majburiyatlar bo'yicha mol-mulki bilan javob bera oladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tushiniladi.

Soliq solish maqsadida foydaga soliq to'lovchilar *rezidentlar va nerezidentlarga* ajratiladi.

*O'zbekiston Respublikasining rezidenti* deb O'zbekistonda ta'sis etilgan yoki ro'yxatdan o'tgan hamda bosh korxonasi O'zbekistonda joylashib, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar O'zbekistonda va undan tashqaridagi faoliyatdan olgan daromadlaridan foyda solig'iga tortiladilar.

*O'zbekiston Respublikasining nerezidentlari* esa faqat O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatishdan olgan daromadlari bo'yicha soliqqa tortiladilar.

Soliq kodeksining 127-moddasiga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan *foyda solig'inining ob'yekti* bo'lib O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va nerezidentlarining foydasi hamda rezident va nerezidentlarning chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbaidan soliq solinadigan daromadlari hisoblanadi.

*Soliq solinadigan baza* esa jami daromad bilan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtaсидаги farq sifatida belgilangan imtiyozlarni hamda soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi hisobga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi (Soliq kodeksining 128-moddasi).

### **Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegirmalar.**

Yuridik shaxslarning jami daromadi tarkibiga ular tomonidan olinishi lozim bo'lgan (olingan) ortilgan tovar, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat haqlari kabi pullik va bepul (pulsiz), qaytarmaslik sharti bilan olingan mablag'larni kiritish mumkin.

Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibiga:

- *tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olinadigan daromadlar;*
- *boshqa daromadlar kiradi.*

*Tovarlarни (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya* qilishdan, shu jumladan yordamchi xizmatlar tomonidan realizatsiya qilishdan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i hamda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq chegirib tashlangan

holda olingen tushum tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar hisoblanadi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan tushum yuklab jo'natilgan tovarlar (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) qiymatidan kelib chiqqan holda tovarlarni jo'natish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish hollarini tasdiqlovchi hujjatlar asosida belgilanadi.

Vositachilik faoliyatidan daromadlar oladigan yuridik shaxslar uchun tushum deyilganda ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinishi lozim bo'lgan haq summasi tushuniladi.

Nashriyot va tahririyatlar uchun gazeta va jurnallarni realizatsiya qilishdan olingen tushum ularda reklamani joylashtirishdan olingen daromadlar kiritilgan holda aniqlanadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan foizlar, royalti, daromadlar olish imkonini beruvchi mol-mulkni va mulkiy huquqlarni boshqa shaxslarga foydalanishga berish, shuningdek talab qilish huquqidan boshqa shaxsning foydasiga voz kechishdan olingen daromadlar, agar ushbu xizmatlardan olingen jami daromadlar summasi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) relizatsiya qilishdan olingen daromadlarning umumiyligi summasida ustunlik qilsa, xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingen daromadlar deb e'tirof etiladi.

Kredit, sug'urta tashkilotlari, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari uchun Soliq kodeksining tegishincha 148, 150 va 152-moddalarida ko'rsatilgan daromadlar xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingen daromadlar deb e'tirof etiladi.

Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar (xizmatlar) bo'yicha, shuningdek ob'yeqtlni foydalanishga tayyor qilib qurish chog'ida shartnomaviy baholardan kelib chiqib haq to'lash uchun hisob-kitob hujjatlari taqdim etilgan, buyurtmachilar tomonidan bajarilgan (ko'rsatilgan) va tasdiqdangan ishlarning (xizmatlarning) qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati daromadga qo'shiladi.

*Boshqa daromadlarga* tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'limgan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi. Jumladan:

- asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;
- mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- tekin olingen mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar;

- inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zahiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar;
- hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillardagi daromadlar;
- majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar.
- talablardan o‘zgan foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olingen daromadlar;
- ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarning o‘mini qoplash tarzidagi daromadlar;
- xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan olinadigan daromadlar;
- birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar;
- undirib olingen yoki qarzdor tomonidan tan olingen jarimalar va penya, shuningdek qonuniy kuchga kirgan sud hujjati asosida qarzdor tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan jarimalar va penya;
- kursdagi ijobiy farq;
- dividendlar va foizlar;
- roylati;
- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bevosita bog‘liq bo‘limgan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan boshqa daromadlar qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi chegirilgan holda aniqlanadi.

*Soliq kodeksiga ko‘ra quyidagilar yuridik shaxs daromadi sifatida qaralmaydi:*

- ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingen hissalar;
- sotilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun boshqa shaxslardan dastlabki haq (bo‘nak) tarzida olingen mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);
- budgetdan berilgan subsidiyalar;
- agar mablag‘larni (mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni) boshqa shaxsga o‘tkazish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo‘lsa, tekin olingen mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;
- olingen grantlar va insонparvarlik yordami;
- sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta tovoni (sug‘urta summasi) tariqasida olingen mablag‘lar;
- investor va davlat mulkini boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk;
- boshqa qonunchilikda nazarda tutilgan daromadlar.

Soliq to‘lovchining xarajatlari soliq solinadigan foydani aniqlash paytida chegirib tashlanadi. Xarajatlar haqiqatda qaysi soliq davrida

amalga oshirilgan bo‘lsa, o‘sha davrda chegiriladi. Soliq kodeksiga ko‘ra (141-modda) *xarajatlar chegiriladigan va chegirib tashlanmaydigan xarajatlarga bo‘linadi*.

*Chegirib tashlanadigan xarajatlarga:*

- 1) moddiy xarajatlar;
- 2) mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- 3) amortizatsiya xarajatlari;
- 4) boshqa xarajatlar kiradi.

*Moddiy xarajatlarga* xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar, ishlab chiqarilgan va (yoki) realizastiya qilinadigan tovarlarni o‘rash va boshqacha tayyorlash uchun, shu jumladan sotuv oldidan tayyorlash uchun, boshqa ishlab chiqarish va xo‘jalik ehtiyojlari uchun materiallar, uskunalar hamda boshqa mol-mulkni ta‘mirlash uchun materiallar va ehtiyyot qismlar, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar doirasida suv xo‘jaligi tizimlaridan soliq to‘lovchilar tomonidan iste’mol qilinadigan suv uchun to‘lov ham kiradi.

*Mehnatga haq to‘lash xarajatlariga* haqiqatda bajarilgan ish uchun mehnatga haq to‘lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlar, tarif stavkalari va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblangan ish haqi, ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensastiya to‘lovlar, qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida dala ta‘minoti, ishlanmagan vaqt uchun haq to‘lash va nogironlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qo‘srimcha to‘lovlar kiradi.

*Amortizatsiya xarajatlarlariga* soliq to‘lovchi tomonidan hisobga olinadigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarlar uchun qilinadigan xarajatlar kiradi.

*Boshqa xarajatlar* jumlasiga soliq to‘lovchining faoliyatini amalga oshirish uchun o‘zga yuridik yoki jismoniy shaxslar bajargan ishlar va xizmatlar qiymati, ijara to‘lovlar, shuningdek ijaraga olingan asosiy vositalarni saqlab turish bilan bog‘liq xarajatlar, mahsulotni sotish bozorlarini o‘rganish xarajatlari, tushumni inkassastiya qilish xarajatlari, reklama uchun xarajatlar, telekommunikastiyalar va pochta xizmatlari uchun to‘lanadigan haq, xizmat safarlari uchun xarajatlar kiradi.

*Soliq solinadigan foydani aniqlashda chegirilmaydigan xarajatlarga* moddiy qimmatliklarning tabiiy kamayishi normalaridan ortiqcha yo‘qotishlar va buzilishlar, xo‘jalik boshqaruvi organini saqlab turish uchun ajratmalar, yillik moliyaviy hisobotni bir hisobot davrida bir martadan ortiq auditdan o‘tkazish xarajatlari, soliq to‘lovchining faoliyatida talab etilmaydigan kasblar bo‘yicha kadrlar tayyorlash

xarajatlari, sud chiqimlari, ishlatib kelinayotgan to‘liq eskirgan asbob-uskuna uchun to‘lanadigan haq va boshqa xarajatlar kiradi.

### Soliq imtiyozlari va stavkalari.

*Soliq kodeksining 158-moddasiga ko‘ra yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod etiladi:*

1) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg‘armasi va «O‘zbekiston chernobilchiları» assotsiatsiyasi mulkida bo‘lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriyilari tashkil etgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta’mirlash-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqini belgilayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda turgan xodimlar kiritiladi;<sup>10</sup>

2) davolash muassasalari huzuridagi davolash ishlab chiqarish ustaxonalari;

3) jazoni ijro etish muassasalari;

4) ichki ishlar organlari huzuridagi qo‘riqlash bo‘lmalmalari.

*Yuridik shaxslarning quyidagi foydasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini to‘lashdan ozod qilinadi:*

– protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarishdan, shuningdek nogironlarga ortopedik protezlash xizmati ko‘rsatishdan, nogironlar uchun mo‘ljallangan protez-ortopediya buyumlari va inventarlarni ta’mirlash hamda ularga xizmat ko‘rsatishdan olingan foydasi;

– shahar yo‘lovchilar transportida (taksidan, shu jumladan yo‘nalishli taksidan tashqari) yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan olingan foydasi;

– tarix va madaniyat yodgorliklarini ta’mirlash hamda qayta tiklash ishlarini amalga oshirishdan olingan foydasi;

– investitsiya fondlarining xususiylashtirilgan korxonalar aksiyalarini totib olishga yo‘naltiriladigan foydasi;

– Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘lardan foydalinishdan olingan foydasi;

– to‘liq amortizatsiya qilingan asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan yoki tugatishdan olingan foydasi.

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasining 359-son Qonunga asosan Soliq Kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq 2014 yilning 1 apreldidan ushu imtiyoz bekor qilinadi. Qolgan barcha alohida belgilangan bandlar ham 2014 yilning 1 apreldidan bekor qilinadi.

Ishlovchilari umumiy sonining 3 foizidan ko‘prog‘ini nogironlar tashkil etgan yuridik shaxslar uchun yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasi ushbu qismda belgilangan normadan ortiq ishga joylashtirilgan nogironlarning har bir foiziga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining summasi bir foiz kamaytiriladigan hisob-kitob asosida kamaytiriladi.

*Soliq kodeksining 159-moddasiga ko‘ra yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:*

1) ekologiya, sog‘lomlashtirish va xayriya jamg‘armalariga, madaniyat, sog‘lijni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoni tarbiya va sport muassasalariga, ta’lim muassasalariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga beriladigan badallar, homiylik va xayriya tariqasidagi mablag‘lar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning ikki foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda;

2) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida kollejlar, akademik litseylar, maktablar va maktabgacha tarbiya ta’lim muassasalari qurilishiga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga, lekin soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda;

3) asosiy ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish maqsadida foydalilaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruktsiya qilishga, shuningdek ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda;

4) ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihozlar xarid qilishga, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni uzishga, lizing ob‘yekti qiymatining o‘rnini qoplashga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirgan holda yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasiga.

5) yosh oilalar to‘ifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to‘lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yo‘naltiriladigan mablag‘lar summasiga, biroq soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda;

6) diniy va jamoat birlashmalarining (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va harakatlardan tashqari), xayriya jamg‘armalarining mulkida bo‘lgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamg‘armalarining ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladigan ajratmalari summasiga.

7) qo‘srimcha foyda solig‘ini to‘lovchilar uchun sof qo‘srimcha foyda summasiga.

Banklarning soliq solinadigan foydasi jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari, plastik kartochkalar bo'yicha omonatlar hamda joylashtirilgan jamg'arma sertifikatlari hajmlarining ko'paygan summasiga bo'shagan mablag'larni yuqorida ko'rsatilgan omonatlar bo'yicha foiz stavkalarini oshirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan kamaytiriladi;

Yuqorida keltirilganlardan tashqari soliq to'lovchilar ko'rildan zararlarni keyingi besh yil davomida taqsimlab o'tkazish orqali soliq solinadigan foydani kamaytirishlari mumkin. Taqsimlab o'tkazilayotgan zararning jami miqdori soliq solinadigan foydaning 50 foizidan oshmasligi kerak. Bunda soliq qonunchiligidagi belgilangan, chegirilishi lozim bo'lgan xarajatlarning jami daromaddan oshib ketishi zarar sifatida e'tirof etiladi.

Yuridik shaxslarning foya solig'i stavkalarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi. Yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'i stavkasi 1998 yilda 36 foizni tashkil etgani holda 2001 yilda 26 foizga, 2005 yilda 15 foizga, 2007 yilda 10 foizga va 2010 yilda 9 foizga tushganligini quyidagi jadval asosida kuzatishimiz mumkin.

4-jadval

#### **Yuridik shaxslar foydasiga solinadigan soliq stavkalarining o'zgarish dinamikasi<sup>11</sup>**

Soliq stavkaları (foizda)	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.
<b>Asosiy stavka</b>	24	20	18	15	12	10	10	10	9	9	9	9
Tijorat banklari	-	-	-	-	-	17	15	15	15	15	15	15
Aukcionlar o'tkazishdan, gastrol-konsert, ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35	35	35	35	35	35	35	35	35	35	35	35

Doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lмаган, O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borgan *norezidentning daromadi* hech qanday chegirmasiz daromad manbaida quyidagi stavkalarda soliqqa tortiladi:

- dividendlar va foizlardan - 10 foiz;
- sug'urta mukofotlari, sug'urtalash va qayta sug'urtalash - 10 foiz;
- O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar bilan xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiya va transport xizmati (fraxt daromadi) - 6 foiz;
- roylati, ijara daromadlari, xizmat ko'rsatish, shu jumladan boshqaruva xizmati, maslahatlar va boshqa daromadlar - 20 foiz.

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalarini to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

Soliqqa tortish maqsadida dividend deb aksiyalardan va boshqa xo'jaliklar sub'yektlarining ustav kapitalidagi qatnashish ulushidan olgan daromadlari tushuniladi.

Foizlarga esa depozit qo'yilmalar, qarz majburiyatlari va boshqa qimmatli qog'ozlardan olgan daromadlar kiradi.

Manbaida soliqqa tortilgan va dividend, foiz olgan norezident jami daromadidan tegishli tartibda belgilangan hujjatlarni taqdim etgan taqdirda chegirma olish huquqiga ega bo'ladi.

*Yuridik shaxslarning foydasiga solinadigan soliq stavkalari quyidagicha:*

5-jadval

**Yuridik shaxslar foydasiga solinadigan soliq  
STAVKALARI<sup>12</sup>**

Nº	To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda
1	Yuridik shaxslar (2-3 - bandlardagidan tashqari)	8
2	Tijorat banklari	15
3	Auksionlar o'tkazishdan, gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shuningdek, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35
4	O'zi ishlab chiqqagan tovarlar (ish, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valyutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksport qiluvchi korxonalar uchun (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 12 oktabrdagi PF-1871-soni Farmoni bilan tasdiqlangan xom ashyo tovarlari ro'yxatidagilar bundan mustasno):  - sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha  - sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 30 %ga pasaytiriladi  belgilangan stavka 50 %ga pasaytiriladi
5	1-bandda ko'rsatilgan xizmat ko'rsatish sohasi korxonalar uchun, plastik kartalar qo'llab haq to'langan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	belgilangan stavka 5 %ga pasaytiriladi

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

**Soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va soliq to'lash tartibi.**

*Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi quyidagicha aniqlanadi:*

$$F_s = (Jd - Ch - I - S_{bk}) \times S_s,$$

bu yerda:

$F_s$  – foyda solig'i summasi;

$Jd$  – jami daromad;

$Ch$  – chegirmalar;

$I$  – imtiyozlar;

$S_{bk}$  – soliqqa tortiladigan bazaning kamayishi;

$S_s$  – foyda solig'i stavkasi.

Yuridik shaxslar ortib boruvchi yakun bilan chiqarilgan foyda solig'i bo'yicha soliq hisobini ro'yxatdan o'tgan joydagi soliq idoralariga yilning har choragida, hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etadilar.

Foyda solig'i bo'yicha hisobotlar, hisob-kitoblar qonun hujjalariada belgilangan shakl va tartibda taqdim etiladi.

Yuridik shaxslar foyda solig'ini foyda solig'i bo'yicha hisobotlarni topshirish uchun belgilangan muddatlardan kechiktirmay to'lashlari lozim.

Yilning hisobot choragida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydasi eng kam ish haqining 200 baravaridan ko'proq miqdorni tashkil etadigan yuridik shaxslar foyda solig'i bo'yicha joriy avans (bo'nak) to'lovlarini har oyning 10-kuniga qadar yilning choragi bo'yicha taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydaga nisbatan hisoblab chiqilgan foyda solig'i summasining uchdan bir qismi miqdorida to'laydi.

Yuridik shaxslar joriy avans to'lovlar summasini hisoblab chiqarish uchun yilning joriy choragi bиринчи oyining 10-kunigacha ro'yxatdan o'tgan joydagi soliq organiga yilning tegishli choragida taxmin qilinayotgan foyda hamda belgilangan foyda solig'i stavkasi asosida ma'lumotnomga taqdim etadilar.

Joriy to'lovlar belgilangan muddatlarga budjetga to'lanmasa, ularga nisbatan soliq qonunchiligidagi ko'zda tutilgan har bir kechiktirilgan kun uchun hisoblangan soliq summasiga nisbatan *0,05 foiz miqdorida penya* qo'llaniladi. Shuningdek taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydaga nisbatan hisoblangan foyda solig'i summasi topshirilgan hisobot bo'yicha haqiqiy foyda solig'i summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilganda, quyi soliq idoralarini joriy to'lovlarini foyda solig'inining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblagan holda qayta hisoblaydilar.

Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydasi eng kam ish haqining 200 baravaridan kam bo‘lgan yuridik shaxslar chorakda bir marta foya solig‘ini to‘laydilar. Ular joriy avans to‘lovlarini amalgalashirmaydilar. Foya solig‘i hisobotlari o‘sib borish tartibida bo‘lganligidan oldingi choraklarda to‘langan soliqlar hisobga olib boriladi.

Ortiqcha to‘langan soliq summasi kelgusi to‘lovlargaga o‘tkaziladi yoki soliq to‘lovchiga boshqa soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan qarzi bo‘lmasa, undan yozma ariza olgan kundan boshlab 30 ish kuni ichida korxonaga qaytariladi.

Foydadan soliqni hisoblash va budjetga o‘tkazish javobgarligi foydalaridan soliq to‘lashni amalgalashiruvchi yuridik shaxslar zimmasiga yuklangan.

### *Nazorat savollari*

1. Foya solig‘i O‘zbekistonda qachon joriy qilingan?
2. Yuridik shaxslar foya solig‘ini to‘lovchilar kimlar?
3. Rezident va norezident kimlar va ular qanday tartibda soliqqa tortiladi?
4. Soliq ob’yekti va soliq solish bazasi qanday aniqlanadi?
5. Qanday yuridik shaxslar foya solig‘idan to‘liq ozod etiladi?
6. Yuridik shaxslarning qanday foydasi yuridik shaxslar foya solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi?
7. Soliq hisobotlarini topshirish va soliqni to‘lash tartibi qanday belgilangan?

## **2.2. JISMONTY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I**

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining joriy etilishi, soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza.

Respublikamizda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 1991 yil 15 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq 1991 yil 1 apreldan joriy etildi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra jismoniy shaxslarga yuridik shaxs maqomini olmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar kiradi.

Jismoniy shaxslar to'layotgan soliqlar ichida budjet tushumlaridan salmoqli o'rinni egallaydigan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i-davlat budjeti daromad manbalaridan biri bo'lib, u umum davlat soliqlari tarkibiga kiradi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, soliq jismoniy shaxslarning bevosita daromadlaridan olinadi.

Soliq kodeksiga ko'ra moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan *soliqni to'lovchilar* hisoblanadi.

Soliq solish maqsadida jismoniy shaxslar *rezidentlar va norezidentlarga* bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida bosylanadigan yoxud tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs *O'zbekiston Respublikasining rezidenti* deb qaraladi. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarga ularning O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingen daromadlari bo'yicha soliq solinadi.

*O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan* jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi hududidagi manbalardan olingen daromadlar bo'yicha soliq solinadi.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari *soliq solish ob'ekti bo'lib* O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingen daromadlari va O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingen daromadlari hisoblanadi.

Yakka tartibdagagi tadbirkorlik faoliyatidan olingen, Soliq kodeksining 58-bobiga muvofiq qat'iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

*Soliqqa tortiladigan baza* bo'lib jismoniy shaxslarning jami daromadidan soliq qonunchiligiga ko'ra belgilangan chegirmalarni ayirib tashlagandan keyingi qoldiq summa hisoblanadi.

### **Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari tarkibi.**

*Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga* soliq to'lovchi olishi lozim bo'lgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoxud boshqa mablag'lar kiradi. Jumladan:

- 1) mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlar;
- 2) jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari;
- 3) jismoniy shaxslarning moddiy naf tarzidagi daromadlari;
- 4) boshqa daromadlar.

*Yuridik shaxslar amalga oshiradigan quyidagi xarajatlar jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydi:*

1) mehnat sharoitlari noqulay bo'lgan ishlarda band bo'lgan xodimlarni mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta'minlash xarajatlari;

2) kasaba uyushmasi qo'mitasini tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar, shu jumladan a'zolik badallari hisobidan kasaba uyushmasi a'zolariga beriladigan moddiy yordam, bundan kasaba uyushmasi qo'mitasining xodimlariga mehnat vazifalarini bajarganlik uchun beriladigan pul mukofotlari va boshqa to'lovlar mustasno;

3) xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish xarajatlari;

4) diniy rasm-rusumlar va marosimlarni, bayram tantanalarini o'tkazish, vakillik xarajatlari, shahar yo'lovchilar transportida xodimlarning xizmat qatnovlari uchun foydalaniladigan yo'l kartochkalarini olish, shuningdek yuridik shaxsning xodimlarning mehnat va dam olish sharoitlarini ta'minlash bilan bog'liq hamda muayyan jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydigan boshqa xarajatlari;

5) xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formalii kiyim-bosh berish xarajatlari yoki ularni pasaytirilgan baholarda sotish munosabati bilan qilingan xarajatlari, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarni o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida oziq-ovqat bilan ta'minlash xarajatlari;

6) xodim boshqa joyga ishga o'tkazilganda yoxud ko'chib borganda ko'chish, mol-mulkini ko'chirib borish, joy ijarasi (yo'l xarajatlari uchun beriladigan pul) bilan bog'liq xarajatlarni to'lash yoki bu xarajatlarning o'rmini qoplash xarajatlari;

7) xizmat safarlaridagi quyidagi kompensatsiya to'lovlari:

– tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safari joyiga borish va u yerdan qaytib kelish uchun, shu jumladan joy band qilish uchun haq to'lashni qo'shgan holda haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlari. Yo'l hujjatlari bo'lмаган taqdirda, temir yo'l transportidagi (agar temir yo'l qatnovi bo'lmasa, shaharlararo avtobusdagi) yo'l haqi qiymati miqdorida, biroq aviachipta qiymatining 30 foizidan oshmaydigan miqdorda;

– uy-joyni ijara olish bo'yicha haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlari. Yashaganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo'lмаган taqdirda - qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida;

– tasdiqlovchi hujjatlar asosida uy-joyni band qilish uchun to'lovlari;

– qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida xizmat safarida bo'lingan vaqt uchun to'lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

– qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa to'lovlari.

8) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalar doirasida xodimga to'lanadigan kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar):

– doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo'lgan, shuningdek vaxta usulida ishlarni bajarishda xodimga kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar);

– xizmat ishlari uchun shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar), bundan xizmat safarları mustasno;

– dala ta'minoti;

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va normalar bo'yicha boshqa kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar), bundan Soliq Kodeksining 174 va 178-moddalarida ko'rsatilganlari mustasno.

9) mehnatda mayib bo'lганлик yoki sog'liqqa boshqacha shikast yetganlik bilan bog'liq zararning o'rmini qoplash bo'yicha quyidagi miqdordagi to'lovlari:

– jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lguniga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to'lovlari (voyaga yetmagan shaxs mehnatda mayib bo'lib qolgan taqdirda, zararning o'rni uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining besh baravaridan kam bo'lмаган miqdorda qoplanadi); .

– maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo'shimcha xarajatlar uchun oyiga eng kam ish haqining ikki baravari miqdoridagi to'lovlar;

– jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qo'shimcha xarajatlar tariqasida har oyda eng kam ish haqining ellik foizi miqdoridagi to'lovlar;

– xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o'rtacha ish haqi miqdoridagi to'lovlar;

10) boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to'lovlar:

– marhumning o'rtacha ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to'g'ri keladigan ulushi miqdoridagi to'lovlar;

– boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan shaxslarga bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasida marhumning o'rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to'lovlar.

11) talabalarning ta'lim olishi uchun, O'zbekiston Respublikasining oliv o'quv yurti bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha pulli-kontrakt asosida o'tkaziladigan to'lovlar;

13) mol-mulkni sug'urta qilish va (yoki) hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga to'lanadigan sug'urta mukofotlari. Mol-mulkni sug'ortalash va (yoki) hayotni uzoq muddatli sug'ortalash shartnomasi muddatidan ilgari bekor qilinganda va sug'ortalovchi sug'urta qilinuvchiga sug'urta mukofotining bir qismini yoki to'liq qaytarlsa, qaytarilgan sug'urta mukofoti miqdori jismoniy shaxsning soliq solinadigan jami daromadi tarkibiga kiritiladi;

14) yuridik shaxsdan - ish beruvchidan:

yosh oilalar a'zolari tomonidan uy-joy olish uchun olingan mablag'lar;

qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qurish uchun kreditlar berish qonun hujjatlariga muvofiq zimmasiga yuklatilgan banklar tomonidan ushbu maqsadlar uchun beriladigan ipoteka krediti bo'yicha boshlang'ich badal sifatida quruvchi shaxs tomonidan olingan mablag'lar.

Uy-joy olingan (mulkka bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) sanadan e'tiboran besh yil ichida sotilsa, ushbu bandda ko'rsatilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi;

15) xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari.

*Mehnatga haq to'lash tarzidagi olinadigan daromadlarga* jismoniy shaxslarning mehnat shartnomasi bo'yicha qilingan ishlardan va fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha oladigan daromadlari kiradi. Bundan tashqari mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlari, kompensatsiya to'lovlari hamda ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash tarzidagi daromadlar ham kiradi.

*Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga* foizlar, dividendlar, mol-mulkni ijara berishdan olingan daromadlar, jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, sanoat mulki ob'ektlariga, selektsiya yutug'iga berilgan patent (litsenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxsning patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi, royalti va shu kabi qonunchilikda ko'zda tutilgan daromadlar kiradi.

*Moddiy naf tarzidagi daromadlar* jumlasiga yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxs manfaatlarini ko'zlab, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarni to'lash, soliq to'lovchining manfaatlarini ko'zlab tekinga, shu jumladan hadya shartnomasi asosida berilgan mol-mulk, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati, tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xodimlarga realizatsiya qilinadigan narxi va shu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati o'rtaqidagi salbiy tafovut, qonun hujjalariiga muvofiq xodimlarga temir yo'l, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo'yicha beriladigan imtiyozlar summasi, jismoniy shaxsning yuridik shaxs oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summalar va ish beruvchi tomonidan to'lovlari hisobiga to'lanib, xodimdan ushlab qolinishi lozim bo'lgan, lekin ushlab qolinmagan summalar kiradi.

*Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari* jumlasiga esa davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar, ishsizlik nafaqalari, ijtimoiy nafaqalar va pensiyalar, stipendiyalar, donorlik uchun pul mukofotlari, alimentlar, musobaqalarda, ko'rikarda, tanlovlarda sovrinli o'rinnlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari, yutuqlar, grantlar, jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha olingan foizlar va boshqa daromadlar kiradi.

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar.**

*Soliq qonunchiligiga ko'ra jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:*

1) moddiy yordam summalar:

- favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summalar - to‘laligicha;
- vafot etgan xodimning oila a’zolariga yoki oila a’zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summalar - eng kam ish haqining o’n ikki baravarigacha miqdorda;
- boshqa hollarda - soliq davri uchun eng kam ish haqining o’n ikki baravarigacha miqdorda;

2) yo‘llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to‘liq yoki qisman qoplash summalar, turistik yo‘llanmalar bundan mustasno:

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish muassasalariga yo‘llanmalar qiymatini nogironlarga, shu jumladan mazkur korxonada ishlamaydigan nogironlarga to‘liq yoki qisman qoplash summalar;

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog‘lomlashtirish oromgohlari, shuningdek ota-onalarining bolalari bilan dam olishiga maxsus mo‘ljallangan sanatoriy-kurort va sog‘lomlashtirish muassasalariga o‘z xodimlarining o’n olti yoshga to‘lmagan (o’n sakkiz yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar) bolalari uchun yo‘llanmalar qiymatini to‘liq yoki qisman qoplash summalar;

3) o‘z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statcionar tibbiy xizmat ko‘rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to‘langan summalar, shuningdek yuridik shaxsning davolash va tibbiy xizmat ko‘rsatganlik, nogironlik profilaktikasi va nogironlarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olish uchun qilingan xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko‘rsatganlik uchun yuridik shaxslar tomonidan sog‘lijni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to‘langan taqdirda, shuningdek sog‘lijni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo‘ljallangan naqd pul mablag‘lari bevosita xodimga, xodim yo‘qligida, uning oila a’zolariga, ota-onalariga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo‘ljallangan mablag‘lar xodimning bankdagi hisobvarag‘iga kiritilgan taqdirda, ushbu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan budget tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summalar va boshqa summalar, qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta‘minlash markazlari ko‘magida amalga oshirilayotgan bo‘lsa;

6) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘laganidan keyin xususiy korxona mulkdori, fermer xo‘jaligi boshlig‘i ixtiyorida qoladigan foyda summasi;

7) O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

8) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rirlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

9) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar;

10) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan:

– qimmatli qog'ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini);

– yashash uchun mo'ljallanmagan joylarni;

– ketma-ket keladigan o'n ikki oylik davr ichida bir martadan ortiq bitim tuzilgan taqdirda, uy-joylarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar mustasno.

11) uy xo'jaligida, shu jumladan dehqon xo'jaligida etishtirilgan hayvonlarni (qoramol, parranda, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno. Mazkur daromadlar soliq to'lovchi tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining boshqaruvlari tomonidan berilgan, realizatsiya qilingan mahsulot soliq to'lovchi tomonidan unga yoki uning oila a'zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etgan taqdirda, soliq solishdan ozod qilinadi;

12) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingen buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

13) yuridik shaxsdan soliq davri mobaynida eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha bo'lgan qiymatdagi:

– xodimlar natura shaklida olgan sovg'alar;

– ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo'lgan ishshamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a'zolari tomonidan olingen sovg'alar va boshqa turlardagi yordam.

14) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekin olingen pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan fan, adabiyot va

san'at asarlarining, adabiyot va san'at asarlari ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar, ixtiolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo'rlariga (huquqiy vorislariga) to'lanadigan pul mukofotlari mustasno;

15) davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar, lotereya bo'yicha yutuqlar;

16) jamg'arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek banklar va kredit uyushmalaridagi omonatlar bo'yicha foizlar hamda yutuqlar;

17) xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida bevosita jismoniy shaxs grant beruvchidan yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakil qilingan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organning xulosasi bo'lgan taqdirda, yuridik shaxsdan - grant oluvchidan olgan grant summasi;

18) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining davlat korxonalari mol-mulkini sotib olish, xususiylashtirayotgan korxonalar aksiyalarini olish uchun yo'naltiriladigan summalar, shuningdek dividendlar tarzida olingan va dividend to'lagan yuridik shaxsnинг ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar. Ushbu bandda nazarda tutilgan imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilganda (chiqib ketilganda), mazkur mol-mulk sotilganda yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassisleri (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solishdan ozod qilingan daromadlarga umumiy asoslarda soliq solinishi kerak;

19) mehnat shartnomasi bekor qilinganida eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdori doirasida to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalar, bundan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari (shu jumladan oilaning bemor a'zosini parvarishlash nafaqasi) mustasno, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalaridan jismoniy shaxslarga beriladigan yordam tusidagi to'lovlar;

20) olingan alimentlar;

21) fuqarolarning sug'urta totoni sifatida oladigan summalar;

22) qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan to'lanadigan stipendiyalar;

23) uy-joy-kommunal xizmatlariga haq to'lash bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq har oylik kompensatsiya pul to'lovlar;

24) davlat pensiyalari;

25) jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo‘yicha foiz daromadlari, shuningdek jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovleri;

26) fuqarolarning soliq solinadigan va O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslarga mol-mulkni sug‘urta qilish hamda hayotni uzoq muddatli sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta mukofotlari to‘lovi uchun yo‘naltiriladigan ish haqi va boshqa daromadlarining summalarini;

27) yuridik shaxslar muassisalarining (ishtirokchilarining) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektiga - yuridik shaxsga uning majburiyatlarini bajarish uchun yo‘naltiriladigan daromadlari summalarini. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to‘xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo‘llanilmaydi va soliq summasi imtiyoz qo‘llanilgan butun davr uchun to‘liq miqdorda undiriladi;

28) quyidagi jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari summalarini:

– yosh oila a’zolari tomonidan yakka tartibda uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun yoki ko‘p kvartirali uydagi kvartirani rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo‘naltirilganda;

– qishloq joylarda namunaviy loyihibar bo‘yicha yakka tartibda uy-joy qurishni ushbu maqsadlar uchun kreditlar berish qonun hujjatlariga muvofiq zimmasiga yuklatilgan banklarning kreditlari hisobidan amalga oshirayotgan quruvchi shaxslar tomonidan olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo‘yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo‘naltirilganda.

Ushbu bandda ko‘rsatilgan mol-mulk olingan (mol-mulkka bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o’tkazilgan) sanadan e’tiboran besh yil ichida sotilsa, mazkur bandda nazarda tutilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi;

29) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining:

– O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olish uchun (o‘zining o‘qishi yoki yigirma olti yoshga to‘limgan farzandlarining o‘qishi uchun) yo‘naltiriladigan summalarini;

– O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo‘naltiriladigan summalarini.

30) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan ulushlar, paylar va aktsiyalar tarzidagi daromadlar, agar mazkur ulushlar, paylar va aksiyalarni berish yaqin qarindoshlar o‘rtasida amalga oshirilsa.

31) paxta yig‘im-terimi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ishlariga jalg qilinadigan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari.

*Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to‘lashdan quyidagilar to‘laligicha ozod qilinadilar:*

– xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarining boshliqlari va a’zolari hamda konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o‘zları bilan birga yashaydigan oila a’zolari, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog‘liq bo‘lмаган daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo‘yicha;

– xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarini va konsullik muassasalarining ma’muriy-texnik xodimlari va ularning o‘zları bilan birga yashaydigan oila a’zolari, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, - O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog‘liq bo‘lмаган daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo‘yicha;

– xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko‘rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

– xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarini va konsullik muassasalarini xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

– hukumatga qarashli bo‘lмаган xalqaro tashkilotlarning mansabdor shaxslari-agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa, ushu tashkilotlarda olgan daromadlari bo‘yicha;

– Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari va bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga mansub shaxslar, shuningdek o‘quv yoki sinov yig‘inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar - xizmatni o‘tash (xizmat vazifasini bajarish) munosabati bilan olgan pul ta’minoti, pul mukofotlari va boshqa to‘lov summalari bo‘yicha;

– gastrol-konsert faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo‘lgan shaxslar gastrol-konsert faoliyatidan olingan daromadlari bo‘yicha;

– mansab darajalari bor prokuratura organlari xodimlari.

Quyidagi soliq to‘lovchilarning daromadlari jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni har bir to‘liq oy uchun eng kam ish haqining *to‘rt baravari miqdorida to‘lashdan ozod etiladi*:

1) "O‘zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar. Mazkur imtiyoz tegishinchasida "O‘zbekiston Qahramoni" unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning ma’lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yoxud boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) bolalikdan nogiron bo‘lib qolganlar, shuningdek I va II guruh nogironlari. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

4) o’n va undan ortiq bolasi bor ayollar. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma’lumotnomasi mazkur imtiyoz berilishi uchun asos bo‘ladi;

5) sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlari organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlari organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari). Imtiyoz "Halok bo‘lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)" yoki "Ichki ishlari organlari halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)" shtampi qo‘yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergen muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo‘lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi yoki Ichki ishlari vazirligining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlari vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlari organi xodimining halok bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlari organlaridagi

xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlari organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi;

6) Chernobil AESdagagi avariya oqibatida jabrlanganlar. Imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagagi avariya oqibatlarini tugatish qatnashchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan, imtiyoz berilishi uchun asos bo'lувчи boshqa hujjatlar asosida beriladi;

7) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lмаган bolalari bor yolg'iz onalar. Imtiyoz har bir bola uchun Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotnomalar asosida beriladi;

8) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lмаган bolalari bor va boquvchisini yo'qtganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar. Imtiyoz erving (xotinning) vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma, bolalar tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma, yangi nikohdan o'tmaganlik hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining boquvchisini yo'qtganlik uchun pensiya olinmasligi haqidagi ma'lumotnomasi taqdim etilgan taqdirda beriladi;

9) bolaligidan nogiron bo'lgan, doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onadan biri. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki sog'liqni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnomasi, birgalikda yashashga taalluqli qismida - fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining ma'lumotnomasi asosida beriladi.

Imtiyozlar tegishli hujjatlar taqdim etilgan taqdirda qo'llaniladi.

Imtiyozlarga bo'lgan huquqlar kalendar yili davomida vujudga kelgan taqdirda, imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelgan paytdan e'tiboran qo'llaniladi.

Agar jismoniy shaxs bir nechta asos bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquqqa ega bo'lsa, unga xohishiga qarab faqat bitta imtiyoz beriladi.

Imtiyozni qo'llash jismoniy shaxsning asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha, asosiy ish joyi bo'lмаган taqdirda - yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chog'ida amalga oshiriladi. Imtiyozga bo'lgan huquq yo'qotilgan taqdirda, jismoniy shaxs imtiyoz yo'qotilgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida bu haqda undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga ma'lum qilishi kerak.

### **Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari.**

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i progressiv soliq hisoblanadi. Ushbu soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

6-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarining o'zgarish dinamikasi<sup>13</sup>

Eng kam oylik ish haqi darajasi	Soliq stavkalari (foizda)													
	2000 y.	2001 y.	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.
1 baravari	-													
2 baravari	15	12	13	13	13	13	13	13	13	12	11	10	9	8
3 baravari														
4 baravari	25													
5 baravari														
6 baravari		25												
7 baravari														
8 baravari	36	36	23	22	21	21	20	18	18	17	17	16	16	16
8 baravaridan yuqori														
9 baravari														
10 baravari														
10 baravaridan yuqori	40		33	32	30	30	29	25	25	22	22	22	22	22

Soliq qonunchiligiga binoan 1998 yildan respublikamizda jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq stavkasi 15, 25, 35, 40, 45 foiz, ya'ni 5 pog'onali qilib belgilangan edi. 2000 yildan boshlab 4 pog'onali, ya'ni 15, 25, 36, 40 foiz, 2001 yildan esa 3 pog'analiga o'tib, uning stavkasi 12, 25, 36 foizni tashkil etgan holda 2012 yilgacha 3 pog'anali stavka saqlab qolginganligini yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 maydagi 250-sonli qarori bilan tasdiqlangan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar bo'yicha ro'yxatga kiritilgan o'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir sharoitli ishlarda band bo'lgan xodimlarning daromadlariga belgilangan stavkalar bo'yicha soliq solinadi. Bunda yuqorida aytib o'tilgan toifadagi kasblarda band bo'lgan ayollar daromadlaridan daromad solig'ining olish darajasi *20 foizdan oshmasligi* lozim.

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tavyorlangan.

Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘sishimcha to‘lovlarga (cho‘l va suvsiz joylarda, baland tog‘li hududlarda ishlaganlik uchun to‘lanadigan koeffitsientlarga) eng kam stavka bo‘yicha soliq solinadi. Bunda cho‘l va suvsiz joylarda, baland tog‘li va tabiiy-iqlim sharoiti noqulay hududlarda ishlaganlik uchun yuridik shaxslar xodimlarining ish haqiga koeffitsientlar hisoblashning eng yuqori summasi hisoblash paytidagi holatga ko‘ra belgilangan eng kam ish haqining to‘rt baravari miqdorida belgilanadi.

Bundan tashqari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan vaqtinchalik qishloq xo‘jaligi ishlariga yuborilgan jismoniy shaxslarning shu ishlarni bajarishdan olingan daromadlariga bundan paxta yig‘im-terimi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilinadigan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari mustasno, mol-mulkni ijara berishdan olingan daromadlarga, jismoniy shaxslardan tekin olingan ulushlar, paylar va aktsiyalar tarzidagi daromadlarga, jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan ko‘chmas mulknini realizatsiya qilishdan olingan daromadlarga ham *eng kam stavka miqdorida* soliq solinadi.

Soliq solish maqsadlari uchun eng kam ish haqining miqdori yil boshidan e’tiboran ortib (o’sib) boruvchi yakun tarzida hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq stavkasi quyidagi jadval ma’lumotlari asosida hisoblanadi:

7-jadval

#### Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i STAVKALARI<sup>14</sup>

Jami daromad miqdori	Soliq summasi
Eng kam ish haqining besh baravari miqdorigacha	Daromad summasining 7,5 foizi
Eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan (+1 so‘m) o‘n baravari miqdorigacha	Eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan olinadigan soliq + besh baravardan oshadigan summaning 16 foizi
Eng kam ish haqining o‘n baravari miqdoridan (+1 so‘m) va undan yuqori summadan	Eng kam ish haqining o‘n baravari miqdoridan olinadigan soliq + o‘n baravardan oshadigan summaning 22 foizi

<sup>14</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

*Izohlar:*

1. Soliq solinadigan daromadlar guruhlari bo'yicha soliq solish shkalasi yil boshiga - 2014 yil 1 yanvarga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan (96105 so'm) kelib chiqib belgilanadi va eng kam ish haqi miqdorining yil davomidagi o'zgarishiga qarab qayta ko'rib chiqilmaydi.

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini hisoblab chiqarish maqsadida eng kam ish haqining miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bilan hisobga olinadi (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi).

3. Belgilangan stavkalardan kelib chiqib hisoblangan, budjetga to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan daromadlaridan 1% miqdorida hisoblab chiqariladigan har yylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

8-jadval

**Mol-mulkini ijara beruvchi jismoniy shaxslar  
uchun belgilangan ijara to'lovi  
STAVKALARI<sup>15</sup>**

N	Ijaraga beriladigan mol-mulk turlari	Belgillangan stavka miqdorini xarakterlovchi ko'rsatkich	Bir oy uchun ijara to'lovi stavkalarining eng kam miqdorlari		
			Toshkent sh.	Nukus sh. va viloyat bo'ysunuvida gi shaharlar	boshqa aholi punktlari
1	Uy-joy:	umumiy maydonning 1 kv.m. uchun, so'mda	3 000	2 000	1 000
	turar joy		6 000	4 000	2 000
2	Avtotransport:	1 ta avtotransport vositasi uchun		220 000	
	Engil avtomobil (haydovchi o'rmini hisobga olmaganida 8 ta yo'lovchi tashish uchun mo'ljallangan avtotransport vositasi) mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobili			430 000	

*Izoh:*

Mazkur stavkalar uy-joyni ijara berishdan olingan daromadlarga soliq solish maqsadida qo'llaniladi.

Jismoniy shaxsning - *O'zbekiston Respublikasi norezidentining O'zbekiston Respublikasidagi daromadlar manbaidan olingan daromadlariga manbada chegirmalarsiz quyidagi stavkalar bo'yicha soliq solinadi:*

- dividendlar va foizlarga - 10 foiz;

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-sonli qarori.

- xalqaro tashishlarda transport xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan daromadlarga (fraxtdan olinadigan daromadlarga) - 6 foiz;
- intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan mulkiy huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazganlik uchun mukofot, ijara bo'yicha daromadlarga hamda ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan, mehnat shartnomalari (kontraktlari) va fuqarolik-huquqiy tusga ega shartnomalar bo'yicha olingan boshqa daromadlarga - 20 foiz.

To'lov manbaida soliq solish to'lov O'zbekiston Respublikasi hududida yoki uning hududidan tashqarida sodir etilganligidan qat'i nazar amalga oshiriladi.

#### **Soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish tartibi.**

*Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i quyidagicha aniqlanadi:*

$$D_{sb} = (Jd - Ssd - I),$$

bu yerda:

$D_{sb}$  – daromad solig'i bazasi;

$Jd$  – jami daromad;

$Ssd$  – soliq solinmaydigan daromad;

$I$  – imtiyozlar.

Daromad solig'ini aniqlashda soliqqa tortiladigan baza e'tiborga olinadi:

1) Agar soliqqa tortiladigan baza eng kam ish haqining daromad solig'i bo'yicha belgilangan 1-darajali stavkasidagi miqdordan kam bo'lsa:

$$D_s = (D_{sb} \times EKIH) \times S_{s1},$$

2) Agar soliqqa tortiladigan baza eng kam ish haqining daromad solig'i bo'yicha belgilangan 2-darajali stavkasidagi miqdordan kam bo'lsa:

$$D_s = (5 \times EKIH) \times S_{s1} + (D_{sb} - (5 \times EKIH)) \times S_{s2},$$

3) Agar soliqqa tortiladigan baza eng kam ish haqining daromad solig'i bo'yicha belgilangan 3-darajali stavkasidagi miqdordan ko'p bo'lsa:

$$D_s = (5 \times EKIH) \times S_{s1} + ((10 \times EKIH) - (5 \times EKIH)) \times S_{s2} + ((D_{sb} - (10 \times EKIH)) \times S_{s3}),$$

bu yerda:

$D_s$  – daromad solig'i summasi;

**EKIH** – belgilangan eng kam ish haqi miqdori;

**S<sub>s1</sub>, S<sub>s2</sub>, S<sub>s3</sub>** – daromad solig‘i stavkalarining - 1, 2, 3 - darajalari.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish uchun soliq stavkasini qo‘llash maqsadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bo‘yicha (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi) hisobga olinadi. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasini, shuningdek eng kam ish haqining karrali miqdorlarida nazarda tutilgan imtiyozlarni hisoblab chiqarish uchun eng kam ish haqi miqdorining joriy yilning 1 yanvaridagi holati inobatga olinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish ushbu bo‘limda belgilangan soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo‘yicha har oyda jismoniy shaxsning asosiy ish joyi bo‘yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining hisoblab chiqarilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

Jismoniy shaxsning asosiy bo‘lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan sovg‘a, moddiy yordam va boshqa turladagi yordam olgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs daromadlari to‘g‘risida deklaratsiya topshirganda, davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi

Yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyi o‘zgargan taqdirda, jismoniy shaxs joriy yilda o‘ziga to‘langan daromadlar va ushlab qolning jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summalarini to‘g‘risidagi ma’lumotnomani yangi asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish (xizmat, o‘qish) joyidan ma’lumotnomasi taqdim etilmagan yoki soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i belgilangan eng yuqori stavka bo‘yicha ushlab qolinadi. Ma’lumotnomasi yoki identifikatsiya raqami keyinchalik taqdim etilgan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi ilgarigi asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

Yangi asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblab chiqarish kalendar yil boshidan buyon ilgarigi va yangi ish (xizmat, o‘qish) joylaridan olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Mehnat shartnomasi bekor qilingandan so‘ng xodimga ilgarigi asosiy ish joyida to‘lovlar amalga oshirilgan taqdirda, mazkur to‘lovlargacha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i ushbu Kodeks 179-

moddasi 1-bandining to'rtinchi xatboshisida hamda 180-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar qo'llanilmagan holda solinadi. Yuridik shaxs bu xodimga to'lagan daromadning jami summasi va undan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingan umumiy summasi haqida bu yuridik shaxs hisobga qo'yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga o'ttiz kun ichida yozma shaklda ma'lum qilishi shart.

Asosiy bo'limgan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan olingan daromadlarga to'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish jami daromad summasidan ushbu Kodeks Kodeks 179-moddasi 1-bandining to'rtinchi xatboshisida hamda 180-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar qo'llanilmagan holda, belgilangan stavkalar bo'yicha hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha amalga oshiriladi.

Agar asosiy bo'limgan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan daromadlar olayotgan jismoniy shaxs buxgalteriyaga o'z daromadidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng yuqori stavkasi bo'yicha ushlab qolish to'g'risida ariza bersa, daromadlar to'layotgan yuridik shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini ushbu bo'limda nazarda tutilgan imtiyozlarni qo'llamagan holda eng yuqori stavka bo'yicha ushlab qoladilar.

Soliq agentlari jismoniy shaxsning talabiga binoan unga daromadlarining summalarini va turlari haqida, shuningdek jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingan summasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma'lumotnomha berishlari shart.

Jismoniy shaxslarning asosiy bo'limgan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining yakuniy summasi jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risida taqdim etilgan deklaratsiyaning ma'lumotlari bo'yicha davlat soliq xizmati organi tomonidan hisoblab chiqariladi

Soliq agentlari:

1) soliq davri tugaganidan so'ng o'ttiz kun ichida davlat soliq xizmati organlariga daromadlar olgan jismoniy shaxslar to'g'risida, asosiy ish joyi bo'yicha daromadlar olgan jismoniy shaxslar bundan mustasno, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma'lumotnomha taqdim etishi shart, unda quyidagilar aks ettiriladi:

– soliq to'lovchining - jismoniy shaxsning identifikatsiya raqami;

– soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi; doimiy yashash joyi manzili;

- o‘tgan soliq davri yakunlari bo‘yicha daromadlarning umumiy summasi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolning umumiy summasi;
- soliq agentining identifikatsiya raqami;
- soliq agentining nomi, joylashgan yeri (pochta manzili);

2) yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliya hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangan va amalda to‘langan daromadlar summalar hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolning summalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shaklda taqdim etishi shart

To‘lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining hisoblab chiqarilgan summasi budgetga soliq agenti tomonidan quyidagi muddatlarda to‘lanadi:

- pul mablag‘larini olish uchun xizmat ko‘rsatuvchi bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtida. Ish haqi bo‘yicha oyning birinchi yarmi uchun bo‘nak (avans) olish uchun hujjatlar taqdim etilganda soliqni to‘lash amalga oshirilmaydi;

- to‘lov natura holida amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida, agar bunday to‘lovga qonun hujjatlarida ruxsat berilgan bo‘lsa.

Agar yuridik shaxsning bank hisobvarag‘ida ish haqini to‘lash va bir vaqtning o‘zida xodimlarning ish haqidan ushlab qolning soliqlarni budgetga o‘tkazish uchun mablag‘lar yetarli bo‘lmasa, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bank hisobvarag‘idagi qoldiq mablag‘larga mutanosib summada budgetga o‘tkaziladi.

### **Jismoniy shaxslarning daromadlariga deklaratsiya asosida soliq solish tartibi.**

*Deklaratsiya* - soliq idoralariga soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar tomonidan topshiriladigan va o‘z ichida olingen daromadlar va ushbu daromadlar bilan bog‘liq xarajatlar haqidagi ma’lumotlarni aks ettiradigan hamda soliq to‘lovchingin hisoblangan soliqlarni ixtiyoriy ravishda va belgilangan vaqtida davlat budgetiga to‘lashga majbur etadigan hujjat hisoblanadi. Soliq kodeksiga ko‘ra jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi haqidagi deklaratsiya quyidagi hollarda soliq organlariga topshiriladi:

- mulkiy daromadlar, agar bu daromadlarga to‘lov manbaida soliq solinmagan bo‘lsa;

- fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar;
- asosiy bo'limgan ish joyidan olingan moddiy naf tarzidagi daromadlar;
- ikki yoki undan ko'p manbadan olingan soliq solinadigan daromadlar;
- O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar;
- soliq agentlari bo'limgan manbalardan olingan daromadlar.

Agar soliq to'lovchining asosiy bo'limgan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uning arizasiga ko'ra belgilangan eng yuqori stavka qo'llanilgan holda ushlab qolning bo'lsa, daromadlar to'g'risida deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya soliq to'lovchining olingan yillik daromadi to'g'risidagi yozma arizasidan iborat bo'ladi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyasiga asosiy ish joyi bo'yicha to'langan daromadlar va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolning summalarini to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakldagi ma'lumotnoma ilova qilinadi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiya shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi hamda unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

- soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, jinsi, fuqaroligi, doimiy yashash joyi manzili;
- soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;
- soliq solinishi lozim bo'lgan daromadlar turlarga ajratib ko'rsatilgan holda olingan jami yillik daromad (bir martalik operatsiyalardan hamda mol-mulkni ijara berishdan olinadigan daromadlarni deklaratsiya qilish uchun faqat ushbu operatsiyalarning o'zidan olish mo'ljallanayotgan daromad aks ettiriladi);
- daromadlarning manbalari;
- daromad olish bilan bog'liq xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalarning summalarini;
- jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo'yicha intiyozlar;
- hisoblab chiqarilgan soliq summasi;
- haqiqatda to'langan soliq summasi.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyada jismoniy shaxslarning jami yillik daromadini deklaratsiya qilish bilan bog‘liq boshqa ma’lumotlar ham ko‘rsatilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya pochta orqali buyurtma xat shaklida, shuningdek elektron shakldagi axborot tarzida taqdim etilishi mumkin.

Jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiya blankalari soliq to‘lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan bepul beriladi.

Jismoniy shaxs taqdim etgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyada to‘lanishi lozim bo‘lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasining kamayishiga olib keluvchi xatolar aniqlangan taqdirda, jismoniy shaxs deklaratsiyaga zarur o‘zgarishlar kiritishi shart.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani o‘zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash muddati tugaguniga qadar berilsa, soliq to‘lovchi ushbu Kodeksda belgilangan javobgarlikdan ozod qilinadi.

Agar jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyani o‘zgartirish haqidagi ariza jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash muddati tugaganidan keyin, biroq xatolar davlat soliq xizmati organi tomonidan aniqlanguniga qadar berilsa, soliq to‘lovchi soliqning yetishmayotgan summasini hamda unga tegishli penani to‘lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi.

Jismoniy shaxs davlat soliq xizmati organining taqdim etilgan jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyada aniqlangan xatolik to‘g‘risidagi bildirishnomasini olgan kun davlat soliq xizmati organi tomonidan xatolik aniqlangan kun deb hisoblanadi.

Soliq to‘lovchilar yuqorida ko‘rsatilgan daromadlar bo‘yicha jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyani, doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yildan keyingi yilning 1 apreliдан kechiktirmay taqdim etadi.

Deklaratsiya qilinishi shart bo‘lmagan daromadlarni olgan soliq to‘lovchilar doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga jami yillik daromadlari to‘g‘risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan chet ellik jismoniy shaxs o‘tgan soliq davri uchun daromadlar to‘g‘risida *joriy yilning 1 apreli gacha* deklaratsiya taqdim etadi.

Chet ellik jismoniy shaxs - O‘zbekiston Respublikasining rezidenti ushbu bobda belgilangan tartibga muvofiq soliq solinishi lozim bo‘lgan daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatgan va

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi hududida turgan vaqtida joriy soliq davrida haqiqatda olgan daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya mazkur jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan bir oy avval taqdim etilishi lozim. Agar chet etilik jismoniy shaxs - O'zbekiston Respublikasining rezidenti joriy yilning 1 fevraliga qadar doimiy yashash uchun xorijga chiqib ketayotgan bo'lsa, joriy yil uchun daromadlar bo'yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Taqdim etish tartibi yuqorida ko'rsatilgan daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya bo'yicha hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soqliqni to'lash deklaratsiya topshirilgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida amalga oshiriladi.

Grant olgan jismoniy shaxs daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani topshirayotganda grant bo'yicha olingan daromad summasini, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i miqdorini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organanning tegishli xulosasini ko'rsatadi.

Mol-mulkini ijara qaga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxs, agar ushbu daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'lov manbaida soliq solinmasa, belgilangan muddatlarda jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiya taqdim etish bilan bir qatorda ijara dan daromadlar paydo bo'lган kundan e'tiboran birinchi oy tugaganidan keyin besh kunlik muddatda dastlabki tarzdagi deklaratsiya ham taqdim etadi.

Mol-mulkni ijara qaga berishdan daromadlar olish tugagan taqdirda jismoniy shaxs doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi.

Agar soliq to'lovchi daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan bo'lsa, davlat soliq xizmati organi o'zidagi mavjud ma'lumotlar asosida soliq summasini eng yuqori stavka bo'yicha hisoblashga va soliq to'lovchiga to'lanishi lozim bo'lган hisoblangan soliq summasi to'g'risida bildirishnomasi topshirishga haqlidir. Soliq to'lovchi tomonidan jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiya taqdim etilgan taqdirda, soliqning yakuniy summasi ushbu deklaratsiya hisobga olingan holda aniqlanadi

Jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyaning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini **o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1 iyunidan** kechiktirmay to'laydilar.

Jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig'ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag'idan chet el valyutasida to'lashi mumkin. Bunda jismoniy

shaxslardan olinadigan, milliy valyutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'langan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulkni ijara berishdan daromadlar oladigan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya asosida har oyda daromad olingen oydan keyingi oyning beshinchi kunigacha to'laydilar. Yil tugagach, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning yillik summasi haqiqatda olingen daromad bo'yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida to'langan summalar o'rtasidagi farq kelgusi yilning 1 iyunidan kechiktirmay soliq to'lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi kerak.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq to'langan sana quyidagilardir:

– yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar tomonidan bankdagi hisobvarag'idan to'langani taqdirda - ularning bankdagi hisobvarag'idan mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun;

– jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul mablag'lari kiritilgan taqdirda - bank kassasiga mablag'lar to'langan sana.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.

### *Nazorat savollari*

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining mohiyatini tushuntirib bering.

2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining to'lovchilari kimlar?

3. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlariga qaysi daromad turlari kiradi?

4. Norezident jismoniy shaxslarning daromadlariga to'lov manbaida qanday tartibda soliq stavkalari qo'llaniladi?

5. Qaysi jismoniy shaxslarning daromadlari har bir to'liq oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida soliqdan ozod etiladi?

6. O'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir sharoitli ishlarda band bo'lgan ayol xodimlar daromadlariga daromad solig'i darajasi qanday?

7. Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliq solish tartibini tushuntirib bering.

## 2.3. AKSIZ SOLIG'I

### Aksiz solig'ining iqtisodiy mohiyati va soliq to'lovchilar.

O'zbekistonda aksiz solig'i 1992 yilda qo'shilgan qiymat solig'i bilan birgalikda oborot solig'i va sotuvdan olinadigan soliqlar o'rniiga joriy qilingan. Uning qo'shilgan qiymat solig'idan farqli tomoni shundaki, u ayrim tovarlar va mahsulotlarni chegaralab olgan va bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Aksiz solig'i individual xarakterga ega bo'lib, faqat aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

Aksiz solig'i qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan bazada va narxda hisobga olinadigan yuklab jo'natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egri (bilvosita) soliq sifatida budgetga undirish shakli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 14 abgustdagagi 285-sonli qaroriga asosan 1996 yil 1 oktyabrdan boshlab O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va uning hududiga chetdan keltiriladigan tamaki mahsulotlarini va spirli ichimliklarni (pivotan tashqari) majburiy ravishda aktsiz markalar bilan markalash hamda ularni aktsiz markalarisiz sotishni taqiqlanishi joriy etildi.

*Aksiz solig'ini to'lovchilar bo'lib*, mulk shaklidan va soliq solishning qanday tartibi o'rnatilganligidan qat'i nazar, aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Bundan tashqari, oddiy shirkat aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarganda oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi aksiz solig'ini to'lovchi bo'lib hisoblanadi.

### Aksiz solig'i ob'yekti va soliq solinadigan baza.

*Soliq kodeksining 230-moddasiga ko'ra quyidagi operatsiyalar aksiz solig'i solinadigan ob'yekt hisoblanadi:*

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish;

2) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsnинг ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqsida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida topshirish;

3) aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsnинг ishtirokchisiga (muassisiga) u yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi (bankrotligi) munosabati bilan topshirish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi doirasida ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni mazkur

shartnoma sherigiga (ishtirokchisiga) uning shartnoma ishtirokchilari umumiy mulkidagi mol-mulkdan ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol-mulk taqsimlangan taqdirda topshirish;

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni ulush qo'shish asosida qayta ishlashga topshirish, shuningdek ulush qo'shish asosida xom ashyo va materiallarni, shu jumladan aksiz to'lanadigan xom ashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish;

5) ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aksiz to'lanadigan tovarlarni o'z ehtiyojlarini uchun topshirish;

6) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojaxona hududiga import qilish.

*Quyidagi aksiz to'lanadigan tovarlarga aksiz solig'i solinmaydi:*

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojaxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan «bojaxona hududida qayta ishlash» bojaxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni topshirishga;

3) O'zbekiston Respublikasining bojaxona hududiga:

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida;

– davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan hayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida;

– O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan zayomlar (kreditlar) mablag'lari hisobiga, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan, aksiz to'lanadigan tovarlarni import qilishga;

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojaxona hududiga aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga;

3) vakolatli davlat organining yozma tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

## *Aksiz to'lanadigan tovarlar uchun soliq solish bazasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:*

– aksiz solig‘ining qat’iy stavkalari belgilangan tamaki mahsulotlari, o’simlik (paxta) yog‘i, etil spirti, pivo, konyak, aroq va boshqa alkogollik mahsulotlar, filtrli va filtrsiz sigaretalar, neft mahsulotlari (benzin, dizel yoqilg‘isi va aviakerosin) bo‘yicha - sotilgan mahsulotning natural ko‘rinishidagi o‘lchov birligiga nisbatan so‘mda;

– aksiz solig‘i to‘lanadigan boshqa mahsulotlar (zargarlik buyumlari, kumushdan qilingan oshxona buyumlari, tabiiy gaz, suyultirilgan gaz, «Jeneral Motars» yopiq turdag'i aksionerlik jamiyati avtomobilari) bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ini hisobga olmagan holda, shartnomaviy narxlar bo‘yicha yuklab jo‘natilgan tovarning qiymatiga nisbatan foiz (advalor)da.

### **Aksiz solig‘i stavkalari.**

Aksiz solig‘i stavkalari va aksiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi va soliq to‘lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan va olib kiriladigan aksiz to‘lanadigan tovarlarga belgilangan soliq stavkalari quyidagicha:

9-jadval

**O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aksiz to‘lanadigan tovarlarga nisbatan aksiz solig‘i  
STAVKALARI<sup>16</sup>**

Tovarlar nomi	Soliq stavkasi	
	aksiz solig‘i va QQSni hisobga olmagan holda sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan foizlarda	bir o‘lchov birligiga so‘mda
1. Etil spirti (1 dal uchun)		3 637
2. Vino (1 dal tayyor mahsulot uchun) (1)		
tabiiy ravishda achitilgan natural vinolar (etil spirti qo‘shilmagan holda)		5 492
boshqa vinolar		6 587

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

<i>Tovarlar nomi</i>	<i>Soliq stavkasi aktsiz solig'i va QQShni hisobga olmagan holda sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan foizlarda</i>	<i>bir o'Ichov birligiga so'mda</i>
3. Konyak, aroq va boshqa alkogollini mahsulotlar (1 dal tayyor mahsulot uchun)(1)		32 700*
4. Pivo (1 dal tayyor mahsulot uchun) (1)		3 570
5. O'simlik (paxta) yog'i (1 tonna uchun)(1): oziq-ovqat yog'i (salomas ishlab chiqarish uchun ishlataladigan yog' va «O'zbekiston» yog'idan tashqari)		875 665
texnik moy (kislota miqdori 0,3 mg KON/g dan yuqori, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo'shishga yaroqsiz bo'lgan)		481 689
6. Sigaretalar (1 ming dona uchun) (1): filtrli		17 451
filtrsiz, papiroslar		8 423
7. Zargarlik buyumlari	25	
8. «Jeneral Motors O'zbekiston» YoAJ ishlab chiqargan avtomobillar (2)	29	
9. Kumushdan ishlangan oshxonalar anjomlari	11	
10. Qimmatbaho metallar (2)		
11. Neft mahsulotlari (1): Ai-80 benzini	321 430 so'm/tonna	
Ai-91, Ai-92, Ai-93 benzini	353 430 so'm/tonna	
Ai-95 benzini	408 890 so'm/tonna	
dizel yoqilg'isi	273 400 so'm/tonna	
EKO dizel yoqilg'isi	284 250 so'm/tonna	
aviakerosin	50 580 so'm/tonna	
dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi	207 000 so'm/tonna	
12. Tabiiy gaz (aholiga sotiladigan tabiiy gaz hajmlaridan tashqari), shu jumladan	25	
13. Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz («O'ztransgaz» AK mintaqalararo unitar korxonalari tomonidan aholiga sotiladigan gaz hajmi bundan mustasno), shu jumladan eksport(2)	26	
14. Paxta tolasi(3)		

*\*) Hajmi ulushda etil spirti 40 foizdan ko'p bo'lgan konyak, arog va boshqa alkogollari mahsulotlarga aktsiz solig'i stavkasi 1 dal tayyor mahsulot uchun 43 105 so'm miqdorida belgilanadi.*

### **Izohlar:**

1. Qat'iy miqdordarda belgilangan aktsiz solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan narxlarning dinamikasi hamda mahsulotning sotilish hajmidan kelib chiqqan holda yil mobaynida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

2. «Jeneral Motors O'zbekiston» YoAJ avtomobilari, tabiiy va suyultirilgan gaz, qimmatbaho metallar, shuningdek chakana savdo tarmog'ida sotiladigan tilladan ishlangan zargarlik buyumlariga aktsiz solig'in to'lovchilar va uni to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

3. Paxta tolasining ichki narxlari (realizatsiya bo'yicha xarajatlarni hisobga olgan holda) va uni realizatsiya qilishning haqiqiy narxi o'rtafigagi ijobjiy farq paxta tozalash korxonalarining maxsus hisobraqamida jamlanadi va 50 foiz miqdorida - paxtachilik fermer xo'jaliklariga ularning byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar oldidagi yoxud xizmat ko'rsatish korxonalarini oldidagi kreditorlik qarzini ularning byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar oldidagi qarzini keyinchalik so'ndirgan holda so'ndirish uchun, 25 foiz miqdorida - "O'zgartasanoat" uyushmasi korxonalarining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun hisob-kitob qilish jamg'armasi kreditlari bo'yicha qarzini so'ndirishga, qolgan qismi esa - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun hisob-kitob qilish jamg'armasining aylarima mablag'larini to'ldirishga yo'naltiriladi.

10-jadval

### **O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan aktsizli tovarlarga aktsiz solig'i STAVKALARI<sup>17</sup>**

Tovar guruhining raqami	Tovarlar nomi	TIF TN bo'yicha tovar kodi	Tovarning bojxona qiymatidan foizlarda yoki o'lchov birligi uchun AQSh dollarida
02	Yangi so'yilgan go'shit va iste'molbop go'shtli qo'shimcha mahsulotlar,sovutilgan yoki muzlatilganlari	0201-0206, 0208 0207	30 70
	Yog'i kam go'shtdan ajratib olingan cho'chqa yog'i va qizdirilмаган yoki boshqa olinish usullari qo'llanmagan xonaki parranda yog'i, yangilar, sovutilganlari, muzlatilganlari, tuzlanganlari, namakobga solinganlari, quritilganlari yoki dudlanganlari	0209	30
04	Quyultirilмаган yoki shakar yoxud boshqa shirin qiluvchi moddalar qo'shilмаган sut va slivkalar Quyultirilgan yoki shakar yoxud boshqa shirin qiluvchi moddalar qo'shilgan sut va slivkalar Ardob, ivigan sut va slivkalar, yogurt, kefir Pishloqlar va tvorog	0401 0402 91, 0402 99 0403 0406	10 30 70 70

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-sonli qarori.

<i>Toear guruhining raqami</i>	<i>Tovarlar nomi</i>	<i>TIF TN bo'yicha tovar kodi</i>	<i>Tovarning bojxona qiyatidan foizlarda yoki o'chov birligi uchun AQSh dollarida</i>
	Parrandalar (nasldorlaridan tashqari) tuxumi	0407	70
	Tabiiy asal	0409 00 000 0	10
07	Yangi kavlab olingen yoki sovutilgan va boshqa xildagi kartoshka	0701 90	20
	No'shipiyoz, shalot piyozi, sarimsoq, ko'k piyoz va boshqa piyozboshllilar ildizlari, yangi uzilganlari yoki sovutilganlari	0703	30
	No'xat, boshqalar	0713 10900 0	10
08	Yangi uzilgan banan, plantaynlardan tashqari	0803 90 100 0	25%, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSh dollaridan kam emas
	Yangi uzilgan ananas	0804 30 000 1	25%, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSh dollaridan kam emas
	Avokado	0804 40 000 0	25%, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSh dollaridan kam emas
	Yangi uzilgan guayava, mango va mangostan (gartsi niya)	0804 50 000 1	25%, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSh dollaridan kam emas
	Apelsin	0805 10	25%, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSh dollaridan kam emas
	Mandarin (shu jumladan tanjerin va satsuma); klementin, wilking va tsitruslarning shunga o'xshash duragylari, yangi uzilgan yoki quritilganlari	0805 20	25%, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSh dollaridan kam emas
	Greypfrut, shu jumladan pomello, yangi uzilgan yoki quritilganlari	0805 40 000 0	25%, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSh dollaridan kam emas
	Limon (citrus limon, citrus limonum), yangi uzilgan yoki quritilganlari	0805 50 100 0	25%, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSh dollaridan kam emas
	Yangi uzilgan olma, nok va behi	0808	100
09	Kivi	0810 50 000 0	25%, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSh dollaridan kam emas
	Qovurilgan yoki qovurilmagan, kofeinli yoki kofeinsiz kofe; kofe po'chog'i va kofe urug'i qobiqlari; tarkibida turli nisbatda kofe bo'lgan kofe o'tmini bosuvchilar	0901	20
11	Bug'doy uni	1101 00110 0,1101 00150 0	11
15	Soya moyi va uning fraktsiyalari	1507	10
	Kungaboqar, moxsor yoki paxta moyi va ularning fraktsiyalari	1512(1512 21 900 0, 1512 29 900 0 dan tashqari)	10%, biroq 1 litr uchun 0,16 AQSh dollaridan kam emas
	Paxta moyi, taom iste'moli uehun soydalilaniladiganlari	1512 21 900 0, 1512 29 900 0	20%, biroq 1 litr uchun 0,32 AQSh dollaridan kam emas
	Margarin, taom iste'moli uchun yaroqli yoxud mol yoki o'simlik yog'lari yoki moylaridan tayyor nahsulotlar	1517	20
16	Go'sht va go'shtli qo'shimcha malisulotlardan tayyorlangan kolbasa va shunga o'xshash nahsulotlar	1601 00	50

<i>Tosur guruhining raqami</i>	<i>Tovarlar nomi</i>	<i>TIF TN bo'yicha tovar kodi</i>	<i>Tovarning bojxona qiymatidan foizlarda yoki o'chov birligi uchun AQSh dollarida</i>
	Go'sht va go'shti qo'shirincha mahsulotlardan tayyor yoki konservalangan mahsulotlar, bolalar ovqatidan tashqari	1602 (1602 10 001 0 dan tashqari)	70
	Tayyor yoki konservalangan baliq; tayyor yoki konservalangan qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va boshqa suvda yashaydigan umurtqasizlar	1604 (1604 31000 0, 1604 32 00 dan tashqari), 1605	30
	Osyotr, osyotrsimonlar uvidirig'i va uning o'mini bosuvchilar	1604 31000 0, 1604 32 00	50
17	Qattiq holatdagi shakarqamish yoki qand lavlagidan tayyorlangan shakar va kimyoiy toza saxaroza	1701 91 00, 1701 99	10
	Tarkibida kakao bo'limgan, shakardan tayyorlangan qandolat mahsulotlari, shu jumladan oq shokolad	1704 (1704 10 dan tashqari)	50
	Shakar bilan qoplangan yoki qoplanmagan rezinka saqich	1704 10	100
18	Tarkibida kakao bo'ligan shokolad va boshqa tayyor oziq-ovqat mahsulotlari	1806 20 - 1806 90	30
19	Boshqoli o'simliklar donlari, un, kraxmal yoki suttan tayyorlangan tayyor mahsulotlar	1901(1901 10 000 0,1901 90 990 0 dan tashqari), 1903	20
	Makaron mahsulotlari, issiqlik bilan ishllov berilgan yoki ishllov berilmaganlari, ichiga masalliq (go'shtdan yoki boshqa mahsulotlardan) solinganlari yoki solinmaganlari yoki boshqa usulda tayyorlangan spaghetti, inakaronlar, ugra, makaronning mayda xili, kletski, ravioli, kanneloni; kuskus, ovqatga qo'shishta tayyorlari yoki tayyor bo'limganlari	1902 (1902 30 100 0 dan tashqari)	30
	Quritigan makaron mahsulotlari	1902 30 100 0	50
	Boshqoli o'simliklar donlari yoki don mahsulotlarni kephchitish yoki qovurish yo'li bilan olingen tayyor oziq-ovqat mahsulotlari	1904	30
	Tarkibida kakao bo'limgan yoki bo'ligan, undan tayyorlangan qandolat mahsulotlari	1905	50
20	Sabzavot, meva, yong'oq yoki boshqa o'simlik qismalarining qayta ishlangan mahsulotlari	2001 (2001 90 910 0 dan tashqari), 2004, 2006 00 (2006 00 350 0, 2006 00 910 0 dan tashqari), 2007 (2007 10 10 1 0, 2007 10 911 0, 2007 10 991 0, 2007 99 930 0 dan tashqari)	30
	Sirka yoki sirka kislotosi qo'shilmasdan tayyorlangan yoki konservalangan tomatlar	2002	50
	Sirka yoki sirka kislotosi qo'shilmasdan tayyorlangan yoki konservalangan boshqa sabzavotlar, 2006-tovar pozitsiyasidagi mahsulotlardan tashqari muzlatilganlari	2005	50
	Mevalar, yong'oqlar va o'simliklarning iste'mol uchun yaroqli bo'lgan boshqa qismalari, boshqa usullarda tayyorlangan yoki konservalangan, tarkibiga shakar yoki boshqa shirin qiluvchi moddalar yoki spirit qo'shilganlari yoki qo'shilmaganlari, boshqa joylarda nomlanmaganlari yoki kiritilmaganlari	2008	30
	Meva va sabzavot sharbatlari (ananas va tsitrus)	2009 (2009 11 - 2009)	70%, biroq 1 litr

<i>Tovar guruhining raqami</i>	<i>Tovarlar nomi</i>	<i>TIF TN bo'yicha tovar kodi</i>	<i>Tovarning bojxona qiymatidan foizlarda yoki o'chov birligi uchun AQSh dollarida</i>
	mevalar sharbatidan tashqari)	49,2009 90 410,2009 90 490,2009 90 710 0,2009 90 730 0,2009 90 790 0 dan tashqari)	uchun 1,0 AQSh dollaridan kam emas
21	Turli oziq-ovqat mahsulotlari, bolalar ovqatidan tashqari	21 (2103, 2104 20 001 0, 2105 00, 2106 90 980 1 dan tashqari)	50
	Qayla tayyorlash uchun mahsulotlar va tayyor qayla; ta'm beruvchi q'shimchalar va aralash ziravorlar; xantal kukuni va tayyor xantal	2103	70
	Muzqaymoq va boshqa turdag'i iste'molga yaroqli muz	2105 00	200
	Shakar qo'shilмаган saqich	2106 90 980 1	100
22	Suv, shu jumladan tabiiy yoki sun'iy ma'danli, gazlangan, qo'shimcha qo'shilgan yoxud shakar yoki boshqa shirin qiluvchi yoxud xushbo'y hid va ta'm beradigan moddalar qo'shilмаган suvlar; muz va qor hamda boshqa alkogolsiz ichimliklar, 2009- tovar pozitsiyasidagi meva yoki sabzavot sharbatalardan tashqari	2201, 2202	100%, biroq 1 litr uchun 1,0 AQSh dollaridan kam emas
	Solod (shirinmiya) pivosi	2203 00	100%, biroq 1 litr uchun 1,3 AQSh dollaridan kam emas
	Vino	2204 10, 2204 21, 2204 29, 2205	1 litr uchun 6,0 AQSh doll.
	Achitqi bilan tayyorlanadigan boshqa ichimliklar; achitqi bilan tayyorlanadigan hamda alkogolsiz ichimliklar aralashmalari; spirit kontsentratsiyasi 80% hajmdan kam bo'lgan denaturalanmagan etil spirit; aroq va boshqa alkogollli mahsulotlar	2206 00, 2208 (2208 20120 0, 2208 20620 0 dan tashqari)	1 litr uchun 7,0 AQSh doll.
23	Etil spirit (stavka faqat tranzit paytida garov to'lovlarini hisoblash uchun qo'llaniladi)	2207	65
	Kon'jak	2208 20 120 0, 2208 20 620 0	1 litr uchun 14,5 AQSh doll.
	Hayvonlarni bogishda ishlataladigan mahsulotlar	2309 10, 2309 90	70
24	Sigaralar, kesma uchli sigaralar, tarkibida tamaki bo'lgan sigarillalar	2402 10 000 0	1 dona uchun 0,42 AQSh doll.
	Tamaki yoki uning o'mini bosuvchilardan tayyorlangan sigaretalar	2402 20 (2402 20 900 0 dan tashqari)	1 000 dona uchun 18,2 AQSh doll.
		2402 20 900 0	1 000 dona uchun 50 AQSh doll.
25	Osh tuzi, ovqatga solish uchun yaroqli Arralangan va boshqa usul bilan bloklarga bo'lingan ishlov berilmagan marmar, travertin yoki to'g'ri burchak shaklli plitalar (kvadratligi ham taradi)	2501 0091	30
	Gips; angidrit; qurilish uchun va boshqa suvoqlar	2515 11 000 0, 2515 12 000 0	20
	Bitumli jinslardan olingan neft va neft mahsulotlari	2710(2710 12, 2710 19 dan tashqari)	20
27	engil distillyatlar	2710 12	30
	o'rtacha va og'ir distillyatlar	2710 19	30
28	Dinatriy karbonat	2836 20 000 0	30
30	Adgeziv bog'lash materiali va yopishqoq qatlanga ega boshqa buyumlar	3005 10000 0	10
	Momiq paxta, doka, bint va shu kabi mahsulotlar...	3005 90	30

<i>Tovar guruhining raqami</i>	<i>Tovarlar nomi</i>	<i>TIF TN bo'yicha tovar kodi</i>	<i>Tovarning bojxona qiymatidan foizlarda yoki o'Ichov birligi uchun AQSh dollarida</i>
32	Dispersiyalangan yoki suvli va suvsiz muhitda erigan sintetik polimerlar yoki kimyoiy birikkan tabiiy polimerlar asosidagi bo'yqlar va laklar (emal, polituralar va yelim bo'yqlari bilan birga)... teriga ishllov berishda ishlataladigan tayyor suv pigmentlari	3208, 3209, 3210 00	30
33	Oynaga va bog'larda ishlataladigan zamazkalar, qatronli tsementlar, zichlashda foydalananladijan tarkiblar va boshqa mastikalar; bo'yqchilikda ishlataladigan shpatlyovkalar, binolar devorlar, pollar, shiplar yuzalarini tayyorlash uchun olovga chidamsiz tarkiblar va shunga o'xshash tarkiblar	3214	30
34	Sovunlar (qumoq-qumoqsovundan tashqari); yuzaga faol ta'sir ko'rsatuvchi organik moddalar, kir tuyush vositalari, sun'iy va tayyor mumlar, tozalash va jilolash uchun tarkiblar, sham va shunga o'xshash mahsulotlar, yopishitish uchun pastalar, plastilin, "tish shifokori qo'llaydigan mum" va gips asosidagi tishni davolash tarkiblari	3303 00, 3304 3305-3307 (3306 10 000 0 dan tashqari)	50 15
35	Moylash materiallari	3401 (3401 20 100 0 dan tashqari), 3402 (3402 11 900 0, 3402 12 000 0, 3402 13 000 0, 3402 19 000 0 dan tashqari), 3404 - 3407 00 000 0	20
36	Feyerverklar, signalli raketalar, yomg'ir yog'diruv raketalar, tumanga qarshi signallar va boshqa pirotexnik buyumlar Gugurt	3604 3605 00 000 0	20 30
37	Gidravlik tormoz suyuqliklari va gidravlik o'tkazmalar uchun boshqa tayyor suyuqliklar, tarkibida neft yoki butiminoz navlardan olingan neft mahsulotlari kamida 70 mas.% bo'lgan yoki bo'limaganlari	3819 00 000 0	10
38	Antifrizlar va muzlashga qarshi tayyor suyuqliklar	3820 00 000 0	30
39	Polivinilxloriddan tayyorlangan chiviglar, sterjenlar va fasonli profillar Plastmassadan tayyorlangan trubalar, trubkalar, shlanglar va ularning fittinglari Plastmassadan tayyorlangan pol, devorlar yoki shiplar uchun qoplamalar, shuningdek tashish va o'rash-joylash uchun buyumlar Plastmassadan tayyorlangan plitalar, listlar, pylonka, lenta, polosa va boshqa siliq shakllar, o'zi yopishadigan Plitalar, listlar, pylonka va polosalar yoki lentalar, boshqalar, g'ovaksiz va armaturalarnagan, qatlamlarsiz, qo'shimcha tag qo'yilmalsiz va shunga o'xshash usul bilan bioksial yo'naltirilgan propilen polimerlaridan olingan boshqa materiallар bilan aralashmaganlari	3916 20 000 0 3917 3918, 3923 (3923 21 000 0, 3923 29** dan tashqari) 3919 3920 20210 0	30 10 10 10 10
	Plitalar, listlar, pylonka va polosalar yoki lentalar, boshqalar, g'ovaksiz va armaturalarnagan, qatlamlarsiz, qo'shimcha tag qo'yilmalsiz va shunga o'xshash usul bilan vimildordi polimerlaridan tayyorlangan boshqa materiallar bilan aralashmaganlari, tarkibida kamida 6 mas% plastifikatorlar bo'lgan, qalinligi 1 mm dan ortiq	3920 43100 0	10

<i>Tovar guruhining raqami</i>	<i>Tovarlar nomi</i>	<i>TIF TN bo'yicha tovar kodi</i>	<i>Tovarning bojxona qiymatidan foizlarda yoki o'chov birligi uchun AQSh dollarida</i>
	bo'limganlari		
	Plitalar, listlar, pylonka va polosalar yoki plastmassadan tayyorlangan lentalar, boshqalar	3921	20
	Vannalar, dushlar, chig'anoqlar va plastmassadan tayyorlangan xuddi shunday sanitariya-texnik buyumlar	3922	30
	Etilen polimerlaridan tayyorlangan qoplar va sumkalar	3923 21 000 0	30
	Boshqa plastmassalardan tayyorlangan qoplar va sumkalar	3923 29**	20
	Plastmassadan tayyorlangan oshxonha idish-tovoqlari va uy-jihoz buyumlar	3924(3924 10000 0, 3924 90000 9 dan tashqari)	20
	oshxonha va tamaddixona idish-tovoqlari	3924 10 000 0,3924 90 000 9	50
	Plastmassadan tayyorlangan qurilish detallari	3925	30
40	Balata, guttapercha, gvayula, chikl va shunga o'xshash tabiy qatronlar	4001 30 000 0	40
	Boshlang'ich shakldagi yoki plastinalar, listlar yoki polosalar yoxud tasmalar ko'rinishidagi vulkanizatsiyalarnigan rezina aralashmasi	4005 (4005 20 000 Odan tashqari)	25
	Pnevmatik rezinali yangi shina va pokrishkalar	4011	10
	Pnevmatik rezinali shina va pokrishkalar, tiklanganlari yoki ishlataliganlari; sidirg'a yoki yarim pnevmatik shina va pokrishkalar, shina protektorlari va rezinali chambarak tasmalar	4012	20
	Yozuv-chizuv o'chirg'ichlari	4016 92 000 0	15
42	Charmdan tayyorlangan buyumlar; qayish-egar buyumlar va abzal; yo'l anjomlari, ayollar sumkalar va shunga o'xshash tovarlar, shuningdek tabiy charm yoki kompozitsion charmidan kiyim-kechaklarga tegishli anjomlar	4201 00 000 0 - 4203 (4203 10000 dan tashqari), 4205 00 900 0	20
	Tabiy charm yoki kompozitsion charmidan kiyim-kechaklarga tegishli anjomlar	4203 10000	30
43	Tabiy mo'ynadan tayyorlangan kiyim-kechaklar, ularga tegishli anjomlar va boshqa buyumlar; sun'iy mo'yna va undan tayyorlangan buyumlar	4303, 4304 00 000 0	25
44	Usti melamin qatoni bilan to'yintirilgan qog'oz bilan qoplangan plitalar	4410 (4410 11 100 0 dan tashqari)	30
	Yog'ochdan tayyorlangan boshqa buyumlar	4421 (gugurt ishlab chiqarishda ishlatalidigan gugurt cho'pidan tashqari)	30
48	Qog'oz yoki kartondan tayyorlangan, qog'oz yozuv-chizuv anjomlari to'plamlaridan iborat yozuv-chizuv mollari	4817, 4820 10 (4820 10 500 0 dan tashqari), 4820 30 000 0,4820 40000 0, 4820 50 000 0	15
		4820 90 000 0	10
49	Bosma harflari yoki suratlari pochta otkritkalari; yozma harflarda tabriklar, maktublar yoki xabarlar berilgan kartochkalar; barcha turdag'i bosma, shu jumladan yirtma kalendalar	4909 00000 0, 4910 00 000 0	15

<i>Tosar guruhining raqami</i>	<i>Tovarlar nomi</i>	<i>TIF TN bo'yicha tovar kodi</i>	<i>Tovarning bojxonasi qiyamatidan soizlarda yoki o'chov birligi uchun AQSh dollarida</i>
50	Ipak iplar yoki ipak chiqindiiaridantayyorlangan gazlamlalar	5007	20
51	Chakana sotish uchun qadoqlangan hayvonlar juni yoki ingichka qilidan eshilgan kalava	5109	10
52	Paxta tolasi, paxta tolasining chiqindilari, iplar va ip kalavalar	5201 00 - 5206	10
	Chakana sotish uchun qadoqlangan ip kalava	5207	30
	Yuza zichligi 200 g/kv.m dan katta bo'limgan, paxta tolassi 85 mas.% yoki undan ortiq bo'lgan tarkibli ip gazlamlalar	5208	10
	Ip gazlamlalar	5209 - 5212	30
56	Momiq paxta, namat yoki fetr va to'qilmagan materiallar; maxsus kalava; tizimcha, chilvir, arqon va troslar hamda ulardan tayyorlangan buyumlar	5601 - 5609 00 000 0	20
57	Gilamlar va polga to'shaladigan boshqa to'qimachilik mahsulotlari	5701 - 5705 00	120
58	Maxsus matolar; tafing to'qimachilik materiallari; to'rlar; gobelenlar; bezak materiallari; kashtalar	5801 - 5811 00 000 0	20
59	Linoleum	5904 10 000 0	10
60	Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotto	6001 - 6006(6006 34900 0 dan tashqari)	20
	Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotto, sun'iy tolalilari, bositganlar	6006 34900 0	30
61	Mashinada va qo'lda to'qilgan trikotaj kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	6101 - 6109, 6112 - 6117(6117 80 100 1 dan tashqari)	30
	Yuqori bo'g'imlar limfatomirli yetishmovchiligi bo'lgan bemorlar uchun yenglar	6117 80 100 1	10
62	Kiyim-kechaklar va kiyim anjomlari, mashinada va qo'lda to'qilgan trikotaj tashqari	6201 - 6208, 6210 - 6211, 6213 - 6217	50.
	Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj yoki notrikotaj byustgalterlar, belbog'lar, korsetlar, podtyajkalar, bog'lamalar va shunga o'xshash buyumlar hamda ularning qismlari	6212	30
63	Boshqa tayyor to'qimachilik mahsulotlari; to'plamlar; kiyilgan kiyimlar va to'qimachilik mahsulotlari, latta-putta	6301 - 6310	50
67	Sun'iy gullar, barglar va mevalar hamda ularning qismlari; sun'iy gullar, barglar va mevalardan yasalgan buyumlar	6702	70
68	Tosh, slanets, slyuda yoki shunga o'xshash materiallardan yasalgan buyumlar	6801 00 000 0 - 6803 00000 0, 6805 - 6808 00 000 0, 6815	20
	Gips yoki uning asosidagi qorishmalardan, tsement, beton, asbotsement, tselyulozoa tolali tsementdan tayyorlangan buyumlar	6809 - 6811	50
69	Yotqizish uchun plitalar, pol, pechka, kamin yoki devorlar uchun sirlanmagan yoki sirlangan sopol qoplama plitkalar	6907 - 6908	50
	Rakovinalar, umivalsniklar, rakovina konsollari, vannalar, bide, unitazlar, suv quyish bachoklari, pissuarlar va chinnidan tayyorlangan xuddi shunday sanitariya-tehnik jihozlar	6910 10000 0	10
	Chinnidan yasalgan oshxonha idish-tovoqlari, chinni va sopoldan yasalgan haykalchalar hamda boshqa buyumlar	6911 - 6914	30

<i>Tovar guruhining raqami</i>	<i>Tovarlar nomi</i>	<i>TIF TN bo'yicha tovar kodi</i>	<i>Tovarning bojxona qiymatidan foizlarda yoki o'chov birligi uchun AQSh dollarida</i>
70	Quyilgan va prokatlangan, cho'zilgan va puflangan, jekin birorta usul bilan ishllov berilmagan oyna; armaturalanmagan boshoq oyna...;	7003, 7004, 7005 29	40
	Xavfsiz oyna, shu jumladan mustalukamlangan (toblangan) yoki ko'p qatlamlili oyna	7007 11 100, 7007 19 200 0	30
	Butillar, butilkalar, flakonlar, ko'zalar, tuvaklar, bankalar, ampulalar va boshqa shisha idishlar	7010 (7010 10 000 0, 7010 90100 0, 7010 90430 0 dan tashqari)	30
	Shisha ampulalar	7010 10 000 0	50
	Konservalash uchun boshqa shisha bankalar	7010 90100 0	50
	Tovalrani saqlash, tashish, o'rab-joylash uchun rangsiz shishadan yesalan, 0,33 l dan ortiq, biroq kamida 1 sig'imi boshqa butilkalar	7010 90430 0	50
	Oshxonada tamaddixona shisha idish-tovoqlar, pardoz va yozuv-chizuv anjomlari, shisha buyumlar	7013 (7013 37, 7013 49 dantashqari) 7013 37, 7013 49	30 50
	Tilladan yasalgan zargarlik buyumlari	7113	1 gramini tilladan yasalgan buyum uchun 10 AQSh doll.
71	Qimmatbaho metallardan (tilladan tashqari) yoki qimmatbaho metallar qoplangan metallardan yasalgan zargarlik buyumlari va ularning qismlari; zargarlar yasagan tila yoki kumush buyumlar va qimmatbaho metallardan yoki qimmatbaho metallar qoplangan metallardan yasalgan zargarlik buyumlari va ulaming qismlari; tabii yoki yetishtirilgan marvariddan, qimmatbaho yoki yarim qimmatbaho toshlardan (tabiiy, sun'iy yoki rekonstruktsiya qilingan) yasalgan buyumlar	7113 (tilladan tashqari), 7114, 7116	90
	Jo'n taqinchoqlar	7117	50
	Betonni armaturalash uchun foydalaniladigan, chuqur joyi, bo'rtmasi, uvati yoki eritish jarayonida paydo bo'lgan boshqa deformatsiyalarga ega bo'lgan temir yoki legirlanmagan po'latdan erkin bukilgan holatlarda issiq holatda jo'valangan chiviqlar	7213 10 000 0, 7213 91 100 0	40
72	Betonni armaturalash uchun foydalaniladigan, chuqur joyi, bo'rtmasi, uvati yoki eritish jarayonida paydo bo'lgan boshqa deformatsiyalarga ega bo'lgan yoki eritishdan so'ng egilgan, temir yoki legirlanmagan po'latdan tayyorlangan chiviqlar	7214 20 000 0, 7214 99 100 0	40
	Temir yoki legirlanmagan po'latdan tayyorlangan simlar	7217(7217 10 100 0, 7217 20 100 0, 7217 20 900 0, 7217 30 490 0, 7217 90 200 0 dan tashqari)	40
73	Qora metallardan trubalar, trubkalar va profillar	7305 11000, 7305 12000, 7305 19000 0, 7306 19, 7306 30, 7306 61	30
	Qora metallardan yasalgan siqilgan yoki suylutirilgan gaz uchun, choksziz, sig'imi 50 litrgacha va undan ortiq bo'lgan idishlar	7311 00130 0, 7311 00190 0	70
	Qora metallardan tikanli sim; qora metallardan s'raigani g'ildirak po'laf yoxed tikanli yoki tikensiz birlgina yassi sim, to'siqlar uchun erkin buralgan	7313 00 000 0	50

<i>Tosar uruhining raqami</i>	<i>Tovarlar nomi</i>	<i>TIF TN bo'yicha tovar kodi</i>	<i>Tovarning bojxonha qiymatidan foizlarda yoki o'chov birligi uchun AQSh dollarida</i>
	ikki qavatlari simi		
	Korroziyaga chidamli po'latdan ishlangan boshqa to'qima mato	7314 14 000 0	40
	Qora metallardan boshqa to'qimalar, panjaralar, to'rlar va to'siqlar	7314 49 000 0	40
	Qora metallardan mixlar, knopkalar, chizmachilik knopkalar, rifellangan mixlar, skobalar va shunga o'xshash buyumlar, boshqa metallardan kallakli yoki kallaksizlari, mis kallakli buyumlardan tashqari	7317 00(7317 00 100 0,7317 00 400 0,7317 00 900 1 dantashqari)	30
	Gazda yoki gazda va boshqa turdag'i yoqilg'ida ovqat tayyorlash va isitish uchun moslamalar	7321 11	30%, biroq 1 donasi uchun 40 AQSh dollaridan kam emas
	Qora metalldan tayyorlangan tamaddixona, oshxona buyumlari yoki maishiy ehtiyojar uchun boshqa buyumlar va ularning qismilari; qora metallardan "jun"; oshxona idish-tovoqlarini tozalash uchun mochalkalar, tozalash uchun yostiqchalar yoki polirovkalash uchun qo'lqoplar va shunga o'xshash boshqa buyumlar	7323(fuqarolik aviatsiyasida foydalaniqidiganlardan tashqari)	30
	Qora metalldan tayyorlangan sanitariya-texnika jihozlari va ularning qismilari	7324 (fuqarolik aviatsiyasida foydalaniqidiganlardan tashqari)	20
	Tozalangan misdan qalinligi 0,15 mm dan ortiq bo'lgan boshqa plitlar, listlar, polosalar	7409 11 000 0,7409 19 000 0	30
74	Misdan yasalgan oshxona va tamaddixona buyumlari	7418 10 (oshxona idish-tovoqlarini tozalash uchun mochalkalar, tozalash yoki polirovkalash uchun yostiqchalar, qo'lqoplar va shunga o'xshash buyumlardan tashqari)	30
76	Alyuminiydan yasalgan oshxona va tamaddixona buyumlari	7615 10 (oshxona idish-tovoqlarini tozalash uchun mochalkalar, tozalash yoki polirovkalash uchun yostiqchalar, qo'lqoplar va shunga o'xshash buyumlardan tashqari)	20
82	Qimmatbaho bo'lmagan metallardan tayyorlangan, shu jumladan qimmatbaho metallar bilan qoplangan oshxona anjomlari, pichoqlar, qoshiqlar, sanchqlilar va boshqa buyumlar	8211, 8215	20
	Dvigatelli ventilator hamda havo harorati va hamligini o'zgartirish uchun priborlar bilan tihozlangan havo haroratinini bir xilda saqlash uchun shhatiladigan qurilmalar	8415(8415 81 001 0,8415 82 000 1,8415 83 000 1,8415 90 000 2 dan tashqari)	20
84	Alohiba tashqi eshkilar bo'lgan birlashtirilgan sovtutgich-muzxonalar	8418 10 (fuqarolik aviatsiyasida foydalaniqidiganlardan tashqari)	30
	Maishiy sovtutgichlar	8418 21 - 8418 29 000 0	30
	Fik holatdagi muzlatkich javonlar, hajmi 900 litrdan	8418 40 (fuqarolik	30

<i>Tosar guruhining raqami</i>	<i>Tovarlar nomi</i>	<i>TIF TN bo'yicha tovar kodi</i>	<i>Tovarning bojxonha qiymatidan soizlarda yoki o'chov birligi uchun AQSh dollarida</i>
	ko'p emas	aviatsiyasida foydalaniladiganlardan tashqari)	
	Elektr akkumulyatorlar	8507 10 200 9,8507 10 800 9 (faqt 5 kg dan ko'p bo'lmagan og'irlikda),8507 10 200 3	30
		8507 10 800 9(faqt 5 kg dan ko'p bo'lgan og'irlikda)	45
	Elektr, qo'rg'oshinli akkumulyatorlar, og'irligi 5 kg dan ko'p bo'lgan porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun, 8701 - 8705-tovar pozitsiyasidagi motorli transport vositalarini, ularning uzellari va agregatlarini sanot usulida yig'ish uchun foydalaniladiganlari	8507 10200 2	40
	Boshqa qo'rg'oshinli akkumulyatorlar	8507 20800 0	10
	Ichga qurilgan elektr dvigatelli changyutkichlar, quvvati 1500 Vt, 2000 Vt dan yuqori bo'lmagan, chang yig'ish uchun qopchalari yoki sig'imi 20 l va 30 l dan yuqori bo'lmagan boshqa chang yig'uvchisi bo'lgan, shuningdek boshqa ichga qurilgan elektr dvigatelli changyutkichlar	8508 11000 0, 8508 19000 1, 8508 19000 9	30%, biroq 1 donasi uchun 20 AQSh dollaridan kam emas
	Boshqa elektr suv isitgichlar	8516 10 800 0	10
	Elektr dazmnollar	8516 40000 0	10
	Boshqa pechlar; elektr plitalar, elektr plitkalar, pishirish uchun elektr qozonlar, grillar va rosterlar	8516 60	20%, biroq 1 donasi uchun 15 AQSh dollaridan kam emas
	Magnitofonlar va boshqa ovoz yozish apparatlari, videoyozuv yoki video hosil qiluvchi apparatlari, radiopriyomnikli cho'ntak kassetali pleyerlari	8519 50 000 0,8519 81 510 0 - 8519 81 950 0, 8521 (fuqarolik aviatsiyasida foydalaniladiganlardan tashqari), 8527 12, 8527 13, 8527 19 000 0, 8527 21, 8527 29 000 9, 8527 91, 8527 92, 8527 99 000 0	45
	Televizion aloqa uchun qabul qiluv apparatlari	8528 72	60
	Boshqa pereklyuchatellar, tok kuchi 11 A dan ko'p bo'lmagan xonaga mo'ljallangan elektr mehanik viklyuchatellar; shtepsellar va rozetkalar, boshqalar	8536 50070 0, 8536 69900 9	30%, biroq 1 donasi uchun 0,9 AQSh dollaridan kam emas
	Gaz-rasryad lampalar, boshqa ultrabinafsha nurli lampalar, termokatodli lyuminiscent lampalar, boshqalar bundan mustasno	8539 31900 0	30%, biroq 1 donasi uchun 3 AQSh dollaridan kam emas
	Izolyatsiyalangan simlar, koaksial kabellar, boshqa elektr o'tkazgichlar	8544 11 - 8544 49, 8544 60	50
87	Yangi egarli shatakkilar foydalanilganlari	8701 20 101 8701 20 901	40**** 70
	Jaydovchi bilan birga 10 yoki undan ko'p kishini ashishga mo'ljallangan, dvigatelinging hajmi quyidagicha bo'lgan avtomobillar: 2 500 kub sm dan ortiq, yangi, 30 kishigacha o'tirish joylari bo'lgan		
		8702 10 119 0	70
	2 500 kub sm dan ortiq, yangi foydalaniwigan	8702 10 109 0	70% - 3,0

<i>Toear guruhining raqami</i>	<i>Tovarlar nomi</i>	<i>TIF TN bo'yicha tovar kodi</i>	<i>Tovarning bojxonasi qiyamatidan foizlarda yoki o'chov birligi uchun AQSh dollarida</i>
	2 500 kub sm dan ortiq bo'limgan, ilgari foydalaniyan	8702 10 99	AQSh doll./kub sm 70% + 3,0 AQSh doll./kub sm
	Rossiya Federatsiyasi va Ukrainada ishlab chiqariladigan va olib kelinadigan yangi transport vositalari (tibbiy maqsadlar uchun maxsus mo'ljalanganlari bundan mustasno)	8703	2
	Dvigatelining hajmi quyidagicha bo'lgan, uchqunli ichki yonuv dvigateliga ega transport vositalari (shu jumladan ishlatilganlari):		
	1 000 kub sm dan ko'p emas:		
	yangilari	8703 21 109 0***	2,4 AQSh doll./kub sm
	ishlatilganlari (chiqarilganiga uch yildan yetti yilgacha bo'lgan)	8703 21 909 9	4,8 AQSh doll./kub sm
	ishlatilganlari (chiqarilganiga yetti yil va undan ortiq bo'lgan)	8703 21 909 1	7,2 AQSh doll./kub sm
	1 000 kub sm dan ortiq, lekin 1 500 kub sm dan ko'p emas	8703 22 (8703 22 101 0, 8703 22 901 0 dan tashqari)	2,5 AQSh doll./kub sm
	1 500 kub sm dan ortiq, lekin 1 800 kub sm dan ko'p emas	8703 23 (8703 23 199 0, 8703 23 909 0 dan tashqari)	2,6 AQSh doll./kub sm
	1 800 kub sm dan ortiq, lekin 3 000 kub sm dan oshmaydigan	8703 23 (8703 23 199 0, 8703 23 909 0 dan tashqari)	2,9 AQSh doll./kub sm
	3 000 kub sm dan yuqori	8703 24 (8703 24 101 0, 8703 24 901 0 dan tashqari)	3,1 AQSh doll./kub sm
	Porshenli ichki yonuv dvigateliga ega bo'lgan, siqliganda o'zi alangalanib o't oladigan (dizels yoki yarim dizels bilan), dvigatelining hajmi quyidagicha bo'lgan transport vositalari (shu jumladan ishlatilganlari):		
	1 500 kub sm dan oshmaydigan	8703 31 (8703 31 101 0, 8703 31 901 0 dan tashqari)	2,5 AQSh doll./kub sm
	1 500 kub sm dan ortiq, lekin 2 500 kub sm dan oshmaydigan	8703 32 (8703 32 191 0, 8703 32 901 0 dan tashqari)	2,9 AQSh doll./kub sm
	2 500 kub sm dan ortiq	8703 33 (8703 33 191 0, 8703 33 901 0 dan tashqari)	3,1 AQSh doll./kub sm
	Dvigatelining hajmi quyidagicha bo'lgan yuk tashish avtomobilari:		
	2 500 kub sm dan ortiq, yangi, 10 tonnadan ko'p bo'limgan yuk ko'taradigan	8704 21 310 0	70
	2 500 kub sm dan ortiq, ilgari foydalaniyan	8704 21 390	70% + 3,0 AQSh doll./kub sm
	2 500 kub sm dan ortiq bo'limgan, ilgari foydalaniyan	8704 21 990	70% + 3,0 AQSh doll./kub sm
	2 800 kub sm dan ortiq bo'limgan, ilgari foydalaniyan	8704 31 990	70% + 3,0 AQSh doll./kub sm
	Yuk tashish uchun motorli transport vositalari:		
	yangilari	8704 22 910, 8704 23 910 4, 8704 23 910 9,	40****

<i>Tovar guruhining raqami</i>	<i>Tovarlar nomi</i>	<i>TIF TN bo'yicha tovar kodi</i>	<i>Tovarning bojxonasi qiymatidan soizlarda yoki o'chov birligi uchun AQSh dollarida</i>
	ilgari foydalanilganlari	8704 32 910 8704 22 990, 8704 23 990, 8704 32 990	70
	Yuk tashish uchun boshqa motorli transport vositalari	8704 90 000 0	40***
	8702 yoki 8704 tovar pozitsiyalarida tasniflanadigan avtomobillar uchun o'rnatilgan dvigatelli shassilar	8706 00 11(8706 00 111 0 dan tashqari)	70
	8701 - 8705 tovar pozitsiyalaridagi motorli transport vositalarining qismlari va anjomlari	8708 (8708 10,8708 29 900,8708 40 200 1,8708 40 500,8708 50 350,8708 50 550,8708 50 910,8708 70 500,8708 70 910,8708 70 990,8708 91 350,8708 92 350,8708 93 900 9 dan tashqari)	20
	Motorollerlar	8711 20100 0	10
90	Quyoshdan himoya qiluvchi ko'zoynaklar	9004 10	30
91	Barcha turdag'i soatlar	9101 - 9105	5
94	Mebel's	9401 30 - 9401 80 000 0, 9403 10 -9403 89 000 0 (fuqarolik aviatsiyasida ishlataladiganlardan tashqari)	50
	Qandillar, yoritish uskunalarini va ularning qismlari	9405 10, 9405 91 (9405 91 900 1 dan tashqari), 9405 92 000 9	30
95	Videoo'yinlar uchun konsollar va uskunalar, ko'ngilochar tovarlar, stol ustida yoki xona ichida o'ynaladigan o'yinlar, shu jumladan pinbol, kazino o'yinlari uchun maxsus stollar va bouling uchun avtomot jihozlar	9504 (9504 20000 0 dan tashqari)	30
	Supurgilar, cho'tkalar, shvabralar, supurgilar yoki cho'tkali buyumlarini yasash uchun tayyorlangan tugunlar va bog'lamlar, bo'yash uchun yostiqlilar va valiklar	9603	20
96	Sharikli ruchkalar; ruchkalar va markerlar; avtoruchkalar, nusxa ko'chiradigan perolar, bosib chiqariladigan yoki sirg'anuvchi sterjenli qalamlar	9608	15
	Ayollarning gigientik prokladkalari va tamponlari, bolalar pelyonkalari va podguzniklari hamda kimyoiy va paxta tolasidan tayyorlangan shunga o'xshash buyumlar	9619 00 210 0, 9619 00310 0, 9619 00390 0	20

*Izohlar:*

*\*) Faqat bolalar ovqatlarini tayyorlash uchun zarur bo'lgan aralashma-komponentilar uchun.*

*\*\*) Infuzion eritmalarini ishlab chiqarishda qo'llaniladigan mahsulotlardan tashqari.*

*\*\*\*) Ishlab chiqarilganiga ikki yil va undan ko'p vaqt o'tgan mazkur toifadagi avtomobilarga ishlab chiqarilgan vaqtidan boshlab uch yildan yetti yilgacha foydalanishda bo'lgan avtomobillar uchun belgilangan stavkalar qo'llaniladi.*

\*\*\*\*\*) Rossiya Federatsiyasi va Ukraina ishlab chiqariladigan va olib kelinadigan yangi transport vositalaridan tashqari.

***Hisoblab chiqarilgan aksiz solig‘ining summasi quyida belgilangan chegirma summasiga kamaytiriladi:***

Aksiz to‘lanadigan tovarlar olinayotganda yoki O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilinayotganda, agar mazkur tovarlardan keyinchalik aksiz to‘lanadigan tovarlar ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida foydalilanilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi hududida to‘langan aksiz solig‘i summasi chegirib tashlanadi.

Aksiz soligini hisoblash, hisob-kitoblarni taqdim etish va soliq to‘lash tartibi.

***1. O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlarga:***

a) Tayyor mahsulot birligiga aksiz solig‘ining qat’iy stavkalari belgilangan mahsulot bo‘yicha (vino, shampan vinosi, pivo, vino mahsulotlari hamda tamaki mahsulotlari) bo‘yicha ***aksiz solig‘i summasi quyidagicha aniqlanadi:***

$$A_s = T_{nh} \times S_s,$$

bu yerda:

$A_s$  – aksiz solig‘i summasi;

$T_{nh}$  – tegishli o‘lchov birligida sotilgan mahsulotning natura ko‘rsatkichlaridagi hajmi;

$S_s$  – aksiz solig‘ining qat’iy stavkasi, o‘lchov birligi so‘mlarda.

b) ***Boshqa aksiz to‘lanadiga mahsulotlar boyicha aksiz solig‘i summasi quyidagicha aniqlanadi:***

$$S_a = T_{sq} \times S_s,$$

bu yerda:

$S_a$  – aksiz solig‘i summasi;

$T_{sq}$  – o‘z ichiga aksiz va qo‘shilgan qiymat solig‘ini olmagan tovarlarning sotish qiymati;

$S_s$  – aksiz solig‘i stavkasi.

***2. O‘zbekistonga import qilinadigan tovarlarga:***

Import qilinayotgan aksiz to‘lanadigan tovarlar hisob-kitobi uchun aksiz solig‘i qat’iy stavkalarda bo‘lsa (1) formula, aksiz solig‘ining stavkalari foizlarda bo‘lsa quyidagicha hisoblanadi:

$$S_a = T_{bq} \times S_s,$$

bu yerda:

T<sub>bq</sub> – bojxona qonunchiligiga muvofiq tovarning aniqlangan bojxona qiymati;

Aksiz solig‘ining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning har choragida, soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

To‘lovchilar tomonidan sotishning haqiqiy hajmidan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan aksiz solig‘i summasi budjetga *quyidagi muddatlarda to‘lanadi*:

– joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay - joriy oyning birinchi o‘n kunligi uchun;

– joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay - joriy oyning ikkinchi o‘n kunligi uchun;

– keyingi oyning 3-kunidan kechiktirmay hisobot oyning qolgan kunlari uchun.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha aktsiz solig‘ini to‘lash bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Aktsiz markalari bilan tamg‘alanishi lozim bo‘lgan import qilinadigan aktsiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha aktsiz solig‘i aktsiz markalari olinguniga qadar to‘lanadi.

Dam olish (ishlanmaydigan) yoki bayram kuniga to‘g‘ri keladigan aksiz solig‘ini to‘lash muddatlari, tegishincha, hisob-kitobni taqdim etish muddatlari ham dam olish yoki bayram kunidan keyingi birinchi ish kuniga ko‘chiriladi.

### Nazorat savollari

1. Aksiz solig‘i qachon joriy etildi?
2. Aksiz solig‘i to‘lovchilar qanday guruhlanadi?
3. Aksiz solig‘i solish ob‘yekti nimalardan iborat?
4. Aksiz solig‘i solinadigan baza qanday aniqlanadi?
5. Aksiz solig‘ini to‘lashdan kimlar ozod etilgan?
6. Aksiz solig‘i stavkalari va aksiz to‘lanadigan tovarlar ro‘yxati kim tomonidan belgilanadi?
7. Aksiz solig‘ini hisobga olish tartibi qanday?

## 2.4. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I

Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi.

Qo'shilgan qiymat solig'i har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko'p qirrali soliqdir. Korxona kundalik xo'jalik faoliyatida mahsulot yetkazib beruvchilardan tovar va xom ashyo sotib oladi va ulardan mahsulot yoki ish, xizmatlar ishlab chiqaradi. Demak, qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va sotishda qo'shilgan qiymat yaratiladi.

*Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra*, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xom ashylar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlab chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini davlat budgetining daromad qismiga jalg qilish g'oyasi dastlab XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu taklifni bиринчи мarta Germaniya budget amaliyotida joriy etishni 1919 yilda Vilgelm fon Simens ilgari surdi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi bиринчи мarta fransuz moliyachisi M. Lore tomonidan ishlab chiqildi. Ammo qo'shilgan qiymat solig'i M. Lorenning taklifidan so'ng o'tgan 10 yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba uchun taklif etilgan shaklda qo'llanildi. Frantsiyada qo'shilgan qiymat solig'i haqiqatda 1968 yildan boshlab joriy etildi.

O'zbekiston soliq tizimida qo'shilgan qiymat solig'i 1992 yildan buyon amal qilmoqda. Ushbu soliq oborotdan olinadigan soliq va sotuvdan olinadigan soliqlar o'rniiga aksiz solig'i bilan birgalikda kiritilgan. Bu soliq oborot solig'idan farqli ravishda faqat qo'shilgan qiymatdan undiriladi. Oborot solig'i esa bir marotaba umumiy oborotdan olinar edi.

O'zbekiston Respublikasi davlat budgetining daromad manbai sifatida qo'shilgan qiymat solig'i hozirga qadar o'zining muhim o'rmini va amaliy ahamiyatini saqlab kelayapdi. Ushbu soliq budget daromadlarining eng yuqori qismini tashkil etadigan soliq turi hisoblanadi.

**Soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliqqa tortiladigan baza.**

*Qo'shilgan qiymat solig'inining to'lovchilari* bo'lib amaldagi qonun hujjatlariga asosan budjet oldida ushbu soliqning hisob-kitobini amalga oshiruvchi 'tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar hisoblanadi. Jumladan:

- 1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar;
- 2) O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;
- 3) tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar (o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno);
- 4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi).

Soliqqa tortishning alohida tartibi belgilangan yuridik shaxslar hamda notijorat tashkilotlar asosiy faoliyat turi bo'yicha bu soliqni to'lamaydilar, ular faoliyatning boshqa turlari bilan shug'ullansalar, ushbu faoliyat bo'yicha alohida hisob yuritishlari va budjetga qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashlari lozim.

Amaldagi Soliq kodeksining 198-moddasiga ko'ra *qo'shilgan qiymat solig'inining ob'yekti* bo'lib tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oboroti hamda tovarlarning importi hisoblanadi.

Tovarlarni (ish va xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti deganda - yuklab jo'natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) qiymati tushuniladi, ya'ni yuklab jo'natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) uchun mablag' kelib tushishi davridan qat'i nazar korxona qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha budjet oldida hisob-kitoblarni amalga oshirishi shart.

Soliq solinadigan import deganda esa-O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar tushuniladi (qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan import tovarlardan tashqari).

*Soliq solinadigan baza*, realizatsiya qilinayotgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi.

Tovarlarni import qilishda soliq solinadigan bazaga tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati, shuningdek O'zbekiston Respublikasiga tovarlarni import qilishda to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'inining, bojxona bojlarining summalari kiradi.

*Quyidagilar tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo'lmaydi:*

- 1) soliq to'lovchining xarajatlari sifatida qaraladigan, uning o'z ehtiyojlari uchun tovarlarni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish;
- 2) bitta yuridik shaxsnинг bir tarkibiy bo'linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo'linmasiga ishlab chiqarish ehtiyojlari (zavod ichki oboroti) uchun, agar tarkibiy bo'linmalar Soliq kodeksiga muvofiq mustaqil soliq to'lovchilar bo'lmasa, mol-mulk berilishi, ishlar bajarilishi, xizmatlar ko'rsatilishi;
- 3) soliq to'lovchining o'z ehtiyojlari uchun o'z kuchi bilan qurilish, montaj, qurilish-montaj ishlarini bajarishi;
- 4) qaytariladigan tarani jo'natish. Qaytariladigan tara mahsulot solib jo'natilgan, qiymati ushbu mahsulot qiymatiga kiritilmaydigan hamda shu mahsulotni yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomada (kontraktda) belgilangan shartlarda va muddatlarda mahsulot yetkazib beruvchiga qaytarilishi lozim bo'lgan taradir. Agar tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, bunday tarani berish soliq solinadigan oborotga kiritiladi;
- 5) yuridik shaxsnинг ishtirokchisi (muassisasi) muassisalar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqqanda (chiqb ketganda), shu jumladan tugatilganlik (bankrotlik) yoki qayta tashkil etilganlik munosabati bilan chiqqanda (chiqb ketganda) unga dastlabki hissa doirasida mol-mulkni berish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikka (ishtirokchiga) uning mazkur shartnoma bo'yicha sheriklari (ishtirokchilar) umumiylikda bo'lgan ulushi qaytarilayotganda yoki bunday mol-mulk taqsimlanganda mol-mulkni berish;
- 6) asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni va tugallanmagan qurilish ob'yeqtalarini bepul asosda berish;
- 7) banklar va sug'urta tashkilotlari tomonidan mol-mulkni o'z filiallariga berish;
- 8) oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) ulushi sifatida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni), boshqa mol-mulk va mulkiy huquqlarni berish;
- 9) tovarlarni va boshqa mol-mulkni qayta ishslash asosida berish;
- 10) ishonchli boshqaruв shartnomasi asosida mol-mulkni mulkdordan ishonchli boshqaruvchiga berish;
- 11) ishonchli boshqaruв shartnomasi tugatilgan taqdirda, mol-mulkni mulkdorga berish;
- 12) ob'yeqt qiymatini ijara beruvchi (lizingga beruvchi) oladigan ijara (lizing) to'loving bir qismi tarzida qoplash;
- 13) tovarlardan foydalanishning kafolatli muddati davrida ularni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'shimcha haq olmasdan ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish.

## **Soliq bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari.**

*Qo'shilgan qiymat solig'idan boshqa soliq turlariga nisbatan ko'proq imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lib, ular Soliq kodeksida to'rt guruhga bo'lib berilgan. Ular:*

- 1) soliqdan ozod etiladigan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti (208-modda);
- 2) soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar (209- modda);
- 3) soliqdan ozod etiladigan sug'urta xizmatlari (210- modda);
- 4) soliqdan ozod etiladigan import (211-modda).

*Qo'shilgan qiymat solig'idan quyidagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari ozod etiladi:*

– davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda boshqa vakolatli tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan, davlat boji va yig'imlar undiriladigan xizmatlar;

– maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;

– bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;

– dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o'tkazishga doir xizmatlari;

– protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek nogironlarga ko'rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlarni ta'mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo'yicha xizmatlar;

– davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mazkur muassasalar tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsulotlari;

– pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlardan tashqari), markali otkritkilar, konvertlar;

– aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to'lash bo'yicha xizmatlari;

– budget mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari. Ushbu imtiyozni olish uchun tegishli moliya organining budgetdan mablag'lar ajratish to'g'risidagi xulosasi asosdir;

– shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari), shuningdek temir yo'l va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli

taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo‘nalishlarda yo‘lovchilar tashish xizmatlari;

– olyi, o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtlarida, shuningdek kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarda ta’lim berishning haq evaziga o‘qitishga doir qismi bo‘yicha xizmatlar;

– vakolatli davlat organiga saqlab turish uchun topshirilgan qimmatbaho metallar;

– chet el havo kemalariga xizmat ko‘rsatish yuzasidan bevosita O‘zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O‘zbekiston Respublikasining havo bo‘shlig‘ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan aeronavigatsiya xizmati;

– sanatoriy-kurort, sog‘lomlashtirish, turistik-ekskursiya xizmatlari va bolalar dam olish oromgohlarining xizmatlari, shuningdek jismoniy tarbiya va sport muassasalarining tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlari;

– gidrometeorologiya va aerologiya ishlari;

– geologiya va topografiya ishlari;

– O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning hamda O‘zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatiga doir mahsulot va xizmatlar;

– nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg‘armasi va «O‘zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo‘lgan, ishlovchilari umumiyligi sonining kamida 50 foizini nogironlar tashkil etuvchi yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar), bundan vositachilik, savdo, tayyorlov, ta’minot-sotish faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha realizatsiya qilish oborotlari mustasno;

– O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo‘yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar), yuridik shaxslar oladigan, shuningdek grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

– uy-joy fondini saqlash va ta’mirlash yuzasidan aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar;

– davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o‘rgatish xizmatlari;

– o‘zi yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsuloti;

– ichki ishlar organlari huzuridagi qo‘riqlov bo‘linmalari xizmatlari;

– boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan oborotlar.

*Moliaviy xizmatlarning quyidagi turlari qo‘silgan qiymat solig‘idan ozod etilgan:*

– kreditlar, zayomlar bo‘yicha foizlarni hisoblab chiqarish va undirish, kreditlar, zayomlar berish, kafilliklar (kafolatlar), shu jumladan bank kafolatlari berish;

- depozitlar qabul qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan vakil banklarda hisobvaraqlarini ochish va yuritish;
- to‘lovlar, o‘tkazmalar, qarz majburiyatlari, cheklar va to‘lov vositalari bilan bog‘liq operatsiyalar, inkasso bo‘yicha operatsiyalar;
- milliy valyuta va chet el valyutasi bilan bog‘liq operatsiyalar;
- qimmatli qog‘ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar) bilan bog‘liq operatsiyalar;
- akkreditivlar ochish va ularga xizmat ko‘rsatish;
- pul mablag‘larini konvertatsiya qilish bo‘yicha operatsiyalar;
- chet el valyutasi bilan ayirboshlash operatsiyalarini tashkil etish;
- kassa operatsiyalari (banknot va tangalarni qabul qilib olish, berish, qayta hisoblab chiqish, maydalab berish, almashtirish, saralash va saqlash);
- forfeiting va faktoring operatsiyalari;
- lombard operatsiyalari (garovga qo‘yilgan mol-mulkka qisqa muddatli kreditlar berish);
- jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larining oboroti;
- mijozlarning hisob raqamlariga banklar tomonidan elektron masofali xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xizmatlar.

*Qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etilgan sug‘urta xizmatlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:*

- 1) sug‘urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:
  - a) sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari;
  - b) qayta sug‘urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo‘yicha vositachilik haqi va tantemalar;
  - v) sug‘urta agenti, sug‘urta va qayta sug‘urta brokeri, syurveyer hamda sug‘urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;
  - g) qayta sug‘urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta to‘lovlar ulushining qayta sug‘urtalovchilar tomonidan to‘lanadigan to‘ovi;
  - d) sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha uchinchi shaxslardan subrogatsiya (regress) tartibida talab qilish bo‘yicha daromadlar;
  - e) sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, syurveyerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko‘rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

j) qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha depo mukofotlariga hisoblangan hamda qayta sug‘urta qildiruvchi tomonidan qayta sug‘urtalovchiga o‘tkazilgan foizlar;

z) hayotni sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta qildiruvchilar taqdim etgan zayomlardan olinadigan daromadlar;

i) sug‘urtalovchining (qayta sug‘urtalovchining) investitsiya faoliyatidan olinadigan daromadlar, shu jumladan sug‘urta rezervlari va sug‘urta fondlari mablag‘larini investitsiyalashdan olinadigan daromadlar;

k) sug‘urta qilish, birgalikda sug‘urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha franshizlarni qoplashdan olinadigan daromadlar;

l) qonun hujjalariغا muvofiq sug‘urtalovchiga o‘tgan, sug‘urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

m) qayta sug‘urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalar;

n) bevosita sug‘urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;

2) sug‘urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilinadi:

a) sug‘urta to‘lovi (sug‘urta tovoni);

b) preventiv tadbirlar o‘tkazish uchun beriladigan mablag‘lar;

v) sug‘urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug‘urtalovchi to‘laydigan mablag‘lar;

g) sug‘urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag‘lar.

*Tovarlarni import qilishda quyidagi hollarda qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etiladi:*

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjalariда tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

2) chet el diplomatik vakolatxonalarini va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek ushbu vakolatxonalarining diplomatik va ma’muriy-texnik xodimlari, shu jumladan ularning o‘zлari bilan birga yashayotgan oila a‘zолари shaxsiy foydalanishi uchun mo‘ljallangan tovarlar;

3) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar;

4) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko‘mak ko‘rsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar;

5) davlatlar, hukumatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan berilgan grant mablag'ları hisobidan olib kirilayotgan tovarlar;

6) dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar, shuningdek dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan xom ashyo;

7) O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyoq qismlar, agar ularni yetkazib berish texnologik asbob-uskunalarni yetkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa. Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e'tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi;

8) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlar sifatida olib kiriladigan mol-mulk;

9) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

10) bolalar poyabzali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar o'z ishlab chiqarishida foydalanish uchun olib kirayotgan xom ashyo, materiallar va yarim mahsulot;

11) qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha yog'och-taxta materiallari va yog'och.

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 1992 yilda 30 foizni tashkil qilgani holda, bugunga qadar bir necha marta o'zgartirildi. 2000 yildan hozirgi kungacha Soliq kodeksiga ko'ra respublikamizda *20 foizli va nol darajali stavka*<sup>18</sup> qo'llanilib kelmoqda.

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-sonli qarori.

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalarining o'zgarish dinamikasi<sup>19</sup>

Soliq stavkalari (foizda)	1992 y.	1993 y.	1994 y.	1995 y.	1996 y.	1997 y.	1998 y.	1999 y.	2000- 2013 yillar
Asosiy stavka	30	30	30	30	17	18	18	15, 20 va 0	20

Umuman olganda nol darajali stavka deganda korxona ishlab chiqarayotgan tovarlarning (bajarilgan ish, xizmatlarning) qiymatiga qo'shilgan qiymat solig'i qo'llanilmaydi, ya'ni «nol» ga teng bo'ladi.

*Nol darajali stavka bo'yicha quyidagi larda soliq solinadi:*

- tovarlarning, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bajariladigan ishlarning (ko'rsatiladigan xizmatlarning) erkin konvertatsiya qilinadigan valyutadagi eksportiga, shu jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlariga yetkazib berilishiga, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa.

Ayrim MDH davlatlarida bu tartib boshqacha. Masalan: Armaniston, Tojikiston, Turkmanistonda MDH davlatlaridan tashqariga eksport soliqqa tortilmaydi, nol darajali stavka ham qo'llanilmaydi. Qozog'istonda esa MDHdan tashqariga eksport nol darajali stavkada soliqqa tortiladi;

- chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovar (ish va xizmat)larga;

- suv ta'minoti, issiqlik ta'minoti, kanalizatsiya va gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlarga;

- paxta tolasini respublikaning ichki iste'molchilariga realizatsiya qilish oborotiga;

- xorijiy davlatlarning O'zbekiston Respublikasi hududi orqali olib o'tiladigan tranzit yuklarini tashish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarga, jumladan yo'lovchilar, bagajlar va pochtani xalqaro yo'nalishda tashish.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lgan (imtiyozli) oborotlardan farqli nol darajali stavka qo'llanilganda qo'shilgan qiymat solig'i tovarlarning tannarxiga olib borilmasdan, hisobga kiritiladi.

Agarda hisobot davrida hisobga kiritilishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan nol darajali stavkada hisoblanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'inining summasi qiymati jihatidan ko'p

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

bo'lsa, u holda ortiqcha summa soliq to'lovchining boshqa soliq va to'lovlari bo'yicha qarzi bo'lмаган тақдирда, унга belgilangan tartibda qaytariladi.

**Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va soliq to'lash tartibi.**

*1. Qo'shilgan qiymat solig'i summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagicha aniqlanadi:*

$$QQ_s = T_{sq} \times S_s,$$

yoki

$$S_{qqs} = (T_{sq} + A_s) \times S_s,$$

bu yerda:

$QQ_s$  – iste'molchilardan undiriladigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

$T_{sq}$  – tovarlaning sotish qiymati;

$S_s$  – qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi;

$A_s$  – aksiz solig'i summasi (aksiz solig'i to'lanadigan tovarlar uchun).

*2. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga olgan narxlar va ta'riflar bo'yicha sotilganda soliq quyidagicha aniqlanadi:*

$$QQ_s = T_{sq} \times S_s / (S_s + 100),$$

bu yerda:

$T_{sq}$  – qo'shilgan qiymat solig'i ham hisobga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati.

*3. Import qilinayotgan tovarlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i summasi quyidagicha aniqlanadi:*

$$QQ_s = (T_{bq} + B_b) \times S_s,$$

yoki

$$S_{qqs} = (T_{bq} + A_s + B_b) \times S_s,$$

bu yerda:

$T_{bq}$  – tovarlaning bojxona qiymati;

$B_b$  – bojxona boji;

$A_s$  – aksiz solig'i summasi (aksiz solig'i to'lanadigan tovarlar uchun).

Qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq to'lovchilar, bundan kredit va sug'urta tashkilotlari mustasno, qo'shilgan qiymat solig'ining hisob-kitobi bilan bir vaqtda soliq davri

mobaynida olingan va realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobvaraqt-fakturalar reestrlarini taqdim etadi. Hisobvaraqt-fakturalar reestrining shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

– qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay;

– mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjalarda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Korxonalar qo'shilgan qiymat solig'ini soliq hisobotini topshirgan kundan kechiktirmay tegishli davrdagi haqiqiy sotish oborotidan kelib chiqib to'laydi. Agar korxona hisoblangan soliq summasini budgetga o'z vaqtida o'tkazib bermasa, bunday holatda davlat soliq idoralari mas'ul xodimlari tomonidan hisoblangan soliq summasiga nisbatan kechiktirilgan har bir kun uchun 0,05 foiz miqdorida penya (moliyaviy jazo) qo'llanilishiga olib keladi. Bunda korxona rahbariyatiga nisbatan ma'muriy chora qo'llanilmaydi.

1998 yil 1 yanvardan O'zbekistondagi barcha korxonalar va tashkilotlar uchun, shu jumladan soliq solishning alohida tartibi o'rnatilgan kichik korxonalar, savdo va umumiylar ovqatlanish korxonalari hamda qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lgan korxonalar ham tovarlarni sotganda, ish va xizmatlar ko'rsatganda hisobvaraqt-fakturani to'ldirishi qonun asosida shart qilib belgilandi.

### *Nazorat savollari*

1. Qo'shilgan qiymat solig'ini qanday shaxslar to'laydi?
2. Qo'shilgan qiymat solig'i ob'yekti qanday aniqlanadi?
3. Soliqqa tortiladigan oborot deganda nimani tushunasiz?
4. Qo'shilgan qiymat soligi stavkalari va ularni qo'llash tartibi qanday?
5. Nol darajali stavka qaysi tovarlar (ish va xizmatlar)ga nisbatan qo'llaniladi?

## **2.5. YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILAR UCHUN SOLIQLAR VA MAXSUS TO'LOVLAR**

### **Yer qa'ridan foydalanganda soliq solish zarurligi.**

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin respublikamiz hududidagi barcha tabiiy, yer osti boyliklari davlatimiz tasarrufiga o'tdi. O'zbekiston zaminida juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xom ashyo resurslari to'plangan.

Respublikamiz qonunchiligiga ko'ra mavjud yer osti boyliklari umumdavlat mulki hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 23 sentabrdagi «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq 1995 yildan boshlab yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi va yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning hajmidan kelib chiqqan holda maxsus soliq to'lay boshladilar.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq joriy etilishidan asosiy maqsad-umumdavlat mulki hisoblangan yer osti boyliklaridan oqilona tarzda butun jamiyat a'zolarini va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Soliq kodeksiga ko'ra yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Ushbu soliq tabiiy boyliklardan foydalanishning samaradorligini ta'minlash bilan birga sof fiskal vazifani ham bajaradi.

Respublikamizda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq yer osti boyliklarining 56 turiga nisbatan belgilangan bo'lsada, budgetga soliq tushumi faqatgina 4-5 turdag'i yer osti boyliklariga mutlaq ravishda bog'liq bo'lib qolmoqda. Ular oltin, tozalangan mis, neft, tabiiy gaz va gaz kondensati, kumush va boshqalar.

### **Soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza.**

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kavlab olish, mineral xom ashysidan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilardir.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun *soliqni to'lovchilar* quyidagilardir:

- yer qa'ridan foydali qazilmalarni kavlab olayotgan, mineral xom ashysidan va (yoki) texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar;

– foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yer qa'ridan foydalanuvchilar.

*Yer qa'ridan foydalanuvchilar* yer qa'ridan foydalanganliklari uchun quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar:

*1) yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;*

*2) qo'shimcha foyda solig'i.* Ushbu soliq ayrim foydali qazilmalar yoki ayrim mahsulot turlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida o'matilgan stavkadan kelib chiqib, realizatsiyadan olingan sof tushum bilan belgilangan hisob-kitob bahosi o'rtaсидаги farq qo'shimcha foydadan undiriladi;

*3) bonus.* Bonus deganda yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lov tushuniladi. Ushbu bonuslarning ikki turi mayjud: imzoli bonus va tijoratbop topilma bonus.

*Imzoli bonus* yer qa'ridan foydalanuvchining tegishli litsenziya asosida foydali qazilmalarni aniqlash, qidirish va kavlab olish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun bir martalik qat'iy tarzda belgilanadigan majburiy to'lov hisoblanadi.

*Tijoratbop topilma bonusi* tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer qa'ri uchastkasida foydali qazilma konlarining har bir tijoratbop topilmasi uchun, shu jumladan dastlabki belgilangan ajratib olinayotgan zaxiralarni ko'paytirishga olib keluvchi konlarni qo'shimcha qidirish o'tkazish chog'idagi foydali qazilmalar topilmasi uchun to'lanadigan to'lov hisoblanadi.

Soliqqa tortish maqsadida yer osti boyliklari deganda yer qobig'ining yuqori qismini qamrab oladigan hamda foydali qazilmalarni tadqiq qilish va qazib olish mumkin bo'lgan makon, foydali qazilmalar deganda-iqtisodiy va sog'lomlashtirish ahamiyatiga ega geologik hosilalar hisoblanadi.

Tarkibida rangli, nodir, asl, qora metallar va boshqa mineral xom ashyo bo'lgan rudalarni bir korxona qazib olib, uni bundan keyin qayta ishlash uchun boshqa korxonalarga bersa (eksport bundan mustasno), qazib olinadigan rudani qayta ishlaydigan va soliq stavkasi belgilangan tayyor mahsulot chiqaradigan korxona soliq to'lovchi hisoblanadi.

Respublikamizda ushbu soliqni davlat budjetiga ta'minlab beruvchi eng yirik soliq to'lovchilar bo'lib Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati, Farg'ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlari, Sho'rtan va Muborak gazni qayta ishlaydigan zavodlari, Navoiy oltinni qayta ishlaydigan korxonasi, shuningdek Angren ko'mir qazib oluvchi korxonasi va boshqa shu kabi yer osti boyliklarini qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi yirik korxonalar hisoblanadi.

Ruda qayta ishlash uchun O'zbekiston Respublikasidan tashqariga yuklab jo'natilgan yoki eksport qilingan taqdirda rudani qazib olgan korxona soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi.

Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun *soliq solish ob'ektidir*. Tayyor mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Soliq solish ob'ekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

*Uglevodorodlar uchun soliq solish ob'ekti quyidagilardir:*

– sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan kavlab olingan uglevodorodlar, shu jumladan qo'shilib chiqadigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar;

– uglevodorodlarni qayta ishlash jarayonida ajratib olingan, lekin oldingi kavlab olinganda va qayta ishlanganda qayta ishlanadigan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliq solinmagan foydali komponentlar.

Qatlamdagi bosimni saqlab turish va (yoki) uglevodorodlarni tugal texnologik jarayon doirasida ajratib olish uchun mahsuldar qatlamga qayta haydab kiritiladigan tabiiy gaz hajmi soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

Ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, shu jumladan texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar uchun soliq solish ob'ektidir.

*Quyidagilar qattiq foydali qazilmalar bo'yicha soliq solish ob'ektiidir:*

– kavlab olingan (shu jumladan qo'shilib chiqadigan) foydali qazilmalar;

– foydali qazilmalardan, mineral xom ashyodan, texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan foydali komponentlar.

Soliq to'lovchilarga berilgan yer uchastkalari doirasida kavlab olingan hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalilanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

*Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliq solinadigan baza* kavlab olingan yoki ajratib olingan tayyor mahsulot hajmining o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati hisoblanadi.

Hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi har bir kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo'yicha alohida, pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlarini (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda) naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Agar tayyor mahsulot boshqa tayyor mahsulotni ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo‘lgan yoki tayyor mahsulot o‘zining ishlab chiqarish yoki xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalananilgan bo‘lsa, bunday mahsulot uchun soliq solinadigan baza kavlab olingan, ajratib olingan tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

### Soliq stavkalari.

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

O‘zbekistonda qazib olinadigan xom ashyo turlari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqning tabaqalashtirilgan stavkalari belgilangan. Hozirgi vaqtida jami 56 turdag'i foydali qazilmalarga nisbatan tabaqalashtirilgan tarzda soliq stavkalari o‘rnatalgan.

Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq va maxsus to‘lovlar stavkalari quyidagicha belgilangan:

12-jadval

**Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq  
STAVKALARI<sup>20</sup>**

Soliqqa tortish ob’yektining nomi	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkalari, %da
1. Asosiy va qo’shimcha foydali qazilmalar olinishiga nisbatan soliq stavkalari	
<i>Energiya manbalari:</i>	
Tabiiy gaz	30,0
Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz	9,0*
Yer ostidan qazib olingan gaz	2,6
Nobarqaror gaz kondensati	20,0
Neft	20,0
Ko‘mir	4,0
<i>Rangli va noyob metallar:</i>	
Tozalangan mis	8,1
Molibdenli sanoat mahsuloti	4,0
Konsentrantlangan qo‘rg‘oshin	4,0
Metall rux	4,0
Volfram konsentrati	10,4
Uran	10**
<i>Asl metallar:</i>	

<sup>20</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-sonli qarori.

Soliqqa tortish ob'yekting nomi	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkalari, %da
Oltin	5,0
Kumush	8,0
Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xom	24,0
<i>Qora metallar:</i>	
Temir	4,0
<i>Kon-kimyo xom ashyosi:</i>	
Tosh (ovqatga ishlatalidigan) tuz	3,5
Kaliy tuzi	3,5
Natriy sulfat	3,5
Fosforitlar (graftilarda)	5,0
Karbonat xom ashyosi (ohaktoshlar, dolomitlar)	3,5
Glaukonit	3,5
Mineral pigmentlar	4,8
<i>Kon-ruda xom ashyosi:</i>	
Plavik shpatli konsentrat	21,2
Tabiiy grafit	8,0
Ikkilamchi boyitilmagan kulrang kaolin	7,9***
Kvars-dala shpatli xom ashyosi	6,5
Shisha xom ashyosi	3,0
Betonitli loy	4,8
Talk va talk toshi	4,0
Talkomagnizit	4,0
Mineral bo'yoqlar	5,7
Vollostanit	4,0
Asbest	4,0
Mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt	4,0
Bariy kontsentrati	4,0
<i>Metallurgiya uchun noruda xom ashyosi:</i>	
O'tga chidamlı, qiyin eruvchan, qoliplash gilmoyasi	4,0
Ohaktoshlar, dolomitlar	4,0
Kvars va kvarsitlar	6,5
Qoliplash qumlari	4,0
Bermukulit	4,0
<i>Noruda qurilish materiallari:</i>	
Sement xom ashyosi	3,5
Tabiiy bezaktoshdan bloklar	3,5
Marmar ushog'i	3,8
Gips toshi, ganch	5,3
Keramzit xom ashyosi	3,5

Soliqqa tortish ob'yektining nomi	Soliq solinadigan bazaga nisbatan soliq stavkaları, %da
G'isht-cherepitsa (qumoqsimon, lyossimon jinslar, zichlovchi sifatida lyosslar, qumlar va boshqalar)	3,5
Gips va angidrit	4,0
Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	3,8
Qurilish qumlari	4,0
Tosh-shag'al aralashmasi, shag'al aralashmasi, mayda toshlar, shag'al	4,0
Qumtoshlar	3,5
Chig'anoq	3,5
Slanetslar	3,5
Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (margellar, argelitlar, amvritlar va boshqalar)	3,5
2. Texnogen hosilalardan olingan foydali qazilmalar	asosiy foydali qazilma boyligini qazib olganlik stavkasidan 30 %

\*) Belgilangan stavka bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi belgilagan tartibda utilizatsiya qilingan mash'al gazini realizatsiya qildigan korxona tomonidan to'lanadi.

\*\*) «Navoiy KMK» DK uranni kavlab olganlik bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan tartibda to'laydi.

\*\*\*) Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq belgilangan stavkada realizatsiya qilingan yer osti boyligi hajmiga asosan to'lanadi

13-jadval

#### Imzolanadigan bonus STAVKALARI<sup>21</sup>

N	Foydali qazilmalarni razvedka qilish va qidirish huquqi	Bonusning eng kam stavkasi (eng kam ish haqiga nisbatan karrali miqdorda)
1.	Uglevodorodlar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	10 000
2.	Oltin qidirish va razvedka qilish huquqi	10 000
3.	Qimmatbaho (oltindan tashqari), noyob va asl metallar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	1 000
4.	Rudali foydali qazilmalar konlarini, 2 va 3-bandlarda ko'rsatilganlardan tashqari, qidirish va razvedka qilish huquqi	500
5.	Norudali foydali qazilmalar konlarini qidirish va razvedka qilish huquqi	100

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

**Tijoratbop topilmasi bonusi  
STAVKALARI<sup>22</sup>**

Foydali qazilmalarni qazib olish huquqi	Stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
Uglevodorodlar, qimmatbaho va noyob metallar, rudali va norudali foydali qazilmalarni qazib olish huquqi	0,1

*Izoh:*

*Tijoratbop topilma bonusining summasi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning yillik summasidan oshgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tijoratbop topilma bonusini 3 yilgacha muddatda bo'lib-bo'lib to'lash ko'rinishidagi imkoniyat berilishi mumkin.*

15-jadval

**Ayrim turdagи mahsulotlar bo'yicha qo'shimcha foyda solig'i  
STAVKALARI<sup>23</sup>**

Mahsulot nomi	Soliq solinadigan bazaning miqdori (QQS va aksiz solig'isiz)	Soliq stavkasi
Katodli mis*	so'mdagи ekvivalentda «kesish narxi»gacha 1 tonna uchun 4 350 AQSh dollaridan yuqori	
Tabiiy gaz*	so'mdagи ekvivalentda «kesish narxi»gacha 1 000 kub m uchun 160 AQSh dollaridan yuqori	50 foiz
Polietyl granulalar*	1 tonna uchun 1 325 000 so'mdan yuqori	
Sement**	1 tonna uchun 105 000 so'mdan yuqori	
Klinker	1 tonna uchun 80 000 so'mdan yuqori	

\*) Qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar soliq to'langandan so'ng qo'shimcha foydaning ular ixtiyorida qoladigan qismini to'liq hajmda maxsus ochiladigan investisiya hisobvaraqlariga o'tkazadilar. Ko'rsatilgan investisiya hisobvaraqlaridan mablag'lar faqat O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilangan taribda sotish uchun ma'qullangan investisiya loyihalarini moliyalash, investisiya loyihalarini amalga oshirishga jalb etilgan kreditlarga xizmat ko'rsatish, shuningdek asosiy ishlab chiqarishni modernizasiyalash va texnik qayta jihozlashga sarflanadi.

\*\*) Muqobil yoqilg'i ko'mir asosida ishlab chiqarilgan og sement va sementdan tashqari.

<sup>22</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-sonli qarori.

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-sonli qarori.

### *Izoh.*

1. *Qo'shimcha foyda solig'i hisoblab chiqarish va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.*

2. *Tabiyy gaz bo'yicha qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar bo'lib tabiy gazni eksportga realizasiya qiladigan, qonun hujjalariiga muvofiq soliq solish ob'ekti yuzaga keladigan yuridik shaxslar (mahsulot taqsimoti to'g'risidagi bitim doirasida faoliyatni amalga oshiradigan operatorlar va investorlar bundan mustasno) hisoblanadi.*

**Soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi.**

*Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagicha aniqlanadi:*

$$YQF_s = YQF_{sb} \times S_s,$$

bu yerda:

$YQF_s$  – yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq summasi;

$S_s$  – belgilangan soliq stavkasi.

$$YQF_{sb} = TM_{o\cdot rb} \times V_{tm},$$

bu yerda:

$YQF_{sb}$  – yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bazasi;

$TM_{o\cdot rb}$  – hisobot davrida kavlab olingan yoki ajratib olingan tayyor mahsulot hajmining o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati yoki foydali qazilmalarni kavlab olishning ishlab chiqarish tannarxi;

$V_{tm}$  – hisobot davrida kavlab olingan (ajratib olingan) jami tayyor mahsulot hajmi.

Hisobot davri uchun kavlab olingan yoki ajratib olingan tayyor mahsulot hajmining o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati *quyidagicha aniqlanadi*:

$$TM_{o\cdot rb} = V_r / V_n,$$

bu yerda:

$V_r$  – har bir kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot bo'yicha alohida, pulda ifodalangan realizatsiya qilish hajmlari (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda);

$V_n$  – naturada ifodalangan realizatsiya qilish hajmi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun *soliqning hisob-kitobi* soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

– yuridik shaxslar tomonidan - ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

– jismoniy shaxslar tomonidan - yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

– mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan - hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay;

– mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan yuridik shaxslar tomonidan - har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

### *Nazorat savollari*

1. Yer qa'ridan foydalanganda soliq solishning zarurligi nimada?

2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumi asosan qaysi yer osti qazilma boyliklari hissasiga to'g'ri keladi?

3. Respublikamizda eng yirik soliq to'lovchilar jumlasiga qaysi korxonalar kiradi?

4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumining asosiy qismi respublikamizning qaysi hududlari hissasiga to'g'ri keladi?

5. Yer qa'ridan foydalanganda soliq solish ob'yekti va bazasi qanday aniqlanadi?

6. Hozirgi vaqtida yer osti qazilma boyliklarning nechta turiga nisbatan soliq stavkalarini belgilangan?

7. Soliq kodeksida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq imtiyozlari ko'zda tutilganmi?

## **2.6. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ**

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning joriy etilishi. Soliq to'lovchilar.**

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 maydagi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonuniga asosan 1998 yil 1 yanvardan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun *soliq to'lovchilar* O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan foydalanishni yoki suv iste'molini amalgalashiruvchi yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi rezidentlari, faoliyatini doimiy muassasa orqali amalgalashirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari, tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari hisoblanadi.

Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv yetkazib berishni amalgalashiruvchi yuridik shaxslar faqat o'z ehtiyojlariga ishlataladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchidir.

Soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan to'lovchilar hamda notijorat tashkilotlar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob olib borishlari va shu faoliyatda foydalilaniladigan suv hajmidan kelib chiqib suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lashlari kerak.

O'zbekistonda asosiy, davlat budjeti daromadlarini ushbu manba bo'yicha ta'minlab beradigan soliq to'lovchilar bo'lib GESlar hisoblanadi.

Yuridik shaxslar suvdan foydalanish joyida davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinish joyidan qat'i nazar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'laydilar.

### **Soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza.**

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalilaniladigan suv resurslari *soliq solish ob'ektidir*.

Suv resurslarining yer usti manbalariga quyidagilar kiradi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, turli xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari.

Suv resurslarining yer osti manbalariga artezian quduqlari va skvajinalar, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlar kiradi.

Foydalilanilgan suv resurslarining hajmi *soliq solinadigan baza* hisoblanadi.

Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi suv o'chagich asboblarining ko'rsatkichlari asosida aniqlanadi.

Suvdan o'chagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suvdan foydalanish limitlaridan, suv iste'molining texnologik va sanitariya normalaridan, ekinlar hamda dov-daraxtlarni sug'orish normalaridan yoki ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq to'lovchilar yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlarining alohida-alohida hisobini yuritadi. Suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan suv keladigan vodoprovod tarmog'idagi suvdan foydalanilgan taqdirda, soliq solinadigan baza manbaning har bir turi bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi. Suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar vodoprovod tarmog'iga suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan keladigan suv hajmlarining nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni davlat soliq xizmati organlariga joriy soliq davrining 15 yanvariga qadar taqdim etishlari kerak. Davlat soliq xizmati organlari besh kun ichida ushbu ma'lumotlarni soliq to'lovchilar e'tiboriga yetkazishi lozim.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan binolar bir qismi, ayrim xonalar boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ijara topshirilganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni «Suvqava» tizimi korxonalari yoki suv xo'jaligi organlari yoxud boshqa korxonalar bilan suv yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzgan ijara beruvchilar to'laydilar.

Bino (xona)ni ijara olgan va o'zлari suv yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzgan yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni mustaqil ravishda to'laydilar.

Amaldagi korxonalar va tashkilotlar hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaradigan yuridik shaxslar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniadigan suv uchun soliq to'lamaydilar. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarish chog'ida foydalaniadigan suv hajmi uchun soliqni ular uchun ushbu ishlarni bajariladigan korxona va tashkilotlar to'laydilar. Yangi qurilish maydonchasida qurilish ishlarni bajarish chog'ida qurilish paytida foydalaniadigan suv hajmi uchun soliqni qurilish tashkiloti to'laydi.

Yagona yer solig'i to'lovchilari bo'lmagan qishloq xo'jaligi korxonalari soliq solinadigan bazani soliq davrida bir gektar sug'oriladigan yerlarni sug'orish uchun sarflanadigan suvning butun xo'jalik bo'yicha o'rtacha hajmidan kelib chiqqan holda aniqlaydi.

## Soliq imtiyozlari va stavkalari.

*Soliq kodeksiga ko'ra suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan ozod etiladi:*

1) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilar» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan korxonalar.

2) suv uchun budjetga soliq o'tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar;

3) birlamchi foydalanilgan suv uchun to'lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste'molchilari;

4) ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar - tadbirkorlik sub'yektlari - yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda *soliq solinadigan baza quydagilar hisobiga kamaytiriladi:*

– sog'liqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari hajmiga;

– dori vositalarini tayyorlash uchun foydalaniladigan suv hajmiga;

– atrof muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqarib olinadigan yer osti suvlari hajmiga;

– shaxtdan suvlarni oqchirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqarib olingan va qatlAMDAGI bosimni saqlab turish uchun yer qa'riga qaytarib quyiladigan yer osti suvlari hajmiga;

– gidroelektr stantsiyalari giravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv hajmiga;

– qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerkarni yuvish uchun foydalaniladigan suv hajmlariga.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun *soliq stavkalari* quyidagi jadval ma'lumotlarida keltirilgan.

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq  
STAVKALARI<sup>24</sup>**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b><i>I kub m uchun stavka (so'm)</i></b>	
	<b><i>yer usti suv resurslari manbalari</i></b>	<b><i>yer osti suv resurslari manbalari</i></b>
1. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-4 - bandlarda ko'rsatilganlardan tashqari)	51,6	65,5
2. Elektrostansiyalar	14,9	22,2
3. Kemmunal xizmat ko'rsatish korxonalari	28,3	36,6
4. Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jalik korxonalari, dehqon xo'jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar) hamda tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suvdan foydalananadigan jismoniy shaxslar	2,8	3,1

Mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining 2002-2013 yillar mobaynida o'sib borayotganligini quyidagi jadval orqali izohlash mumkin.

16- jadval

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining o'zgarish  
dinamikasi<sup>25</sup>**

<b>Soliq stavkalari (1 kub. metr uchun stavka so'm)</b>	<b>2002 y.</b>	<b>2003 y.</b>	<b>2004 y.</b>	<b>2005 y.</b>	<b>2006 y.</b>	<b>2007 y.</b>	<b>2008 y.</b>	<b>2009 y.</b>	<b>2010 y.</b>	<b>2011 y.</b>	<b>2012 y.</b>	<b>2013 y.</b>
Yer usti suv resurslari manbalari	2,7	3,3	4,9	6,4	9,6	14,4	17,3	21,6	24,8	29,8	35,8	43,0
Yer osti suv resurslari manbalari	3,5	4,2	6,3	8,2	12,3	18,5	22,0	27,5	31,6	37,9	45,5	54,6

Suvdan qishloq xo'jalik ekinlari va ko'chatlarini sug'orish uchun foydalananadigan yordamchi xo'jaliklarga ega yuridik shaxslar, shuningdek ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o'quv yurtlarining o'quv-tajriba xo'jaliklari soliqni qishloq xo'jalik korxonalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

<sup>24</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

<sup>25</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

## **Soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi.**

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar tomonidan, dehqon xo'jaliklaridan tashqari, tasdiqlangan stavkalar bo'yicha amalda olingan soliqqa tortiladigan suv hajmidan kelib chiqib hisoblanadi.

Dehqon xo'jaliklariga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan umumari xo'jalik bo'yicha o'tgan yilda 1 ga sug'oriladigan yerga sarflangan suv hajmidan kelib chiqib hisoblanadi.

*Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagicha aniqlanadi:*

$$SRF_s = V_s \times S_s;$$

bu yerda:

$SRF_s$  – suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi;

$V_s$  – foydalanilgan suv hajmi;

$S_s$  – suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun *soliqning hisob-kitobi* suvdan foydalinish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagilar tomonidan yiliga bir marta taqdim etiladi:

– yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo'jaligi korxonalari bundan mustasno) - yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

– yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan - joriy soliq davrining 15 dekabrigacha;

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - soliq davridan keyingi yilning 25 yanvarigacha.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklariga davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay topshiriladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovlarni to'laydilar, bundan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga

oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari mustasno.

Joriy to'lovlardan miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 25 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga mo'ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (foydalaniladigan suv hajmidan) va suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar.

Hisoblab chiqarilgan joriy to'lovlardan quyidagicha to'lanadi:

- soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan ko'pni tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan (mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno)
- har oyning 25-kunidan kechiktirmay suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida;

- soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kamni tashkil etadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan yuridik shaxslar, shuningdek mikrofirmalar, kichik korxonalar va yakka tartibdagisi tadbirkorlar tomonidan - yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq yillik summasining o'rtdan bir qismi miqdorida.

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq solinadigan baza o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnomasi taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to'lov larga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning o'zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash joriy to'lovlardan hisobga olingan holda soliq to'lovchilar tomonidan, suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyida, hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi, bundan yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari mustasno.

Soliq davrida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha joriy to'lovlardan summasi hisob-kitobga ko'ra budjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq miqdorga kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lov larni suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblagan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash yiliga bir marta, soliq davridan keyingi yilning 1 mayigacha amalga oshiriladi.

### *Nazorat savollari*

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan ko‘zda tutilgan maqsad nima?
2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilar kimlar?
3. Jismoniy shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lovchilar bo‘la olishadimi?
4. Soliqqa tortish ob‘yekti qanday tartibda aniqlanadi?
5. Soliq qaysi muddatda budgetga o‘tkaziladi?

## **2.7. YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ**

**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati.**

Korxonalarga soliq solish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri korxonalarning mol-mulkiga solinadigan soliqning joriy qilinishi hisoblanadi. Mol-mulk solig‘i O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi 225-sonli Qonuniga asosan 1992 yil 1 yanvardan joriy etildi va shu bilan birga korxonalarning ishlab chiqarish fondlariga to‘lov hamda transport vositalariga solinadigan soliq bekor qilindi.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i to‘g‘ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko‘ra bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq bo‘yicha tushumlar summasi to‘liq mahalliy budgetlarga tushadi va u mahalliy budgetlarning barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

Soliq tizimida mol-mulk solig‘ini joriy qilishdan ko‘zlangan maqsad, birinchidan, korxonalar o‘zlarining xo‘jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg‘otish bo‘lsa, ikkinchidan, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag‘batlantirishdan iboratdir.

Xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq to‘lashga majbur qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va

uskunalaridan qutulishga undaydi. Bu esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllanrirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi.

**Soliq to‘lovchilar, soliq solish ob‘yekti, soliq solinadigan baza va mol-mulkning o‘rtacha yillik qoldiq qiymatini aniqlash tartibi.**

Soliq qonunchiligiga asosan *mol-mulk solig‘ining to‘loychilari* bo‘lib soliq O‘zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo‘lgan yuridik shaxslar O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari hisoblanadi.

Soliq solishning alohida rejimi o‘rnatalgan ayrim toifadagi korxonalarga, jumladan yagona yer solig‘ini to‘lovchi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar, yagona soliq to‘lovini to‘lovchi mikrofirma va kichik korxonalar hamda savdo va umumiyligida ovqatlanish korxonalari hamda notijorat tashkilotlar uchun ularning asosiy faoliyati bo‘yicha mol-mulk solig‘ini to‘lash tatbiq etilmaydi.

Agar soliq solishning alohida rejimi o‘rnatalgan yuridik shaxslar faoliyatning asosiy turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullansalar, ular alohida hisob yuritishlari va qonun hujjalari muvofiq mol-mulk solig‘ini to‘lashlari zarur bo‘ladi.

*Quyidagi mol-mulk soliq solish obyekti:*

1) asosiy vositalar, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shattnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar;

2) tugallanmagan qurilish obyektlari. Tugallanmagan qurilish obyektlari jumlasiga muayan qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjalarda belgilangan normativ muddatda, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo‘lsa, qurilish boshlanganidan e’tiboran yigirma to‘rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;

3) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar. Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar jumlasiga montaj qilinishi talab etiladigan hamda rekonstruksiya va (yoki) modernizatsiya qilinayotgan obyektlarda loyiha-smeta hujjalarda belgilangan muddatlarga muvofiq kapital qo‘yilmalar hisobiga ishga tushiriladigan asbob-uskunalar kiradi. Loyerha-smeta hujjalarda asbob-uskunalarni ishga tushirish muddatlari bo‘lmagan taqdirda, buyurtmachi sifatida ish ko‘rayotgan yuridik shaxsning rahbari tomonidan tasdiqlangan muddatlar soliq solish obyektni belgilash uchun qabul qilinadi, lekin bu muddatlar asbob-uskunalar montaj qilishga topshirilgan paytdan e’tiboran bir yildan ko‘p bo‘lmasisligi kerak.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun quyidagilar soliq solish obyektiadir:

- O'zbekiston Respublikasining norezidentlari buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq qaysi asosiy vositalar bo'yicha hisob yuritayotgan bo'lsa, o'sha asosiy vositalar;
- ushbu doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq bo'lmanan, mazkur norezidentlarga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, ularga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk soliq solish obyekti. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ O'zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan mulk qilib olingan (realizatsiya qilingan) ko'chmas mulk obyekti to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu obyektlar joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Qonun hujjatlariga muvofiq mulk qilib olingan yer uchastkalari soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi.

***Soliq solinadigan baza quyidagilardir:***

- asosiy vositalar bo'yicha - asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalilanigan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o'rtaidagi farq sifatida aniqlanadi;
- normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha - tugallanmagan qurilishning va o'matilмаган asbob-uskunalarning o'rtacha yillik qiymati.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan ushbu mol-mulkning o'rtacha yillik qiymati soliq solinadigan bazadir.

Soliq solish obyektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ushbu Kodeksning 266-moddasi ikkinchi qismining uchinchi xatboshisida va uchinchi qismida ko'rsatilgan ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha soliq solinadigan baza mazkur obyektlarga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan qiymat asosida aniqlanadi.

*Yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq quyidagicha hisoblanadi:*

$$MM_s = M_{o \cdot q} \times S_s$$

bu yerda:

$MM_s$  – yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq summasi;

$M_{o \cdot q}$  – mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati;

$S_s$  – soliq stavkasi.

Yuridik shaxslar mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymati hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'yektlarining qoldiq qiymatlarini qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan quyidagicha aniqlanadi.

**Mol-mulkning 31 yanvar + 28(29)fevral + ... + 30 noyabr + 31 dekabr o'rtacha yillik =**

---

**qoldiq qiymati** **12**

**Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i imtiyozlari va stavkalari.**

*Mol-mulk solig'i hisoblab chiqarilayotganida soliq solinadigan baza quyidagilarning o'rtacha yillik qoldiq qiymatiga (o'rtacha yillik qiymatiga) kamaytiriladi:*

1) kommunal xo'jaligi obyektlarining. Kommunal xo'jaligi obyektlariga quyidagilar kiradi: vodoprovod tarmoqlari (suv chiqarish inshootlari bilan), kanalizatsiya tarmoqlari (tozalash inshootlari bilan), gaz va issiqlikni taqsimlash tarmoqlari (ulardagi inshootlar bilan), kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun qozonxonalar (shu jumladan, asbob-uskunalar);

2) madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha obyektlarining;

3) yuridik shaxslarning madaniyat muassasalari, maktabgacha va umumta'lim o'quv muassasalari ehtiyojlari uchun foydalilaniladigan mol-mulkining;

4) qishloq xo'jaligi (o'simlikshunoslik, chorvachilik, baliqchilik) mahsulotlarini yetishtirish va saqlash uchun foydalilaniladigan qishloq xo'jaligi korxonalari balansida bo'lgan mol-mulkning;

5) sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari obyektlarining;

6) aloqa yo'ldoshlarining;

7) tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalilaniladigan obyektlarning. Obyektlarni tabiatni muhofaza qiliш, sanitariya-tozalash maqsadlari va yong'in xavfsizligi

uchun foydalaniladigan obyektlarga kiritish tegishli tabiatni muhofaza qilish yoki davlat yong'in nazorati organining ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;

8) umumiyl foydalanishdagi temir yo'llar va avtomobil yo'llari, magistral truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalarining, shuningdek ushbu obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarning;

9) konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;

10) lizingga olingan mol-mulkning, lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga;

11) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlarning;

12) shahar va shahar atrofidagi yo'naliishlarda yo'lovchilar tashiydigan shahar yo'lovchilar transporti tashkilotlari transport vositalarining (avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten poyezdlari);

13) tuzilgan shartnomalarga muvofiq yuridik shaxsning buyurtmasi bo'yicha ishlar bajarish uchun kasanachilarga bepul foydalanishga berilgan asbob-uskulalarning (foydalanish davriga);

14) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarining;

15) ko'pi bilan o'n yil davomida ishlatib kelinayotgan mashina va asbob-uskulalarning.

*Amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra quyidagi yuridik shaxslarning mol-mulkiga soliq solinmaydi:*

a) sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi, madaniyat va san'at tashkilotlari;

b) uy-joy-kommunal xo'jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligining mol-mulkiga;

v) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilar» uyushmasining mulkida bo'lgan, ishlovlchilar umumiyl sonining kamida ellik foizini nogironlar tashkil qilgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga;

g) yangi tashkil etilgan korxonalar - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida;

d) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'yektlarini-yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran.

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining stavkalari 2002 yilda 2 foizni, 2003 yilda 3 foizni hamda 2004 yildan 2013 yilgacha 3,5

foizni tashkil etgan. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining stavkalari asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va davlat budgeti parametrlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi.

*Yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ining stavkalari quyidagicha belgilangan:*

17-jadval

**Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i  
STAVKALARI<sup>26</sup>**

<i>Nº</i>	<i>To‘lovchilar</i>	<i>Soliq stavkasi soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</i>
1	Yuridik shaxslar	4
2	O‘zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valyutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 12 oktabrdagi PF-1871-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan xom ashyo tovarlari ro‘yxatidagilar bundan mustasno):*	belgilangan stavka 30 %ga pasaytiriladi
	- sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 50 %ga pasaytiriladi
	- sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	

\*) Belgilangan (*me’oriy*) muddatlarda ishga tushirilmagan uskunalar va tugallanmagan qurilish qiymatiga pasaytirilgan stavkalar qo‘llanilmaydi.

Izoh. *Me’oriy muddatlarda o’rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig‘i ikki baravar miqdorda to‘lanadi.*

Quyidagi jadval ma’lumotlarida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarining 2002-2013 - yillar davomida o‘zgarish dinamikasi keltirilgan.

<sup>26</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-sonli qarori.

**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarining o'zgarish dinamikasi<sup>27</sup>**

Soliq stavkalarini (foizda)	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.
Asosiy stavka	2	3	3,5	3,5	3,5	3,5	3,5	3,5	3,5	3,5	3,5	3,5

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrdagi PQ-1449-soni «O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq 2011 yil 1 yanvardan boshlab eskirgan uskunalarining o'z vaqtida almashtirilishini ta'minlash maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'yektlar uchun (mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari) to'liq amortizatsiya qilingan va foydali ish muddati tugagan uskunalardan foydalanganlik uchun dastlabki qiyamatning 0,25 foizi miqdorida to'lov joriy etildi.

Mahsulotini eksport qiluvchi korxonalarga berilgan imtiyoz savdovositachi korxonalarga, shuningdek, erkin almashtiriladigan valyutaga xom ashyo tovarlari - paxta tolasi, ip gazlama, lint, neft, neft mahsulotlari, gaz kondensati, rangli va qora metallarni eksport qiladigan ishlab chiqarish korxonalariga tatbiq etilmaydi.

Soliq stavkasi mol-mulkning qayta baholash natijasidagi qoldiq narxiga qo'llaniladi. Qayta baholash maqsadida korxonalarining asosiy vositalari deganda quyidagilar tushuniladi:

- o'zining asosiy vositalari;
- o'rnatiladigan uskunalar;
- tugallanmagan qurilish ob'yektlari;
- uzoq muddatga ijaraga olinadigan, shu jumladan uzoq muddatli lizing bo'yicha olingan asosiy vositalar.

**Soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi**

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq to'lovchi - O'zbekiston Respublikasining rezidenti tomonidan amalga oshiriladi.

<sup>27</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

*Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi* soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar to'laydilar.

Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 10 yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga mo'ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o'rtacha yillik qiymatidan) va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar.

Joriy to'lovlar quyidagicha to'lanadi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining to'rtadan bir qismi miqdorida *yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay*;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida *har oyning 10-kunidan kechiktirmay*.

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq solinadigan baza o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnomasi taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to'lov larga yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning o'zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi joriy to'lovlar hisobga olingan holda, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay budgetga o'tkaziladi.

Soliq davrida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar summasi hisob-kitobga ko'ra budgetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lov larni yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, pena hisoblangan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq

solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda davlat soliq xizmati organlari tomonidan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidenti doimiy muassasaning soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solinadigan mavjud mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotnomani hisobot yildan keyingi yilning 25 yanvaridan kechiktirmay taqdim etishi shart. Taqdim etilgan ma'lumotnomma asosida davlat soliq xizmati organi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi hisob-kitobini o'n kun ichida amalga oshiradi va to'lov xabarnomasini yozib beradi;

O'zbekiston Respublikasining ko'chmas mulkka ega bo'lgan norezidentlariga ko'chmas mulk joylashgan yerdagi O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari soliq to'lovchining yoki ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida to'lov xabarnomasini yozib beradi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yilda bir marta, soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15 fevralidan kechiktirmay to'lanishi kerak.

### *Nazorat savollari*

1. Korxona mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymati qanday tartibda soliqqa topiladi?
2. Mol-mulk solig'i stavkalari qanday belgilangan?
3. Soliq idoralariga qaysi muddatlarda mol-mulk solig'i bo'yicha hisob-kitob topshiriladi?

## **2.8. JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ**

**Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari,  
soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza.**

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan «Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i to'g'risida»gi Qonuniga asosan 1994 yil 1 yanvardan joriy etildi.

Soliq kodeksiga ko'ra soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan jismoniy shaxslar, chet el fuqarolari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan *soliqni to'lovchilar* bo'lib hisoblanishadi.

Jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylari, kvartiralari, chorborg' va bog' uylari, garajlar va boshqa imoratlari, binolar va inshootlari qiymati *soliq solish ob'yekti* hisoblanadi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini inventarizatsiya qilish qiymati *soliq solinadigan baza* bo'lib hisoblanadi. Agar jismoniy shaxslarning mol-mulki bahosi tegishli vakolatli idoralar tomonidan aniqlanmagan bo'lsa, bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan mol-mulkning shartli qiymati belgilanadi hamda o'rnatilgan stavkalar asosida soliqqa tortiladi.

**Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq imtiyozlari  
va stavkalari.**

*Soliq qonunchiligidagi ko'ra quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida  
bo'lgan imoratlari, binolari va inshootlariga soliq solinmaydi:*

1) "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning. Mazkur imtiyoz tegishinchcha "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ayollarning. Mazkur imtiyozni berish uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi asos bo'ladi. Imtiyoz qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida beriladi;

4) Chernobil AESdagagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolarning (shu jumladan u yerga vaqtinchada yo'llangan yoki xizmat safariga yuborilgan shaxslarning). Mazkur imtiyoz tegishincha tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, vakolatli davlat organlari tomonidan berilgan, imtiyozlar berish uchun asos bo'ladi boshqa hujjatlar asosida beriladi;

5) qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

6) I va II guruh nogironlarining. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi. Imtiyoz qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida beriladi;

7) sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki xarbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lisl bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan xarbiy xizmatchilar hamda ichki ishlar organlari xodimlari ota-onalarining va beva xotinlarining (beva erlarining). Imtiyoz "Halok bo'lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)" yoki "Ichki ishlar organlari halok bo'lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)" shtampi qo'yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergen muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo'lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik ko'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organi xodimining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki xarbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoki frontda bo'lisl bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarining yoxud ichki ishlar

organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi;

Yuqorida nazarda tutilgan imtiyozlar mol-mulk egasining tanlashiga binoan, imtiyoz olish huquqini beruvchi zaruriy hujjatlar soliq organlariga taqdim etilganda, mol-mulkning faqat bir ob'yektiga taalluqli bo'ladi.

Imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalilaniladigan yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan soliq solish ob'ektlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

Yil davomida to'lovchilarda mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda ular ko'rsatilgan to'lovlardan ana shu huquq paydo bo'lgan oydan boshlab ozod etiladilar.

Yil o'rtaida mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz huquqini yo'qtoganda soliq solish ushbu huquq yo'qolgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i stavkasi 2002 yida 0,4 foizni, 2003 yildan 2010 yilgacha 0,5 foizni, 2011 yil 0,75 foizni va 2012 yil 0,9 foizni tahkil etgan holda o'sib boorish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

*Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining stavkalari quyidagicha belgilangan:*

\* 19-jadval

**Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i  
STAVKALARI<sup>28</sup>**

<i>Soliqqa tortish ob'ekti</i>	<i>Mol-mulkning inventarizatsiya qiymatiga nisbatan soliq stavkasi (%da)</i>
Turar joylar, kvartiralar, dala hovli va bog' uychalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar, ularning qiymatidan kelib chiqib	1,2
Shaharlarda joylashgan umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan turar joy va kvartiralar:	
200 kv. m dan oshiq va 500 kv. m gacha bo'lgan	1,4
500 kv. m dan oshiq bo'lgan	1,8

*Izoh:*

1. *Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yicha organlar belgilagan inventarizatsiya qiymati bo'lmasa, soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida 18 480,0 ming so'm, boshqa shahrlar va qishloq joylarda - 8 030,0 ming so'm miqdorida mol-mulkning sharsli qiymati qabul qilinadi.*

<sup>28</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

Mol-nulkka bo'lgan huquqni ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarda belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan yangi qurilgan turar joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulk shartli qiymatining ikki baravari miqdoridan kelib chiqib undiriladi.

2. Soliq solinadigan mol-mulkka egalik qiladigan pensionerlar uchun mol-mulk soliq'i bo'yicha soliq solinmaydigan maydon umumiylar maydonning 60 kv. m hajmida belgilanadi.

3. Jismoniy shaxslar tomonidan turar joy fondi ob'ektlari noturar joy fondi toifasiga o'tkazilganda yoki ular tomonidan noturar joy fondi ob'ektlari (binolar, binodagi xonalar) mulk sifatida xarid qilinganda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlarida jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarining 2002-2013 - yillar davomida o'zgarish dinamikasi keltirilgan.

20-jadval

#### Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarining o'zgarish dinamikasi<sup>29</sup>

Soliq stavkalari (foizda)	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.
1. Turar joylar, kvartiralar, dala hovli va bog' uychalari, garajlar va boshqa imoratlari, xonalarva inshootlar, ularning qiymatidan kelib chiqib:												
a) 1998 yilda qayta baholangan	0,4		0,5					0,5		0,75	0,9	1,04
b) 1998 yilda qayta baholanmagan	5,8		7									
2. Shaharlarda joylashgan umumiylar maydoni quyidagicha bo'lgan turar joy va kvartiralar:												
a) 200 kv. m dan oshiq va 500 kv. m gacha bo'lgan									0,9	1,1	1,25	
b) 500 kv. m dan oshiq bo'lgan									1,13	1,35	1,55	
3. TIB idoralari tomonidan baholanmagan va yangi qurilgan ob'yeqtalar uchun shartli baho:												

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

Soliq stavkalari (foizda)	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.
a) Toshkent shahri va viloyatlar markazi uchun	1500 ming so'm		1800 ming so'm			2100 ming so'm		16800 ming so'm		18480 ming so'm		
b) boshqa shaharlar va qishloq joylari uchun	700 ming so'm		800 ming so'm		920 ming so'm		7300 ming so'm		8030 ming so'm			

Jismoniy shaxslarning mol-mulkulari texnik inventarizatsiyalash byurosi (TIB) xodimlari tomonidan baholanadi. Agar jismoniy shaxslarga noturar joy ob'yektlari tegishli bo'lsa, yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i stavkalari bo'yicha mol-mulk solig'i jismoniy shaxsdan undiriladi.

#### **Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.**

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladi.

*Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq summasi quyidagicha aniqlanadi:*

$$MM_s = M_{iq} \times S_s,$$

bu yerda:

$MM_s$  – jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq summasi;

$M_{iq}$  – mol-mulkning (inventarizatsia) qiymati;

$S_s$  – jismoniy shaxslar uchun belgilangan mol-mulk solig'i stavkasi.

Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar huquqiga ega bo'lgan shaxslar zarur hujjatlarni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etadilar.

Imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i ularning har yil 1 yanvardagi holati yuzasidan texnik inventarizatsiyalashning hududiy kadastr byurolari taqdim etadigan inventarizatsiya qiymatiga doir ma'lumotlar asosida hisoblab chiqariladi, bunday ma'lumotlar bo'lgan taqdirda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilangan mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Bir necha mulkdorning ulushbay asosidagi umumiyligi mulki bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i har bir mulkdor

tomonidan ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to‘lanadi. Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo‘yicha soliq ular barpo etilgan yoki olingen yildan keyingi yilning boshidan e’tiboran to‘lanadi.

Meros bo‘yicha o‘tgan mol-mulkdan soliq meroxso‘rlardan meros ochilgan paytdan boshlab undiriladi. Mol-mulk yo‘q qilingan, butunlay vayron bo‘lgan hollarda mol-mulk solig‘i undirish ular yo‘q qilingan yoki butunlay vayron bo‘lgan oydan e’tiboran to‘xtatiladi.

Mol-mulk solig‘ini to‘lash haqidagi to‘lov xabarnomalari to‘lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan har *yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi*. Hisoblangan yillik soliq miqdori *15 oktabrdan kechiktirmay mahalliy budgetga to‘lanadi*.

Agar soliq to‘lovchi tomonidan ortiqcha summalar to‘langan bo‘lsa, soliq va yig‘imlar bo‘yicha qarzlar mavjud bo‘lmasa, ushbu summalar uning yozma arizasiga ko‘ra o‘ttiz kun ichida soliq to‘lovchiga qaytariladi yoki bo‘lg‘usi to‘lovlar hisobiga qayd etiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to‘lovchilarini hisobi davlat soliq xizmati organlari tomonidan har bir yilning 1 yanvaridagi holat bo‘yicha shahar va tumanlar bo‘yicha, texnik inventarizatsiyalash hududiy kadastr byurosida mavjud bo‘lgan imoratlar egalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga binoan o‘tkaziladi.

### *Nazorat savollari*

1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘ining to‘lovchilari kimlar?
2. Jismoniy shaxslarning qanday mol-mulkleri soliq solish ob‘yekti va soliq solinadigan baza hisoblanadi?
3. Qaysi organ jismoniy shaxslarning mol-ulklarini inventarizatsiya qiymatini belgilab beradi?
4. Mol-mulk solig‘idan kimlar ozod etiladi?
5. Pensionerlarning necha kvadrat metr mol-mulki qiymati soliqqa tortilmaydi?

## **2.9. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I**

**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining iqtisodiy mohiyati. Soliq to'lovchilar.**

Yer solig'i O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 6 mayda qabul qilingan «Yer solig'i to'g'risida»gi Qonuniga asosan joriy etildi.

Yer solig'i O'zbekiston soliq tizimida mahalliy soliqlar va yig'imlar tarkibiga kiradi hamda mahalliy budgetlarning barqaror daromad manbai hisoblanadi.

Yer solig'i boshqa soliq turlaridan farqli o'laroq, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra u renta to'lovidir yoki boshqacha qilib aytganda ushbu soliq yer egalari va yerdan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy faoliyatining natijalari bilan bog'liq emas. Demak, ushbu soliq joriy etilishidan maqsad-yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo'lgan yerlarda xo'jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infratuzilma rivojlanishini ta'minlash hamda yer talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

Soliq qonunchiligiga ko'ra o'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida yer uchastkalariiga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari *yer solig'i to'lovchilari* hisoblanadi.

Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi yer solig'ini to'lovchi bo'ladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birligida foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalaniyatgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'ini to'lovchidir.

Agarda soliq solishning alohida tartibi o'rnatilgan yuridik shaxslar (mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalar, yagona yer solig'ini to'lovchi qishloq xo'jalik korxonalar, tadbirkorlik faoliyatining qat'iy soliq to'lanishi belgilangan yuridik shaxslar, audio va videokassetalar, lazer disklarini ishlab chiqish, yozish, ko'paytirish va sotish faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar) hamda notijorat tashkilotlar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, unda ular shu faoliyatda foydalilaniladigan yerlari uchun yer solig'ini to'lovchilar hisoblanishadi.

**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i ob'yekti, soliq solinadigan baza.**

Soliq kodeksiga ko'ra mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari *soliq solish ob'yekti* hisoblanadi.

Soliq kodeksining 280-moddasiga ko'ra quyidagilarga *soliq solish ob'yekti* sifatida qaralmaydi:

a) aholi punktlarining umumiyligi foydalanishdagi yerlari. Aholi punktlarining umumiyligi foydalanishdagi yerlari jumlasiga maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sug'orish tarmog'i, sohilbo'yi yerlari va boshqa shu kabi yerlar;

b) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, bog'lar, saylgohlar, xiyobonlar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar);

v) kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy chiqindilarni yig'ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar);

g) zaxira yerlar.

Mavjud yer uchastkalaridan qonun hujjatlariiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlarini chegirib tashlash orqali *soliq solinadigan baza* aniqlanadi.

Qaysi yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to'lovchiga o'tgan bo'lsa, o'sha yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastklariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e'tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yer solig'i bo'yicha imtiyoz vujudga kelgan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran kamaytiriladi. Yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqi bekor qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq bekor qilingandan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi.

**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari.**

*Soliq kodeksining 282-moddasiga ko'ra soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagi yerlar kiradi:*

- a) bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi (kirish yo'llari, sug'orish ariqlari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar), jamaa garajlarining yerlari;
- b) tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga molik yerlar. (davlat qo'riqxonalar, milliy va dendrologiya bog'lari, botanika bog'lari, buyurtma qo'riqxonalar, ov qilishga mo'ljallanganlari bundan mustasno, tabiat yodgorliklari), korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda maxsus maqsadlar uchun berilgan, ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;
- v) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan tarixiy-madaniy qo'riqxonalar, xotira bog'lari, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan yerlar);
- g) suv fondi yerlari (daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar, dengizlar, muzliklar, botqoqliklar, gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar, shuningdek suv havzalari sohilidagi suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda berilgan yerlar);
- d) elektr uzatish liniyalari, podstantsiyalar, umum davlat aloqa liniyalari va ularning inshootlari egallagan yerlar;
- e) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari va ularning inshootlari egallagan yerlar. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llariga O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilangan tartibda ularning indekslari va tartib raqamlarini ko'rsatgan holda tegishli ro'yxatlarga kiritilgan avtomobil yo'llari taalluqlidir;
- j) temir yo'llarning umumiy tarmog'i va ularning inshootlari egallagan yerlar;
- z) umumiy foydalanishdagi shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari (shu jumladan, metropoliten bekatlari egallagan yerlar) va ularning inshootlari egallagan yerlar. Mazkur imtiyoz tramvay yo'llari va trolleybus liniyalari, metropoliten liniyalari, tramvay va trolleybus bekatlari, shu jumladan dispetcherlik punktlari, metropoliten bekatlari va shahar elektr transporti yo'llaridagi boshqa inshootlar egallagan yerkarta tafsiq etiladi. Ma'muriy va boshqa yordamchi binolar, depolar (depo hududida joylashgan elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari egallagan yerdan tashqari), qurilish va ta'mirlash ob'yektlari egallagan yerlar uchun soliq belgilangan tartibda to'lanadi;
- i) sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalari, suzish havzalari, sportning texnik turlari ob'yektlari va boshqa jismoniylar tarbiyasog'lomlashtirish komplekslari, onalar va bolalarning dam olish va sog'lomlashtirish joylari, sanatoriylar, kurort muassasalarini va dam olish uyulari, o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

k) magistral suv quyurlari, magistral kanalizatsiya kollektorlari va ularning inshootlari, suv olish va tozalash inshootlari, shuningdek suv ta'minoti va kanalizatsiyaga tegishli boshqa ob'yektlar egallagan yerlar. Suv ta'minoti va kanalizatsiyaga tegishli boshqa ob'yektlar tarkibiga aholi punktlarida suv quyuri va kanalizatsiya tarmog'idagi nasos stantsiyalari, kuzatish quduqlari va dukerlar, suv minoralari va shu singari inshootlar kiradi;

l) magistral gaz va neft quvurlari va ularning inshootlari egallagan yerlar;

m) magistral issiqlik trassalarini va ularning inshootlari egallagan yerlar. Issiqlik trassalarining inshootlariga nasos stantsiyalari, issiqpiqni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlar, issiq suv ta'minotining sirkulyatsiya nasoslari kiradi;

n) samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, shu jumladan ularni erda boshqarish yo'laklari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunalarini joylashgan yerlar;

o) O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan ob'yektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar-qurilishning me'yoriy muddati davriga, shuningdek Vazirlar Mahkamasining qarori bilan qurilish ishlari to'xtatib qo'yilgan ob'yektlar egallagan yerlar;

p) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stantsiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

r) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan yerlari. Ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlar selektsiyasini amalga oshirish hamda mavzu doirasi tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar va ko'chatlar egallagan yer uchastkalari soliq to'lashdan ozod etiladi;

s) yangi o'zlashtirilayotgan yerlar va meliorativ holatini yaxshilash ishlari olib borilayotgan sug'oriladigan yerlar-loyihada nazarda tutilgan muddatga, lekin ishlar boshlanganidan e'tiboran ko'pi bilan besh yilga;

t) rekreatsion ahamiyatga molik yerlar (aholining ommaviy dam olishi va turizmni tashkil etish uchun tegishli muassasalarga berilgan yerlar: o'rmon bog'ları, bog'lar, xiyobonlar, plyajlar va hokazolar);

u) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (kasalliklarning oldini olish va odamlarni davolash ishini tashkil etish uchun qulay tabiiy omillarga ega bo'lgan yerlar);

f) qishloq xo'jalik korxonalarining yangi o'tqazilgan bog' va uzumzorlari - ular meva qilish davrita kirishigacha, qishloq xo'jalik ekinlari ekish uchun qator oralaridan foydalanishidan qat'iy nazar 3 yil muddatga;

x) soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan fuqarolik himoyasi va safarbarlik ahamiyatiga molik ob'yektlar egallagan yerlar;

ch) madaniyat, ta'lif va sog'lijni saqlash ob'ektlari egallagan yerlar;

***Quyidagi yuridik shaxslar yer solig'idan ozod qilinadilar:***

a) madaniyat, ta'lif, sog'lijni saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari, qaysi idoraga bo'ysunishidan qat'i nazar, ular zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun ajratilgan yer uchastkalari uchun;

b) dehqon xo'jaliklari - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil muddatga;

v) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'yektlari - yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran.

g) nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» uyushmasi multida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar tashkil qilgan yuridik shaxslar, savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar bundan mustasno.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi va ularning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

***Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'ining stavkalari  
quyidagi jadvallarda aks ettirilgan:***

**Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i  
STAVKALARI<sup>30</sup>**

21.1 - jadval

**1.1. Sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi yerlari uchun undiriladigan yer  
solig'ining bazaviy stavkalari**

<i>Tuman, shahar</i>	<i>I-toifali 1 ga yer uchun soliqning bazaviy stavkalari, so'mda</i>	<i>Tuman, shahar</i>	<i>I-toifali 1 ga yer uchun soliqning bazaviy stavkalari, so'mda</i>
	<b>QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI</b>		
Amudaryo	9 571,9	Taxtako'pir	8 238,6
Beruniy	9 402,2	To'rtko'l	9 571,9
Qorao'zak	7 814,5	Xo'jayli	8 092,0
Kegayli	8 092,0	Chimboy	7 669,7
Qo'ng'iroq	7 502,6	Shumanay	8 403,6
Qanliko'l	7 669,7	Ellikqal'a	9 150,2
Mo'ynoq	7 502,6	Nukus sh.	8 556,7
Nukus	8 092,0		
<b>ANDIJON VILOYATI</b>			
Oltinko'l	13 386,0	Izboskan	14 047,7
Andijon	11 725,3	Ulug'nor	9 150,2
Asaka	13 386,0	Qo'rg'ontepqa	13 794,5
Baliqchi	12 503,8	Marhamat	13 543,7
Bo'z	9 020,9	Paxtaobod	12 883,4
Buloqboshi	13 665,8	Xo'jaobod	13 923,1
Jalolquduq	13 006,9	Shahrixon	13 136,0
<b>BUXORO VILOYATI</b>			
Olot	11 150,8	Qorako'l	11 260,7
Buxoro	11 150,8	Qorovubobozor	11 260,7
Vobkent	9 277,1	Peshku	11 388,4
G'ijduvon	11 150,8	Romitan	11 487,7
Jondor	10 711,2	Shofirkon	10 393,3
Kogon	11 150,8	Buxoro sh.	11 260,7
<b>JIZZAX VILOYATI</b>			
Arnasoy	9 207,1	Zafarobod	8 741,3
Baxmal	9 292,0	Mirzacho'l	9 571,9
G'allaorol	11 047,7	Paxtakor	9 671,6
Jizzax	10 221,0	Forish	10 037,0
Do'stlik	10 037,0	Yangiobod	5 534,5
Zomin	8 281,7	Jizzax sh.	10 221,0

<sup>30</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

<i>Tuman, shahar</i>	<i>I-toifali I ga yer uchun soliqning базавиј ставкалари, so'mda</i>	<i>Tuman, shahar</i>	<i>I-toifali I ga yer uchun soliqning базавиј ставкалари, so'mda</i>
Zarb dor	8 281,7		
<b>QA ShQADARYO VILOYATI</b>			
Mirishkor	6 573,0	Kitob	11 006,5
G'uzor	9 150,2	Muborak	5 685,6
Dehqonobod	6 743,9	Nishon	7 095,4
Qamashi	11 616,8	Chiroqchi	11 090,8
Qarshi	8 600,3	Shahrisabz	17 569,4
Koson	6 825,2	Yakkabog'	11 978,2
Kasbi	8 869,8		
<b>NAVOIY VILOYATI</b>			
Konimex	8 431,6	Nurota	7 081,6
Qiziltepa	9 445,3	Tomdi	7 180,2
Navbahor	10 771,7	Uchquduq	7 180,2
Karmana	10 771,7	Xatirchi	10 263,8
<b>NAMANGAN VILOYATI</b>			
Mingbul oq	8 880,1	Uychi	14 345,6
Koson soy	14 962,7	Uchqo'rg'on	14 222,3
Namangan	15 442,3	Chortoq	12 155,0
Norin	14 222,3	Chust	11 902,0
Pop	12 155,0	Yangiqo'rg'on	12 155,0
To'raqo'rg'on	12 997,4		
<b>SAMARQAND VILOYATI</b>			
Oqdaryo	13 456,9	Nurobod	11 109,4
Bulung'ur	13 330,9	Payariq	13 330,9
Jomboy	12 950,2	Pastdarg'om	12 585,8
Ishtixon	12 714,0	Paxtachi	11 109,4
Kattaqo'rg'on	11 954,6	Samarqand	12 950,2
Qo'shrabot	12 333,2	Toyloq	12 950,2
Narpay	11 219,4	Urgut	24 665,3
<b>SURXONDARYO VILOYATI</b>			
Oltin soy	15 838,9	Muzrobod	12 148,7
Angor	15 838,9	Sariosiyo	13 415,8
Boysun	8 854,3	Termiz	14 572,8
Denov	13 980,2	Uzun	13 415,8
Jarqo'rg'on	12 714,0	Sherobod	13 710,0
Qumqo'rg'on	15 711,5	Sho'rchi	17 554,2
Qiziriq	17 131,4		
<b>SIRDARYO VILOYATI</b>			
Oqoltin	8 616,7	Sirdaryo	9 292,0
Boyovut	9 081,4	Sardoba	7 544,5
Guliston	8 010,7	Xovos	5 534,5
Mirzaobod	6 531,0	Guliston sh.	8 010,7
Sayxunobod	9 150,2	Yangiyer sh.	7 687,7

<i>Tuman, shahar</i>	<i>I-toifali 1 ga yer uchun soliqning bazaviy stavkalari, so'mda</i>		<i>Tuman, shahar</i>	<i>I-toifali 1 ga yer uchun soliqning bazaviy stavkalari, so'mda</i>
<b>TOSHKENT VILOYATI</b>				
Oqqa'rg'on	13 338,1		Parkent	11 075,6
Ohangaron	12 266,2		Piskent	13 210,8
Bekobod	12 137,9		O'rtaçirchiq	13 599,2
Bo'stonliq	12 681,1		Chinoz	13 870,6
Bo'ka	13 338,1		Yugorichirchiq	13 727,4
Zangiota	14 519,5		Yangiyo'l	13 989,6
Qibray	14 402,4		Bekobod sh.	13 338,1
Quyichirchiq	13 727,4			
<b>FARG'ONA VILOYATI</b>				
Oltiariq	10 668,2		Toshloq	12 994,1
Oxunboboev	10 203,5		O'zbekiston	12 163,4
Bag'dod	10 558,1		Uchko'prik	11 824,9
Beshariq	11 697,5		Farg'ona	12 527,5
Buvayda	11 132,6		Furqat	11 598,1
Dang'ara	11 487,7		Yozyovon	11 598,1
Quva	13 557,4		Quvasoy sh.	12 290,9
Rishton	11 598,1		Farg'ona sh.	12 994,1
So'x	11 024,9			
<b>XORAZM VILOYATI</b>				
Bog'ot	10 136,4		Xiva	10 828,9
Gurlan	10 642,3		Shovot	10 741,9
Qo'shko'pir	9 529,6		Yangiariq	10 136,4
Urganch	10 441,1		Yangibozor	10 136,4
Hazorasp	9 125,4		Pitnak sh.	8 616,7
Xonqa	10 828,9		Urganch sh.	10 441,1

**1.2. Sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi yerlar uchun undiriladigan yer solig'inining  
bazaviy stavkalariga tuzatuvchi koefitsiyentlar**

<i>Yerlarning toifalari</i>	<i>Ball-bonitet</i>	<i>Koeffitsiyentlar</i>
I	0-10	(bazaviy stavka)
II	11-20	1,50
III	21-30	2,25
IV	31-40	3,29
V	41-50	4,67
VI	51-60	6,78
VII	61-70	9,00
VIII	71-80	11,68
IX	81-90	14,36
X	91-100	17,50
	Baholanmagan yerlar	4,67

**Izoh.**

Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari uchun undiriladigan yer solig'i stavkasi sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari uchun yer solig'ining bazaviy stavkasi va yer uchastkasining sifat xarakteristikasi (ball-boniteti)ni hisobga oladigan tuzatish koefitsiyentidan kelib chiqib aniqlanadi.

## 21.2-jadval

**Lalmi ekinzorlar, bo'z yerlar va ko'p yillik ko'chatlar uchun undiriladigan yer solig'i STAVKALARI**

Viloyat	1 ga uchun yer solig'ining zonalar bo'yicha stavkalari, so'm		
	Tekislik (yog'ingarchiliklar bo'lmaydigan) zonasি	Adir (yog'ingarchiliklar bilan kamta'minlangan) zonasি	Tekislik (yog'ingarchiliklar bo'lmaydigan) zonasi
Andijon	1 524,1	1 605,5	2 436,0
Jizzax	1 437,6	1 513,4	2 449,3
Navoiy	1 437,6	1 513,4	2 449,3
Namangan	1 590,6	1 817,2	2 264,3
Qashqadaryo	1 590,6	1 817,2	2 264,3
Samarqand	1 437,6	2 042,6	2 577,7
Surxondaryo	1 278,7	1 817,2	2 264,3
Sirdaryo	1 437,6	1 903,1	2 436,0
Toshkent	1 524,1	2 520,1	3 023,6

## 21.3-jadval

**Sug'orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlар uchun undiriladigan yer solig'i STAVKALARI**

Respublika, viloyat	Balandlik mintaqalari bo'yicha 1 ga uchun yer solig'i stavkalari, so'm		
	Cho'l	Adir	Tog'
Qoraqalpog'iston Respublikasi	237,6	435,2	617,0
Andijon	324,0	451,3	617,0
Buxoro	324,0	451,3	617,0
Jizzax	295,0	379,2	532,6
Qashqadaryo	379,2	379,2	592,6
Navoiy	324,0	379,2	532,6
Namangan	324,0	451,3	592,6
Samarqand	295,0	507,6	845,4
Surxondaryo	213,7	451,3	592,6
Sirdaryo	295,0	379,2	532,6
Toshkent	295,0	451,3	617,0
Farg'ona	295,0	379,2	617,0
Xorazm	237,6	435,2	617,0

**Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar  
uchun undiriladigan yer solig'i  
STAVKALARI**

<i>Respublika, viloyat</i>	<i>I ga uchun yer solig'i stavkalari, so'm</i>		
	<i>Suv havzalari, kanallar, kollektorlar, yo'llar</i>	<i>Jamoat qurilmalari va hovllilar</i>	<i>Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar</i>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	313,3	174 831,1	44,4
Andijon	507,6	266 659,8	44,4
Buxoro	408,2	228 651,1	44,4
Jizzax	355,0	197 221,6	44,4
Qashqadaryo	355,0	190 562,3	44,4
Navoiy	379,2	224 102,4	44,4
Namangan	441,2	233 119,4	44,4
Samarqand	484,6	255 505,9	44,4
Surxondaryo	532,6	295 789,6	44,4
Sirdaryo	280,6	165 710,3	44,4
Toshkent	441,2	239 779,2	44,4
Farg'on'a	441,2	239 779,2	44,4
Xorazm	441,2	233 119,4	44,4

21.5-jadval

**Toshkent shahrida yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig'i  
STAVKALARI**

<i>Zona</i>	<i>Undiriladigan yer solig'i stavkalari</i>	
	<i>yuridik shaxslardan I ga uchun, so'mda</i>	<i>fuqarolardan yakka tartibda uy-joy qurish uchun berilgan yer uchun, 1 kv.m. uchun, so'mda</i>
1	75 000 000	430,0
2	60 000 000	365,0
3	45 000 000	300,0
4	30 000 000	235,0
5	15 000 000	170,0

**Shaharlar va qo'rg'onlarda yer uchastkalaridan  
foydalanganlik uchun yer solig'i  
STAVKALARI**

Shahar, viloyat	<i>Quyidagi lardan undiriladigan yer solig'i stavkalari:</i>							
	<i>yuridik shaxslardan 1 ga uchun, so'mda</i>				<i>Suqarolardan yakka tartibda uy-joy qurish uchun berilgan yer uchun, 1 kv.m uchun, so'mda</i>			
	<i>I-zona</i>	<i>2-zona</i>	<i>3-zona</i>	<i>4-zona</i>	<i>I-zona</i>	<i>2-zona</i>	<i>3-zona</i>	<i>4-zona</i>
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Oqtosh	7 815 689	6 670 597	5 525 506		69,7	60,6	51,4	
Olmaliq	10 880 147	9 853 337	8 826 527	7 799 717	99,5	89,5	79,7	69,7
Angren	10 880 147	9 853 337	8 826 527	7 799 717	99,5	89,5	79,7	69,7
Andijon	13 041 928	12 218 400	11 394 874	10 571 346	117,4	110,4	103,6	96,6
Asaka	7 815 689	6 670 597	5 525 506		69,7	60,6	51,4	
Ohangaron	7 801 421	6 656 371	5 511 320		69,7	60,6	51,4	
Bekobod	7 801 421	6 656 371	5 511 320		69,7	60,6	51,4	
Beruniy	8 300 178	7 045 876	5 791 573		75,6	65,2	54,5	
Buxoro	10 547 544	9 510 230	8 472 917	7 435 602	96,6	86,3	76,1	65,6
G'ijduvon	7 468 804	6 323 794	5 178 784		66,5	57,0	47,5	
Guliston	8 219 518	6 965 220	5 710 921		75,6	63,5	51,4	
Denov	8 247 966	7 102 967	5 957 966		75,6	65,2	54,5	
Jizzax	10 547 544	9 510 230	8 472 917	7 435 602	96,6	86,3	76,1	65,6
Pitnak	7 468 804	6 323 794	5 178 784		66,5	57,0	47,5	
Zarafshon	7 468 804	6 323 794	5 178 784		66,5	57,0	47,5	
Kogon	7 468 804	6 323 794	5 178 784		66,5	57,0	47,5	
Qorasuv	7 815 689	6 670 597	5 525 506		69,7	60,6	51,4	
Qarshi	10 547 544	9 510 230	8 472 917	7 435 602	96,6	86,3	76,1	65,6
Kosonsoy	7 815 689	6 670 597	5 525 506		69,7	60,6	51,4	
Kattaqo'rg'on	7 815 689	6 670 597	5 525 506		69,7	60,6	51,4	
Qo'qon	10 547 544	9 510 230	8 472 917	7 435 602	96,6	86,3	76,1	65,6
Quva	7 468 804	6 323 794	5 178 784		66,5	57,0	47,5	
Quvasoy	7 468 804	6 323 794	5 178 784		66,5	57,0	47,5	
Qo'ng'iroq	7 468 804	6 340 430	5 212 056		69,7	58,7	47,5	
Marg'ilon	7 468 803	6 323 794	5 178 784		66,5	57,0	47,5	
Navoiy	10 547 544	9 510 230	8 472 917	7 435 602	96,6	86,3	76,1	65,6
Namangan	13 041 928	12 218 400	11 394 874	10 571 346	117,4	110,4	103,6	96,6
Nukus	10 338 468	9 300 794	8 263 122	7 225 450	96,6	86,3	76,1	65,6
Samarqand	13 041 928	12 218 400	11 394 874	10 571 346	117,4	110,4	103,6	96,6
Sirdaryo	7 178 922	6 033 952	4 888 981		66,5	55,4	44,4	
Taxiatosh	8 300 178	7 045 876	5 791 573		78,4	67,4	56,6	
Termiz	9 283 764	8 038 968	6 794 171		87,5	75,1	62,8	
To'rtko'l	7 178 922	6 033 952	4 888 981		65,6	55,1	44,4	
Urganch	10 547 544	9 510 230	8 472 917	7 435 602	96,6	86,3	76,1	65,6
Urgut	7 815 689	6 670 597	5 525 506		69,7	60,6	51,4	
Uchquduq	7 468 804	6 323 794	5 178 784		66,5	57,0	47,5	
Uchqo'rg'on	7 815 689	6 670 597	5 525 506		69,7	60,6	51,4	

Shahar, viloyat	Quyidagilardan undiriladigan yer solig'i stavkalari:							
	yuridik shaxslardan 1 ga uchun, so'mda				sugorolardan yakka tartibda uy-joy qurish uchun berilgan yer uchun, 1 kv.m uchun, so'mda			
	1-zona	2-zona	3-zona	4-zona	1-zona	2-zona	3-zona	4-zona
Farg'ona	10 547 544	9 510 230	8 472 917	7 435 602	96,6	86,3	76,1	65,6
Haqqulobod	7 815 689	6 670 597	5 525 506		69,7	60,6	51,4	
Xonobod	7 815 689	6 670 597	5 525 506		69,7	60,6	51,4	
Xiva	7 468 804	6 323 794	5 178 784		66,5	57,0	47,5	
Xo'jayli	8 718 264	7 399 858	6 081 451		75,6	65,2	54,5	
Chortoq	7 815 689	6 670 597	5 525 506		69,7	60,6	51,4	
Chimboy	7 468 804	6 340 430	5 212 056		69,7	58,7	47,5	
Chirchiq	10 880 147	9 853 337	8 826 527	7 799 717	99,5	89,5	79,7	69,7
Chust	7 815 689	6 670 597	5 525 506		69,7	60,6	51,4	
Shahrisabz	7 468 804	6 323 794	5 178 784		69,6	57,0	47,5	
Shahrixon	7 815 689	6 670 597	5 525 506		69,7	60,6	51,4	
Shirin	7 178 922	6 033 952	4 888 981		66,5	55,4	44,4	
Yangiobod	7 801 421	6 656 371	5 511 320		69,7	60,6	51,4	
Yangier	7 178 922	6 033 952	4 888 981		66,5	55,4	44,4	
Yangiyo'l	7 801 421	6 656 371	5 511 320		69,7	60,6	51,4	

BOShQA KICHIK SHAHARLAR

Qoraqal'og'iston Respublikasi:								
shimoliy zona	5 881 951	4 953 060	4 024 168		54,5	45,0	35,6	
markaziy zona	6 532 675	5 501 780	4 470 886		62,8	52,8	43,0	
janubiy zona	7 259 738	6 114 733	4 969 727		63,6	54,0	44,4	
Andijon	7 815 689	6 670 597	5 525 506		69,7	60,6	51,4	
Buxoro	7 468 804	6 323 794	5 178 784		66,5	57,0	47,5	
Jizzax	7 468 804	6 323 794	5 178 784		66,5	57,0	47,5	
Qashqadaryo	7 468 804	6 323 794	5 178 784		69,6	57,0	47,5	
Navoiy	7 468 804	6 323 794	5 178 784		66,5	57,0	47,5	
Namangan	7 815 689	6 670 597	5 525 506		69,7	60,6	51,4	
Samarqand	7 815 689	6 670 597	5 525 506		69,7	60,6	51,4	
Surxondaryo	8 247 966	7 102 967	5 957 966		75,6	65,2	54,5	
Sirdaryo	7 178 922	6 033 952	4 888 981		66,5	55,4	44,4	
Toshkent	7 801 421	6 656 371	5 511 320		69,7	60,6	51,4	
Farg'ona	7 468 804	6 323 794	5 178 784		66,5	57,0	47,5	
Xorazm	7 468 804	6 323 794	5 178 784		66,5	57,0	47,5	

TUMAN MARKAZLARI HISOBLANGAN QO'RG'ONLAR  
VA QISHLOQ AHOLI PUNKTLARI

Qoraqal'og'iston Respublikasi:								
shimoliy zona	4 953 060	4 024 168			45,0	35,6		
markaziy zona	5 501 780	4 470 886			52,8	43,0		
janubiy zona	6 114 733	4 969 727			54,0	44,4		
Andijon	6 670 597	5 525 506			60,6	51,4		
Buxoro	6 323 794	5 178 784			57,0	47,5		
Jizzax	6 323 794	5 178 784			57,0	47,5		
Qashqadaryo	6 323 794	5 178 784			57,0	47,5		

Shahar, viloyat	Oquydagilardan undiriladigan yer solig'i stavkalari:							
	yuridik shaxslardan 1 ga uchun, so'mda				fugorlardan yakka tartibda uy-joy qurish uchun berilgan yer uchun, 1 kv.m uchun, so'mda			
	1-zona	2-zona	3-zona	4-zona	1-zona	2-zona	3-zona	4-zona
Navoiy	6 323 794	5 178 784			57,0	47,5		
Namangan	6 670 597	5 525 506			60,6	51,4		
Samarqand	6 670 597	5 525 506			60,6	51,4		
Surxondaryo	7 102 967	5 957 966			65,2	54,5		
Sirdaryo	6 033 952	4 888 981			55,4	44,4		
Toshkent	6 656 371	5 511 320			60,6	51,4		
Farg'ona	6 323 794	5 178 784			57,0	47,5		
Xorazm	6 323 794	5 178 784			57,0	47,5		

21.7-jadval

**Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i  
STAVKALARI**

Respublika, viloyat	1 ga uchun yer solig'i stavkalar, so'm					
	yuridik shaxslar band etgan yer uchun, zonalar bo'yicha			kon va karyerlar band etgan yer uchun, zonalar bo'yicha		
	sug'oriladigan		lalmi-yaylov	sug'oriladi-gan		lalmi-yaylov
	aholi punktlarida	aholi punktlaridan tashgarida				
Qoraqalpog'iston Respublikasi:						
shimoliy	3 387 611	3 145 222	153 568	888 404	30 145	
markaziy	3 762 911	3 496 835	190 044	988 236	47 461	
janubiy	4 180 997	3 886 367	209 089	1 092 599	57 010	
Andijon	4 276 046	3 976 758	213 871	1 221 104	61 838	
Buxoro	4 133 452	3 881 737	209 081	1 092 719	57 030	
Jizzax	3 848 376	3 639 319	194 855	798 192	38 012	
Qashqadaryo	3 848 376	3 639 319	194 855	769 650	38 012	
Navoiy	3 990 953	3 777 089	199 512	950 231	47 466	
Namangan	3 924 391	3 753 354	190 044	1 159 309	57 030	
Samarqand	4 513 538	4 142 998	228 061	1 444 354	71 222	
Surxondaryo	4 941 182	4 466 090	247 085	1 871 915	95 039	
Sirdaryo	3 848 376	3 667 894	194 855	807 650	42 810	
Toshkent	4 513 538	4 133 452	228 061	1 430 160	71 222	
Farg'ona	4 133 452	3 867 391	209 081	1 073 714	52 195	
Xorazm	4 180 997	3 886 393	209 081	1 097 471	57 030	

**Qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun  
fuqarolardan undiriladigan yer solig'i  
STAVKALARI**

Respublika, viloyat	0,01 ga uchun yer solig'i stavkalari, so'mda:			jamoabog'dorchiligi va polizchiliginib yuritishga berilgan yerlar uchun	
	dehqon xo'jaligini yuritishga berilgan yerlar uchun		lalmi yerlar		
	sug'oriladigan zona	aholi punktlarida			
Qoraqalpog'iston Respublikasi:					
shimoliy	1 985,4	995,3	198,6	1 050,0	
markaziy	3 179,5	1 590,6	322,0	-	
janubiy	3 532,1	1 765,6	354,5	1 299,0	
Andijon	3 733,0	1 864,9	370,2	1 446,8	
Buxoro	3 527,3	1 762,7	327,1	1 292,5	
Jizzax	3 305,9	1 653,5	237,6	928,9	
Qashqadaryo	3 305,9	1 653,5	234,5	910,1	
Navoiy	3 431,5	1 715,0	283,3	1 125,8	
Namangan	3 573,8	1 787,4	354,5	1 371,4	
Samarqand	3 769,6	1 885,1	436,9	1 704,8	
Surxondaryo	4 064,2	2 032,8	571,1	2 219,9	
Sirdaryo	3 333,2	1 667,0	246,6	953,2	
Toshkent	3 760,6	1 880,5	433,9	1 693,8	
Farg'on'a	3 516,6	1 758,5	324,0	1 269,6	
Xorazm	3 532,1	1 765,6	334,2	1 299,0	

1. 7 va 8 - jadvallarda keltirilgan stavkalarga yer uchastkalarining joylashish joyiga bog'liq holda quyidagi koeffitsientlar qo'llaniladi: Toshkent shahri atrofida 20 km lik ayylanada - 1,30, Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti va viloyat markazlari atrofida 15 km lik ayylanada - 1,20, tuman markazlari atrofida 10 km lik ayylanada - 1,15, boshqa shaharlar atrofida 5 km lik aylanada - 1,10.

Yer uchastkalarigacha bo'lgan masofa avtomobil yo'llari bo'yicha shaharlar va tuman markazlarining ma'muriy chegaralaridan boshlab belgilanadi. Agar yer uchastkasi ikki shahar yaqinida joylashgan bo'lsa, shaharning yuqoriroq funktional vazifasiga munosiq keladigan koeffitsient qo'llaniladi.

2. Dehqon xo'jaliklaridan undiriladigan yer solig'inи hisoblab chiqarish chog'ida 8-jadvalda keltirilgan stavkalarga, yer sifatiga bog'liq holda, quyidagi koeffitsientlar qo'llaniladi: tuproq boniteti 40 ballgacha bo'lsa - 0,75; tuproq boniteti 41 dan 70 ballgacha bo'lsa - 1,0; tuproq boniteti 70 balldan ortiq bo'lsa - 1,25.

3. O'rmon xo'jaliklarida mollarni o'tlatish uchun foydalanimaydigan yaylov yerlar uchun yer solig'i boshqa yerlar uchun stavkalar bo'yicha to'lanadi.

4. Shahar va qo'rg'onlarning ma'muriy chegaralarida joylashgan kon va karerlar band etgan yerlar uchun solig 5 va 6-jadvallarda tegishli zonalar uchun keltiriigan stavkalarga 0,1 koeffitsientini qo'llagan holda to'lanadi.

5. Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchastkalaridan soliq korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun tasdiglangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

6. Jamoaviy va shaxsiy garajlar band etган yer uchastkalarini uchun jismoniy shaxslardan soliq yakka tartibdagi uy-joy quriladigan yerlar uchun tasdiglangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarchining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet balli pasaygan) taqdirda, yer solig'i yerning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan to'lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jaligi yerlari uchun belgilangan stavkalarning ikki baravari miqdorida to'lanadi.

Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanish yer solig'inining summasiga ekvivalent ikki baravar miqdorda jarima solishga asos bo'ladi.

Jahon soliq amaliyotida yer solig'i stavkalari turli mamlakatlarda turlicha belgilanadi, lekin o'rtacha olganda yer qiymatining 5 foizidan oshmaydi. Soliq stavkalarini belgilashda tuproq boniteti (sifati) hisobga olinadi.

**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi.**

*Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan yer solig'i quyidagicha aniqlanadi:*

$$Y_s = Y_m \times S_s \times k,$$

bu yerda:

$Y_s$  – yer solig'i summasi;

$Y_m$  – yer maydoni;

$S_s$  – yer solig'i stavkasi;

$k$  – yer uchastkalarining joylashish joyiga bog'liqlik koeffitsienti (shahar joylarida ushbu koeffitsient 1 ga teng bo'ladi).

*Yuridik shaxslar tomonidan sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi uchun to'lanadigan yer solig'i quyidagicha aniqlanadi:*

$$S_{yer} = M_{yer} \times S_{bs} \times k,$$

bu yerda:

$Y_s$  – yer solig'i summasi;

$Y_m$  – yer maydoni;

$S_{bs}$  – yer solig‘ining bazaviy stavkasi;

$k$  – yer solig‘ining bazaviy stavkasi tuzatish koefitsienti.

Yer solig‘i yuridik shaxslar tomonidan har yili 1 yanvargacha bo‘lgan holatga qarab mustaqil hisoblab chiqariladi va *soliq bo‘yicha hisob-kitoblar* yer uchastkasi joylashgan hududagi davlat soliq organiga joriy yilning 15. fevraligacha qishloq xo‘jaligi ahamiyatiga ega bo‘lmagan hamda qishloq xo‘jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun belgilangan shakllar bo‘yicha taqdim etiladi.

Bo‘shatib olinayotgan mablag‘lardan muayyan maqsadlar uchun foydalanish sharti bilan imtiyozlar olgan yuridik shaxslar soliq to‘lovchilar uchun belgilangan shakl bo‘yicha va muddatlarda yer solig‘i hisob-kitobini taqdim etadilar.

Hisobot yili davomida yer mulklari tarkibida o‘zgarishlar yuz bergan yuridik shaxslar davlat soliq organlariga yer solig‘i to‘lanadigan hisobot yilning 1 dekabriga qadar yer solig‘ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etadilar.

Agar alohida bino bir necha yuridik shaxsning balansida bo‘lsa, yer solig‘ini har bir yuridik shaxs alohida, egallagan ishlab chiqarish xonalariga mutanosib ravishda to‘laydi.

Ko‘p qavatlari turar joylarning bir qismmini egallagan yuridik shaxslar yer solig‘ini turar joy egallagan umumiy maydondan va mazkur yuridik shaxs tomonidan foydalilanligi ishlab chiqarish xonalarining hissasidan kelib chiqib hisoblab chiqaradilar.

Yer solig‘ini to‘lash, yuridik shaxslar tomonidan yilning har choragida, *yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar* teng ulushlarda amalga oshiriladi.

Soliq davri mobaynida yer solig‘i to‘lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to‘lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

*Yagona yer solig‘ini to‘lashga o‘tmagan qishloq, xo‘jaligi korxonalari* yer solig‘ini hisobot yilning 1 iyuliga qadar - yillik soliq summasining 20 foizini, hisobot yilning 1 sentabriga qadar - yillik soliq summasining 30 foizini va hisobot yilning 1 dekabriga qadar - hisoblangan soliqning qolgan (50 foizi) summasini to‘lashni amalga oshiradi.

Yer solig‘i, soliq to‘lovchining joylashgan yeridan qat‘i nazar, hududida yer uchastkasi joylashgan tuman yoki shaharning mahalliy budjetiga to‘lanadi.

### *Nazorat savollari*

1. Yer solig'ini undirish ob'yekti nima?
2. Yer solig'ida soliq solish nima?
3. Qanday yerlar soliq solinmaydigan yer uchastkalari hisoblanadi?
4. Qanday yuridik shaxslar yer solig'idan ozod qilinadi?
5. Yer solig'ini hisoblab chiqarish va budjetga to'lash muddatlari qanday belgilangan?

## **2.10. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I**

**Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza.**

Soliq kodeksiga ko'ra o'z mulkida, egaligida, foydalanishida yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari *yer solig'inining to'lovchilari* bo'lib hisoblanishadi.

*Jismoniy shaxslarning quyidagi yer uchastkalari soliq solinadigan ob'yekt hisoblanadi:*

- dehqon xo'jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligin yuritish uchun berilgan yer uchastkalari;
- xizmat yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq berilgan chek yerlar;
- meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy, dala hovli bilan birgalikda egalik qilish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;
- tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish ob'ekti bo'lmaydi.

Soliq kodeksiga ko'ra ko'chmas mulkka ega bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning yer uchastkalari maydoniga doir ma'lumotnomalari *soliq solinadigan baza* bo'lib hisoblanadi.

**Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i imtiyozlari va stavkalari.**

*Soliq kodeksiga ko'ra quyidagi jismoniy shaxslar yer solig'idan ozod qilinadilar:*

1) yaylov chorvachiligining cho'ponlari, yilqiboqarlar, mexanizatorlari, veterinariya vrachlari va texniklari, boshqa mutaxassislar va ishchilari;

2) "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

3) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

4) I va II guruh nogironlari. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

5) yolg'iz pensionerlar. Yolg'iz yoki voyaga yetmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan alohida uyda birga yashovchi pensionerlar yolg'iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining malumotnomasi, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o'n olti yoshga to'limgan beshta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalardir. Mazkur imtiyoz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

7) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtiroy etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolar). Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtiroychisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan

berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo'ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

8) shaxsiy pensiya tayinlangan shaxslar;

9) ko'chirib keltirilgan fuqarolar kelib joylashgan yer uchastkalari bo'yicha - yer uchastkalari berilgan paytdan e'tiboran besh yilgacha;

10) shaxslar - ularga yakka tartibdag'i uy-joy qurilishi va dehqon xo'jaligi yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida berilgan yer uchastkalari bo'yicha - yer uchastkasi berilgan oydan keyingi oydan e'tiboran ikki yil muddatga.

Yuqorida ko'rsatilgan imtiyozlar yer uchastkalari yakka tartibda uy-joy qurilishi va shaxsiy yordamchi xo'jalik (dehqon xo'jaligi) yuritish uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan me'yorlar doirasida taqdim etilgan jismoniy shaxslargagina tatbiq etiladi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

*Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'inining stavkalari yuqoridagi jadvallarda aks ettirilgan.*

Jismoniy shaxslar foydalanadigan (shu jumladan, yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan), davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha yer uchastkalari uchun yer solig'i jismoniy shaxslar uchun 1,5 koeffitsientini qo'llagan holda to'lanadi. Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha foydalaniladigan yerlar uchun yuqorida ko'rsatilgan koeffitsientni qo'llagan holda yer solig'i to'lanmagan taqdirda soliq to'lovchilarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy jazo choralar qo'llanadi.

Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchastkalaridan soliq korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi. Jismoniy shaxslar uchun yer solig'ini hisoblab chiqarish do'konlar, oshxonalar, ustaxonalar va tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan boshqa ob'yektlar uchun foydalaniladigan yer uchastkalari uchun amalga oshiriladi.

Yer uchastkalaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanish yer solig'inining summasiga ekvivalent miqdorda bir yarim baravar miqdorda jarima solishga asos bo'ladi.

**Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.**

Jismoniy shaxslar uchun yer solig'ini davlat soliq organlarining xodimlari hisoblab chiqaradi. Davlat soliq xizmati organlari yer

uchastkalari mulkdorlari, yer egalari yoki yerdan foydalanuvchilar yoki ijarchilar bo‘lgan jismoniy shaxslarning muntazam hisobini yuritadilar.

*Jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan yer solig‘i quyidagicha hisoblanadi:*

$$Y_s = Y_m \times S_s \times k_1 \times k_2,$$

bu yerda:

$Y_s$  – yer solig‘i summasi;

$Y_m$  – yer maydoni (shahar joylarda  $m^2$ , qishloqlarda sotix);

$S_s$  – yer solig‘i stavkasi;

$k_1$  – yer uchastkalarining joylashish joyiga bog‘liqlik koefitsienti;

$k_2$  – yer uchastkalarining yer sifatiga bog‘liqlik koefitsienti.

Soliq to‘lanishi to‘g‘risidagi to‘lov xabarnomalari jismoniy shaxslarga davlat soliq organlari tomonidan har yili, *joriy yilning 1 mayidan* kechiktirmay topshiriladi.

Yer uchastkalarining maydoni o‘zgarganda va yil davomida imtiyoz huquqi paydo bo‘lganda yoki bekor qilinganda davlat soliq organlari bir oy davomida soliqni qayta hisob-kitob qilishlari va soliq to‘lovchiga to‘lash muddatlari o‘zgorganini hisobga olgan holda yangi yoki qo‘srimcha to‘lov xabarnomasini taqdim etishlari shart.

Ko‘p xonardonli turar joylarda yashaydigan jismoniy shaxslardan yer solig‘i undirilmaydi. Xonadondan yoki ko‘p xonardonli turar joylarning bir qismidan odamlarning yashashi bilan bog‘liq bo‘limgan maqsadlarda foydalanilganda, belgilangan tartibda xonadonning umumiy maydonidan kelib chiqib, yer solig‘ining tegishli hissasi undiriladi.

Jismoniy shaxslar hisoblangan *yillik yer solig‘ini 15 oktabrdan* kechiktirmay to‘laydilar. To‘langan soliq summasi belgilangan tartibda mahalliy budgetga tushadi.

### *Nazorat savollari*

1. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘ining to‘lovchilarini kimlar?
2. Jismoniy shaxslarning qanday yerlari soliq solish ob‘yekti bo‘la oladi?
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari qanday belgilanadi?
4. Qanday toifadagi fuqarolar yer solig‘idan ozod etiladi?
5. Jismoniy shaxslarning yer solig‘i qaysi davlat organi tomonidan hisoblab chiqariladi?

## 2.11. OBODONLASHTIRISH VA IJTIMOY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH SOLIG'I

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i to'lovchilari, soliq solish ob'yekti, soliq solinadigan baza, soliq imtiyozlar va stavkalari.

2002 yil 1 yanvardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 31 dekabrdagi 490-tonli "O'zbekiston Respublikasining 2002 yilgi asosiy makoiqtisodiy ko'rsatkichlari pragnozi va davlat budgeti parametrlari to'g'risida"gi qaroriga asosan ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va obodonchilik ishlari uchun yig'im o'rniga infratuzilmani rivojlantirish solig'i, 2004 yil 1 yanvardan esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 dekabrdagi 567-tonli «O'zbekiston Respublikasining 2004 yilgi davlat budgeti parametrlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq infratuzilmani rivojlantirish solig'i o'rniga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i joriy etildi.

*Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i to'lovchilari* bo'lib tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi rezidentlari hisoblanadilar.

Soliqqa tortishning alohida tartibi belgilangan yuridik shaxslar hamda notijorat tashkilotlar asosiy faoliyat turi bo'yicha bu soliqni to'lañmaydilar, ular faoliyatning boshqa turlari bilan shug'ullansalar, ushbu faoliyat bo'yicha alohida hisob yuritishlari va budgetga obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni to'lashlari lozim.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda *soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazadir*. Bunda soliq solinadigan baza olinishi lozim bo'lgan (olingan) dividendlar, qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar uchun - sof qo'shimcha foyda, o'tkazib berish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan tekin olingan pul mablag'lari va joriy soliq davrida foydalanylinda xarajatlar vujudga kelmaydigan byudjetdan ajratiladigan subsidiyalar summalariga kamaytiriladi:

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan yuridik shaxslar ozod qilinadi. Qonunchilikka ko'ra ushbu imtiyoz savdo, vositachilik,

ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik shaxslarga qo'llanilmaydi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'inинг stavkasi 2004-2014 yillar davomida o'zgarmasdan kelmoqda va uning eng yuqori *stavkasi soliq solish ob'yekting 8 foizi miqdorida* belgilangan.

**Soliqni hisoblab chiqarish, hisobotlarni taqdim etish va to'lashi tartibi.**

*Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i quyidagicha aniqlanadi:*

$$OII_s = K_f \times S_s,$$

bu yerda:

$OII_s$  – obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasi;

$K_f$  – foyda solig'i chegirib tashlangandan keyin korxona tasarrufida qoladigan foyda;

$S_s$  – obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkasi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Soliq to'lovchilar, hisobot davri mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha joriy to'lovlar to'laydi.

Joriy to'lovlar taxmin qilinayotgan sof foyda summasidan hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shakl bo'yicha *hisobot davrining birinchi oyi 10-kuniga qadar* soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladigan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'inинг joriy to'lovleri to'g'risidagi ma'lumotnomada ko'rsatilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'inинг belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Joriy to'lovlar hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'inинг yil choragidagi summasining uchdan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay to'lanadi.

Quyidagilar joriy to'lovlarini to'lamaydi:

- hisobot davrida soliq solinadigan bazasi eng kam ish haqining ikki yuz baravarigacha miqdorida bo'lgan soliq to'lovchilar;
- yagona soliq to'lovini to'lashga o'tmagan mikrofirmalar va kichik korxonalar.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchilar tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning *har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay*, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini to‘lash mazkur soliq bo‘yicha *hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay* amalga oshiriladi.

### *Nazorat savollari*

1. Qanday yuridik shaxslar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining to‘lovchilari hisoblanishadi?
2. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining ob‘yekti va bazasi qanday aniqlanadi?
3. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i stavkasi necha foizni tashkil etadi?

## **2.12. TRANSPORT VOSITALARIGA BENZIN, DIZEL YOQILG‘ISI VA GAZ ISHLATGANLIK UCHUN OLINADIGAN SOLIQ**

**Soliq to‘lovchilar, soliq solish ob‘yekti va soliq solinadigan baza.**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 31 dekabrdagi 490-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2002 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat budgeti parametrlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq 2002 yil 1 yanvardan jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’moliga olinadigan soliq joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrdagi 343-sonli Qonuniga asosan 2013 yil 1 yanvardan boshlab jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’moliga olinadigan soliq, transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz iste’moliga olinadigan soliq deb atala boshlandi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni oxirgi iste’molchilarga benzin va dizel yoqilg‘isini realizatsiya qilishni, shu jumladan, avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali benzin va dizel yoqilg‘isini hamda gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar **to‘lovchilardir**.

Avtomobilarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari deganda avtomobilarga kompressor vositasida gaz to‘ldirish, avtomobilarga yoqilg‘i quyish va avtomobilarga gaz quyish shoxobchalari tushuniladi;

Oxirgi iste'molchilar deganda o'z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi.

Avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalari deganda avtomobilarga kompressor vositasida gaz to'ldirish, avtomobilarga yoqilg'i quyish va avtomobilarga gaz quyish shoxobchalari tushuniladi.

Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchilarga realizatsiya qilish yoki ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish *soliq solish obyekti*dir.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gazning natura holidagi realizatsiya qilingan va o'z zhtiyojlari uchun foydalanilgan hajmi *soliq solinadigan bazar*dir.

**Soliq stavkasi, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliq to'lash tartibi.**

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq stavkalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan quyidagicha belgilangan:

22-jadval

#### **Mahalliy soliqiar va boshqa majburiy to'lovlarning chegaralangan STAVKALARI<sup>31</sup>**

<i>N</i>	<i>Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning turlari</i>	<i>Chegaralangan stavkalar</i>
1.	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantrish soliq'i	sof foydaning 8%ni
2.	Iste'mol uchun soliq*: transport vositalari uchun benzin yoqilg'isi transport vositalari uchun dizel yoqilg'isi transport vositalari uchun suyultirilgan gaz transport vositalari uchun siqilgan gaz	1 litr uchun 265 so'm / 1 tonna uchun 352 000 so'm** 1 litr uchun 265 so'm / 1 tonna uchun 322 000 so'm** 1 litr uchun 180 so'm 1 kub metr uchun 220 so'm
3.	Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im***: alkogolli mahsulotlar, * qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar	1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 5 baravari 1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 3.5 baravari
4.	Avtotransportni saqlash bo'yicha pulli xizmatlarni ko'rsatganlik uchun yig'im****	har oy uchun eng kam ish haqining 8 baravari

<sup>31</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

\*) Ko'rsatib o'tilgan stavkalar miqdorlari O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi.

\*\*) Yuridik va jismoniy shaxslarga avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg'isi va gaz sotishda transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatcharlik uchun olinadigan soliq ularning 1 litridan hisoblanadi, qolgan hollarda 1 tonnadan.

\*\*\*) Yig'im mablag'larni kelgusida budjet hamda shahar va tuman hokimliklarining budgetdan tashqari (maxsus) hisobvaraqlari o'tasida taqsimlash bilan yagona hisobvaraqa, Toshkent shahrida esa - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda Savdo, xizmatlar sohasi va xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish departamentining hisobragamiga kelib tushadi.

\*\*\*\*) Toshkent shahrida yig'im miqdori eng kam ish haqining 5 baravari, viloyat markazlarida - eng kam ish haqining 3 baravari, boshqa aholi punktlarida - eng kam ish haqining 2 baravari miqdoridan kam bo'lmasligi kerak.

Quyidagi jadvaldan 2002-2013 – yillar mobaynida obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkasini o'zgarmaganligini, iste'mol uchun jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq stavkalarining ortib borishini, ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdag'i xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im stavkalrining ham o'zgarmaganligini ko'rish mumkin.

23-jadval

Mahalliy soliqlar va yig 'imlarning o'zgarish dinamikasi<sup>32</sup>

Soliq stavkalarini (foizda)	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.
1.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	8*	8*	8	8	8	8	8	8	8	8	8	8
2. Iste'mol uchun undiriladigan soliq:												
- transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi (1 litr uchun)	20 so'm	30 so'm	40 so'm	50 so'm	60 so'm	80 so'm	100 so'm	120 so'm	145 so'm	175 so'm	200 so'm	240 so'm

<sup>32</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalarini to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

\* O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 31 dekabrdagi 490-soni "O'zbekiston Respublikasining 2002 yilgi asosiy makoqtiyodiy ko'rsatkichlari pragnozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi qaroriga asosan 2002-2003 yillarda infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'lgan

Soliq stavkalari (foizda)	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.
- transport vositalari uchun suyultirilgan gaz (1 litr uchun)	17 so'm	30 so'm	40 so'm	50 so'm	60 so'm	80 so'm	100 so'm	120 so'm	145 so'm	140 so'm	165 so'm	165 so'm
- transport vositalari uchun siqilgan gaz (1 kub metr uchun)										175 so'm	200 so'm	200 so'm
3. Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im:												
- alkogollli mahsulotlar	1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 5 baravari		1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 5 baravari									
- qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar					1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 3,5 baravari							
4. Avtotransportni saqlash bo'yicha pulli xizmatlarni ko'satganlik uchun vig'im							1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 8 baravari					

Transport vositalariga benzin, dizel yodilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda ***quyidagicha aniglanadi:***

$$I_s = V \times S_s,$$

bu yerda:

$S_i$  – hisoblab yozilgan istemol solig‘i summasi;

V – sotilayotgan benzin, dizel yoqilgisi yoki gazning natural ifodadagi hajmi;

S<sub>s</sub> – benzin, dizel yoqilg'isi yoki gaz uchun belgilangan soliq stavkasi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasi transport vositalari uchun realizatsiya qilinadigan benzin, dizel yoqilg'isi va gazning narxida hisobga olinadi. Benzin, dizel yoqilg'isi va gazdan o'z ehtiyojlari uchun foydalanimganda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisoblangan summasi soliq to'lovchining xaratjatlariga kiritiladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisob-kitobi joriy o'n kunlik to'lovlar hisobga olingan holda **har chorakda, soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay**, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Hisob-kitob benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi, bundan avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg'isi va gazni realizatsiya qilish hollari mustasno. Avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilinganda hisob-kitob avtomobilarga yoqilg'i quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to'lash transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilingan oyning **o'n kunligi tugaganidan keyingi uchinchi kundan kechiktirmay**, hisob-kitob taqdim etiladigan yerda har o'n kunda amalga oshiriladi.

### *Nazorat savollari*

1. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga soliqni budjetga bevosita to'lovchilar kimlar?
2. Soliq solish ob'yekti va bazasi qanday aniqlanadi?
3. Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni sotish deganda nima tushuniladi?
4. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga soliq stavkalari qaysi mezonlar asosida belgilanadi?

## **2.13. AYRIM TURDAGI TOVARLAR BILAN CHAKANA SAVDO QILISH VA AYRIM TURDAGI XIZMATLARNI KO'RSATISH HUQUQI UCHUN YIG'IM**

Soliq kodeksining 23-moddasiga ko'ra ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlari tarkibiga kiradi va u mahalliy budget daromadlaridan biri hisoblanadi.

Yig'im joriy qilingan tovarlar savdosini va xizmatlar ko'rsatishni belgilangan tartibda amalga oshirayotgan yuridik shaxslar va yakka tartibdag'i tadbirkorlar tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun *yig'im to'lovchilardir*.

Tovarlar va xizmatlarning qonun hujjatlari belgilanadigan ro'yxati tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar ko'rsatish uchun *yig'im ob'yektidir*.

Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish faoliyati *yig'im bazasidir*.

Ushbu yig'im ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdoni amalg'a oshirish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqini olish uchun to'lanadi. Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi ruxsat guvohnomasi bilan tasdiqlanadi. Ruxsat guvohnomasi joylardagi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda beriladi. Ayrim tovar turlarining va xizmatlarning ro'yxati, hamda ularning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun ruxsat guvohnomasi yuridik shaxs yoki yakka tartibda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarga o'z arizalarida ko'rsatilgan muddatlarg'a, lekin ushbu muddat qonunchilikda nazarda tutilgan muddatdan ortiq bo'limgan muddatga beriladi. Jumladan, yuridik shaxslarga ko'pi bilan – 3 yil, jismoniy shaxslarga – 2 yil.

*Yig'imlar o'rnatilgan minimal ish haqi miqdoriga nisbatan belgilanadi va quyidagicha aniqlanadi:*

$$Y_s = EKIH \times S_s,$$

bu yerda:

$Y_s$  – ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im summasi;

$EKIH$  – sof tushum ya'ni mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQS va aktsiz solig'ini chegirgan holda;

$S_s$  – yig'im stavkasi.

Mahalliy yig'im o'z vaqtida to'lanishi, qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun javobgarlik yig'imni to'lovchilar zimmasiga yuklanadi.

Davlat soliq xizmati organlari esa o'zlariga berilgan vakolat doirasida qonun hujjatlariga muvofiq yig'imni to'lovchilarining budget oldidagi majburiyatlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im bo'yicha **hisob-kitob** faoliyat amalga oshirilayotgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga:

– yil davomida tegishli ruxsat guvohnomasini (mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organining qarorini) olgan soliq to'lovchilar tomonidan - ruxsat guvohnomasi (mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organining qarori) berilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmasdan;

– faoliyat yuritayotgan soliq to'lovchilar tomonidan - har yili hisobot yilining 15 yanvarigacha taqdim etiladi.

Eng kam ish haqining miqdori o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchilar aniqlashtirilgan hisob-kitobni navbatdagi to'lov muddatidan kechiktirmay taqdim etishi shart.

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun **yig'im har oyda**, hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan to'lanadi.

### **Nazorat savollari**

1. Mahalliy yig'im deganda nimani tushunasiz?
2. Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imni to'lovchilar kimlar?
3. Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun ruxsat guvohnomasi qancha muddatga beriladi?
4. Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im qancha miqdorda undiriladi?

### **III BOB. DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARIGA MAJBURIY TO'LOVLAR**

#### **3.1. YAGONA IJTIMOIY TO'LOV VA BUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG'ARMASIGA FUQAROLARNING SUG 'URTA BADALLARI**

**Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarining to'lovchilari, ob'yekti, bazasi hamda chegirmalar.**

2004 yil 1 yanvardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 dekabrdagi 567-tonli «O'zbekiston Respublikasining 2004 yilgi davlat budgeti parametrлари to'g'risida»gi qaroriga muvofiq mehnatga haq to'lash fondidan ijtimoiy sug'urtaga majburiy badallar to'lash o'rniغا, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, yuridik shaxslar mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov to'lash joriy etildi.

Soliq kodeksining 305-moddasiga binoan *yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilar* bo'lib yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi rezidentlari, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallari orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari hisoblanishadi.

Jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasida doimiy ravishda yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga *sug'urta badallarini to'lovchilardir*.

Sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek ularning to'g'ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi.

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarini hisoblash uchun *ob'yekt* bo'lib ish haqi tarzidagi daromadlar va O'zbekiston Respublikasi hududida ishslash uchun chet ellik xodimlarni berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga muvofiq yuridik shaxs - O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari hisoblanadi.

Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish uchun *baza* imtiyoz sifatida belgilangan to'lovlар chegirib tashlangan qolgan ish haqi tarzida to'lanadigan daromadlar summasi hisoblanadi.

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari bazasi hisoblanayotganda *quyidagi to'lovlar chegirib tashlanadi*:

1) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast yetganlik bilan bog'liq zararning o'rnnini qoplash uchun Soliq kodeks 171-

moddasi ikkinchi qismining 9-bandida ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingen summalar;

2) yosh mutaxassislarga oliv o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'il vaqt uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqlar;

3) quyidagi grant mablag'lari hisobiga olinadigan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar:

– davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan berilgan grant mablag'lari;

– O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan berilgan grant mablag'lari;

– O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida berilgan grant mablag'lari.

O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlari, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlari organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlariga yagona ijtimoiy to'lov hisoblab chiqarilmaydi.

### **Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarining stavkalari, ularni hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi.**

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari stavkalarining o'zarish dinamikasini quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin.

24-jadval

#### **Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari stavkalarining o'zarish dinamikasi<sup>33</sup>**

Soliq stavkalari (foizda)	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.
Mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov	40	37,2	33	31	25	24	24	24	25	25	25	25
Ishchi va xizmatchilarning ish haqidan sug'urta badallari	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5	3,5	4	4,5	5,5	6

<sup>33</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

Yuridik shaxslarning mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov davlat maqsadli jamg‘armalari hamda Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi o‘rtasida belgilangan tartibga muvofiq taqsimlanadi. Ushbu taqsimlanish tartibiga muvofiq yagona ijtimoiy to‘lov stavkasining 2002-2013 – yillar davomida o‘zrарish dinamikasini quyidagi jadvalda ko‘ramiz.

25-jadval

**Yagona ijtimoiy to‘lov stavkasining o‘zrарish dinamikasi<sup>34</sup>**

Soliq stavkalarini (foizda)	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.
<b>Asosiy stavka</b>	40	37,2	33	31	25	24	24	24			25	
Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi	37,3	35	31,6	30	24,2	23,5	23,5	23,6			24,8	
Ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashish davlat jamg‘armasi	1,5	1,5	0,9	0,5	0,5	0,3	0,3	0,2			0,1	
Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi	1,2	0,7	0,5	0,5	0,3	0,2	0,2	0,2			0,1	

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrdagi 1024-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2009 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi va 2010 yil 22 dekabrdagi 1449-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi Qarorilariga muvofiq yagona ijtimoiy to‘lovlар to‘liq tushishini ta‘minlash uchun chakana savdo, umumiy ovqatlanish va qurilish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar, budjet tashkilotlari, notijorat tashkilotlari, hamda yagona ijtimoiy to‘loving pasaytirilgan stavkasi belgilangan yuridik shaxslardan tashqari barcha yuridik shaxslar uchun yagona ijtimoiy to‘loving eng kam miqdori kiritildi. *Ushbu tartibga muvofiq:*

- barcha xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar uchun (fermer xo‘jaliklari bundan mustasno) har bir xodim hisobiga eng kam oylik ish haqining bir baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda;

<sup>34</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezident va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalarini to‘g‘risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

– fermer xo‘jaliklari uchun har bir xodim hisobiga eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida amalga oshiriladi.

Bunda davlat soliq xizmati idoralari xodimlariga belgilangan tartibga rioya qilinmagan taqdirda to‘lovchining ixtiyorida qolayotgan foyda hisobidan yagona ijtimoiy to‘lovni uning belgilangan miqdoridan kelib chiqqan holda to‘liq undirib olish huquqi berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrdagi 1449-soni «O‘zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq 2011 yilning 1 yanvaridan chakana savdo, umumiy ovqatlanish va qurilish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash fondining belgilangan eng kam me’yorlarini hisobga olingan holda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi joriy etildi.

*Yuridik shaxslarning mehnatga haq to‘lash fondiga nisbatan yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi quyidagicha belgilangan:*

26-jadval

**Yagona ijtimoiy to‘lov  
STAVKASI<sup>35</sup>**

Soliq solinadigan baza	Ajratmalar miqdori, %da*
Mehnatga haq to‘lash fondi	25*

\*) Yuridik shaxslarning mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov davlat maqsadli jamg‘armalari hamda Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi o‘rtasida belgilangan tartibga muvofiq quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi:  
budgetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi 24,8  
Ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashish davlat jamg‘armasi 0,1  
Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi 0,1

Xodimlarning ish haqiga nisbatan sug‘urta badallarining miqdori esa 6,5 foiz<sup>36</sup> qilib belgilangan.

Yagona ijtimoiy to‘lov va majburiy sug‘urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda quyidagicha aniqlanadi:

<sup>35</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

<sup>36</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

$$YaIT_s = MHTF \times S_s,$$

bu yerda:

**YaIT<sub>s</sub>** – yagona ijtimoiy to‘lov summasi;

**MHTF** – yuridik shaxslarning mehnatga haq to‘lash fondi;

**S<sub>s</sub>** – yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi.

$$MSB_s = MHTF \times S_s,$$

bu yerda:

**MSB<sub>s</sub>** – fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy sug‘urta badali summasi;

**MHTF** – yuridik shaxslarning mehnatga haq to‘lash fondi;

**S<sub>s</sub>** – majburiy sug‘urta badali stavkasi.

2010 yildan yagona ijtimoiy to‘loving eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to‘lovn hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi joriy etilganini inobatga olgan holda uni xisoblab chiqarish tartibi ikki guruhga bo‘linadi va ular quyidagi usullarda hisob-kitob qilinadi:

**1-guruh soliq to‘lovchilari.** Adliya vazirligi (*AV*) tomonidan 2010 yil 28 dekabrda 2173-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlari uchun xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash fondining eng kam me’yorlarini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomga (*2173-son Nizom*) asosan 2011 yilning 1 yanvaridan chakana savdo, umumiy ovqatlanish va qurilish sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar uchun xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash fondining belgilangan eng kam me’yorlarini hisobga olgan holda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi joriy etildi.

Bunda shunga e’tibor berish kerakki, ushbu tartib hisobot choragi yakunlari bo‘yicha asosiy faoliyat turi chakana savdo, umumiy ovqatlanish va qurilish bo‘lgan yuridik shaxslarga tatbiq etiladi.

SKning 22-moddasida asosiy faoliyat turi deb yuridik shaxsning hisobot davri yakunlari bo‘yicha umumiy realizatsiya qilish hajmidagi tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati tushunilishi belgilab qo‘yilgan.

*Shu jumladan, chakana savdo, umumiy ovqatlanish va qurilish tashkilotlarida oylik mehnatga haq to‘lash fondining eng kam me’yorlari quyidagi formula yordamida aniqlanadi:*

$$MHTF_{min} = KXS \times T_k \times IHEKM,$$

bunda:

**MHTF<sub>min</sub>** - mehnatga haq to‘lash fondining oylik eng kam me’yori;

**KXS** - tashkilotdagi xodimlar soni;

**T<sub>k</sub>** - hisoblangan tarif koefitsienti. Masalan, yagona tarif setkasi bo‘yicha ishning o‘rtacha razryadi supermarketda - 3, yagona tarif setkasi

bo'yicha hisoblangan tarif koeffitsienti ishning o'rtacha razryadiga tegishincha 3,297 ni tashkil etadi;

IHEKM - belgilangan ish haqining eng kam miqdori.

*Qurilish tashkilotlarida ishlayotgan quruvchilar mehnatiga haq to'lash fondining eng kam me'yori quyidagi formula asosida aniqlanadi:*

$$MHTF_{min} = XS \text{ (BPXS)} \times Tk \times Kt \times IHEKM,$$

bunda:

MHTF<sub>min</sub> - mehnatga haq to'lash fondining oylik eng kam me'yori;  
XS (BPXS) - tashkilot xodimlari soni;

T<sub>k</sub> - qurilish ishlarida o'rtacha razryadning tarif koeffitsienti. Qurilish ishlarida o'rtacha razryadning tarif koeffitsienti mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasidagi 4 razryadning tarif koeffitsientiga mos keladi;

K<sub>m</sub> - qurilish ishlarini bajarishda jamoa kelishuviga asosan ish beruvchi tomonidan qo'llaniladigan mehnat haqini oshiruvchi tarmoq koeffitsienti;

IHEKM - belgilangan ish haqining eng kam miqdori.

*To'lovlarini qo'shimcha hisoblash uchun baza bo'lib butun tashkilot bo'yicha umumiy mehnatga haq to'lash fondi eng kam me'yori bilan haqiqatdagi mehnatga haq to'lash fondi o'rtasidagi farq hisoblanadi va quyidagi formula asosida aniqlanadi:*

$$QB = MHTF_{eng\ kam} - MHTF_{haqiqat},$$

bu yerda:

QB - to'lovlarini qo'shimcha hisoblash amalga oshiriladigan baza;

MHTF<sub>eng kam</sub> - Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlari uchun xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlarini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq hisobot choragi uchun aniqlangan soliq to'lovchining mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yori;

MHTF<sub>haqiqat</sub> - hisobot choragi uchun haqiqatdagi mehnatga haq to'lash fondi.

*Hisobot choragi uchun qo'shimcha hisoblangan to'lovlar quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:*

$$QH = QB \times US / 100,$$

bu yerda:

QH - qo'shimcha hisoblangan to'lovlar summasi;

QB - AV tomonidan 2011 yil 23 fevralda 2200-sen bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondining eng kam me'yorlari joriy etilishini hisobga olgan holda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida nizomning 4-

bandiga muvofiq aniqlangan to'lovlarni qo'shimcha hisoblash amalga oshiriladigan baza;

US - to'lovlarning umumiyligi stavkasi 39% (2013 yil holatiga: yagona ijtimoiy to'lov - 25%, fuqarolarning sug'urta badallari - 6% va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng kam stavkasi - 8%).

**2-guruh soliq to'lovchilari.** Agar korxonangizning asosiy faoliyat turi hisobot choragi yakunlari bo'yicha chakana savdo, umumiyligi ovqatlanish yoki qurilish tashkilotlari hisoblanmasa, siz AV tomonidan 2010 yil 13 aprelda 2095-sodan ro'yxatdan o'tkazilgan Yagona ijtimoiy to'loving eng kam miqdori kiritilishi munosabati bilan yagona ijtimoiy to'lovni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomda belgilangan tartibda YaIT hisoblappingiz kerak bo'ladi.

*YaITning eng kam miqdori quyidagi formula asosida aniqlanadi:*

$$MR_{yait} = K/n \times N,$$

bu yerda:

$MR_{yait}$  - YaITning bir oy uchun eng kam miqdori;

K - bir oyda barcha xodimlarning haqiqatda ishlagan kunlari (bir kunda ishlagan soatlardan qat'i nazar) soni, biroq korxonada o'rnatilgan ish kunlari sonidan ortmagan holda. Xodimlarning haqiqatda ishlagan kunlariga yillik mehnat ta'tillariga va ish haqi saqlangan holda beriladigan ta'tillarga to'g'ri keladigan kunlar ham taalluqlidir. Bir oyda xodimlarning haqiqatda ishlagan kunlarini hisoblab chiqarishda quyidagilarning ishlagan kunlari kiritilmaydi:

- pasaytirilgan stavkalar bo'yicha YaIT hisoblab chiqariladigan ixtisoslashtirilgan tsexlari, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironlarning ish kunlari;

- kasanachilarning ish kunlari (YaIT bo'yicha imtiyoz muddati tugagunga qadar);

- fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq ishlar bajarayotgan (xizmatlar ko'rsatayotgan) yakka tartibdagi tadbirdorlarning ish kunlari;

n - korxonada belgilangan bir oydagisi ish kunlari soni;

N - bir xodim uchun bir oyda YaIT normativi (bir minimal ish haqi, fermer xo'jaliklari uchun esa belgilangan minimal ish haqining 50 foizi). Agar minimal ish haqining miqdori oyning 1-kunidan o'zgarmasa, u holda oy uchun minimal ish haqining o'rtacha oylik miqdori qo'llaniladi.

Yagona ijtimoiy to'lov yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi, sug'urta badallari esa xodimlarning ish haqidani ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan jamg'armaga o'tkaziladi.

*Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarning hisob-kitobi* soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq

to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

*Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarini to'lash* har oyda, keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

**Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari.**

Soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, yakka tartibdagi tadbirkorlar sug'urta badallarini majburiy tartibda *oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lмаган miqdorda* to'laydi.

Yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini ixtiyoriylik asosida *yiliga eng kam ish haqining to'rt yarim baravaridan kam bo'lмаган miqdorda* to'laydi. Belgilangan miqdordagi sug'urta badallarining to'lanishi dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, *quyidagi miqdorlarda* sug'urta badallarini to'laydi:

– yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosi – oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lмаган miqdorda;

– oilaning boshqa a'zolari (o'n sakkiz yoshga to'lмаганlar bundan mustasno) – oyiga eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan, shuningdek I va II suruh nogironlari bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari hamda yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan oila a'zolari uchun sug'urta badalining miqdori uning *belgilangan miqdorining kamida 50 foizini* tashkil etishi kerak. Mazkur imtiyozlar pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi. Kalendar yil davomida imtiyozga bo'lgan huquq vujudga kelgan yoki bekor bo'lgan taqdirda, sug'urta badallarini qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan yoki bekor bo'lgan oydan e'tiboran amalga oshiriladi.

Sug'urta badallarini to'lash *quyidagicha* amalga oshiriladi:

– yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan – har oyda, tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning *25-kunidan kechiktirmay*;

– yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari - hisobot *yilining 1 oktabrigacha*. Bunda sug'urta badallarining miqdori to'lov kuniga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklidagi faoliyatni amalga oshirayotgan oila a'zolarining sug'urta badallarini to'lash majburiyati oilaviy tadbirkorlik subyekti nomidan ish ko'radigan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosining zimmasiga yuklatiladi.

To'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, identifikatsiya raqami va to'lov to'lanayotgan davr albatta ko'rsatilishi shart. Bunda oila a'zolari - oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilari bo'yicha to'lov topshiriqnomasi (kirim orderi) har bir oila a'zosi uchun alohida yoziladi. Agar to'lov topshiriqnomasida (kirim orderida) davr ko'rsatilmagan bo'lsa, to'lov u amalga oshirilayotgan oy (dehqon xo'jaliklari a'zolari uchun - yil) uchun to'langan deb hisoblanadi.

Qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati zimmasiga yuklatilmagan ish beruvchidan daromadlar oluvchi jismoniy shaxslar jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etish bilan bir vaqtida beriladigan sug'urta badallarini ixtiyoriy to'lash to'g'risidagi ariza asosida jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyada ko'rsatilgan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar summasidan kelib chiqqan holda ixtiyoriy asosda sug'urta badallari to'laydi.

Sug'urta badallarini to'lash jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya ma'lumotlari bo'yicha davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash muddatlarida amalga oshiriladi.

### *Nazorat savollari*

1. Yagona ijtimoiy to'lov to'lovchilar bo'lib kimlar hisoblanishadi?
2. Yagona ijtimoiy to'lov va Pensiya jamg'armasiga sug'urta badalining ob'yekti va bazasi qanday aniqlanadi?
3. Yagona ijtimoiy to'lov hisoboti qanday muddatlarda taqdim etiladi?
4. Yagona ijtimoiy to'lov summasi budgetga qansi muddatlarda to'lanadi?

### **3.2. BUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG'ARMASIGA MAJBURIY AJRATMALAR**

**Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma to'lovchilari, soliq solish ob'yekti, bazasi va stavkalari.**

Pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini samarali tashkil qilish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minotini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 444-sonli qarori bilan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag' to'plash va mablag' to'liq tushishi ustidan nazorat qilish funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga yuklatildi va budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar soliqlarga tenglashtirildi. Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari har yili O'zbekiston Respublikasining yig'ma budjeti tarkibiga kiritiladigan bo'ldi hamda Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarini hisoblab chiqish va to'lash tartibi buzilganligi uchun xo'jalik yurituvchi sub'yeqtllarga nisbatan moliyaviy jazolar qo'llanilishi, shu jumladan to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penya hisoblanishi qonun hujjatlarida 'belgilab qo'yildi.

**Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar quyidagilardir:**

- yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs.

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra notijorat tashkilotlar (bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalgal oshirishdan olgan daromadlari mustasno), yagona soliq to'lovini va yagona yer solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmaning to'lovchilari hisoblanmaydi.

Sof tushum budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning *soliq solish ob'ehti va soliq solinadigan bazasidir.*

**O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari  
Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi hamda umumta'llim maktablari,  
kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya  
qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar solish  
OB'EKLTLARI<sup>37</sup>**

N	To'lovchilar	Ajratmalar solish ob'ekti
1.	Vositachilik (topshiriq) shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar	QQS chegirilgan holda, vositachilik haqi summasi
2.	Tayyorlov tashkilotlari	QQS chegirilgan holda tovar aylanmasi hajmi
3.	«O'zdonmahsulot» AK korxonalar (g'alla qabul qilish korxonalar va g'alla qabul qilish faoliyatini amalga oshiruvchi donni qayta ishlash korxonalar)	QQS chegirilgan holda ustama va chegirma
4.	Kredit va sug'urta tashkilotlari	daromad
5.	Moliaviy ijara (lizing) xizmatlarini ko'rsatadigan korxonalar	foizli daromad
6.	Kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv ta'minoti korxonalar	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQSni va tegishincha issiqlik ta'minoti korxonalar uchun - issiqlik energiyasi, suv ta'minoti korxonalar uchun - suvning xarid qiymatini chegirgan holda
7.	Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiytadqiqot tashkilotlari	QQSni chegirgan holda o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi
8.	Tegishli ravishda elektr energiyasi va tabiiy gazni sotish qismida «O'zbekenergo» DAK va uning korxonalar, «O'zbekneftgaz» MXK korxonalar	mahsulot sotilishi hajmi, elektr energiyasi va tabiiy gaz bo'yicha esa - pirovard iste'molchiga sotilishi hajmi, QQS va aktsiz solig'ini chegirgan holda
9.	Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq to'lovchilari	mahsulot sotilishi hajmi, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, QQS va aktsiz solig'ini chegirgan holda
10.	Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalar	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQS va aktsiz solig'ini chegirgan holda

**Izoh:**

*O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Ta'llim muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga*

<sup>37</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

majburiy ajratmalar bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qonun hujjatlari bilan oldin berilgan imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari umumta'lum maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarga tatbiq etiladi.

Quyidagilarga soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi:

- Soliq kodeksining 132-moddasiga muvofiq boshqa daromadlar;
- hayotni sug'ortalash sohasiga taalluqli shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari), qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha topshirilgan to'lovlar summalarini.

Soliq to'lovchilar turli xil soliq solish ob'ektlariga ega bo'lgan hollarda, ular soliq solish ob'ektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli ob'ektlardan kelib chiqqan holda budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga asosan budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma miqdori *1,6 foiz*<sup>38</sup> qilib belgilangan.

Quyidagi jadvalda yuridik shaxslarning budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'laydigan majburiy ajratmalar stavkasining 2002-2013 – yillar davomida o'sib borish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin.

28-jadval

Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma stavkasining o'zrарish dinamikasi<sup>39</sup>

Soliq stavkalari (foizda)	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.
Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi, QQS va aktsiz solig'ini chegirgan holda	0,7	0,7	0,7	0,7	0,7	0,7	1,0	1,0	1,5	1,6	1,6	1,6

Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblab chiqarish, hisob-kitobini taqdim etish va to'lash tartibi.

Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda *quyidagicha aniqlanadi*:

<sup>38</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-tonli qarori.

<sup>39</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

$$MA_s = ST \times S_s$$

bu yerda:

**MA<sub>s</sub>** – budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar summasi;

**ST** – sof tushum ya’ni mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQS va aktsiz solig‘ini chegirgan holda;

**S<sub>s</sub>** – majburiy ajratma stavkasi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga **majburiy ajratmalarning hisob-kitobi** soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga **majburiy ajratmalar quyidagicha to‘lanadi**:

– budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lovchi bo‘lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;

– mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan - har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

### *Nazorat savollari*

1. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ajratmalarning to‘lovchilari bo‘lib kimlar hisoblanadi?

2. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ajratmalarning ob‘yekti va bazasi qanday topiladi?

3. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ajratmalarning hisoboti qanday muddatlarda taqdim etiladi?

4. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ajratmalarning summasi budjetga qansi muddatlarda to‘lanadi?

### **3.3. RESPUBLIKA YO'L JAMG'ARMASIGA MAJBURIY TO'LOVHLARI**

**Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchilari, soliq solish ob'yekti, bazasi va stavkalarini.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 5 iyuldagagi «Respublika yo'l jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi 334-tonli qarori bilan Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar to'lash joriy etildi.

*Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar quyidagilardan iborat:*

- Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 19 avgustdagagi 3292-tonli farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 21 avgustdagagi «O'zavtoyo'l» davlat aksiyadorlik kompaniyasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 361-tonli qaroriga asosan 2003 yil 1 oktabridan boshlab yo'l xo'jaligini boshqarish tuzilmasidagi Respublika, viloyat va mahalliy yo'l jamg'armalari tugatildi va ularning o'rniда O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Respublika yo'l jamg'armasi tuzildi. Ushbu jamg'armaga mablag'larni yig'ish va uni nazorat qilish vazifasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi zimmalariga yuklatildi.

*Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar quyidagilardir:*

- yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs.

Quyidagilar Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;
- yagona soliq to'lovi to'lovchi yuridik shaxslar;
- ixtisoslashtirilgan yo'l xo'jaligi boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar, Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va qurish bo'yicha ishlarni bajarganlik uchun olingan daromadlar qismi bo'yicha;

– umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan aksiz to'lanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib oluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno.

Sof tushum *yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan bazasi* qilib belgilangan.

29-jadval

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari

Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi hamda umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar solish OB'EKTLARI<sup>40</sup>

<i>N</i>	<i>To'lovchilar</i>	<i>Ajratmalar solish ob'yekti</i>
1.	Vositachilik (topshiriq) shartnomalar va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar	QQS chegirilgan holda, vositachilik haqi summasi
2.	Tayyorlov tashkilotlari	QQS chegirilgan holda tovar aylanmasi hajmi
3.	«O'zdonmahsulot» AK korxonalari (g'alla qabul qilish korxonalari va g'alla qabul qilish faoliyatini amalga oshiruvchi donni qayta ishslash korxonalari)	QQS chegirilgan holda ustama va chegirma
4.	Kredit va sug'urta tashkilotlari	daromad
5.	Moliyaviy ijara (lizing) xizmatlarini ko'rsatadigan korxonalar	foizli daromad
6.	Kommunal xo'jalik tizimining issiqlik, suv ta'minoti korxonalari	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQSni va tegishinchcha issiqlik ta'minoti korxonalari uchun - issiqlik energiyasi, suv ta'minoti korxonalari uchun - suvning xarid qiymatini chegirgan holda
7.	Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiytadqiqot tashkilotlari	QQSni chegirgan holda o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi
8.	Tegishli ravishda elektr energiyasi va tabiiy gazni sotish qismida «O'zbekenergo» DAK va uning korxonalari, «O'zbekneftgaz» MXK korxonalari	mahsulot sotilishi hajmi, elektr energiyasi va tabiiy gaz bo'yicha esa - pirovard iste molchiga sotilishi hajmi, QQS va aktsiz solig'ini chegirgan holda
9.	Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq to'lovchilari	mahsulot sotilishi hajmi, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, QQS va aktsiz solig'ini chegirgan holda
10.	Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQS va aktsiz solig'ini chegirgan holda

<sup>40</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

*Izoh:*

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Ta'lum muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qonun hujjatlari bilan oldin berilgan imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari umumta'lum maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarga tatbiq etiladi.

Quyidagilarga soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi:

- Soliq kodeksining 132-moddasiga muvofiq boshqa daromadlar;
- hayotni sug'ortalash sohasiga taalluqli shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlari (badallari), qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha topshirilgan to'lovlar summalar.

Yuridik shaxslar turli xil ob'yektlarga ega bo'lgan hollarda ular ob'yektlarning alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli ob'yektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi lozim.

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkasi uning ob'ekti va bazasiga nisbatan *1,4 foiz<sup>41</sup>* qilib belgilangan.

**Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash va to'lash tartibi.**

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda *quyidagicha aniqlanadi*:

$$MA_s = ST \times S_s$$

bu yerda:

MA<sub>s</sub> – Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar summasi;

ST – sof tushum ya'ni mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQS va aktsiz solig'ini chegirgan holda;

S<sub>s</sub> – majburiy ajratma stavkasi.

Respublika yo'l jamg'armasiga *majburiy ajratmalarning hisob-kitobi* soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatdan kechiktirmay taqdim etiladi.

<sup>41</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

**Respublikasi yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar quyidagicha to'lanadi:**

- Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan-har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Soliq kodeksining 54-bobiga asosan Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalardan tashqari yig'imlar ham to'lanadi.

**Yo'l jamg'armasiga yig'imlarni to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza.**

**Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlariga quyidagilar kiradi:**

- avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;
- chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im.

Amaldagi Soliq kodeksining 321-moddasiga binoan avtotransport vositalarini oluvchi yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun *yig'im to'lovchilari* bo'lib hisoblanadi. Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari ushbu vositalarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun *yig'im to'lovchilar* bo'lib hisoblanadi.

**Yig'imlar uchun ob'yekt quyidagilardir:**

- avtotransport vositalarini olish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish;
- chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tish.

**Yig'imlar undiriladigan baza sifatida quyidagilar belgilangan:**

- olingan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati;
- O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari.

**Imtiyozlar, yig‘imlar stavkasi, yig‘imlarni hisoblash va to‘lash tartibi.**

***Yig‘imlarni to‘lashdan quyidagilar ozod qilinadilar:***

1) ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan qo‘l bilan boshqarishga moslashtirilgan yengil avtomobilni yoki motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar;

2) ixtisoslashtirilgan savdo tarmog‘idan O‘zbekiston Respublikasida, Rossiya Federatsiyasida va Ukrainada ishlab chiqarilgan yangi avtomobil oluvchi fuqarolar, shuningdek yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalar oluvchi fuqarolar;

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini saqlash, ta’mirlash, rekonstruktsiya qilish va qurishni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan yo‘l xo‘jalik boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar - mazkur ishlarni amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan avtovtransport vositalari bo‘yicha;

4) faoliyatining asosiy turi yo‘lovchilar tashish bo‘lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yo‘lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziyaga ega bo‘lgan avtovtransport korxonalari - yo‘lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bo‘yicha (yengil avtomobillar va yo‘nalishli taksilardan tashqari);

5) yuridik shaxslar - qirq tonnadan ortiq yuk ko‘taradigan, olingan kon avtosamosvallari bo‘yicha;

6) homiylik (beg‘araz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, nogiron bolalar uchun markazlar, qariyalar va kichik yoshdagи nogironlar uchun internat-uylar, shuningdek budjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari;

7) yuridik shaxslar - avtovtransport vositalarini bitta tizim (davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o‘tkazishda;

8) qayta tashkil etish natijasida avtovtransport vositasini olgan huquqiy voris;

9) avtovtransport vositalarini 3-5 - bandlarda ko‘rsatilgan yuridik shaxslarga lizingga berish uchun oluvchi lizing beruvchilar.

Avtovtransport vositalarini olish yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig‘im stavkalari har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga muvofiq belgilanadi.

***Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar stavkasi quyidagicha belgilangan:***

**O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi  
Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar va ajratmalar  
STAVKALARI<sup>42</sup>**

<i>N</i>	<i>Yig'imlar va ajratmalar turlari</i>	<i>Yig'imlar stavkalari</i>
I	Xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit qilishdan yig'imlar	AQSh dollarida
1.	O'zbekiston Respublikasi hududiga xorijiy davlatlardan avtotransport vositalarini olib kirganlik va tranzit qilish uchun yig'im, bir avtotashuvchini olib kirganlik uchun (2-5-bandlarda ko'rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2.	O'zbekiston Respublikasi hududi orqali Tojikiston Respublikasining har bir yuk avtotransport vositasi va avtobusini olib kirganlik va tranzit qilganlik uchun yig'imlar: bitta yuk avtotransport vositasi va avtobusdan	130
3.	yuk avtotransport vositasi va avtobus O'zbekiston Respublikasi hudуди bo'lgan 3 sutkadan oshgan har bir kun uchun yuk avtotransport vositalari va avtobuslarni O'zbekiston Respublikasi hududi orqali uchinchi mamlakatlarga (MDH mamlakatlaridan tashqari) tranzit olib o'tganlik uchun	70 90
4.	O'zbekiston Respublikasi hududiga Qozog'iston Respublikasi yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirganlik uchun yig'imlar, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilish bundan mustasno, bir yuk avtotransport vositasini olib kirganlik uchun	300
5.	O'zbekiston Respublikasi hududi orqali Qirg'iziston Respublikasining yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig'imlar O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab Turkmaniston Respublikasi avtotransport vositalarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig'imlar, avtotransport vositalari turlari bo'yicha: quyidagi og'irlikdagi yuklarni ko'taradigan yuk avtotransport vositalari: 10 tonnagacha 10 tonnadan 20 tonnagacha 20 tonnadan ko'p o'rindiqlar soni quyidagicha bo'lgan avtobuslar: 12 o'rindiqqacha 13 o'rindiqdan 30 o'rindiqqacha 30 o'rindiqdan ko'p tranzit o'tayotgan yengil avtotransport vositalari tranzit o'tayotgan mototsikllar	300 50 100 150 25 50 100 30 15
II	Avtotransport vositalari olinganligi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganligi uchun ushbu vositalarning egalari (foydalanuvchilar) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida	foydalanish muddatiqa qarab har bir ot kuchi uchun eng kam ish

<sup>42</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-sonli qarori.

N	<i>Yig‘imlar va ajratmalar turlari</i>	<i>Yig‘imlar stavkalari</i>
	ro‘yxatdan o‘tkazish chog‘ida to‘lanadigan yig‘im	haqiga nisbatan %da*
	foydalinish muddati 3 yilgacha	10
	foydalinish muddati 3 yildan 7 yilgacha	7
	foydalinish muddati 7 yildan ortiq	5
III	«O‘zavtoyo‘l» DAK korxona va tashkilotlari mol-mulkini sotib olishdan tushgan mablag‘larning budjetga tushishi lozim bo‘lgan umumiy summasidan ajratmalar (%)	50

*Izohlar:*

\*) Yig‘im miqdori:

- o‘rindiqlar soni 40 tagacha bo‘lgan avtobuslar va yuk ortish hajmi 20 tonnagacha bo‘lgan yuk avtotransport vositalari bo‘yicha - xarid qiymatining 20 foizidan;
- O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Ukrainada ishlab chiqarilgan, ixtisoslashtirilgan savdo tarmog‘ida xarid qilinadigan yangi avtotransport vositalari bo‘yicha - xarid qiymatining 3 foizidan;

- qolgan avtotransport vositalari bo‘yicha - xarid qiymatining 6 foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

1. O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab xorijiy davlatlarning og‘ir yuk tashuvchi va yirik gabariqli transport vositalari o‘tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo‘yicha yig‘im to‘lanishi bilan bir vaqtida qo‘srimcha ravishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 11 yanvardagi 11-soni qarori bilan belgilangan miqdorlarda to‘lov undiriladi.

2. O‘zbekiston Respublikasining Tojikiston Respublikasi bilan Davlat chegarasini kesib o‘tadigan xorijiy yuk avtotransport vositalari va avtobuslarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va tranzit o‘tishi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo‘yicha yig‘im to‘lanishi bilan birga qo‘srimcha ravishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 17 dekabrdagi 274-soni qarori bilan belgilangan miqdorlarda yig‘imlar ham undiriladi.

3. Gumanitar yuklarni olib o‘tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig‘imlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamayuvchi koefitsienti qo‘llaniladi.

4. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnomaga qoidalar qo‘llaniladi.

Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar-soliq solinadigan bazadan va tasdiqlangan stavkadan kelib chiqqan holda har oyda *quyidagicha aniqlanadi*:

$$Y_s = S_b \times S_s$$

bu yerda:

$Y_s$  – Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘imlar summasi;

$S_b$  – olingan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari;

S<sub>s</sub> – majburiy ajratma stavkasi.

Avtotransport vositalarini olganlik yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im ular O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganda, qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganda **quyidagi hollarda undiriladi:**

- avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;
- avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dividendlar sifatida olinganda;
- avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda. Yig'im taraflarning yozma kelishuviga ko'ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan taqdirda, yig'im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so'ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo'lgan avtotransport vositasi qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganida takroran yig'im undirilmaydi;

– avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

Avtotransport vositalarini olish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig'im to'langanligi to'g'risidagi hujjat taqdim etilmagan holda avtotransport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish yoki texnik ko'rikdan o'tkazish amalga oshirilmaydi.

Chet davlatlar avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im chet davlatning avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

### *Nazorat savollari*

1. Respublika yo'l jamg'armasi qachon tashkil etilgan?
2. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari kimlar?
3. Xorijiy davlatlarning avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganda undiriladigan to'lov qanday tartibda amalga oshiriladi?
4. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar miqdorlari kim tomonidan belgilanadi?
5. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar bo'yicha imtiyozlarni aytинг.

### **3.4. BUDJETDAN TASHQARI UMUMTA'LIM MAKTABLARI, KASB-HUNAR KOLLEJLARI, AKADEMİK LITSEYLAR VA TIBBIYOT MUASSASALARINI REKONSTRUKSIYA QILISH, MUKAMMAL TA'MIRLASH VA JIHOZLASH JAMG'ARMASIGA MAJBURIY AJRATMALAR**

Budjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmani to'lovchilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 7 iyundagi «Budjetdan tashqari Maktab ta'lifi jamg'armasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 263-sonli Qaroriga muvofiq Maktab ta'lifi jamg'armasi tashkil etildi. 2004 yil 28 dekabrdagi 610-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2005 yilgi Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq 2005 yil 1 yanvardan majburiy ajratmalar to'lash joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 10 noyabrdagi 1432-sonli Qaroriga muvofiq ta'lim muassasalarining barpo etilgan moddiy-texnika bazasidan samarali foydalanish va muttasil yangilab borishni ta'minlash, ularni tizimli asosda eng zamonaviy kompyuter texnikasi, o'quv-laboratoriya uskunalarini, mebel va asbob-anjomlar bilan qayta jihozlashni, shuningdek ilg'or ta'lim texnologiyalari va axborot-kommunikasiya tizimlarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish maqsadida 2011 yil 1 yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Maktab ta'lifi jamg'armasini tugatilib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha budjetdan tashqari jamg'armasi tashkil etildi.

Prezidentning 2011 yil 21 noyabrdagi 1645-sonli qarori bilan Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi 2012 yil 1 yanvardan boshlab Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi etib qayta tashkil etiladi. Prezidentning 2010 yil 10 noyabrdagi 1432-sonli qarori bilan ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlashni moliyalashtirish bo'yicha Jamg'armaning oldin belgilangan asosiy vazifalari sog'liqni saqlash muassasalari uchun ham xuddi shunday taalluqli bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasiining 2013 yil 25 dekabrdagi 359-sonli Qonuniga asosan Budjetdan tashqari ta'lim va tibbiyot muassasalarini

rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi 2014 yil 1 yanvardan boshlab Budgetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga aylantirildi.

Budgetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi majburiy to'lovi davlat soliqlari va yig'imlariga tenglashtirilgan.

Budgetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga **majburiy ajratmalarini to'lovchilar** quyidagilardir:

- yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yuridik shaxs.

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra notijorat tashkilotlar (bundan ularning tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno), yagona soliq to'lovini to'lovchi yuridik shaxslar budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmaning to'lovchilari hisoblanmaydi.

**Majburiy ajratmaning soliq solish ob'yekti, soliq solinadigan baza, stavkasi, hisoblash va to'lash tartibi.**

Sof tushum budgetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarining **soliq solish ob'ekti va soliq solinadigan bazasi**dir.

31-jadval

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'ljamg'armasi hamda umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar solish

**OB'EKTLLARI<sup>43</sup>**

N	To'lovchilar	Ajratmalar solish ob'ekti
1.	Vositachilik (topshiriq) shartnomalari va vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar	QQS chegirilgan holda, vositachilik haqi summasi

<sup>43</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-sonli qarori.

N	To'lovchilar	Ajratmalar solish ob'ekti
2.	Tayyorlov tashkilotlari	QQS chegirilgan holda tovar aylanmasi hajmi
3.	«O'zdonmahsulot» AK korxonalarini (g'alla qabul qilish korxonalarini va g'alla qabul qilish faoliyatini amalga oshiruvchi donni qayta ishlash korxonalarini)	QQS chegirilgan holda ustama va chegirma
4.	Kredit va sug'urta tashkilotlari	daromad
5.	Moliyaviy ijara (lizing) xizmatlarini ko'ssatadigan korxonalar	foizli daromad
6.	Kommunal xo'jalik tizimining issiqqlik, suv ta'minoti korxonalar	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQSni va tegishinchada issiqqlik ta'minoti korxonalar uchun - issiqqlik energiyasi, suv ta'minoti korxonalar uchun - suvning xarid qiyatini chegirgan holda
7.	Qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiytadqiqot tashkilotlari	QQSn chegirgan holda o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmi
8.	Tegishli ravishda elektr energiyasi va tabiiy gazni sotish qismida «O'zbekenergo» DAK va uning korxonalar, «O'zbekneftgaz» MXK korxonalar	mahsulot sotilishi hajmi, elektr energiyasi va tabiiy gaz bo'yicha esa - pirovard iste'molchiga sotilishi hajmi, QQS va aktsiz solig'ini chegirgan holda
9.	Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq to'lovchilari	mahsulot sotilishi hajmi, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, QQS va aktsiz solig'ini chegirgan holda
10.	Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalar	mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQS va aktsiz solig'ini chegirgan holda

**Izoh:**

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qonun hujjalari bilan oldin berilgan imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarga tatbiq etiladi.

Budgetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmaning

stavkasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan bazasiga nisbatan *0,5 foiz*<sup>44</sup> qilib belgilangan.

Quyidagi jadvalda yuridik shaxslarning budjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga to'laydigan majburiy ajratmalar stavkasining 2005-2013 – yillar davomida o'sib borish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin.

32-jadval

Ta'lif va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratma stavkasining o'zgarish dinamikasi<sup>45</sup>

Soliq stavkalari (foizda)	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.
Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi, QQS va aktsiz solig'iini chegirgan holda	1,0°	1,0°	1,0°	1,0°	1,0°	0,5°	0,5	0,5	0,5

Budjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan notijorat tashkilotlar ozod etiladi, faqat ularning tadbirkorlik faoliyatidan olingen daromadi va tushumlari bundan mustasno.

Jamg'armaga to'lanishi lozim bo'lgan majburiy ajratmalar summasi belgilangan majburiy ajratmalarga tortish ob'yekti va stavkasidan kelib chiqqan holda to'lovchilar tomonidan aniqlanadi.

Budjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar har oyda soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda *quyidagicha aniqlanadi*:

$$MA_s = ST \times S_s,$$

bu yerda:

$MA_s$  – Budjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya

<sup>44</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

<sup>45</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining har yilgi soliq stavkalari to'g'risidagi qarorlari asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

\* 2005-2010 yillarda Maktab ta'limi rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar

qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar summasi;

ST – sof tushum ya'ni mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishi hajmi, QQS va aktsiz solig'ini chegirgan holda;

S<sub>s</sub> – majburiy ajratma stavkasi.

Budjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga **majburiy ajratmalarning hisob-kitobi** soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Budjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga **majburiy ajratmalar quyidagicha to'lanadi:**

– budjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchi bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;

– mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

### *Nazorat savollari*

1. Budjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi qachon va nima maqsadda tashkil topgan?

2. Budjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari kimlar?

3. Budjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalarning ob'yekti va bazasi nima?

## **IV BOB. SOLIQQA TORTISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI**

### **4.1.YAGONA SOLIQ TO'LOVI**

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini soliq amaliyotiga tafbiq etilishi, uning iqtisodiy mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 27 sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 1997 yilgi davlat budjeti munosabati bilan soliq islohotini chuqurlashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi 1565-sonli Farmoniga asosan amaldagi soliqlar o'rniغا mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan daromadning 25 foiziga qadar miqdordagi yagona soliqni joriy etish yo'li bilan barcha mulkchilik shaklidagi kichik korxonalar uchun soliqqa tortishning tabaqlashtirilgan soddalashtirilgan tizimi joriy etildi.

Soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kichik biznes subektlariga soliq solish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi.

Kichik korxonalar uchun yagona soliqning o'rnatilishi soliq hisob-kitobini tuzishni osonlashtirdi, ular bir nechta soliq turi o'miga faqatgira bitta yagona soliq bo'yicha soliq idoralariga soliq hisob-kitobini topshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada korxona hisobchilarining ishi birmuncha osonlashdi.

*O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining XX-bo'limiga muvofiq soliq solishning alohida tartibi (soddalashtirilgan tizim) quyidagilari uchun belgilangan:*

- mikrofirma va kichik korxonalar;
- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;
- lotereyalar tashkil qilish doirasida faoliyat ko'rsatadigan yuridik shaxslar;
- qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari;
- avtotransportni qisqa muddat saqlash avtomobil to'xtash joylari, bolalar o'yin avtomatlari faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar;
- yakka tartibdagi faoliyat turlaini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llovchi yuridik shaxslarda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash majburiyatlarini saqlanib qoladi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimi amaldagi umum davlat va mahalliy soliqlar va yig'imlarning jami o'rniغا bitta soliq to'lashni nazarda tutadi. Bunda soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tish

chog‘ida ularni to‘lash bo‘yicha majburiyat korxonalarda saqlab qolinadigan soliqlar va yig‘imlar belgilangan.

33-jadval

**Soddalashtirilgan soliq to‘lovchi yuridik shaxslarda soliqlar  
va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash tartibi<sup>45</sup>**

Soliq turi	To‘lash tartibi saqlab qolinadi:
Yagona soliq to‘lovi	<ul style="list-style-type: none"> <li>– to‘lov manbaida undiriladigan foyda solig‘i;</li> <li>– O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan bajarilgan (ko‘rsatilgan) ishlar (xizmatlar) bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i;</li> <li>– aksiz solig‘i to‘lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda aksiz solig‘i;</li> <li>– yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;</li> <li>– davlat bojlar;</li> <li>– bojxona to‘lovlari;</li> <li>– yagona ijtimoiy to‘lov;</li> <li>– olingan va vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari qiymatidan Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘im;</li> <li>– tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdoni amalga oshirish huquqi uchun yig‘im.</li> </ul>
Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruv-chilari uchun yagona yer solig‘i	<ul style="list-style-type: none"> <li>– O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan bajarilgan (ko‘rsatilgan) ishlar (xizmatlar) bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i;</li> <li>– davlat bojlar;</li> <li>– bojxona to‘lovlari;</li> <li>– aksiz solig‘i to‘lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda aksiz solig‘i;</li> <li>– yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;</li> <li>– yagona ijtimoiy to‘lov;</li> <li>– tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdoni amalga oshirish huquqi uchun yig‘im;</li> <li>– olingan va vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari qiymatidan Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘im.</li> </ul>
Qat‘iy belgilangan soliq	<ul style="list-style-type: none"> <li>– O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan bajarilgan (ko‘rsatilgan) ishlar (xizmatlar) bo‘yicha qo‘ishilgan qiymat solig‘i;</li> <li>– bojxona to‘lovlari;</li> <li>– aksiz solig‘i to‘lanadigan mahsulot ishlab chiqarilganda aksiz solig‘i;</li> <li>– yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;</li> <li>– yagona ijgimoiy to‘lov;</li> <li>– davlat bojlar;</li> <li>– davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalar;</li> <li>– olingan va vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari qiymatidan Respublika yo‘l jamg‘armasiga yig‘im;</li> <li>– tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdoni amalga oshirish huquqi uchun yig‘im;</li> <li>– suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tadbirdorlik faoliyati uchun suv resurslaridan foydalilanliganda (yakka tartibdag‘i tadbirdorlar uchun).</li> </ul>

<sup>45</sup> O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi asosida mualliflar tomonidan tayyorlangan.

**Yagona soliq to'lovi, uning to'lovchilari va to'lovchilar tarkibiga kiritish mezoni.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 15 apreldagi «Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida»gi 159-sonli qaroriga asosan mikrofirma va kichik korxonalar soliq solishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o'tkazildi. Bunda kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy ekanligi qat'iy belgilandi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalarni jadal rivojlantirishni yanada rag'batlantirish hamda uning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati va ulushini tubdan oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 3620-tonli Farmoniga muvofiq 2005 yilning 1 iyuldan boshlab O'zbekiston soliq tizimida kichik biznes sub'yektlarining ba'zi toifalari uchun yagona soliq to'lovi joriy qilindi.

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar ro'yxati 2007 yil 1 yanvardan boshlab kengaydi. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonatari, lotereyalar tashkil qilish doirasida faoliyat ko'rsatadigan yuridik shaxslar yagona soliq to'lovini to'laydilar hamda umumbelgilangan tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini to'lashga o'tishga haqli emas.

**Yagona soliq to'lovi faqat kichik biznes sub'yektlari-mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etiladi.**

**Yagona soliq to'lovini to'lovchilar quyidagilardir:**

- 1) mikrofirmalar va kichik korxonalar;
- 2) xodimlarning sonidan qat'i nazar:
  - savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;
  - lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar;

3) oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) - yakka tartibdagi tadbirkor.

Yagona soliq to'lovi quyidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etilmaydi:

- aktsiz solig'i to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishni va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solinadigan foydali qazilmalarni qazib olishni amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalarga, bundan maxsus pechlardan foydalangan holda energiya tejaydigani zamонавиу texnologiyalar asosida pishiq g'isht ishlab chiqaruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno;

- yagona yer solig'i va qat'iy belgilangan soliq to'lash nazarda utilgan faoliyat doirasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalarga;

– mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchisi bo‘lgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga xodimlarining soni bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan mezonga mos keladigan yuridik shaxslar kiradi.

Bunda:

– xodimlarning soni hisobot yili uchun xodimlarning o‘rtacha yillik sonidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

– xodimlarning o‘rtacha yillik sonini aniqlashda o‘rindoshlik, pudrat shartnomalari va boshqa fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar bo‘yicha ishga qabul qilingan xodimlarning, shuningdek unitar (sho‘ba) korxonalarda, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlarning soni ham hisobga olinadi;

– yuridik shaxslarni mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiritishda yuridik shaxsnинг asosiy faoliyat (ixtisosligi) turiga to‘g‘ri keladigan xodimlar sonining mezoni qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagи «1998 yil 9 apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoniga o‘zgartirish va qo‘srimchalar to‘g‘risida»gi 3305-sonli Farmoniga ko‘ra 2004 yilning 1 yanvaridan boshlab kichik biznes sub‘yektlari tarkibiga quyidagilar kiritilgan:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar;

2) ishlab chiqarish tarmoqlaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 20 kishi, xizmat ko‘rsatish sohasidagi va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘limgan boshqa tarmoqlardagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 10 kishi, ulgurji, chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 5 kishi bo‘lgan mikrofirmalar;

3) quyidagi tarmoqlardagi:

– engil va oziq-ovqat sanoatidagi, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog‘ochsozlik, mebel sanoati, qurilish materiallari sanoati, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 100 kishi;

– mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash, qurilish hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalaridagi, band bo‘lgan xodimlarining o‘rtacha yillik soni ko‘pi bilan 50 kishi;

– fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lman boshqa sohalardagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan 25 kishi bo'lgan kichik korxonalar.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari xodimlarining o'rtacha yillik soni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda belgilanadi. Bunda o'rindoshlik, pudrat shartnomalari va fuqarolik-huquqiy xarakterdagi boshqa shartnomalar bo'yicha ishga qabul qilingan xodimlarning, shuningdek unitar (sho'ba) korxonalarda, vakolatxonalar va filiallarda ishlayotganlarning soni ham hisobga olinadi.

Faoliyatning bir necha turini amalga oshiruvchi (ko'p tarmoqli) yuridik va jismoniy shaxslar yillik aylanma hajmida ulushi eng ko'p bo'lgan faoliyat turi mezonlari bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlariga kiradi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar, preferentsiyalar, kafolatlar va huquqlar tadbirkorlik sub'ektlariga ular tomonidan vakolatli organlar va tashkilotlarga (davlat soliq, bojxona xizmati organlari, davlat statistika organlari, banklar va boshqalarga) imtiyozlar, preferentsiyalar, kafolatlar va huquqlar xususiyatidan kelib chiqib, ular kichik tadbirkorlik sub'ektlari ekanligi haqida xabarnoma taqdim etgan holda qilingan murojaatlar asosida beriladi. Bunday xabarnomaning to'g'riliqi uchun javobgarlik xabarnomani taqdim etgan tadbirkorlik sub'ektlari zimmasiga yuklatiladi.

Mikrofirma va kichik korxona xodimlarning belgilangan o'rtacha yillik sonini oshirib yuborgan taqdirda, xodimlar sonini oshirib yuborishga yo'l qo'yilgan davr uchun ular qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar, preferentsiyalar, kafolatlar va huquqlardan mahrum etiladi. Ushbu qoida quyidagi hollarda tatbiq etilmaydi:

- mikrofirma va kichik korxona O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar kollejlarining, akademik litseylarining hamda oliv ta'lif muassasalarining bitiruvchilari bilan mehnat shartnomalari tuzgan taqdirda, band bo'lgan xodimlarning belgilangan o'rtacha yillik soni ko'pi bilan 20 foiz oshadigan bo'lsa. Xodimlar sonining oshirilishiga O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar kollejlarining, akademik litseylarining va oliv ta'lif muassasalarining bitiruvchilari o'qishni tugallagan kunidan boshlab ko'pi bilan uch yil o'tgan bo'lsa, yo'l qo'yiladi;

- kichik korxona uyda ishlayotgan fuqarolar (kasanchilar) bilan mehnat shartnomalari tuzgan taqdirda, band bo'lgan xodimlarning belgilangan o'rtacha yillik soni ko'pi bilan 30 foiz oshadigan bo'lsa.

Soliq solish maqsadida savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini jumlasiga savdo faoliyati, umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat o'tgan

hisobot yili yakunlari bo'yicha asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar kiradi.

Quyidagilarga savdo faoliyati sifatida qaralmaydi:

– o'zi ishlab chiqqagan mahsulot bo'lgan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan ularni mustaqil yuridik shaxs bo'lmasan firma do'konlari orqali realizatsiya qilish;

– vositachi, ishchonchli vakil tomonidan vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilish;

– tayyorlov faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan tovarlarni realizatsiya qilish.

Umumi ovqatlanish sohasidagi faoliyat deganda kulinariya, shuningdek boshqa oziq-ovqat mahsulotini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularni iste'mol qilishni tashkil etish bo'yicha faoliyat tushuniladi.

Bunda quyida ko'rsatilganlardan tashqari mikrofirma va kichik korxonalar o'z xohishlariga ko'ra soliq solishning soddalashtirilgan yoki umumbelgilangan tizimini qo'llashlari mumkin. Savdo, umumi ovqatlanish korxonalari, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari va qat'iy belgilangan soliq to'lovchilar uchun soliq solish tizimini tanlash huquqi nazarda tutilmagan.

O'tgan yil yakunlari bo'yicha asosiy (soha) faoliyat turi savdo faoliyati va umumi ovqatlanish sohasidagi faoliyat bo'lgan yuridik shaxslar belgilangan tartibda hisobot yili boshidan boshlab yagona soliq to'lovini to'lashi kerak.

Savdo va umumi ovqatlanish korxonalari sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar yagona soliq to'lovini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran joriy yil tugaguniga qadar, 1 oktabr dan keyin ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslar esa keyingi yil tugaguniga qadar to'laydi.

Agar yuqorida ko'rsatilgan yagona soliq to'lovi to'lovchilarda joriy soliq davrining ketma-ket keluvchi ikki choragi davomida savdo faoliyati va umumi ovqatlanish sohasidagi faoliyat asosiy faoliyat turi bo'lmasa, ular belgilangan tartibga muvofiq umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tishga haqli.

Agar yuridik shaxslar hisobot yili yakunlari bo'yicha belgilangan shartlarga javob bermasalar, ular kelgusi yil boshidan e'tiboran umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tishi kerak, bundan soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolinadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno.

Yuridik shaxslar, bundan mikrofirmalar va kichik korxonalar mustasno, yagona soliq to'lovini to'lash huquqidан mahrum bo'lgan o'tgan hisobot yili uchun umumbelgilangan soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar

asosida yagona soliq to'lovi yuzasidan belgilangan tartibda qayta hisob-kitobni amalga oshiradi.

Hisobot yili tugaganidan keyin belgilangan shartlarga javob bermay qolgan mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 fevraldan kechiqtirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solish tartibi tanlanganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shakl bo'yicha yozma bildirish taqdim etishi shart. Soliq to'lovchi tomonidan yozma bildirishning belgilangan muddatda taqdim etilmaganligi uning umumbelgilangan soliqlarni to'lashga berilgan roziligi deb hisoblanadi.

**Soliq solish ob'yekti, yalpi tushum tarkibi va soliq solinadigan baza.**

***Yagona soliq to'lovi ob'yekti*** (soliq solinadigan aylanma) bo'lib yalpi tushum hisoblanadi.

***Quyidagilar yalpi tushum tarkibiga kiritiladi:***

**1) tovarlar (ishlar, xizmatlar)** qo'shilgan qiymat solig'ini chegirgan holda (qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga o'tgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun) sotilishidan tushgan tushum summasi.

***Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotilishidan tushgan tushum deganda:***

- qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyihalash-qidiruv va ilmiy-tadqiqot korxonalari uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilishidan tushum summasi deganda o'z kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqib hisoblangan yalpi tushum;
- savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalari uchun - tovar oboroti;
- mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun - moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi;
- vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun - ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul mukofoti summasi;
- tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari uchun-realizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtaqidagi farq sifatida hisoblab chiqarilgan yalpi daromad;

- lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun - o'yin chiptalarini ularda ko'rsatilgan narx bo'yicha tarqatishdan tushgan tushum tushuniladi;
- tovarlarni tanmarxidan yoki olish bahosidan past baholarda realizatsiya qiluvchi, shuningdek tovarlarni tekinga beruvchi yuridik shaxslar uchun - tovarlar tannarxi yoki ularni olish bahosi.

***2) asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar.***

Ushbu daromad turlariga:

- asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar;
- mol-mulkni operativ ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni moliyaviy ijaraga berishdan olinadigan daromadlar;
- tekin olingen mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar;
- inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar;
- hisobot yilda aniqlangan o‘tgan yillardagi daromadlar;
- majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar.
- talablardan o‘zganning foydasiga voz kechish shartnomasi bo‘yicha olingen daromadlar;
- ilgari chegirib tashlangan xarajatlarning yoki zararlarning o‘rnini qoplash tarzidagi daromadlar;
- xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklardan olinadigan daromadlar;
- birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishdan olinadigan daromadlar;
- undirib olingen yoki qarzdor tomonidan tan olingen jarimalar va penya, shuningdek qonuniy kuchga kirgan sud hujjati asosida qarzdor tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan jarimalar va penya;
- kursdagi ijobjiy farq;
- dividendlar va foizlar;
- roylati;
- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bevosita bog‘liq bo‘limgan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

*Quyidagilarga soliq solish ob‘yekti sifatida qaralmaydi:*

- 1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingen hissalar, shu jumladan aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosining ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi bo‘yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag‘lar;
- 2) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassisları (ishtirokchilari) o‘rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingen mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);
- 3) shartnoma muassisları (ishtirokchilari) umumiyl mulkidagi hissasi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo‘lingan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi sheriği (ishtirokchisi) tomonidan hissasi miqdorida olingen mablag‘lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

4) realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun oldindan haq to'lash (bo'nak) tariqasida boshqa shaxslardan olingen mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

5) mulk huquqi ularga o'tgan paytga qadar majburiyatlarni qonun hujjatlariga muvofiq ta'minlash sifatida garov yoki zakalat tarzida olingen mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

6) budjetdan berilgan subsidiyalar;

7) agar mablag'larni (mol-mulkni yoki mulkiy huquqlarni) o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingen mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

8) olingen grantlar va insонparvarlik yordami.

Soliq kodeksining 356-moddasiga ko'ra *soliq solinadigan bazani* aniqlash uchun yalpi tushum summasidan quyidagilar chegirib tashlanadi:

1) davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar;

2) to'lov manbaida soliq solinadigan dividendlar va foizlar tariqasida olingen daromadlar;

3) dividendlar tariqasida olingen va qaysi yuridik shaxsdan olingen bo'lsa, o'sha yuridik shaxsnинг ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar. Muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqb ketganda) yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solinadigan bazadan chegirilgan daromadlarga to'lov manbaida umumiylashtirish asoslarda soliq solinadi;

4) hisobot yilda aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular qaysi davrda paydo bo'lgan bo'lsa, o'sha davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha o'tkazilgan hisob-kitoblar inobatga olingen holda soliq solinishi kerak;

5) ko'p oborotli qaytariladigan taraning qiymati, agar uning qiymati tovarlarni (ishlar va xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingen tushunning tarkibiga ilgari kiritilgan bo'lsa;

6) mahsulot yetkazib beruvchilarning siylovi (skidka) tariqasida va asosiy vositalarni tugatishda ularning ilgari qayta baholashlardagi qiymatining kamayishi summasidan ortgan qismi hisobiga olingen boshqa daromadlar;

7) to'liq amortizatsiya qilingan asosiy vositalarni realizatsiya qilishdan yoki tugatishdan olingen daromadlar.

*Shuningdek yalpi tushum:*

- transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq to'lovchilar - yuridik shaxslar uchun - transport

vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasiga;

– lotereya o'yinlarini tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasida yuridik shaxslar uchun - yutuq (mukofot) fondining so'mmasiga, biroq tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlarning (mukofotlarning) umumiy summasidan ortiq bo'limgan miqdoriga;

– brokerlik tashkilotlari uchun-bitim summasidan birjaga o'tkaziladigan vositachilik yig'imi summasiga;

– vositachilik, topshiriq shartnomasi bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun - realizatsiya qilingan tovar ulushida tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovlar summasiga kamaytiriladi.

Hisoblab chiqarilgan *soliq solinadigan baza quyidagilarga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga kamaytiriladi*:

– yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 25 foiziga. Soliq solinadigan bazani kamaytirish texnologik asbob-uskunalarni foydalanishga joriy etilgan soliq davridan boshlab besh yil mobaynida amalga oshiriladi;

– yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo'yicha badallar to'lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 10 foiziga.

### Soliq imtiyozlari va stavkalari.

Yagona soliq to'lovi stavkalari quyidagicha tabaqlashtirilgan:

34-jadval

Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun (savdo va umumiy

ovqatlanish korxonalaridan tashqari) yagona soliq to'lovi

#### STAVKALARI<sup>47</sup>

N	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari, 2-9-bandlarda ko'rsatib o'tilganlardan tashqari	6*
2.	Canoat sohasidagi korxonalar	5
3.	Ommaviy axborot vositalari tahririyatlari, nashriyotlar, matbaa tashkilotlari, teleradioeshittirish kompaniyalari	5
4.	Kompyuter dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi umumiy hajmining	5

<sup>47</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

<i>N</i>	<i>To'lovchilar</i>	<i>Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da</i>
	kamida 80 foizini tashkil etadigan korxonalar	
5.	Bojxona rasmiylashtiruvni bo'yicha xizmatlarni ko'rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlar)	6
6.	Lombardlar	30
7.	Gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar	30
8.	Tayyorlov tashkilotlari, brokerlik idoralar (8-bandda ko'rsatilganlardan tashqari), shuningdek vositachilik, topshiriq va boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar	33**
9.	Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar	13**
10.	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun turg'un savdo shoxobchalarini ijara berishga ixtisoslashgan korxonalar (ijara berishdan olingan daromadlar 60%dan ko'pni tashkil etadi)	30
11.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'i nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan korxonalar uchun (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrdagi PF-1871-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatda keltirilgan xom ashyo tovarlari bundan mustasno):	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30%ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan ko'p	belgilangan stavka 50%ga pasaytiriladi
12.	Xizmatlar ko'rsatish sohasi korxonalari uchun plastik kartalar qo'llanib haq to'langan holda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	belgilangan stavka 5%ga pasaytiriladi

\* ) Mol-mulkini moliyaviy ijara (lizing)ga beradigan korxonalar uchun - moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

\*\*) Haq summasiga (yalpi daromadga) nisbatan foizlarda.

**Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovingning  
STAVKALARI<sup>48</sup>**

N	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
	Umumiy ovqatlanish korxonalari ulardan:	10
1.	umumiy ta'lif mabablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari	8
2.	Chakana savdo korxonalari (5-bandda ko'rsatilganlardan tashqari): <ul style="list-style-type: none"> <li>- aholisasi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda</li> <li>- boshqa aholi punktlarida</li> <li>- borish qiyin bo'lgan va tog'lik tumanlarda</li> </ul>	4 2 1
3.	Ulgurji savdo korxonalari (5-bandda ko'rsatilganlardan tashqari)*	5
4.	Chakana va ulgurji tovar oboroti bo'yicha «Sharobsavdo» ixtisoslashgan hududiy bazalari	5
5.	Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari: <ul style="list-style-type: none"> <li>- aholisasi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda</li> <li>- boshqa aholi punktlarida</li> <li>- borish qiyin bo'lgan va tog'lik tumanlarda</li> </ul>	3 2 1
6.	1-5-bandlarda ko'rsatilgan korxonalar uchun (ulgurji dorixona tashkilotlaridan tashqari), plastik kartalar qo'llanib haq to'lab sotilgan tovarlar (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmi bo'yicha	belgilangan stavka 5%ga pasaytiriladi

\*) Agar chakana savdo korxonalari mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydigan va turli aholi punktlarida joylashgan bir nechta savdo nuqtalariga ega bo'lsa, ular bo'yicha yagona soliq to'lovingning turli stavkalari belgilangan taqdirda, ular har bir savdo nuqtasi bo'yicha tovar aylanmasining alohida hisobini yuritishlari hamda mazkur aholi punktlari uchun belgilangan stavkalari bo'yicha yagona soliq to'lovinini to'lashlari lozim.

<sup>48</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-sonli qarori.

**Ayrim turdag'i korxonalar uchun vagona soliq to'lovi  
STAVKALARI<sup>49</sup>**

N	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan %da
1.	Lotereyalar tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar (mazkur faoliyat turi doirasida)	33

*Quyidagi mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashdan to'liq ozod etiladi:*

– nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi va «O'zbekiston chernobilchilari» uyushmasining mulki bo'lgan, ishlovchilar umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan korxonalar (savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalardan tashqari).

*Yagona soliq to'lovini to'lovchilar hisoblangan mikrofirmalar va kichik korxonalarga quyidagi preferentsiyalar nazarda tutiladi:*

1) ilgari kichik biznes sub'yektlariga yagona soliq bo'yicha berilgan imtiyozlardan foydalanish huquqi. Bu uni to'lashdan to'liq ozod qilishga nisbatan ham, soliq stavkasini pasaytirishga nisbatan ham belgilanadi;

2) yagona soliq to'lovini to'lash muddatini bir yilga kechiktirish, kechiktirilgan summani imtiyozli davr tugagandan keyin teng ulushlarda 12 oy davomida to'lash huquqi (xodimlarning sonidan qat'i nazar savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar bundan mustasno).

Ushbu qoida faqat yangi tashkil etilayotgan (2005 yilning 1 iyulida va undan keyin ro'yxatdan o'tkazilgan) mikrofirmalar va kichik korxonalarga tatbiq etiladi;

3) qonun hujjalariга muvofiq ijara olingan yer maydonlari uchun budgetga ijara haqini to'lamaslik huquqi;

4) yangi texnologik asbob-uskunalar olishga, lekin soliq solinadigan bazaning ko'pi bilan 25 foiziga kamaytirish huquqi. Soliq solinadigan bazani kamaytirish texnologik asbob-uskunalarini foydalanishga joriy etilgan soliq davridan boshlab besh yil mobaynida amalga oshiriladi;

5) yosh oilalar jumlasidan bo'lgan xodimlarga ipoteka kreditlari bo'yicha badallar to'lashga va (yoki) mulk qilib uy-joy olishga tekin

<sup>49</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

yo‘naltırılgan mablag‘lar summasiga, lekin soliq solinadigan bazaning ko‘pi bilan 10 foiziga kamaytirish huquqi berilgan.

**Soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va uni to‘lash tartibi.**

Yagona soliq to‘lovini yuridik shaxslar mustaqil ravishda belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqib quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$YaST_s = SYaT \times S_s,$$

bunda:

$YaST_s$  - YaSTning hisob-kitob summasi;

$SYaT$  - YaST bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar qo‘llanilmagan holdagi hisobot oyi (chorak) uchun soliq solinadigan yalpi tushum;

$S_s$  - YaSTning belgilangan stavkasi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrdagi 1245-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq 2010 yil 1 yanvardan ulgurji savdo korxonalari uchun har bir o‘tkazilgan savdo operasiyasidan tushadigan tushum summasining 5 foizi miqdorida yagona soliq to‘lovi bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini to‘lash kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 apreldagi 1326-sonli «Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq 2010 yilning 1 iyulidan boshlab chakana savdo korxonalari, xizmat ko‘rsatish sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to‘lovini qonun hujjatlariga muvofiq, lekin miqdori yuqorida sanab o‘tilgan toifadagi to‘lovchilar uchun yagona soliq to‘loving bazaviy miqdori sifatida aniqlanadigan, aynan shunday faoliyat turini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan qat’iy belgilangan soliq miqdoridan kam bo‘lmagan miqdorda to‘laydilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrdagi 1449-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq 2011 yil 1 iyuldan boshlab chakana savdo korxonalari, xizmat ko‘rsatish sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari, boshqa korxonalar yagona soliq to‘lovi summasini belgilangan stavkalar bo‘yicha, biroq yer solig‘ining 3 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda to‘laydilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrdagi 1887-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy

makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq 2013 yilning 1 yanvaridan boshlab yagona soliq to'lovini to'lovchi barcha shaxslar uchun (chakana savdo korxonalari bundan mustasno) yagona soliq to'lovining eng kam miqdorini hisoblash uchun yagona baza - ular egallab turgan yer uchastkasi maydonidan kelib chiqqan holda hisoblanadigan yer solig'ining uch karra miqdoridagi summasi belgilandi. Bunda chakana savdo korxonalari uchun aynan shu turdag'i faoliyatni amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan belgilab qo'yilgan soliq summasidan kelib chiqqan holda yagona soliq to'lovining eng kam miqdorini hisoblash tartibi saqlab qolindi.

YaSTning eng kam miqdori kiritilishini hisobga olgan holda YaSTning to'lanishi lozim bo'lgan summasini aniqlash uchun to'lovchilar quyidagilarni hisoblab chiqaradilar:

- YaSTning eng kam miqdorini;
- YaSTning hisob-kitob summasini;
- YaSTning qo'shimcha hisoblangan summasini.
- YaSTning eng kam miqdori har chorakda hisoblab chiqariladi.

YaSTning eng kam miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$EKM_{yast} = 3 \times S \times K_1 \times K_2,$$

**bu yerda:**

$EKM_{yast}$  - YaSTning eng kam miqdori;

$S$  - yer solig'i. Yer solig'ini hisoblab chiqarishda mazkur joy va yer toifasi uchun belgilangan eng kam stavkalar qo'llaniladi.

Misol uchun, Toshkent shahrida - 1-zona uchun, Samarqand shahrida - 4-zona uchun, Xiva shahrida esa 3-zona uchun belgilangan yer solig'i stavkalari qo'llaniladi.

Yer solig'i bir chorak hisobida hisoblab chiqariladi ((yer uchastkasi (ijaraga olingan xona) maydoni x belgilangan stavka) / 4):

$K_1$  - amalga oshirilayotgan faoliyat turidan kelib chiqib qo'llaniladigan pasaytiruvchi koefitsient;

$K_2$  - yuridik shaxsning joylashgan joyidan kelib chiqib pasaytiruvchi koefitsient.

YaSTning hisob-kitob summasi YaSTning eng kam miqdori summasidan kam bo'lган holdagina YaST qo'shimcha hisoblanadi. Bu holda YaSTning eng kam miqdori summasining YaST hisob-kitob summasidan ortgan qismiga YaST hisob-kitobi bo'yicha hisoblangan YaST summasi qo'shimcha hisoblanadi.

Agar YaST hisob-kitob summasi YaSTning eng kam miqdoridan oshsa yoki unga teng bo'lsa, unda YaST qo'shimcha hisoblanmaydi va

YaST O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan tartibda to'lanishi lozim, ya'ni YaST hisob-kitobi bo'yicha hisoblangan summa to'lanadi.

Agar korxona turli shakldagi o'yinlarni (tirajli lotereyalar, lahzali lotereyalar, raqamli lotereyalar, totalizatorlar va hokazo) o'tkazsa, unda u soliq solish bazasini aniqlash maqsadida alohida hisob yuritishi shart.

Yagona soliq to'lovi soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar uchun yagona soliq to'lovi summasi budgetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, lekin yagona soliq to'lovi summasining 50 foizidan ko'p bo'limgan miqdorga kamaytiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga kalendar yil boshidan e'tiboran o'tmagan to'lovchilar yagona soliq to'lovi summasini qo'shilgan qiymat solig'i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to'g'ri keladigan summaga kamaytiradi.

*Yagona soliq to'lovining hisob-kitobi* soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

#### *Yagona soliq to'lovi quyidagicha to'lanadi:*

– mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;

– mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan - har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa - yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 4354-sonli farmoniga asosan 2011 yilning 1 oktyabridan boshlab kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari soliqlar, bojxona bojlari va yig'imlari, shuningdek, boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini buzganlik uchun penya miqdori kechiktirilgan har bir kun uchun penyan hisoblash tartibi saqlangan holda, amaldagi miqdoriga nisbatan uchdan bir qismga kamaytirgan holda to'laydigan bo'lishdi.

#### *Nazorat savollari*

1. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini soliq amaliyotiga tatbiq etishning zarurligi nimada?

2. Soliq amaliyotida ilk bor qachon soddalashtirilgan soliq rejimi qaysi me'yoriy hujjat asosida joriy qilingan?
3. Yagona soliq to'lovi qachon joriy etildi?
4. Yagona soliq to'lovini to'lovchilar kimlar?
5. Yagona soliq to'lovi budgetga qaysi muddatlarda to'lanadi?

## 4.2. YAGONA YER SOLIG'I

**Yagona yer solig'ining joriy etilishi va ahamiyati.**

O'zbekistonda 1999 yilda qishloq xo'jalik korxonalariga soliq solishda tub o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktabrdagi «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida»gi 2086-sonli Farmoniga muvofiq 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i joriy etildi.

O'zbekistonda yagona yer solig'ini joriy qilishdan ko'zlangan maqsad qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish samaradoriligidini oshirish, qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari mehnatining pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish hamda qishloq xo'jalik korxonalariga soliq solish tizimini soddalashtirishdan iboratdir.

Ushbu soliqning amaliyotga joriy etilishi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni o'z tasarrufidagi yerdan yanada oqilona foydalanishga da'vat etadi, chunki har bir gektar yer maydoni uchun undan daromad olish yoki daromad olmaslik holatidan qat'i nazar belgilangan miqdordagi soliq summasini to'lash lozim bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, soliq solishning ushbu tizimi xo'jaliklar hisobchilarining soliqlarni hisoblash va to'lash borasidagi ishlarini keskin kamaytirdi hamda ularga qulayliklar yaratdi.

**Yagona yer solig'i to'lovchilari, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza.**

Amaldagi soliq qonunchiligiga ko'ra qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchi korxonalar hamda qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiytadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'llim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari *yagona yer solig'ining to'lovchilari* bo'lib hisoblanishadi.

O'rmon va ovchilik xo'jaliklari hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yagona yer solig'ini to'lovchilar hisoblanmaydi.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o‘zлari ishlab chiqargan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo‘yicha mazkur faoliyat turidan yagona yer solig‘ini to‘laydilar va ular boshqa soliq solish tizimini tanlash huquqiga ega emaslar.

Agar yagona yer solig‘ini to‘lovchi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o‘zлari ishlab chiqargan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullansalar, ular alohida hisob yuritishlari va boshqa faoliyat turlari bo‘yicha shu toifadagi to‘lovchilar uchun amaldagi qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan soliqlarni to‘lashga majburdirlar. Bunda, agar qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirsa, faoliyatning boshqa turlari bo‘yicha (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari bundan mustasno) ular faoliyatning mazkur turi uchun nazarda tutilgan yagona soliq to‘lovi yoki umumbelgilangan tartibda soliqlar to‘laydilar.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan yerlar ijaraga berilganda ijaraga beruvchida ijaraga berilgan yerlar bo‘yicha yagona yer solig‘ini to‘lash majburiyati saqlanib qoladi.

Qishloq xo‘jaligini yuritish uchun egalik qilish, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkasi maydoni *yagona yer solig‘i solish ob‘yekti* hisoblanadi.

Soliq solinadigan yer uchastkalarining normativ qiymati *soliq solinadigan baza* hisoblanadi. Soliq solinadigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlari, yer uchastkalarining joylashishi, tuproq boniteti va yer mulkining boshqa tavsiflari yer kadastr ma‘lumotlari bo‘yicha qabul qilinadi.

#### ***Yagona yer solig‘i imtiyozlari va stavkasi.***

#### ***Yagona yer solig‘ini to‘lashdan quyidagilar ozod qilinadi:***

- yangi tashkil etilgan qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan boshlab ikki yil muddatga. Mazkur imtiyoz tugatilgan fermer xo‘jaliklari bazasida tashkil etilgan fermer xo‘jaliklariga tatbiq etilmaydi;
- ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub‘yektlari - yuridik shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e’tiboran;
- yuridik shaxslar, yer uchastkasining qaysi qismida tomchilatib sug‘orishdan foydalanilayotgan bo‘lsa, o‘sha qismida tomchilatib sug‘orish tizimi joriy qilingan oydan boshlab besh yil muddatga.

#### ***Soliq qonunchiligiga ko‘ra soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagi yerlar kiradi:***

- a) qishloq aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari;

- b) ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;
- v) sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalari, suv havzalari, sportning texnik turlari ob'yektlari va boshqa jismoniy tarbiyasog'lomlashtirish komplekslari onalar va bolalarning dam olish va sog'lomlashtirish joylari, sanatoriy-kurort muassasalari va dam olish uylari, o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;
- g) yangi o'zlashtirilayotgan yerlar va meliorativ holatini yaxshilash ishlari olib borilayotgan sug'oriladigan yerlar-loyihada nazarda tutilgan muddatga, lekin ishlar boshlanganidan e'tiboran ko'pi bilan besh yilga. Agar loyihada yerlarni o'zlashtirish va meliorativ ishlarni amalga oshirish muddatlari ko'rsatilmagan yoki yer uchastkasi boshqa muddatlarda topshirilgan bo'lsa, yer uchastkasi uchun soliq meliorativ ishlar va yangi yerlarni o'zlashtirish ishlari bajarilgan yillar uchun to'lanmaydi, lekin u 5 yildan oshmasligi kerak;
- d) ta'lim, madaniyat va sog'liqni saqlash ob'yektlari band etgan yerlar;
- e) yangi tut ko'chatlari ekilgan yerlar, qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanimishidan qat'i nazar, uch yil muddatga. Shu munosabat bilan bahorda ekilgan tut ko'chatlari ekilgan yilni hisoblaganda uch yilga soliq to'lashdan ozod etiladi, kuzda ekilgan ko'chatlar esa ularni ekishdan keyingi yildan boshlab uch yilga soliq to'lashdan ozod etiladi;
- j) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiytadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalanimadigan yerlari;
- z) yangi barpo etilgan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar, shu jumladan fermer xo'jaliklari, davlat ro'yxatiga olingan paytdan boshlab ikki yil muddatga;
- k) O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq soliq solinmaydigan boshqa yerlar.
- Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga soliqdan imtiyoz belgilanganda ular soliqni ushbu huquq paydo bo'lgan oydan boshlab to'lashni to'xtatadilar. Soliq imtiyozlari bekor qilingan taqdirda ular yer solig'ini ushbu huquq bekor qilingan oydan keyingi oydan boshlab to'lashni boshlaydilar.
- Yagona yer solig'i stavkalar 2008 yilda 2,8 foizni, 2009 yilda 3,5 foizni va 2010 yilda 5 foizni tashkil etgan.
- Yagona yer solig'i stavkasi quyidagicha:*

**Yagona yer solig'i  
STAVKALARI<sup>50</sup>**

To'lovchilar	Normativ qiyamatga nisbatan stavka, %da*
Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari	6

\*) Bunda jamoat imorailari va hovlilari bilan band bo'lgan yerlar 2,0 koefitsientini qo'llagan holda baholanadi.

Izoh.

1. Har bir xo'jalik bo'yicha qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiyamati O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo'mitasi tomonidan aniqlanadi.

2. Belgilangan mezonlarga muvofiq yagona yer solig'i to'lovchilariga kiritiladigan baligchilik xo'jaliklari tuman bo'yicha o'rtacha sug'oriladigan yerlar normativ qiyamidan kelib chiqib, yagona yer solig'ini to'laydilar.

Soliqni hisob chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi.

*Yerlarning har bir turi bo'yicha yagona yer solig'i summasi quyidagi ifoda bo'yicha belgilanadi:*

$$Y_a Y_s = Y_{nq} \times S_s,$$

bu yerda:

$Y_a Y_s$  – yagona yer solig'i summasi;

$Y_{nq}$  – yer uchastkasining normativ qiyamati;

$S_s$  – yagona yer solig'i stavkasi.

Soliq to'lovchilar yagona yer solig'i summasini belgilangan shakl bo'yicha soliq solinadigan bazaga qarab yer uchastkalarining normativ qiyamati hamda yer uchastkalarining maydonidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqadilar.

*Yagona yer solig'ining hisob-kitobi* yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1 mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida berilgan yer uchastkalari uchun yagona yer solig'i yer uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab to'lanadi. Yer uchastkasi olib qo'yilgan taqdirda, yagona yer solig'ini to'lash yer uchastkasi olib qo'yilgan oydan boshlab to'xtatiladi.

Yer uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan) taqdirda, soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati

<sup>50</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

organlariga hisobot yilining 1 dekabrigacha yagona yer solig‘ining aniqik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari lozim bo‘ladi.

*Yagona yer solig‘ini budgetga to‘lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:*

- hisobot yilining 1 iyuligacha - yillik soliq summasining 20 foizi;
- hisobot yilining 1 sentabrigacha - yillik soliq summasining 30 foizi;
- hisobot yilining 1 dekabrigacha - soliqning qolgan summasi.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari buxgalteriya hisobida yagona yer solig‘i bo‘yicha budget bilan hisob-kitobni budgetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarни hisobga olish hisobvarag‘ida yuritadilar.

### *Nazorat savollari*

1. Yagona yer solig‘i to‘lovi qachon joriy etildi?
2. Yagona yer solig‘i to‘lovini to‘lovchilar kimlar?
3. Yagona yer solig‘i to‘lovi budgetga qaysi muddatlarda to‘lanadi?
4. Yagona yer solig‘ining ob‘yekti va soliq solinadigan baza qanday aniqlanadi?
5. Yagona yer solig‘ining stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqaqlashtiriladi?
6. Yagona yer solig‘ini to‘lashdan kimlar ozod etiladi?

## **4.3. QAT’IY BELGILANGAN SOLIQ**

**Qat’iy belgilangan soliqning joriy etilishi va soliq to‘lovchilari.**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 31 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 1999 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat budgeti parametrlari to‘g‘risida»gi 541-sonli Qaroriga muvofiq 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan soliq joriy etildi.

**Qat’iy belgilangan soliqni to‘lovchilar quyidagilardir:**

- faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko‘rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar, bundan yuqorida ko‘rsatilgan tadbirkorlar mustasno.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik shaklida faoliyatni amalga oshirishda oilaviy tadbirkorlik subyekti nomidan ish ko‘radigan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o’tgan oila a’zosigina qatiy belgilangan soliqni to‘lovchi bo‘ladi.

**Yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq.**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 26 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2001 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budgeti parametrlari to'g'risida»gi 500-sonli Qaroriga muvofiq 2001 yilning 1 yanvaridan boshlab yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq joriy etildi.

Qat'iy belgilangan soliq solinadigan faoliyat turlarining ro'yxati, shuningdek faoliyatning mazkur turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Faoliyatning ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar faoliyatning qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan qismiga doir soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqiga ega emas.

Qat'iy belgilangan soliq to'lash tatbiq etiladigan faoliyat bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faoliyatning mazkur turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari va umumbelgilangan yoki ushbu bo'limda belgilangan soliqlarni to'lashlari shart.

Asosiy faoliyat turi bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar uchun Soliq kodeksida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, dividendlar va foizlar, birqalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar, shuningdek ijaraдан olingan daromadlar bundan mustasno.

Mol-mulkni ijara berishdan olingan daromadlarga ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda umumbelgilangan soliqlarni yoki yagona soliq to'lovi joriy etiladi.

Qat'iy belgilangan soliq belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkich *soliq solinadigan ob'yektdir*.

*Soliq solinadigan baza* fizik ko'rsatkichlarning sonidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari quyidagicha o'matilgan:

**Yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatining ayrim  
turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq  
STAVKALARI<sup>51</sup>**

№	<b>Faoliyat turi</b>	<b>Soliq to'lov- chilar</b>	<b>Mazkur faoliyat turini xarakter- lovchi fizik ko'rsatkichlar</b>	<b>Fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy belgilangan soliq stavkasi (eng kam ish haqiga birlik uchun karrali miqdordorda)</b>		
				<b>Toshkent shahri</b>	<b>viloyat- lardagi shaharlar</b>	<b>tumanlar, shu jumladan qishloq joylar</b>
1	Avtotransportni qisqa muddat saqlash joylari	Yuridik shaxslar	Egallagan maydon (1 kv. m)	0,1	0,06	0,04
2	Bolalar o'yin avtomatlari	Yuridik va jismoniy shaxslar	Jihozlangan o'rinalar soni (bir birlikda)	3,0	2,0	1,0

**Izohlar:**

1. Qat'iy belgilangan soliq stavkasi yil boshiga - 2014 yil 1 yanvarga belgilangan eng kam ish haqi (96105 so'm) miqdoridan kelib chiqib belgilanadi va eng kam ish haqi miqdorining yil davomidagi o'zgarishiga qarab qayta ko'rib chiqilmaydi.

2. Taqdim etilgan qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobida hisobga olinmagan fizik ko'rsatkichlar aniqlangan taqdirda bunday holatlarga soliqlarni to'lashdan bo'yin tov lash sifatida qaraladi.

Yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq **summasi quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:**

$$S_q = F_k \times S_s \times EKIH,$$

bu yerda:

$S_q$  – qat'iy belgilangan soliq summasi;

$F_k$  – faoliyat turini xarakterlovchi fizik ko'rsatkich: jihozlangan o'rinalar soni (bir birlikda), egallagan maydon (1kv.m.);

$S_s$  – fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy belgilangan soliq stavkasi;

EKIH – yil boshidagi eng kam ish haqi miqdori.

<sup>51</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

Qat'iy belgilangan soliq summasi soliq to‘lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, soliq solinadigan baza va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Qat'iy belgilangan **soliq hisob-kitobi** soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

- yangi tashkil qilinayotgan (boshlovchi) soliq to‘lovchilar tomonidan - davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay;

- faoliyat yuritayotgan soliq to‘lovchilar tomonidan - hisobot yilining 15 yanvarigacha taqdim etiladi.

Soliq solish ob‘ekti o‘zgargan taqdirda, soliq to‘lovchilar aniqlik kiritilgan hisob-kitobni navbatdagi to‘lovnii to‘lash muddatidan kechiktirmay taqdim etishlari shart.

*Qat'iy belgilangan soliqni to‘lash:*

- yuridik shaxsler tomonidan - har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay har oyda, soliq to‘lovchi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo‘yicha to‘lanadi.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish doirasida qat'iy belgilangan soliq to‘lash bilan bir qatorda boshqa to‘lovlarni ham to‘laydilar.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq solinadigan mol-mulkka va (yoki) yer uchastkasiga ega bo‘lsalar, Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni va (yoki) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lash majburiyati ularning zimmasida saqlanib qoladi.

Agar yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini muayyan muddatga to‘xtatsa, u o‘z faoliyatini to‘xtatguniga qadar tadbirkorlik sub‘ektini ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga faoliyatni vaqtinchalik to‘xtatish to‘g‘risida ariza berish bilan bir vaqtida davlat ro‘yxatidan o‘tganligi to‘g‘risidagi guvohnomani topshiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorning faoliyati vaqtincha to‘xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to‘g‘risidagi arizani olgan tadbirkorlik sub‘ektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organ kelgusi ish kuni

tugaguniga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yakka tartibdagи tadbirkorning faoliyati vaqtincha to'xtatilganligi yoki qayta tiklanganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda axborot taqdim etadi.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalarining aniq miqdorlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlар va Toshkent shahar hokimliklari tadbirkorlik faoliyatining turi va faoliyat joyiga (viloyatlardagi shaharlar, tumanlar, shu jumladan qishloq joylarga) bog'liq ravishda belgilaydi.

*Yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'laydigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari quyidagicha:*

39-jadval

**Yakka tartibdagи tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq STAVKALARI<sup>52</sup>**

№	<i>Faoliyat turi</i>	<i>Qat'iy belgilangan soliqning bir oydagи stavkasi (eng kam ish haqiga karrati miqdorlarda)</i>		
		<i>Toshkent sh.</i>	<i>Nukus sh. va viloyat bo'yusunuviga dagi shaharlar</i>	<i>boshqa aholi punktlari</i>
1.	Chakana savdo:			
	- oziq-ovqat tovarlari bilan	9,0	6,0	3,0
	-dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan*	5,0	4,0	2,0
	- nooziq-ovqat tovarlari bilan	10,0	6,5	3,0
	- gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari	5,0	3,0	2,0
	- oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan (turg'un shoxobchalardagi aralash savdo)	10,0	6,5	3,0
2.	Maishiy xizmatlar, 3-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari	3,5	1,5	0,5
3.	Sartaroshlik xizmatlari ko'rsatish, manikur, pedikur, kosmetolog xizmatlari va boshqa shunga o'xshash xizmatlar	4,0	2,0	1,0

<sup>52</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-soni qarori.

№	<b>Faoliyat turi</b>	<b>Qat'iy belgilangan soliqning bir oydag'i stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)</b>		
		<i>Toshkent sh.</i>	<i>Nukus sh. va viloyat bo'y sunuvi dagi shaharlar</i>	<i>boshqa aholi punktlari</i>
4.	O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan milliy shirinliklar va non-bulka mahsulotlari tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitlarida yoki davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o'tirish joylari tashkil qilmasdan donalab sotiladigan ovqatlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish	2,0	1,5	1,0
5.	Boshqa faoliyat turlari, mol-mulkni ijara qilingan tashqari	2,0	1,5	1,0
6.	Avtomobil transportida yuk tashishga doir xizmatlar: 3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobilari uchun		2,0	
	8 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobilari uchun		3,0	
	8 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobilari uchun		4,0	

\*) Uy xo'jaligi, shu jumladan, dehqon xo'jaligida parvarishlangan tirik hayvonlarni (chorva mollari, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliglar va boshqalar) hamda ularni so'yib, xom yoki qayta ishlangan ko'rinishdagi mahsulotlarni, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiti va qayta ishlangan ko'rinishda (manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlaridan tashqari) sotish bundan mustasno.

Soliq solishdan ozod etish soliq to'lovchi tomonidan davlat hokimiyatining joylardagi tegishli organi, fugarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, bog'dorchilik, uzumchilik yoki politzchilik shirkati boshqaruvi tomonidan berilgan, sotilgan mahsulot soliq to'lovchi tomonidan unga yoxud uning oila a'zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etish sharti bilan amalga oshiriladi.

#### Izohlar:

1. Qat'iy belgilangan soliq stavkalari yil boshiga - 2014 yil 1 yanvariga belgilangan eng kam ish haqidan (96105 so'm) kelib chiqib aniqlanadi va eng kam ish haqi miqdori yil davomida o'zgarganda qayta ko'rib chiqilmaydi.

#### 2. Jismoniy shaxs:

a) bir nechta faoliyat turi bilan shug'ullansa, har bir faoliyat turi uchun alohida-alohida soliq to'laydi;

b) tadbirkorlik faoliyatini ijara olingen uskunalar va binoda amalga oshirsa, yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga ijara beruvchi to'g'risida ma'lumotnomasi (axborot) taqdim etishi kerak;

v) davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan joyda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirsa, soliqni ro'yxatdan o'tkazilgan joyda va faoliyatni haqiqatda amalga oshirayotgan joyda belgilangan stavkalar orasida eng yuqori stavka bo'yicha ro'yxatidan o'tkazilgan joy bo'yicha to'laydi.

3. Jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmasdan faoliyat turlari amalga oshirilganligi holatlari aniqlangan taqdirda, davlat soliq xizmati organlari belgilangan stavkadan kelib chiqgan holda yillik hajmda tegishli faoliyat turi bo'yicha bir yo'la qat'iy belgilangan soliqni undiradilar, jismoniy shaxsning davlat ro'yxatidan o'tmasdan faoliyat ko'rsatayotganligi dalili aniqlangan sanadan boshlab o'itiz kun mobaynida uning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'ganligi holatlari bundan mustasno. Bunday jismoniy shaxsiga hisoblab yozilgan yillik qat'iy belgilangan soliq summasini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda ushbu davr uchun qat'iy belgilangan soliq bo'yicha kelgusidagi soliq majburiyatlari o'rniqa o'n ikki oy mobaynida to'lash huquqi taqdim etiladi.

4. Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijara berishdan olgan daromadlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qaroriga 8-ilovada ko'rsatilgan soliq solish shkalasining eng kam stavkasi bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadi.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq summasi quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$S_q = S_s \times EKIH,$$

bu yerda:

$S_q$  – qat'iy belgilangan soliq summasi;

$S_s$  – qat'iy belgilangan soliqning bir oydagi stavkasi;

EKIH – yil boshidagi eng kam ish haqi miqdori.

Soliq to'lovchining kalendar oyida ishlagan kunlari sonidan qat'i nazar, qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turi va soliq to'lovchining faoliyatni amalga oshirish joyiga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullanuvchi soliq to'lovchilar qat'iy belgilangan soliqni faoliyatning har bir turi uchun mazkur turdag'i faoliyatga nisbatan belgilangan stavkalar bo'yicha alohida-alohida to'laydilar.

Qat'iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

*Yakka tartibdagi tadbirkor faoliyati to'g'risidagi hisobotlar* soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga:

– savdo faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, bundan tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlar olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar mustasno, - yilning har bir choragi

yakunlari bo'yicha hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay;

– tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib kiradigan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - har oyning yakunlari bo'yicha hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

*Qat'iy belgilangan* soliq tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan oyning 25-kunidan kechiktirmay har oyda, soliq to'lovchi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi. Agar faoliyat amalga oshirilgan joy uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joy uchun belgilangan stavkalardan farq qilsa, qat'iy belgilangan soliq eng yuqori stavka bo'yicha to'lanadi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan endi shug'ullana boshlagan jismoniy shaxslar qat'iy belgilangan stavkalar bo'yicha daromad solig'ini belgilangan tartibda, ro'yxatga olish paytida mustaqil to'laydilar. Qat'iy belgilangan soliq faoliyat boshlangan kundan qat'i nazar bir oy uchun to'lanadi. Misol uchun, oyning boshida emas, balki ikkinchi yarmida boshlasa ham, to'liq oy uchun to'lanadi.

#### *Nazorat savollari*

1. Qat'iy belgilangan soliq qachon joriy etildi?
2. Qat'iy belgilangan soliq to'lovchilar kimlar?
3. Qat'iy belgilangan soliq budgetga qaysi muddatlarda to'lanadi?
4. Qat'iy belgilangan soliq stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqaqlashtiriladi?
5. Qat'iy belgilangan soliq miqdorini budgetga to'lash davri qanday?

## SOLIQQA OID TUSHUNCHALAR

*Asosiy ish joyi* - ish beruvchi mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xodimning mehnat daftarchasini yuritishi shart bo‘lgan ish joyi;

*Asosiy faoliyat turi* - yuridik shaxsning hisobot davri yakunlari bo‘yicha umumiy realizatsiya qilish hajmidagi sof tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati;

*Birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulot* - birgalikdagi faoliyat natijasi bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

*Budgetdan ajratiladigan subsidiya* - davlat tomonidan muayyan maqsadlar uchun budget hisobidan beriladigan pul mablag‘lari; soliq to‘lovchiga muayyan maqsadlarga yo‘naltirish sharti bilan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha berilgan imtiyozlar hisobiga bo‘shaydigan mablag‘lar;

*Grant* - davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan ro‘yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beg‘araz asosda beriladigan mol-mulk, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg‘araz asosda beriladigan mol-mulk;

*Dividendlar* - aksiyalar bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o‘rtasida (ishtirokchilari, a’zolari o‘rtasida ularning ulushlari, paylari, hissalari bo‘yicha) taqsimlanadigan sof foydaning va (yoki) o‘tgan yillardagi taqsimlanishiga foydaning bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda mol-mulkni taqsimlashdan olingan, shuningdek muassis (ishtirokchi, a’zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis (ishtirokchi, a’zo) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati chegiriladi, taqsimlanmagan foya ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish uchun yo‘naltirilgan taqdirda, yuridik shaxs aksiyadorining, muassisining (ishtirokchisining, a’zosining) qo‘sishma aksiyalar qiymati, aksiyalar nominal qiymatining oshishi, ulush (pay, hissa) qiymatining oshishi tarzida olingan daromadlari;

*Ijara (lizing) to‘lovi* - ijarachi (lizing oluvchi) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to‘laydig‘an summa;

*Ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) soizli daromadi* - buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan

ijara (lizing) to'lovi summasi bilan ijara (lizing) ob'yektining qiymatini qoplash summasi o'rtasidagi farq ko'rinishidagi ijara (lizing) to'lovining bir qismi;

**Insonparvarlik yordami** - aholining ijtimoiy jihatdan nochor guruhlariga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy soha muassasalarini qo'llab-quvvatlash, tabiiy ofatlar, falokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun aniq maqsadli beg'araz ko'maklashish. Insonparvarlik yordami dori vositalari va tibbiy ahamiyatga molik buyumlar, xalq iste'moli tovarlari, boshqa tovarlar, shu jumladan asbob-uskunalar, transport va texnika, shuningdek ixtiyoriy ravighdagi xayr-ehsonlar, bajarilgan ishlarni bajarish, kuzatib borish va saqlash tariqasida beriladi hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan vakolatli tashkilotlar orqali taqsimlanadi;

**Ishlarni (xizmatlarni) eksport qilish** - ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) joyidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan chet davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish;

**Kredit tashkilotlari** - tegishli litsenziyaga ega bo'lgan banklar, kredit uyushmalari, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari;

**Kurs bo'yicha farq** - milliy valyutaga nisbatan chet el valyutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq;

**Mol-mulk** - egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish ob'yektlari bo'la oladigan moddiy ob'yektlar, shu jumladan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, ulushlar (paylar, hissalar) hamda nomoddiy ob'yektlar;

**Oila a'zolari** - er (xotin), ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar va bolalar, shu jumladan farzandlikka olinganlar;

**Operativ ijara** - moliyaviy ijara shartnomasi bo'lmagan mulkiy ijara (ijaraga berish) shartnomasi asosida mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berish;

**Realizatsiya qilish** - sotish, ayrboshlash, beg'araz berish maqsadida tovarlarni jo'natish (topshirish), ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, shuningdek garovga qo'yilgan tovarlarga bo'lgan mulk huquqini garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirish. Hisobvaraq-fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, tovarlar jo'natilganligini (topshirilganligini), ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi kvitansiyalar, cheklar va boshqa hujjatlar realizatsiya qilganlikni tasdiqlovchi hujjatlardir;

*Royalti* - quyidagilar uchun har qanday turdag'i to'lovlar:

– fan, adabiyot va san'at asarlariidan, shu jumladan elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturlar, audiovizual asarlardan hamda turdosh huquqlar ob'yektlaridan, jumladan ijrolar va fonogrammalardan foydalanganlik yoxud ulardan foydalananish huquqini bergenlik uchun;

– sanoat mulki ob'yektiga, tovar belgisiga (xizmat ko'rsatish belgisiga), savdo markasiga, dizayn yoki modelga, rejaga, maxfiy formula yoki jarayonga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi patentdan (guvohnomadan) yoxud sanoat, tijorat yoki ilmiy tajribaga taalluqli axborotdan (nouxaudan) foydalanganlik uchun;

*Saylo faoliyat* - qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir faoliyat;

*Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi* - soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdag'i soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi;

*Soliq qarzi* - soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasi, shu jumladan Soliq kodeksida belgilangan muddatida to'lanmagan moliyaviy sanksiyalar;

*Sof tushum* - tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'ini hamda aksiz solig'i summalarini kiritmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum;

*Sof foyda* - soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda;

*Tannarx* - mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishda foydalilanligan moddiy resurslarning, asosiy fondlarning, mehnat resurslarining, shuningdek tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa turdag'i xarajatlarning qiymat bahosi. Tannarx buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi;

*Tovar oboroti* - muayyan davr ichida savdo faoliyatini amalga oshirish chog'ida tovarlarni sotishdan olingan (olinishi lozim bo'lgan), pulda ifodalangan mablag'lar;

*Tovarlarни (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum* - realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim bo'lgan) mablag'lar summasi, shu jumladan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati;

*Tovarlarni eksport qilish* - O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tovarlarni, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish;

*To'lov manbai* - soliq to'lovchiga to'lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

*Umidsiz qarz* - sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud da'vo qilish muddati o'tishi oqibatida uzish mumkin bo'Imagan qarz;

favqulodda holatlar - taraflarning xohish-irodasi va harakatlariga bog'liq bo'Imagan, tabiat hodisalari (zilzila, ko'chkilar, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), boshqa tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal holati, davlat manfaatlarini ko'zlab importni hamda eksportni taqilash va boshqalar) keltirib chiqargan muayyan sharoitlardagi favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar bo'lib, qabul qilingan majburiyatlar shular tufayli bajarila olmaydi;

*Foizlar* - har qanday turdag'i qarz talablaridan olingen daromad, shu jumladan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, shuningdek depozit qo'yilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingen daromad;

*Yutuq* - lotereyalar, o'yinlar, tanlovlar, musobaqalar (olimpiadalar), festivallar va shu kabi boshqa tadbirdorda olingen, natura holida yoki pulda ifodalangan to'lovlar, sovrinlar va boshqa daromadlar;

*Yaqin qarindoshlar* - er, xotin, ota-onas, bolalar, tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opa-singillar, bobolar, buvilar, nevaralar;

*O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestri* - soliq to'lovchilarga oid davlat ma'lumotlar bazasi tizimi;

*Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar* - buyurtmachiga tegishli xom ashyo va materiallar bo'lib, buyurtmachi ularni mahsulot ishlab chiqarish uchun boshqa shaxsga sanoat asosida qayta ishlashga beradi hamda tuzilgan shartnomaga muvofiq mahsulot keyinchalik buyurtmachiga qaytariladi;

*Yakka tartibdagi tadbirdorlik* - jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirdor) tomonidan tadbirdorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirishdir.

Yakka tartibdagi tadbirdorlik yakka tartibdagi tadbirdor tomonidan mustaqil, xodimlarni yollash huquqisiz, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi.

Hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirdorlar tovarlar tayyorlash (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun ko'pi bilan besh nafar shogirdni ularga tegishlicha haq to'lagan holda jalb etishga haqlidir.

Yakka tartibdagi tadbirkor o‘z nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadi, huquq va majburiyatlarni oлади hamda amalga oshiradi. Jismoniy shaxs o‘z tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bitimlar tuzayotganida, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida harakat qilayotganligini, agar bu bitimlarni tuzish vaziyatining o‘zidan aniq anglashilmasa, ko‘rsatishi kerak. Bunday eslatmaning mavjud emasligi yakka tartibdagi tadbirkorni o‘z majburiyatları bo‘yicha zimmasidagi javobgarlikdan ozod etmaydi.

Yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda shaxsiy ish hujjatlari blankalaridan, muhr, shtamplardan foydalanishga haqli, ularning matnlari mazkur shaxs yakka tartibdagi tadbirkor ekanligi haqida dalolat berishi lozim.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotinning umumiyligiga mol-mulkidan foydalanadigan hollarda, agar qonunda, nikoh shartnomasida yoxud er-xotin o‘rtasidagi o‘zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, arning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

## ILOVALAR

### Urush qatnashchilariga tenglashtiriladigan shaxslar RO'YXATI<sup>53</sup>

1941 yil 22 iyundan 1945 yil 9 maygacha Ikkinchiji jahon urushi (keyingi o'rinnlarda Ikkinchiji jahon urushi deb yuritiladi) va boshqa urushlar davrida harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda xizmatni o'tagan, shuningdek O'zbekiston Respublikasini himoya qilishda ishtirok etgan harbiy xizmatchilar «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 28-moddasi «ej» bandiga muvofiq pensiyalarga ustama pul olishga haqli bo'lgan urush qatnashchilari hisoblanadilar.

Quyidagilar urush qatnashchilariga tenglashtiriladilar:

- a) 1941 yilning 22 iyunidan 1954 yilning 31 dekabrigacha bo'lgan davrda qiruvchi batalonlar, vzzvodlar va xalqni himoya qiluvchi otryadlar tarkibida sobiq SSSR hududida jangovar harakatlarda ishtirok etgan shaxslar;
- b) Ikkinchiji jahon urushi va fuqarolar urushi davrida partizan otryadlari va qo'shilmalarida yoki yashirin ishlarda bo'lgan shaxslar;
- v) Ikkinchiji jahon urushi yillarda harakatdagi armiya tarkibida yoki harakatlar ketayotgan joylarda xizmatni o'tagan sobiq SSSRning Ichki ishlar vazirligi organlari va Davlat xavfsizligi qo'mitasi organlarining boshliqlar hamda oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar;
- g) Ikkinchiji jahon urushi davrida harakatdagi armiya va flotlar tarkibidagi qismlar hamda bo'linmalarda balog'at yoshiga yetgunga qadar polk o'g'llari va yungalar sifatida yurgan shaxslar;
- d) Ikkinchiji jahon urushi davrida temir yo'llarning front yaqinidagi uchastkalarida, mudofaa chizig'i inshootlarda ishlagan, harbiy-dengiz bazalari, aerodromlar hamda harbiy harakatlar ketayotgan joylarda boshqa harbiy ob'ektlar qurilishi ishlarda qatnashgan xodimlar;
- e) harakatdagi armiya tarkibida ishlagan yollanma xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar;
- j) Ikkinchiji jahon urushi davrida fashist kontslagerlari (getto va zo'rlik bilan ushlab turiladigan boshqa joylar)da bo'lgan (tutqunlar, shu jumladan, bolalar) shaxslar;
- z) Leningrad shahri qamali davrida shaharning korxonalarini, muassasalari va tashkilotlarda mehnat qilgan va «Leningrad mudofaasi uchun» medali hamda «Qamaldagi Leningrad fuqarosiga» nishoni bilan taqdirlangan shaxslar;
- i) 1956 yilning 24 oktyabridan 1956 yilning 10 noyabrigacha bo'lgan davrda Vengriya hududidagi jangovar harakatlar davrida harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda xizmatni o'tagan harbiy xizmatchilar;
- k) harbiy harakatlar ketayotgan mamlakatlarda o'z baynalmilal burchlarini ado etgan, tinchlik o'rnatuvchi kuchlar tarkibida ishtirok etgan harbiy xizmatchilar, ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmati organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar.

<sup>53</sup> 1941-1945 yillardagi urush ishtirokchilari va nogironlariga tenglashtirilgan shaxslar Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida nizomga (VMning 8.09.2011 yildagi 252-sodn qaroriga 1-ilova) 1 va 2-ilovalarda ko'rsatilgan.

## Urush nogironlariga tenglashtiriladigan shaxslar

### RO'YXATI<sup>54</sup>

1941 yil 22 iyundan 1945 yil 9 maygacha Ikkinchiji jahon urushi (keyingi o'rinnlarda Ikkinchiji jahon urushi deb ataladi) va boshqa urusnlar davrida harakatdagi armiya tarkibidagi harbiy qismilar, shtablar va muassasalarda xizmatni o'taganda, shuningdek O'zbekiston Respublikasini himoya qilishda yarananish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi «a» bandida va 28-moddasining «a» va «b» bandlarida nazarda tutilgan shartlar va normalarga ko'ra pensiya bilan ta'minlanishga haqli urush nogironlari hisoblanadilar.

Quyidagi nogironlar urush nogironlariga tenglashtiriladilar:

a) sobiq SSSR va O'zbekiston Respublikasi chegaralarini qo'shish paytida yarananish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar;

b) 1941 yilning 22 iyundan 1954 yilning 31 dekabrigacha sobiq SSSR hududida harakat qilgan hamda qiruvchi bat'alonlar, vzwodlar va xalqni himoya qiluvchi otryadlarda xizmat qilgan davrida yarananish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan shaxslar;

v) temir yo'llarning front yaqinidagi uchastkalarida ishlagan, mudofaa inshootlari, harbiy-dengiz bazalari, aerodromlar va boshqa harbiy ob'ektlar qurilishi ishlarida qatnashgan hamda Ikkinchiji jahon urushi davrida urush bo'layotgan joylarda yarananish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan xodimlar;

g) Ikkinchiji jahon urushi davrida partizan otryadlari va qo'shilmalari tarkibida yoki yashirin ishlarda bo'lgan davrida yarananish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan shaxslar;

d) harakatdagi armiya tarkibidagi ishlarda yarananish, kontuziya olish, mayiblanish va kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan yollangan tarkibdagi shaxslar;

e) Ikkinchiji jahon urushi davrida fashist kontslagerlarida (getto va zo'rlik bilan tutib turiladigan boshqa joylarda) bo'lgan davrda yarananish, kontuziya olish, mayiblanish va kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan shaxslar (tutqunlar, shu jumladan, bolalar);

j) tinchlik o'rnatuvchi kuchlar tarkibida qatnashish, shuningdek harbiy harakatlar ketayotgan mamlakatlarda baynalmilal burchlarini ado etish tufayli yarananish, kontuziya olish, mayiblanish yoki kasallanish tufayli nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari va milliy xavfsizlik xizmatining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar;

z) harbiy xizmatdagi vazifalarini (xizmat vazifalarini) bajarish paytida yarananish, kontuziya olish, mayiblanish va kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari va milliy xavfsizlik xizmatining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar;

i) o'quv mashg'ulotlari yoki tekshirish uchun yig'inlarga chaqirilgan va shu yig'inlarda o'z xizmat burchlarini bajarayotib yarananish, kontuziya olish, mayiblanish va kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan harbiy majburiyatli shaxslar.

<sup>54</sup> 1941-1945 yillardagi urush ishtirokchilari va nogironlariga tenglashtirilgan shaxslar Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida nizomga (VMning 8.09.2011 yildagi 252-son qaroriga 1-ilova) 1 va 2-ilovalarda ko'rsatilgan.

**Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi  
mumkin bo'lgan faoliyat turlari  
RO'YXATI<sup>ss</sup>**

T/r	Faoliyat turining nomi
I.	<p style="text-align: center;"><b>Chakana savdo:</b></p> <p>1. Oziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qilish (o'simlik moyi, alkogolli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini sotishdan tashqari)</p> <p>2. Dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chakana sotish</p>
3.	Nooziq-ovqat tovarlarini chakana sotish (neft mahsulotlarining barcha turlarini, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar yoxud bunday materiallar qo'llanilgan buyumlarni, audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlarni, yangi import avtomobillar va farmatsevtika tovarlarini sotish bundan mustasno)
3-1.	Gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bilan chakana savdo qilish
4.	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarini chakana sotish (turg'un shoxobchalarda aralash savdo qilish)
5.	Tovarlarни import qilish va chakana sotish*
II.	<b>Qonun hujjatlarida belgilangan ro'yxat bo'yicha hunarmandchilik faoliyati.</b>
III.	<b>Maishiy xizmatlar, II bo'limga nazarda tutilganlaridan tashqari:</b>
6.	Sartaroshlik xizmatlari, manikyr, pedikyr, kosmetolog xizmatlari va shunga o'xshash boshqa xizmatlar
7.	Kir yuvish, quruq va kimyoiy tozalashni tashkil etish, shuningdek dazmollash xizmatlari
8.	Gilam va gilam buyumlarini ta'mirlash va tozalash
9.	Tikuv, mo'yna, charm va trikotaj buyumlarni, bosh kiyimlarni, to'qimachilik galantereyasidan tikilgan buyumlarni ta'mirlash va tikish, shu jumladan deraza va eshik pardalari tikish, trikotaj buyumlarni to'qish
10.	Hayvonlar terilari, mo'yna, to'qimachilik, charm buyumlar va boshqa buyumlarni oshlash va bo'yash
11.	Yakka buyurtmalar bo'yicha poyabzal tayyorlash va tikish, poyabzalni ta'mirlash, bo'yash va tozalash
12.	Attorlik buyumlarini tayyorlash va ta'mirlash
13.	Bijuteriya va jevaklarni tayyorlash va ta'mirlash
14.	Kalitlar tayyorlash
15.	Metall va tunuka buyumlar tayyorlash va ta'mirlash
16.	Motam gulchambarlari, sun'iy ranglar, girlandy tayyorlash
17.	To'siqlar, haykallar, metalldan yasalgan gulchambarlarni tayyorlash va ta'mirlash
18.	Yog'ochdan (mebeldan tashqari) va alyuminiy (plastik) profildan eshik, deraza va boshqa buyumlar tayyorlash.
19.	Inventarni (xo'jalik, sport, baliqchilik va hokazo inventar) ta'mirlash va tayyorlash
20.	Kesuvchi buyumlar va asboblarini charxlash
21.	Mebelni yig'ish va ta'mirlash
22.	Musiqa asboblarini ta'mirlash va sozlash
23.	Yakka buyurtma bo'yicha qimmatbaho metallardan va toshlardan zargarlik buyumlarini yasash, shuningdek zargarlik buyumlarini ta'mirlash
24.	Optika, soatlarni ta'mirlash va o'ymakorlik ishlari
25.	Radioelektron apparatlar, maishiy mashinalar, maishiy priborlar, ofis mashinalari va

<sup>ss</sup> Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan.

	hisoblash texnikasini ta'mirlash, o'rnatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish
26.	Transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, shu jumladan, transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish xizmatlarining boshqa turlari (akustik tizimlar va qo'riqlash signallarini ta'mirlash va o'rnatish, yuvish, tekislash, kuzovga himoya va bezak qoplamlari qoplash, salonnini tozalash va shunga o'xshash boshqa xizmatlar)
27.	Sanitariya-texnika xizmatlari va payvandlash ishlari
28.	Shisha va oynalarini qirqish, shishaga badiiy ishlov berish
29.	Binolarga oyna o'rnatish xizmatlari
30.	Jamoat hojatxonalarini xizmatlari
31.	Hammom va sauna xizmatlari
32.	Turarjoylarni yig'ishtirish xizmatlari
33.	Hovlilar va bog'larga qarash xizmatlari, shuningdek ko'kalamzorlashtirish ishlari
34.	Bog'lar, polizlar va dov-daraxtlarni zararkunandalar va kasallikkaldan himoya qilish
35.	Videoga olish va fotosuratga olish xizmatlari
35-1.	Xo'jalik,mollari va uy-ro'zg'or buyumlarini (mebel, idish-tovoqlar, xo'jalik, sport, baliqchilik anjomlari, maishiy texnika, priborlar va boshqalarni) ijaraga berish
IV.	<b>Faoliyatning boshqa turlari:</b>
36.	Milliy shirinliklar, non-bulka va qandolatchilik mahsulotlari, pop-korn, frezerda muzqaymoq, salatlar va tuzlamalar tayyorlash va sotish, shuningdek -uy sharoitlarida yoki mahalliy davlat hokimiyyati organlarining qarori bilan ajratilgan maxsus joylarda o'tirish joylari tashkil etmasdan donalab sotiladigan taomlarning ayrim turlarini tayyorlash
37.	O'Ichov vositalari tayyorlash va ularni prokatga berish
38.	Qurilish, ta'mirlash va bezash bo'yicha alohida ishlarni bajarish (kapital qurilish, qurilish-montaj ishlari bo'yicha yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatishdan tashqari)
39.	Repetitorlik xizmatlari
40.	Tarjima xizmatlari, tahrir xizmatlari
41.	Bolalarning o'yinchoq avtomatlari bilan bog'liq xizmatlar
42.	Axborotning kriptografik himoyasi vositalarini loyihalash, yaratish, ishlab chiqarish, sotish, ta'mirlash va ulardan foydalanish
43.	Dizayn bo'yicha xizmatlar (grafik, interer, mebel va hokazolar), shuningdek chizmachilik-grafika ishlari, shuningdek rassomlik san'ati
44.	Kompyuter dasturlarini ishlab chiqish xizmatlari, kompyuter o'yinlarini tashkil etish, shuningdek kompyuter yordamida matnlarni terish va bosib chiqarish xizmatlari, matndan nusxa olish va ko'paytirish bilan bog'liq xizmatlar
45.	Tashrif qog'ozlari va taklifnomalarini tayyorlash va bosish
46.	Muqovalash ishlari
47.	Reklamani ishlab chiqish va joylashtirish
48.	Sug'urta agentlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar
49.	To'ylar, yubileylar va boshqa tantanalarda kontsert xizmati ko'rsatish
50.	O'zbekiston Respublikasida va uning tashqarisida gastrol-kontsert faoliyatini amalga oshirish
51.	Tantanali marosimlarni tashkil etish xizmatlari (to'y, yubiley, tug'ilgan kun va hokazolar)
52.	Ko'yak va kostyumlarni, shuningdek ularga aksessuarlarni prokatga berish
53.	Ijtimoiy xizmatlar (bolalalar, bemorlar va keksa kishilarga qarash xizmatlari)
54.	Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati (sheyping, aerobika, sport sektsiyalari, salomatlik guruhlari), trenerlik xizmatlari
55.	To'garaklar tashkil etish va yuritish

56.	Tulumni shishirish xizmatlari (taksidermik ishlar)
57.	Tegirmonalarda domni maydalash (tozalash) xizmatlari
58.	Mol so'yish xizmatlari
59.	Uy hayvonlariga qarash xizmatlari
60.	Veterinariya faoliyat
61.	Yuklarni avtomobil transportida tashish
62.	Yo'lovchilar va yuklarni daryo transportida tashish
63.	O'simlik, hayvonlar va minerallardan tayyortangan dorivor xom ashyni yetishtirish, yig'ishtirish, tayyorlash, qadoqlash va ulgurji sotish
64.	Gullar va dekorativ daraxtlar yetishtirish va sotish
65.	Akvarium baliqlari, dekorativ qushlar va boshqa hayvontarni ko'paytirish va sotish
66.	Shisha idishlar va ikkilamchi xom ashyni qabul qilish xizmatlari (metall chiqindilaridan tashqari)
67.	Rietorlik faoliyat
68.	Jismoniy va yuridik shaxslarga maxsus texnikadan (traktorlar, avtokranlar, buldozerlar, ekskavatorlar va boshqalardan) foydalangan holda xizmatlari ko'rsatish
69.	Ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va texnologik ishlar uchun pudrat shartnomasi bo'yicha ishlarni bajarish
70.	Matritsali printerlar va alfavit-raqam yozadigan qurilmalar uchun bo'yovchi tasmalarni tayyorlash va qayta ishslash
71.	Qog'ozlar va skorossivatellar uchun konvertlar, papkalar tayyorlash
72.	Telekommunikatsiyalar operatorlariga, provayderlariga vositachilik xizmatlari ko'rsatish (salohiyati abonentlarni izlash, abonentlar-yoki xizmatlar ko'rsatuvchilar bilan abonentlik shartnomalari tuzish va ularga ma'lumot-axborot xizmati ko'rsatish, xizmat ko'rsatuvchilarning xizmati uchun to'lovlarni qabul qilish)
73.	Tashkilotlar uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari (xom sut, sabzavotlar, mevalar, asal, teri va mo'yna) tayyorlash bo'yicha xizmatlar
74.	Paxta (ilgari iste'molda bo'lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari

\* ) Tovarlarining turlari tumanlar (shaharlar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik sub'ektilarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari tomonidan beriladigan chakana savdoni amalga oshirish huquqi uchun berilgan ruxsatnomada, shuningdek davlat soliq xizmati organlari tomonidan berilgan tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni olib keluvchi yuridik shaxs bo'lmasdan tashkil etilgan yakka tadbirkorning ro'yxatdan o'tkazish (ruxsat berish) tartibotlari varaqasida ko'rsatiladi.

**Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining  
RO'YXATI<sup>56</sup>**

T/r	Faoliyat turining nomi
1.	Quroq-yarog' va uning o'q-dorilarini, himoyalish vositalarini, harbiy texnikani, ularning ehtiyyot qismlari, butlovchi qismlari va priborlarini, agar ulardan boshqa tarmoqlarda foydalanimasa, shuningdek ularni ishlab chiqarish uchun maxsus materiallarni va maxsus asbob-uskunani ishlab chiqish, ishlab chiqarish, ta'mirlash va realizatsiya qilish.
2.	Portlovchi va zaharli moddalarini, ularni qo'llagan holda materiallar va mahsulotlarni, shuningdek portlatish vositalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish.
3.	Bo'shayotgan harbiy-texnika vositalarini tugatish (yo'q qilib tashlash, utilizatsiya qilish, ko'mib tashlash) va qayta ishlash.
4.	OV va sportga mo'ljallangan o'qotar qurolni hamda uning o'q-dorilarini, shuningdek sovuq kurolni (pichoqlarning milliy turlaridan tashqari) ishlab chiqarish, ta'mirlash va realizatsiya qilish.
5.	Yong'inga qarshi avtomatika vositalarini, qo'riqlash, yong'indan darak beruvchi va yong'indan saqlash signalizatsiyalarini loyihalashtirish, montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish.
6.	Ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalasi sohasidagi faoliyat.
7.	Axborotning kriptografik himoya vositalarini loyihalashtirish, ishlab chiqish, ishlab chiqarish, realizatsiya qilish, ta'mirlash va ulardan foydalanish.
8.	Magistral gaz quvurlari, neft quvurlari va neft mahsulotlari quvurlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularni ta'mirlash.
9.	Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib kirish (olib chiqish), saqlash, realizatsiya qilish (berish), taqsimlash, tashish, ishlab chiqish va ishlab chiqarish, tayyorlash, yo'q qilib tashlash, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlardan ilmiy va o'quv maqsadlarida, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun, shu jumladan, tibbiyotda va veterinariyada foydalanish, shuningdek tarkibida giyohvand moddalari bo'lgan o'simliklarni yetishtirish.
10.	Veterinariya faoliyat.
11.	Tibbiy faoliyat.
12.	Farmatsevtika faoliyati.
13.	Ko'priklar va tonnellarni loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularni ta'mirlash.
14.	Mudofaa ob'ektlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularni ta'mirlash.
15.	Xavfi yuqori bo'lgan ob'ektlarni va potentsial xavfli ishlab chiqarishlarni loyihalashtirish, qurish hamda ulardan foydalanish.
16.	Arxitektura-shaharsozlik hujjatlarni ishlab chiqish.
17.	Qurilish loyihalarining ekspertizasini o'tkazish.
18.	Balandliklarda sanoat alpinizmi usullari orqali ta'mirlash, qurilish-montaj ishlarini bajarish.
19.	Mahalliy va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha temir yo'l transportida yo'lovchilarni hamda yuklarni tashish.
20.	Aeroportlardagi tashish ishlarini bajaruvchi havo kemalariga xizmat ko'rsatish faoliyati.
21.	Avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlارaro va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish.

<sup>56</sup> Олий Мажлиснинг 2001 йил 12 майдаги 222-II-сон қарори билан тасдиқланган

22.	Telekommunikatsiyalar tarmoqlarini loyihalashtirish.
23.	Telekommunikatsiyalar tarmoqlarini qurish.
24.	Telekommunikatsiyalar tarmoqlaridan foydalanish.
25.	Telekommunikatsiyalar tarmoqlariga xizmat ko'rsatish.
26.	Neft, gaz va gaz kondensatini qazib chiqarish, qayta ishlash hamda realizatsiya qilish.
27.	Qimmatbaho va nodir metallarni, qimmatbaho toshlarni qazib olish.
28.	Neft mahsulotlarini (avtobenzin, aviabenzin, ekstrabenzin, bitumi, shuningdek texnik moylar va moylash materiallarini) realizatsiya qilish, bundan zavodda idishlarga qadoqlanganlari mustasno.
29.	Etil spirti va alkogollni mahsulot ishlab chiqarish.
30.	Bank faoliyat.
31.	Banklar, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan chet el valyutasida operatsiyalar o'tkazish.
32.	Qimmatli qog'ozlar blankalarini ishlab chiqarish.
33.	Qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat.
34.	Baholash faoliyat.
35.	Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyat.
36.	Auditorlik faoliyat.
37.	Lombardlar faoliyat.
38.	Lotereyalar tashkil etish.
39.	Advokatlik faoliyat.
40.	Bojxona omborini ta'sis etish.
41.	Bojsiz savdo do'konini ta'sis etish.
42.	Bojxona rejimida omborxonasi ta'sis etish - «erkin omborxona».
43.	Geodeziya va kartografiya faoliyat.
44.	Noshirlik faoliyat.
45.	Nodavlat ta'lif muassasalarining faoliyat.
46.	Diniy ta'lif muassasalarining faoliyat.
47.	Audiovizual asarlari tayyorlash, dublyaj qilish va ekranda namoyish etish.
48.	Audiovizual asarlari, fonogrammalarini va EHM uchun yaratilgan dasturlarni takrorlash, realizatsiya qilish, prokatga berish.
49.	Fonogrammalarini tayyorlash.
50.	O'zbekiston Respublikasida va undan tashqarida gastrol-kontsert faoliyatini amalga oshirish.
51.	To'y, yubiley va boshqa tantanalarda kontsert xizmati ko'rsatish.
52.	Birja faoliyat.
53.	Turizm faoliyat.
54.	Ulgurji savdo.
55.	Tamaki xom ashysini fermentlash va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish.
56.	Mikrokredit tashkilotlari faoliyat.
57.	Pirotexnika buyumlarini (harbiy maqsaddagi mahsulotlardan tashqari) ishlab chiqish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash, realizatsiya qilish, ulardan foydalanish, ularni yo'q qilish va utilizatsiya qilish.
58.	Rietorlik faoliyat.
59.	Kredit byurolari faoliyat.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2008 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. - Toshkent: Adolat, 2008 y.
3. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni // Xalq so'zi, 29 avgust 1997 y.
4. O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida»gi Qonuni, 2000 yil 14 dekabr // Soliqlar va bojxona xabarları. 2001 y., 2-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-3620-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1245-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1449-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1675-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1887-sonli qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-2099-sonli qarori.
11. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-Toshkent: O'zbekiston, 1997. - 325-b.
12. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - Toshkent: O'zbekiston, 1998.-682-b.
13. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.- Toshkent: O'zbekiston, 2000. - 352-b.

14. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz // Xalq so'zi, 2001 y., 17 fevral.

15. Karimov I.A. Jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirish - taraqqiyot garovi // Xalq so'zi, 2001 y., 18 iyul.

16. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik - Toshkent: O'zbekiston, 2005 y.

17. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. - Toshkent: O'zbekiston, 2009. - 56-b.

18. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - Toshkent: O'zbekiston, 2011. - 440-b.

19. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqaroli jamiyatni barpo etish - ustivor maqsadimiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2010 yil 28 yanvar.

20. Asosiy vazifamiz - vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2009 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2010 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2010 yil 30 yanvar.

21. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2011 yil 22 yanvar.

22. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2012 yil 20 yanvar.

23. Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2013 yil 19 yanvar.

24. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil

davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2013 yil 19 yanvar.

25. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. - Toshkent: Sharq. 2009. -400-b.

26. Jo'raev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Norma. 2009. -183-b.

27. Mutualov A., Mutualova D. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Iqtisodiyot. 2012. -80-b.

28. Abduraxmonov O. Xorijiy mamlakatlarda soliq tizimlari. O'quv qo'llanmasi. - Toshkent: TDIU nashr., 2003.

29. Vahobov A., Sirojiddinova Z. Gosudarstvenniy budget. - Tashkent: Iqtisod-moliya, 2007.- 454 -s.

30. Zavalishina I. A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. - Toshkent: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2005. -544-b.

31. Toshmurodov T. Soliqlar / Izohli lug'at. - Toshkent: Mehnat, 2003.-184-b.

32. Yaxyoev K.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. - 247-b.

33. Temur tuzuklari. - Toshkent: Cho'lpom, 1991. - 98-b.

34. «Bozor, pul va kredit» jurnali.

35. «Soliq to'lovchining jurnali».

36. «Soliq solish va buxgalteriya hisobi» jurnali.

37. «Soliqlar va bojxona xabarları» moliyaviy-iqtisodiy gazetasi.

38. Internet saytlari:

<http://www.soliq.uz>

<http://www.mf.uz>

<http://www.tfi.uz>

<http://www.gov.uz>

<http://www.lex.uz>

<http://www.norma.uz>

<http://www.zivonet.uz>

## MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMI .....	5
1.1. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI.....	5
«Soliqlar va soliqqa tortish» maxsus kursini o'qitishning zaruriyati, maqsaqi, predmeti va vazifalari .....	5
Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va zarurligi .....	6
Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar elementlari.....	9
Soliqlarning funksiyalari va vazifalari .....	12
Soliqqa tortish tamoyillari.....	16
1.2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AMALDA BO'LGAN SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR.....	20
O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning rivojlanish bosqichlari.....	20
Soliq tizimini guruhlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	22
O'zbekiston Respublikasasi soliq siyosati va uning asosiy yo'nalishlari .....	26
Soliq tizimining huquqiy asoslari .....	28
Soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlari .....	29
II BOB. YURIDIK VA JISMONIY ShAXSLARNI SOLIQQA TORTISH.....	41
2.1. YURIDIK ShAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG'I .....	41
Foyda solig'inining joriy qilinishi, iqtisodiy mohiyati va ahamiyati .....	41
Soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza .....	41
Jami daromadlar tarkibi, jami daromaddan chegirmalar .....	42
Soliq imtiyozlari va stavkalari .....	46
Soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va soliq to'lash tartibi ..	50
2.2. JISMONIY ShAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I.....	52
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining joriy etilishi, soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza .....	52
Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari tarkibi .....	53
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar .....	56
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari .....	64
Soliqni hisoblab chiqarish va ushlab qolish tartibi .....	67
Jismoniy shaxslarning daromadlariga deklaratsiya asosida soliq solish tartibi ..	70
2.3. AKSIZ SOLIG'I .....	75
Aksiz solig'inining iqtisodiy mohiyati va soliq to'lovchilar .....	75
Aksiz solig'i ob'yekti va soliq solinadigan baza .....	75
Aksiz solig'i stavkalari .....	77
Aksiz soligini hisoblash, hisob-kitoblarni taqdim etish va soliq to'lash tartibi ..	91
2.4. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I .....	93
Soliqning iqtisodiy mohiyati va uning joriy qilinishi .....	93
Soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliqqa tortiladigan baza .....	94
Soliq bo'yicha imtiyozlar va soliq stavkalari .....	96
Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va soliq to'lash tartibi .....	102

<b>2.5. YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILAR UChUN SOLIQLAR VA MAXSUS TO'LOVLAR .....</b>	<b>104</b>
Yer qa'ridan foydalanganda soliq solish zarurligi .....	104
Soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza .....	104
Soliq stavkalari .....	107
Soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi.....	111
<b>2.6. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UChUN SOLIQ .....</b>	<b>113</b>
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning joriy etilishi. Soliq to'lovchilar .....	113
Soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza .....	113
Soliq imtiyozlari va stavkalari.....	115
Soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi.....	117
<b>2.7. YURIDIK ShAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ .....</b>	<b>119</b>
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati .....	119
Soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti, soliq solinadigan baza va mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatini aniqlash tartibi.....	120
Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i imtiyozlari va stavkalari.....	122
Soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi.....	125
<b>2.8. JISMONIY ShAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ .....</b>	<b>128</b>
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza .....	128
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq imtiyozlari va stavkalari.	128
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....	132
<b>2.9. YURIDIK ShAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I .....</b>	<b>134</b>
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining iqtisodiy mohiyati. Soliq to'lovchilar .....	134
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i ob'yekti, soliq solinadigan baza ..	135
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha imtiyozlari va soliq stavkalari .....	135
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi .....	148
<b>2.10. JISMONIY ShAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I .....</b>	<b>150</b>
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza .....	150
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i imtiyozlari va stavkalari .....	151
Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi ..	152
<b>2.11. OBODONLASHTIRISH VA IJTIMOY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH SOLIG'i .....</b>	<b>154</b>
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlanТИrish solig'i to'lovchilar, soliq solish ob'yekti, soliq solinadigan baza, soliq imtiyozlari va stavkalari ..	154
Soliqni hisoblab chiqarish, hisobotlarni taqdim etish va to'lash tartibi .....	155

2.12. TRANSPORT VOSITALARIGA BENZIN, DIZEL YOQILG'ISI VA GAZ ISHLATGANLIK UCHUN OLINADIGAN SOLIQ.....	156
Soliq to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza.....	156
Soliq stavkasi, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliq to'lash tartibi.....	157
2.13. AYRIM TURDAGI TOVARLAR BILAN CHAKANA SAVDO QILISH VA AYRIM TURDAGI XIZMATLARNI KO'RSATISH HUQUQI UCHUN YIG'IM.....	161
III BOB. DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARIGA MAJBURIY TO'LOVLAR .....	163
3.1. YAGONA IJTIMOIY TO'LOV VA BUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG'ARMASIGA FUQAROLARNING SUG 'URTA BADALLARI .....	163
Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarining to'lovchilari, ob'yekti, bazasi hamda chegirmalar.....	163
Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarining stavkalari, ularni hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi.....	164
Ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun sug'urta badallarini hisoblab chiqarish va to'lashning o'ziga xos xususiyatlari.....	170
3.2. BUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG'ARMASIGA MAJBURIY AJRATMALAR .....	172
Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratma to'lovchilar, soliq solish ob'yekti, bazasi va stavkalari.....	172
Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarini hisoblab chiqarish, hisob-kitobini taqdim etish va to'lash tartibi.....	174
3.3. RESPUBLIKA YO'L JAMG'ARMASIGA MAJBURIY TO'LOVLAR....	176
Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lovchilari, soliq solish ob'yekti, bazasi va stavkalari.....	176
Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarini hisoblash va to'lash tartibi.....	178
Yo'l jamg'armasiga yig'imlarni to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza.....	179
Imtiyozlar, yig'imlar stavkasi, yig'imlarni hisoblash va to'lash tartibi.....	180
3.4. BUDJETDAN TASHQARI UMUMTA'LIM MAKTABLARI, KASB-HUNAR KOLLEJLARI, AKADEMİK LITSEYLAR VA TIBBIYOT MUASSASALARINI REKONSTRUKSIYA QILISH, MUKAMMAL TA'MIRLASH VA JIHOZLASH JAMG'ARMASIGA MAJBURIY AJRATMALAR .....	184
Budjetdan tashqari umumta'lim maktabları, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarını rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmani to'lovchilar.....	184
Majburiy ajratmaning soliq solish ob'yekti, soliq solinadigan baza, stavkasi, hisoblash va to'lash tartibi.....	185
IV BOB. SOLIQQA TORTISHNING SODDALASHIRILGAN TARTIBI...189	
4.1.YAGONA SOLIQ TO'LOVI.....	189

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini soliq amaliyotiga tatbiq etilishi, uning iqtisodiy mohiyati .....	189
Yagona soliq to'lovi, uning to'lovchilar va to'lovchilar tarkibiga kiritish mezoni.. .....	191
Soliq solish ob'yekti, yalpi tushum tarkibi va soliq solinadigan baza.....	195
Soliq imtiyozlari va stavkalari.....	198
Soliqni hisoblab chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va uni to'lash tartibi. ....	202
<b>4.2. YAGONA YER SOLIG'I .....</b>	<b>205</b>
Yagona yer solig'inining joriy etilishi va ahamiyatি .....	205
Yagona yer solig'i to'lovchilar, soliq solish ob'yekti va soliq solinadigan baza. ....	205
Yagona yer solig'i imtiyozlari va stavkasi. ....	206
Soliqni hisob chiqarish, hisob-kitoblarni taqdim etish va to'lash tartibi. ....	208
<b>4.3. QAT'iy BELGILANGAN SOLIQ .....</b>	<b>209</b>
Qat'iy belgilangan soliqning joriy etilishi va soliq to'lovchilar. ....	209
Yuridik va jismoniy shaxslardan tadbirdorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq. ....	210
Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirdorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq. ....	212
<b>SOLIQQA OID TUSHUNChALAR.....</b>	<b>217</b>
ILOVALAR.....	222
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	229
MUNDARIJA:.....	232

M. M. RABIBOV  
R. S. RABIBOV  
D. S. RABIBOV  
S. S. RABIBOV  
D. S. RABIBOV

Abtosh abiturasymmod 16.06.1999  
Jahon osoni av. Respublikasi  
Qo'shijanti - 04.06.1999. 02.06.1999. 03.06.1999.

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**U. TO'LAKOV**

**O. MAHMUDOV**

**SOLIQQA TORTISH ASOSLARI  
(o'quv qo'llanma)**

Muharrir:

A.Absamatov

Texnik muharrir:

J.Shaymatov

Musahhih:

M.Begimqulova

Terishga berildi 02.01.2014yilda  
Bosishga ruxsat etildi 09.01.2014 yilda

Bichimi 30x42 ¼

Shartli bosma tabog'i 14,8

Buyurtma №98 Adadi 200

“Poligraf –Nashr” MCHJ kompyuterida terildi,  
sahifalandi va chop etildi  
Termiz shahri F.Xo'jayev ko'chasi, 30-uy.

